Tarixiy drama jamiyat taraqqiyotidagi turli o'zgarishlarga, tub burilishlarga o'ziga xos munosabat bildiradi olishi, ijtimoiy hayotdagi voqealarga intellektual ongning fikrini, qarashini yetkazishda muhim vosita bo'lganligi uchun ham ko'pincha katta qarshiliklarga uchragan [4.9-b.]. Zero, tarixiy mavzudagi musiqali dramalar teatr san'ati taraqqiyotining deyarli barcha davrlarida alohida dolzarblilik kasb etib, rejissura va aktyorlar san'atidagi muhim estetik tamoyillarni ifodalovchi vosita bo'lib kelgan. Uning rivojlanish tamoyillari va sahnaviy talqinlari borasida maxsus o'rganilgan ilmiy tadqiqot ishlar salmog'i ham ko'p emas. Shu jihatdan mazkur mavzu o'zining dolzarbligini oshiradi.

Tarixiy dramalar o'zining har tomonlama murakkab xususiyatga egaligi bilan qimmatlidir. Dramaturgning tarixiy drama yaratishda tub maqsadi tarixni, tarixiy voqealarni shunchaki yoritish emas, balki ularga davrning ilg'or yo'nalishlari, talablari nuqtayi nazardan yondashib, zamonaviy masalalarni hal etishga ko'maklashuvchi jihatlar va g'oyalarni topishga harakat qilishdir. Shuningdek, tarixiy mavzudagi spektakllar o'tmishdagi eng muhim voqealarni aks ettirib, tarixiy jarayonni harakatga keltiruvchi kuchlarni gavdalandiradi.

Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatri sahnasida Mustaqillik yillarida "Nodirabegim" (T.To'la asari, F.Olimov musiqasi), "Har kimki vafo qilsa" (H.Muhammad asari, A.Ismoilov, S.Hayitboyev, M.Otajonovlar musi-

qasi), "Na malakman, na farishta" (N.Qobilov asari, F.Olimov musiqasi), "Boburshoh" (Xurshid Davron asari, B.Lutfullayev musiqasi), "To'maris" (X.Xursandov asari, M.Bafoyev musiqasi) kabi tarixiy mavzudagi spektakllar sahnalashtirildi. Milliy ruhda yaratilgan mazkur sahna asarlari teatrning haqiqiy tomoshabini uchun ajoyib tuhfa bo'ldi. Tarixiy mavzudagi spektakllarda milliy ruh, kechinma, lirik ohangdorlik sezilib turgan musiqiy chiqishlar, aktyorlik san'atidagi yutuqlar bilan e'tiborli bo'ldi. Shuningdek, bu spektakllarda tarixiy shaxslar, davrning g'oyasini o'z faoliyatida yorqin gavdalandirgan ulug' kishilar, davlat arboblari, lashkarboshilar hayoti va faoliyati o'z aksini topdi.

Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatrida 2003-yilda mumtoz asar premyera qilindi. Bu O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, rejissyor Ahad Farmonov tomonidan dramaturg Nasrullo Qobilning "Na malakman, na farishta" asari asosida sahnalashtirilgan "Mashrab" spektakli edi. Rejissyor Ahad Farmonov mazkur teatrdan uzoq yillardan beri ishlab, o'nlab asarlarni sahnalashtirgan. Ularning aksari komediya janridagi tomoshalardir. Shuning uchun "Na malakman, na farishta"ni rejissyor ijodiy faoliyatida alohida hodisa bo'ldi, deyish mumkin. O'zbekiston xalq artisti Zulayho Boyxonova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Mirza Azizov, Boir Xolmirzayev, Hakimjon Nosirov, aktyorlar Abdug'ani Ro'ziyev, Tursunboy Pirjonov, Gulchehra Nosirova, Dilmurod Uzoqov, Zilola



Yovqochova, Murod To'raqul rollarni mahorat bilan ijro etdilar.

Spektakl o'zbek klassik adabiyotining ulug' vakillaridan biri, shoir, tasavvuf olimi Boborahim Mashrab hayotiga bag'ishlangan. Allomaning hayoti, ijod yo'li haqida ma'lumotlar juda kam. U haqida XVIII–XIX asrlarda tuzilgan tasavvufiy yo'nalishdagi asarlarda aytib o'tilgan. Ularda keltirilgan ma'lumotlar ham bir-birini inkor etadi. Faqat "Devona Mashrab", "Eshon Mashrab", "Shoh Mashrab" nomlari ostida xalq orasida qo'lyozma va toshbosma shaklidagi manbalarda shoirning hayot yo'li, ijodi haqida ham ayrim ma'lumotlar uchraydi. Uning fojiali o'limi sabablari haqida manbalarda turlicha mulohazalar keltirilgan.

Mashrab adolatsizlikka, zulmkorlikka, qabohatga qarshi turuvchi, munofiq amaldor-u, dindorlarni ustidan kuladi. Mashrab ijodida faqat Allohningina tan olish, yakka ungagina chin muhabbat qo'yish va uning vasliga talpinish jarayonida ba'zi g'aliz harakatlar qiladi. So'fiy adabiyotda asrlar davomida qaror topgan ramzlar, ya'ni "yor", "jonona", "may", "visol" kabi tushuncha va iboralardan ishlatadi.

Pyesaning "Na malakman, na farishta" deb nomlanishi ham bejiz emas. Chunki Mashrabning hayoti darbadarlikda, musofirlikda o'tadi. Uni eshitgan xalq xursand va quvonch bilan kutib olsa, amaldorlar, hokimlar, riyokor ruhoniylar sovuq qarshi oladi. Mashrabdan balodan qochganday qochadilar. Shoirning fojiaiyiligi hozirgacha ko'pchilik ijodkorlarda qiziqish uyg'otmoqda.

"Na malakman, na farishta" asari Mashrabning dorni ko'rib kelishi, bu dor unga atalganligini bilishi bilan boshlanadi. Asar aynan mana shu Jallod va Mashrab sahnasini yozishdan boshlanadi. Bu badiiy mushohada asaridir. "Mulla Vali o'g'li Boborahim Mashrab tarixiy shaxs. Namanganning Bo'zchi degan joyiga borib, u kishining mahallasida bo'lganman. Soy bo'yida ekan. Madrasaga kirdim. U yerdagi mullalardan so'radim. U yerda Mashrabning ustoz Mullabozor Oxun hazratlarining qabri bor. Aslida manbalarda Mashrab Andijonda tug'ilib, keyinchalik Naman-ganga kelib yashagan deyilgan", – deb yozadi asar muallifi [1].

"Tarixiy shaxslar haqida asar yozilar ekan yoki sahnada tarixiy shaxs talqin qilinar ekan, yozuvchi va aktyor yelkasida ulkan mas'uliyat turadi. Men ham ayni asarni yozishdan oldin vujudimda iliqlik sezganman. Shundan keyin monologlar o'zidan-o'zi kela boshladi. Mashrab 1711-yilda qatl qilingan. Uni bir manbada: 71 yoshda edi, deyilsa boshqa bir manbada: 54 yoshda edi, deyiladi. Shu narsa meni o'ylantirgan. Asarimda Mashrabning yoshi nechada bo'ladi, degan savol qiynagan. Agar asar sahnalashtirilsa, aktyorga 71 yoshli Mashrabdan ko'ra 54 yoshli Mashrabni ijro etish

qulayroq, deya uni 54 yoshda tasvirladim"[1], – deydi suhbatda ustoz Nasrullo Qobil. Shu o'rinda asardan monolog keltirishni o'rinni bildik:

**Ellik to'rt yil zamin bag'rida,
"Allohu akbar!" deb yashadim qasddan.
Jonimga farog'at topmay yig'ladim,
Shamolda to'zg'idim bamisli barham.
Riyozat yo'liga urdim o'zimni,
Allohning jamolin undan izladim.
Tangrim qalbimga solgan so'zini,
Tilimga ko'chirdim rostin so'zladim.
Xonavayron bo'lgan ojiz jismimda,
Yo'q edi hasad, g'iybat, xiyonat.
Telba deb ortimdan malomat qilgan,
Zohidlar zulmiga ayladim toqat,
Chidadi, chidayman, toki qiyomat.**

Muallif asarni qirq kun ichida yozib tugatdi. Mashrabni teatrning ikki mahoratli aktyorlari Abdug'ani Ro'ziyev va Mirza Azizov ijro etdilar. Ustoz Nasrullo Qobilning aytishicha: "Ovoz nuqtayi nazaridan Mirza Azizovda chegaralangan bariton ovoz bo'lsa-da, ovozdagi shirali xrep quloqqa juda yoqimli eshitiladi. Aktyor rechitativdan foydalanadi. Ariyada ham kuylaydi, ham gapiradi. Bu murakkab texnikadir. Abdyg'ani Ro'ziyevda tenor ovoz bo'lib, u ariyalarni mukammal, maromiga yetkazib ijro etdi. Ikkovi ham talab darajasida yaxshi o'ynashgan. Lekin asarni sahnaga olib chiqishda Mirza ko'p jon kuydirgan. Asar yozilish jarayonini eshitgan Ma'ruf Otajonov: "Men Mahmudxonni o'ynayman, men uchun Mahmudxonni yozasan", deb shart qo'ydi. Hattoki, meni ko'rmasa, kafedraga kelib e'lon taxtasiga: "Bugun Mahmudxonning monologini eshitishim kerak edi", deb yozib ketar edi. Monolog yozsam, albatta, Jo'ra Mahmudov, Jo'ra Ortiqov, Bahodir Nazarovlarga ko'rsatar va fikrlarini olar edim" [1].

Ariyalar Mashrab g'azallaridan olingan. Faqat ikkita ariya Munisa va Ofoqoy monologlari muallif qalamiga mansub, xolos. Bir singil sifatida dard, sog'inch, anduhlarini bayon etayotgan Munisaning monologi orqali tomoshabin Mashrabning insoniy kechinmalari, fazilatlarini, hissiyotlarini chuqurroq anglaydi. Javobsiz deb o'ylagan muhabbatining girdobiga g'arq bo'layotgan Ofoqoyning monologi orqali esa, irodali va kuchli ayol timsoli gavdalanadi.

Mashrab – Mirza Azizov "holi parishoni"ni birov tushunishi mumkin bo'lmagan, nihoyatda murakkab shaxs. U go'yoki real hayotni, tiriklikni mensimay ruhan hamisha ilohiy, xayoliy dunyolarda yashaydigan inson. Uning devonaligi, sargashtaligi shundan [3.7-b.]. Nasrullo Qobilov o'z asarida komil inson darajasiga yetgan Mashrabning yashashdan maqsadini g'azallari tahlili orqali ochib bergan. Shuning uchun ham

asar biron-bir adabiy janrda belgilanmay, badiiy mushohada deb atalgan. Unda Mashrab ta'limoti *"...buyuklik oddiylilikda, har bir inson valiylik darajasiga ko'tarilishi va shu bilan birga oddiy inson sifatida qolishi mumkin"*, degan g'oyani ilgari suradi. Dramaturg Mahmudxon va Mashrabning suhbatiga asar g'oyasini singdiradi. Spektakl g'oyasi ayni sahnada namoyon bo'ladi.

Adabiy asarda Mashrabning hayot yo'li aniq va sodda til bilan ifodalangan. Unda mehr-oqibat, samimiylik kabi insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Bosh qahramon Mashrab ijodiy faoliyati davomida odamlar qalbida ma'naviy qashshoqlikka qarshi kurashadi. U ilohiy ishqqa intilishi orqali atrofidagilarni komillik sari boshlashga harakat qiladi. Biroq shoirning harakatlari din peshvolari tomonidan qoralanadi. Bu esa allomaning fojiali halokatiga sabab bo'ladi.

Pyesa bilan sahnaviy talqin o'rtasida anchagina farq bor, chunki buni dramaturg va rejissyor hamkorligining tabiiy ko'rinishi, deb qabul qilish kerak. Sahnada rejissyor farmonbardor. Uning ko'rimi, sahna va mizansahnalarni yechimi spektakl taqdirini belgilaydi. Shu ma'noda Ahad Farmonov ravon asarni ko'rish uchun jozibali tomoshaga aylantirgan. Ikki ijodkor, rejissyor va dramaturg hamkorlikda mushohada uchun asos, tomoshabinning ichki munosabatini shakllantirish uchun ma'naviy ozuqa bergan.

Spektaklda muvaffaqiyatli jihatlar, rejissyorning original topilmalari, sahna bezagidagi ramziy ma'nolar talaygina. Bu asarning yaxlit holdagi sahna talqinidan tortib, obrazlar, musiqa, ssenografiya, mizansahnalarni, aktyorlar tanlanishi va hokazolardagi mutanosiblikda yaqqol ko'zga tashlanadi. Rejissyor ko'p o'rinlarda shartli usullarga, ramziylikka urg'u beradi. Dramatik to'qnashuvlar, personajlar o'rtasidagi dialoglar, qahramonlar his-tuyg'ularini ifodalaniishi, voqealar rivojida so'z va qarama-qarshiliklarning aniqligi rejissyorga spektaklni sahnalashtirishda yordam berdi. Spektaklda salbiy qahramonlar falsafasi ham nihoyatda o'rinli va aniq ochilgan. Xususan, muallifning yondashuvini aniq tushungan Boir Xolmizayev, *"... o'z obrazining badiiy mohiyatini psixologik aniqlikda, mahorat bilan ochib beradi. Bu obrazni Boir Xolmizayevning ijodiy tarjimai holiday eng muvaffaqiyatli rollardan deyish mumkin"* [2.7-b.]. *"Pyesa jallod va shogird suhbatini bilan boshlansa, spektakl qalandarlar qo'shig'i bilan boshlanadi. Qalandarlar dunyo lazzatlaridan voz kechib, sargardonlik va mashaqqatlar evaziga Haqqa intilgan kishilardir"* [3.19-b.].

Birinchi sahna qalandarlar qo'shig'i bilan boshlanishi Mashrabning haq yo'lidagi komillikka, ma'rifatga chorlashlari namoyon bo'lganligi va o'zining orqasidan izdoshlarini (xor jamoasi

qalandar kiyimida) ergashtirganligi ko'rinadi. Ofoqoy ko'rinadigan birinchi sahnada *"Tushdi savdoyi muhabbat boshima"* ariyasini kuylar ekan, uning tanasidan go'yoki bir ruh raqqosa chiqib, ayolning hijron azoblarini yanada teranroq his qilishga yordam beradigan raqs ijro etadi. Bu ramziy topilma ayol qalbida kechayotgan ziddiyatli tuyg'ularning yaqqol ifodasi bo'lib, Ofoqoyning qalb tubida yotgan "meni" bosh ko'taradi. Raqqosa qiyofasida Mashrab ishqida yonayotgan sevgi asirasini ko'rish mumkin. Ofoqoy adolatli va o'zini suyguvchi Mahmudxonni hurmat qiladi, biroq qalbining tub-tubiga joylangan muhabbati Mashrabni ham hamisha xayolida tutadi. U qay bir ma'noda burch va muhabbat o'rtasida yuragi pora-pora bo'lib o'rtanayotgan ayol. Muallif Ofoqoyga bergan xarakteri Zulayho Boyxonovanning vokal imkoniyatida, tajribasida maromiga yetkazib ijro etilgan.

Asar g'oyasini aniq ifodalashda sahna bezaklarining, dekoratsiyaning hissasi katta. O'zbekiston san'at arbobi Baxtiyor To'rayevning "Mashrab" spektakli dekoratsiyasi ustida olib borgan izlanishlari besamar ketmadi. Uning uchburchak shaklida ishlagan ustunlarida uch xil ko'rinish ifodalangan. Voqea makonini ko'rsatishda foydalanilgan ustunlarning bir tomoni dashtni (ya'ni Mashrabning qalandarligini ko'rsatish uchun), ikkinchi tomoni saroyini, uchinchi tomoni esa Malikaning xosxonasini ko'rsatadi. Bunday ixcham va har tomonlama qulay bo'lgan dekoratsiya aktyorlarning sahnada bemalol harakat qilishlariga imkon beradi.

Kompozitor Farhod Olimov pyesa uchun kuy va ariyalar yozishda, shoir Mashrabning qalamiga mansub g'azallaridan foydalanganligi spektakl voqealari rivojini, personajlarning kechinmalarini ifodalovchi ariyalarga xorning jo'r bo'lishi spektakl ta'sirini yanada oshirgan. Kostyumlar personajlar xarakteriga va davrga mos tarzda tanlangan. Mashrabning qalandarlik libosida bo'z ko'ylak, janda va yamoq solingan kulohda ko'rinishi uning dunyo lazzatlaridan, bezaklaridan voz kechganligini bildiradi.

Spektakl so'ngida rejissyor topilmasi, Mashrab osilgandan keyin tanasidan uning ruhi chiqib ketish sahnasida chiroq ustalarining mahoratini ko'ramiz. Unda mayda chiroqlardan odam siymosi chizilib, ko'kka chiqayotgani tasvirlanadi. Mashrab va Mahmudxon sahnasi har ikki obrazni anglashga imkon beradigan g'oyat zarur sahna. Mazkur ko'rinishda Mahmud Qatag'on siymosi dramaturg talqinida ilmiy-tarixiy yondashuvlardagi johil, qattol hukmdor timsoliga qarshi shohlik, o'zini o'ragan muhit tazyiqi bilan ma'rifat, oddiy insoniy tuyg'ular to'qnashuvida chora izlayotgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.



Ish bor joyda kamchilik ham bo'ladi. Spektaklda Mashrabga karomatgo'y sifatida urg'u berib qo'yilgan. Asarda Mahmudxon "Isming nima?" deb so'raganida, "Analhaq! Xudoy!" deyish bilan Mashrab: *"Hammamiz Xudoning bandasimiz, shuningdek, men ham"*, demoqchi bo'lgan. Spektaklda ushbu so'zning ta'sir kuchini oshirish maqsadida, dekoratsiyalar qimirlatilgan. Bu bilan Mashrabni payg'ambarlar darajasiga ko'tarib qo'yilgan. Shuningdek, spektakl davomida uning temporitmi tushib, ko'tarilib turadi. Mashrab siymosini tasvirlashda ifoda vositalaridan unumli foydalanilmagan. Jonli orkestr kuyi orqali Mashrabning qalb tug'yonlarini berish asarning ruhini ko'targan bo'lar edi. Spektakl hanuz teatr repertuarida.

U bugun teatrning yosh aktyorlar jamoasi tomonidan ijro etilmoqda.

Nutq ustida ishlash, monolog va dialoglarni yodlash aktyorlarning eslash qobiliyatini rivojlantirishda, bilim saviyalarini oshirishda, tovushlarning musiqiyligini, jozibasini his qilishda, so'z boyligini oshirishda, voqeani tasavvur qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aktyor nutqi ustida ishlash jarayonida asosiy e'tiborni so'zlarning g'oyaviy mazmunini chuqur tahlil qilib, tushunib, o'rganib olishi, ijroda hissiyotlarni haqqoniy, hayotiy qilib ifodalashi, ovozi jaranglab, to'liqlanib, sodda va ishonarli chiqishi maqsadga muvofiqdir. Musiqali teatr aktyorlari ayni masalaga jiddiy yondashadi va e'tibor beradi. Shu jihatdan teatr aktyorlarining muvaffaqiyatini e'tirof etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asar muallifi, dramaturg N.Qobil bilan bo'lgan suhbatdan. 2021-y.
2. Rizayev Sh. "Badiiy mushohada va tarix haqiqati". "Teatr" jurnali, 2003-yil, 2-son, 7-bet.
3. O'zbek adabiyoti tarixi (Ma'ruza matni). 2001-y.19-b.
4. Rahmatullayeva D. Tarix va teatr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022-y. 9-b. *Namangan eliga doston bo'lgan betakror ovoz sohibi, o'z davrining mashhur hofizlaridan biri Hasan Sultonov.*

ИТАЛЬЯНСКИЙ НЕОРЕАЛИЗМ

АННОТАЦИЯ. С возникновением кино мир стал стремительно меняться. Начиная с немого кино, возникали новые жанры, звук, цвет, компьютерная графика и многое, что развивало фантазию и диалог со зрителем. В середине 20-го столетия ярко прозвучало итальянское кино, о чем писали кинокритики всего мира, обозначив это явление «Итальянский неореализм».

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: поэты-реалисты, киножурнал «Cinema», социально-экономические проблемы, непрофессиональные актеры, гран-при фестиваля, авторское кино, классика.

ANNOTATSIYA. Kino paydo bo'lishi bilan dunyo tez o'zgara boshladi. Ovozsi kinodan boshlab yangi janrlar, ovoz, rang, kompyuter grafikasi paydo bo'ldi va ko'p narsa tomoshabin bilan tasavvur va muloqotni rivojlantirdi. XX asrning o'rtalarida Italiya kinosi yorqin namoyon bo'ldi, chunki butun dunyoda kino tanqidchilar bu hodisani "Italyan neorealizmi" deb atashdi.

KALIT SO'ZLAR: realist shoirlar, "Cinema" kinojurnali, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, noprofessional aktyorlar, festival gran-прisi, muallif kinosi, klassika.

ANNOTATION. With the advent of cinema, the world began to change rapidly. Beginning with silent films, new genres emerged, sound, color, computer graphics and many other things that developed fantasy and dialogue with the viewer. In the middle of the 20th century, Italian cinema made its mark, which was written about by film critics all over the world, calling this phenomenon "Italian neorealism".

KEY WORDS: realist poets, Cinema magazine, socio-economic problems, non-professional actors, festival grand prix, art-house cinema, classics.

В послевоенном кинематографе сложилось течение под влиянием поэтов реалистов Марселя Карне и Жана Ренуара – достигшего своего расцвета с 1945 по 1955 год. Представителями этого течения были- Роберто Росселини, Лукино Висконти, Витторио де Сика, Джузеппе де Сантис, все они группировались вокруг киножурнала «Cinema». Первым фильмом неореализма принято считать «Рим открытый город» 1945 года Роберто Росселини.

Социально-экономические проблемы и послевоенная разруха не позволяли создавать кинокартины с большим бюджетом потому утвердили отказ от павильонных съемок в пользу натуральных. Культуролог Юрий Лотман отмечал, что итальянский неореализм был направлен против «театральной помпезности» (вестернов, киноопер и исторических эпосов) и стремился «к полному отождествлению искусства и вне художественной реальности».

Неореалисты не только использовали природное освещение, но и непрофессиональных актеров, вместо «звезд» сценарий перестал быть неуязвимым, а диалоги могли создаваться на съёмочной площадке, музыка и декорации были необязательными, а сами сюжеты максимально реалистичны, показывая жизнь низов без прикрас, как она есть.

Как писал социолог Зигфрид Кракауэр, «на




«Рим, открытый город», реж. Роберто Росселини (1945)

улицах творят историю, улицы сами просятся на экран».

Картину принято считать первым неореалистическим фильмом, она получила Гран-при Каннского фестиваля в 1946 и была номинирована на премию «Оскар» положив начало моде на неореализм и сделав Анну Маньяни звездой первой величины.

О чем же фильм? Он рассказывает о борьбе итальянского сопротивления против фашизма и немецкой оккупации в 1944 году. Джорджо Манфреди инженер, один из руководителей антифашистского движения, коммунист, за ним охотится гестапо. Его приютил друг Франческо и его невеста Пина (Анна Маньяни). Ему также помогает священник дон Пьетро, который должен на следующий день обвенчать Франческо и беременную Пину.



«Похитители велосипедов», реж. Витторио Де Сика (1948)

Фильм получил «Оскар» как лучший на иностранном языке.

В послевоенном Риме, Антонио Риччи потерял работу. Его жена выкупает из залога велосипед, и он устраивается расклейщиком афиш, но в самом начале работы его велосипед крадут, и Антонио, вместе с маленьким сыном Бруно, ищет его по всему городу, сталкиваясь с разными общественными проблемами.

«Неореалистическое кино вылилось в широкое коллективное движение», сказал один из зачинателей знаменитого стиля в послевоенном итальянском кинематографе, рассказывая о том, что он не был кем-то осознанно выработан, спланирован и организованно осуществлен. Это же можно отнести и к финансовой стороне дела, по отношению к которой неореализм появился не благодаря, а вопреки. Но что-то же заставило эти колеса крутиться...

Стоит отметить не только техническую сторону, но и идеологическую – вместе с фашизмом режиссеры и сценаристы в то время начали отрекаться и от преобладающего тогда «буржуазного кинематографа». Такие фильмы были очень далеки от подлинной картины жизни, выглядели вычурно и рассказывали легкомысленные истории о жизни буржуазии.

Теоретики кино называют итальянский неореализм чуть ли не самым важным кино движением. Что было бы, если бы итальянцы не взяли за кинематограф в послевоенный кризис середины 40-х. Они фактически запустили цепочку последующих этапов формирования кинематографа, каким мы знаем его теперь – от Французской Новой Волны, заразившейся идеями соседей, до Нового Голливуда, подарившего нам формулу существования авторского кино в коммерческом поле.

«Пропаганда социального неравенства и

прославление консервативных традиций» – вот как это кино называли кинокритики популярного тогда итальянского журнала *Cinema*. Один из них – Джузеппе Де Сантис – вскоре сменит квалификацию и будет режиссером важнейших неореалистических картин «Горький рис» и «Рим в 11 часов».

Ярким представителем итальянского неореализма является Фредерико Феллини. Вы будете плакать над «Ночами Кабирии», оцените зрелый цинизм «Сладкой жизни» и с головой погрузитесь в феерию «Рима». Великий итальянский режиссёр, обладатель пяти «Оскаров» (последний – за вклад в кинематограф), кардинально поменял мышление как зрителей, так и многих других постановщиков. На первый взгляд, его картины дико запутанные, сложные и потому непонятные. Но если разобраться, киноязык Феллини очень демократичен, а сам он подлинно народный творец. Картина «Рим открытый город» заложила основу для самого демократического направления в мировом кино – итальянского неореализма, и сейчас считается неоспоримой классикой. Феллини, в отличие от основных представителей неореализма — Витторио де Сика и Роберто Росселини, всё же пошёл своей дорогой. Тема «маленького человека» и социальная проблематика ему тоже были близки. Но уже в самых первых фильмах Фредерико прослеживается творческое своеобразие и самобытная философия. А мотивы феерии и карнавала, позже ставшие его визитной карточкой, видны даже в ранних работах мастера – «Огни варьете» (1950), «Белый шейх» (1952) и «Маменькины сынки» (1953). Хотя в этих лентах Феллини только нащупывал свой оригинальный стиль.

Следующие ленты – «Дорога» (1954) и «Ночи Кабирии» (1957) – стали более сенти-



ментальными и менее реалистичными. Они напоминали странный сон. После них режиссёр окончательно отказался от неореализма в пользу необычных работ, где действительность сочеталась с чудесами.

Неореализм как направление просуществовал сравнительно недолго. Уже к концу 1940-х, когда экономика в стране стабилизировалась и финансирование понемногу начало возвращаться в киноиндустрию, из жизни ушли идеи, которые питали кино первых послевоенных лет. Итальянский неореализм начал вытесняться стандартным коммерческим кино (которое, снимали даже некоторые неореалисты).

Тем не менее, роль этого течения в истории кино очень важна: во-первых, именно с итальянцев началось возрождение киноискусства. Во-вторых, это направление подарило нам множество крупных режиссёров итальянского кино 1950–1960-х (Роберто Росселлини, Лукино Висконти, Федерико Феллини, Микеланджело Антониони) – период, когда Италия занимала лидирующее положение в кинематографическом мире. В-третьих, итальянские неореалисты были первыми, кто показал, что рассказывать о сложных социо-политических проблемах можно при помощи минимума художественных и финансовых средств.

Использованная литература:

1. Кино Италии: Неореализм: Пер. с итал. /Сост., К 41 вступ. ст. и комм. Г.Д.Богемского. – М.: «Искусство», 1989.
2. Kasimova N. "Kinematografiyada neorealism oqimi". "Jahon adabiyoti" jurnali, 2017-yil, №7. 194–197-b.
3. Kasimova N. "Kinematografiyada yangi to'lqin". "Jahon adabiyoti" jurnali, 2018-yil, №8. 194–196-b.
4. Kasimova Nodira Saiyjanovna. The role of short films in the filmmaker F. Truffaut. International Conference on New scientific Methodologies. – USA, 2023. P.342-343.
5. Исмаилов А. Кинотелеоператорское мастерство. – Т.: 2013.
6. Godard Jean-Luc. «Les 400 Coups» (La photo du mois) // Cahiers du cinéma. No. 92. Février, 1959.





II BO'LIM

MUSIQA SAN'ATI

Mashrabjon ERMATOV,
O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedrası professori,
O'zbekiston xalq hofizi

NASR – SHASHMAQOM SHO'BASI

ANNOTATSIYA. *Shashmaqom safidagi asarlardan keng tarqalgan sho'balari – nasrlardir. Nasr aslida usulning nomi bo'lib, g'alaba, zafar kabi ma'nolarni bildiradi. Ushbu maqola aynan shu sho'balarning Shashmaqomda tutgan o'rni haqida.*

KALIT SO'ZLAR: *Nasr, Uzzol, Ushshoq, Xoro, Ajam, Muhayyar, Chambar, Bayot, Iroq, Chorgoh, Segoh, Oraz, Husayniy.*

АННОТАЦИЯ. *Наиболее распространенные главы в рядах Шашмаком – это Наср. Наср на самом деле является названием метода и в переводе означает «победа». Эта статья о роли шашмакома в Шашмакоме.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Наср, Уззол, Ушшоқ, Хоро, Аджам, Мухайяр, Чамбар, Баёт, Ирак, Чоргоҳ, Сегоҳ, Ораз, Хусейни.*

ANNOTATION. *The most common chapters in Shashmaqom ranks are Nasr. Nasr is actually the name of the method, which means victory. This article is about the role of these affiliates played in Shashmaqom.*

KEY WORDS: *Nasr, Uzzol, Ushshoq, Xoro, Ajam, Muhayyar, Chambar, Bayot, Iroq, Chorgoh, Segoh, Oraz, Husainiy.*

Maqom deganda, butun bir Sharq xalqlarining mumtoz an'anaviy musiqiy yo'llari ko'z oldimizda gavdalanadi. "Maqom" iborasi arabcha so'z bo'lib – "istiqomat o'rni", "turarjoy" ma'nosini anglatadi. Musiqa tili bilan aytganda, maqom musiqa cholg'ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o'rni – pardalaridir, ya'ni ladlaridir. "Maqom" – musiqada "nomukammal holatdan, mukammal holat"ga qarab, rivojlanishning muayyan ijodiy uslubini ham anglatadi. "Maqom – bu sadolarda in'ikos etgan hikmatlardir. Insonning ruhiy-ma'naviy kamoloti sari yuksalishi va shu tariqa chin haqiqatga erishuvi bu hikmatlar o'zagini tashkil etadi. Maqom – bu tariqat bosqichlarining o'ziga xos musiqiy ifodasi bo'lgan mukammal pardalar uyushmasi va shu asosda berilgan kuy mavzusini ma'lum yo'sinda (quyidan yuqoriga qarab izchil) rivojlantirish uslubidir".¹

O'tmishda maqomlar turli ma'nolarda ishlatib

kelingan. Maqomning dastlabki ma'nosi ijro etiladigan kuyning parda asosidir. Sharq xalqlari musiqasining parda asosi juda mustahkam negizda qaror topgan bo'lib, musiqa asarlari muayyan parda uyushmalari doirasidan chiqmaydi. Musiqada tovush hosil bo'ladigan joy, ya'ni parda, shuningdek, tovushlar uyushmasi parda-tuzuk (lad) hamda muayyan janr va uning namunalari tushuniladi.

IX asrdan buyon Yaqin va O'rta Sharq hududlarida yaratilgan musiqiy va nazariy adabiyotda ushbu so'z dastlab cholg'u vositasi orqali tovush hosil bo'ladigan joy, ya'ni parda so'ziga ma'nodosh atama sifatida qo'llanilgan. Keyingi asrlarda mazkur atamaning mazmun doirasi tobora kengayib bordi. Ya'ni, parda-tuzuk (lad) ulardan tashkil topgan maxsus majmua, 12 maqom, ularga aloqador muayyan musiqiy janr ijod turi singari keng qamrovli tushunchalarni ham anglata boshlagan. Shu bois, hozirgi kunga qadar maqom atamasining nazariy hamda amaliy mohiyatini belgilovchi eng muhim mezonlari sifatida yuritiladi.

¹ Ibrohimov O. "Maqom asoslari". – T.: 2018-y. 32-33-b.



Sharq maqomoti qadimiy, ancha murakkab falsafiy, estetik, musiqiy, nazariy hamda amaliy asoslarga egadir. U hozirgi kunda talaygina milliy va mahalliy ko‘rinish, belgi, sifatlari bilan ta’riflanadi. Shuningdek, o‘zbek, tojik, uyg‘ur, ozarbayjon, turk, arab, eron xalqlarining shu nom bilan ataluvchi va shunga o‘xshash nomlar bilan yuritiladigan bir qancha maqomlari mavjud.

*“Arabchadan tarjima qilinganda, “nasr” so‘zi “g‘alaba” yoki “ko‘mak” deganidir. Nasr so‘zining yana bir ma‘nosi: badiiy ijod namunasi (roman, poema, hikoya va shunga o‘xshash badiiy asarlar). Bundan anglash mumkinki, talqinlar musiqiy yo‘lni tushuntirib, nasihat tarzida namoyon bo‘lsa, Nasrlar ularni badiiylashtiradi. Ular Shashmaqomda Nasrulloi, Nasri Uzzol, Nasri Ushshoq, Navro‘zi Sabo, Nasri Bayot, Orazi Navo, Husainiy Navo, Nasri Chorgoh, Nasri Segoh, Navro‘zi Xoro, Navro‘zi Ajam, Muhayyari Iroq va Chambari Iroq kabi nomlanadi”.*²

Shashmaqomda Nasrlar eng ko‘p sonni tashkil etuvchi sho‘balardir. Ular, Navo va Dugoh maqomlaridagi Oraz nomli sho‘balar timsolida o‘zining **“zafar”** ma‘nosini ifodalay oladi. Masalan, Orazi Navo sho‘baga “oraz”, deb nom berilishiga sabab, u Navo maqomining qiyofasi, ya’ni yuzidir. Sarahbor ushbu maqomdagi ohanglar haqida xabar bersa, Orazi Navo esa Navo maqomining eng rivojlangan nuqtasi, cho‘qqisi hisoblanadi. Bu sho‘ba ijrochiga nisbatan qiyinchiliklarni tug‘diradi. Sababi, ijro jarayonida kuy yo‘lidagi injiqliklar, hanglar va zangulalarning xonanda ruhiyatiga qarshi borishi oson kechmaydi. Ammo Orazi Navo shu xususiyati bilan go‘zaldir. So‘zimizning isboti sifatida, Orazi Navodan bir namuna keltiramiz:

Munis g‘azali

ORAZI NAVO

Allegretto ♩ = 60

Sujud et mas qoshing meh ro bi g'a yo'q ay bi

kim, ul yon ja hon ah li ku

yar lar bo shin umi di sa nob ay lab


Ustozlarimiz Nasr sho‘basi ijrosi uchun ko‘proq aruz vaznining hajazi musammani solim yoki mujtasi musammani maqbuni maqtu‘i musabbah kabi she’riy vaznlaridan foydalanishgan.

Nasr yo‘llarining mashhur bo‘lgani va omma orasida keng tarqalganligining boisi, umuman hofizlar tomonidan “Nasr bo‘limi” deb atalishi ham Shashmaqomda Nasrlarning mavqei yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, asosan Nasrlarga turli bayramlarning nomlari berilishi ham boshqa sho‘balarga nisbatan ularning ulug‘vorligini namoyon etadi.

Ma’lumki qadimda musulmon xalqi Navro‘zni alohida bayram sifatida keng nishonlagan. Bu bayramga bag‘ishlab qanchadan-qancha she’rlar, badiiy asarlar yozilgan. Maqomotda ham bu bayramning ta’siri seziladi. Maqom ichidagi sho‘balarni olib qaraydigan bo‘lsak, Navro‘z bayramiga atalgan Shashmaqomning tuhfaalarini ko‘ramiz. Ular: Navro‘zi Ajam – arab bo‘lmagan musulmon xalqlarning yangi kuni, Navro‘zi Sabo – yangi kunning ohangi, Navro‘zi Xoro – Navro‘z bayramining shukhi, deb ataladi.

Changiyning tuzgan maqomlar jadvalida Chambari Iroq sho‘ba sifatida kiritilgan. Lekin hozirgi ko‘rinishi Iroq maqomi safidagi ashulalardan biri sifatida yangraydi. **“Chambar”** so‘zining ma‘nosi **“gullar yig‘indisi”**, “guldasta” deganidir. Go‘yoki Chambari Iroq guldasta bo‘lsa, Shashmaqom safidagi barcha go‘zal sho‘balar guldastani tashkil etuvchi gullarga o‘xshaydi.

² Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – T.: 1958-y. 71-b.





Ogahiy g'azali

CHAMBARI IROQ

$\text{♩} = 100$

mf Ne ja fo___ ki yig' la sam ol di da___

8 *mf* man ni has ta ar___ zi ni yoz_ e tib,___ si tam us ti ga___

15 *f* qi la dur_ si tam___ ne cha qat la noz___ *mf* uza_ noz e tib

3

Navro'zi Sabo sho'basi nasrlar salobati va ko'rkamligini ko'rsatuvchi yirik asar. Ammo Navro'zi Sabo sho'basida tarona o'rniga talqincha keladi. Buning ustiga bu talqincha aslida Chapandoz usulidadir. Maqom qonuniyatiga ko'ra, birinchi guruh sho'balarida Chapandoz nomining berilishi man etiladi. Shuning uchun ham bu sho'bani talqincha, deb nomlashgan.

Munis g'azali

TALQINCHAI NAVRO'ZI SABO

$\text{♩} = 100$

mf Ni go___ ro g'a ming ich ra ho_ lim g'a rahm_ et___ *p* yo

9 *mf* ray___ yo ray___ no za ni___ nam ey fi ro_ qing da

17 *mf* et gan ma lo lim ga rahm_ et,___ *p* yo

23 *mf* ray___ yo ray___ no za ni_ na may

4

³ O'zbek xalq muzikasi. V tom (Notaga oluvchi va to'plovchi Yunus Rajabiy). – T.: “Qadim adabiyot”, 1959-y. 371-b.

⁴ O'zbek xalq muzikasi. V tom (Notaga oluvchi va to'plovchi Yunus Rajabiy). – T.: “Adabiyot”, 1959-y. 250-b.

Mazkur ashulaning har bir xatdan keyingi hanglari juda go‘zal yangraydi. Navro‘zi Saboda Segoh va Navo namudlari uchragan bo‘lsa, bunda Zebo Pari avji uchraydi. Navro‘zi Sabodan Talqinchai Navro‘zi Saboning farqi ham shunda. Bu qismda Zebo Pari avjining qo‘llanilishi unga o‘ziga xos jilo beradi.

Munis g‘azali

ZEBO PARI AVJI (TALQINCHAI NAVRO‘ZI SABO)

$\text{♩} = 100$

9 *mf* *f* *mf* *f*

18 *f* *mf* *f*

25 *f*

5

Shashmaqom tarkibida kuy yo‘li va musiqa jihatidan o‘xshash bo‘lgan asarlar uchraydi. Masalan, Nasri Bayotning taronasini olaylik, Xorazmning juda taniqli bo‘lgan ustozona musiqalaridan Savti Feruzni eslatadi. Ba‘zi mutaxassislar Feruzlarni Navo pardalari asosida ishlangan, deyishadi. Lekin aslida u Bayot pardalaridadir. Nasri Bayotning taronasi Feruzlarni Bayot ladida ekanligini isbotlaydi. Xorazm va Buxoro asarlarining bir-biriga qanday bog‘liqligi bor, deb o‘ylarsiz? Tarixdan ma‘lumki, xonliklar orasidagi madaniy aloqalar juda yaxshi bo‘lgan davrlarda, san‘atkorlar havas qilgan holda bir-biriga bag‘ishlab musiqalar yaratganlar, kuylar bastalaganlar. Lekin ularning qaysi biri qay biriga bag‘ishlanganligi hanuzgacha mavhumdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek xalq muzikasi. (Buxoro maqomlari) V tom. – T.: “Adabiyot”, 1959-y.
2. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – T.: 1958-y.
3. Rajabov I. Maqomlar. – T.: 2006-y.
4. Matyakubov O. Maqomot. – T.: 2004-y.
5. Ibrohimov O. Maqom asoslari. – T.: 2018-y.
6. Matyakubov Sh. An‘anaviy xonandalik asoslari. – T.: 2020-y.

⁵ O‘zbek xalq muzikasi. V tom (Notaga oluvchi va to‘plovchi Yunus Rajabiy). – T.: “Adabiyot”, 1959-y. 252-b.



Гулчира ХОДЖАМЕТОВА,
кандидат исторических наук, профессор,
заведующая кафедрой «Вокал» Нукусского филиала ГИИКУз

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ КАРАКАЛПАКСТАНА

Аннотация. В данной статье речь ведется о каракалпакском народе, в своих традициях и обычаях сохранивших исторические песни, выраженные как жанр поэтического дастана в устном народном творчестве и в учебниках по классической литературе, основой их сюжета составляют значимые события из социальной жизни и внешних политических противостояний прошлого.

Ключевые слова: музыка, культура, искусство, колорит, символ, творчество, национальный колорит.

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqi haqida, xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot darsliklarida she'riy doston janri sifatida ifodalangan tarixiy qo'shiqlarni o'z an'ana va urf-odatlarida saqlab qolganligi, ularning suyet asosini o'tmishdagi ijtimoiy hayot va tashqi siyosiy qarama-qarshiliklardan muhim voqealar tashkil etishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: musiqa, madaniyat, san'at, kolorit, ramz, ijod, milliy kolorit.

Annotation. The article tells about the Karakalpak people, who have preserved historical songs in their traditions and customs, expressed as a genre of poetic dastan in oral folk art and classical literature textbooks, their plot is based on significant events from the social life and external political contradictions of the past.

Key words: music, culture, art, color, symbol, creativity, national flavor.

Одной из важнейших составляющих и во многом определяющих факторов в истории народов всегда оставался уровень материальной и духовной культуры. Сама культура как общенаучное понятие фиксирует общие отличия человеческой жизни от биологических форм, качественно отражая своеобразные формы жизнедеятельности человека в рамках исторических эпох или различных общностей. Каждый элемент культуры функционально необходим для удовлетворения определенных человеческих потребностей. Определяющим является и функциональная действенность культуры, и её влияние на общественное сознание и формирование общественного мнения.

Музыкальная культура Каракалпакстана имеет древнюю и богатую историю. Президент Республики Узбекистан Ш.Мирзиёев на встрече с представителями творческой интеллигенции страны упомянул, что «у нас достойная восхищения великая история, достойные восхищения великие предки, достойные восхищения несметные богатства. И я убежден – у нас будет достойное восхищения великое будущее, великие литература и искусство» [1.1.]. Изучение его истории актуально тем, что музыкальные традиции здесь имеют глубокие корни, исходящие к древним пластам общественного и государственного строительства, которые нашли отражение и в формах выражения внутреннего состоя-

ния и чувств человека, к каковым относится музыка.

Большое внимание уделялось восстановлению традиционных форм искусства и музыкального творчества, национальным мотивам и сюжетам. С целью сохранения, возрождения и приумножения культурного потенциала были выделены необходимые государственные ассигнования на развитие и укрепление материально-технической базы учреждений культуры и искусства, повышение престижа работников творческого труда.

Вся каракалпакская культура пропитана идеями, образами и символами, так или иначе связанными с обрядами, играми, эпосами. А это: речь, движение, пластика, музыка, импровизация, танец. То есть все, что составляет театр, кроме этого, театр в современном понимании, пропитан знаками и символами. Однако правильное прочтение обязательно требует хорошо разработанной теории, ведь система символов традиционного общества была настолько сильна и разнообразна, что ее понимание могло раскрыть суть этого искусства. В связи с этим очень интересно рассмотреть творчество театра, являющееся носителем устно-поэтической и музыкальной традиций, с точки зрения театрального искусства. Поэтому мы опираемся на материалы самого разного характера, не ограничиваясь строгими хронологическими рамками. Также



очевидно, что проблема связана с мировым театральным искусством и требует всестороннего изучения и высокого обобщения [2.32–35].

Отчуждение от исторических корней, языка и культуры каждой нации – это первый шаг к её ассимиляции и исчезновению как народности. Такие шаги предпринимались с завоеванием Средней Азии еще царской Россией. В период тоталитарной советской системы культура стала краеугольным камнем всей политики Советов в национальных окраинах. Только сегодня мы имеем широкую возможность объективно оценить происходившие в недавнем прошлом явления, направленные на отчуждение нашего народа от своей национальной самобытности и культурного своеобразия, а самое главное, извлекая из этого необходимые уроки, предпринимать конкретные шаги по восстановлению естественных связей внутреннего состояния и истории народа, выражения его в музыкальной культуре и искусстве. При этом, делая соответствующие выводы, сконструировать механизм, на основе которого возможно осуществление приоритетного для нас принципа – принципа гармонии национальных и общечеловеческих ценностей [3.55–58].

До настоящего времени очень мало теоретических исследований, посвященных изучению фортепианного исполнительского стиля и культуры как научных категорий, суждения отдельных ученых в этой области противоречивы, так как не обнаруживается единства в их взглядах. Однако это обстоятельство не снижает научной ценности ряда трудов, связанных с изучением стилевого многообразия в композиторском и исполнительском творчестве.

Одним из основополагающих трудов в разработке вопросов исполнительского стиля является работа К.Мартинсена «Индивидуальная фортепианная техника на основе звукотворческой воли», в которой ученый обозначил существование разных типов исполнительства. По его мнению, на феномен исполнительского стиля оказывают влияние репрезентативные средства исполнительской выразительности [4.90]. Они сохраняют свою актуальность в современном фортепианном исполнительском искусстве.

В работах С.Скребкова, Д.Рабиновича, М.Михайлова, Е.Назайкинского, В.Чинаева, А.Алексеева и других ученых речь идет о разнообразии направлений, наблюдаемых во второй половине XX столетия. Необходимо отметить, что фортепианный исполнительский стиль в их трудах рассматривается с точки зрения множественности и многовариантности интерпретаций.

Фортепианному искусству Узбекистана посвящены труды Д.Хашимовой, Д.Мурадовой и Ф.Мухамедовой. Среди первых исследователей


в Узбекистане, кто определил понятие фортепианного исполнительского стиля, А.Шарипова. Пианистка в труде «Координаты исполнительского стиля в фортепианной музыке Узбекистана (80-90-е годы)» представила собственную трактовку данного понятия, обозначив его в качестве самостоятельного явления. Важным научным положением можно назвать рассмотрение исполнительского стиля как явления вторичного порядка в отношении к композиторскому творчеству [5.210–213].


К новейшим исследованиям в области современного фортепианного исполнительского стиля относится диссертационное исследование Н.Драч «Основные стилевые тенденции в отечественном фортепианном искусстве середины XX века». Учёный выдвигает глубокое теоретическое толкование фортепианного исполнительского стиля, основываясь на материале российского фортепианного искусства середины XX века [6.74–77].

В развитии музыкальной культуры Каракалпакстан имеет уникальное культурное наследие, которое включает богатую музыкальную традицию. Формирование фортепианной музыки в Каракалпакстане прошли путь развития благодаря композиторам, которые сочетали местные музыкальные традиции с европейскими классическими формами. Ключевыми аспектами роли композиторов Каракалпакстана в развитии фортепианной музыки вошли введение европейской музыкальной традиции, композиторы Каракалпакстана начали адаптировать и вводить элементы западной музыкальной культуры, в том числе фортепианные формы, в свою собственную традиционную музыку. Это способствовало становлению фортепиано как важного инструмента в музыкальной культуре.

Для использования народных мотивов важной задачей композиторов Каракалпакстана было сохранить национальную идентичность в условиях расширяющегося влияния западной культуры. Они использовали традиционные мелодии и ритмы каракалпакской народной музыки и вплетали их в фортепианные произведения, тем самым создавая оригинальный репертуар, отражающий местный колорит. Создание уникальных произведений: Некоторые композиторы Каракалпакстана начали писать оригинальные фортепианные произведения, сочетая европейские классические формы (сонаты, вариации, этюды) с мотивами традиционной музыки. Это позволило развивать национальную музыкальную школу и расширять фортепианный репертуар в Каракалпакии.

В образовании и подготовке музыкантов композиторы играли важную роль в образовательной системе, обучая новое поколение пиани-





стов и композиторов. Они преподавали фортепианную музыку и развивали музыкальные учебные заведения, что обеспечивало рост профессионализма среди местных музыкантов. В продвижении фортепианной музыки многие композиторы также занимались организацией концертов и музыкальных фестивалей, где исполнялась фортепианная музыка, что способствовало ее популяризации среди широкой аудитории. Таким образом, композиторы Каракалпакстана способствовали формированию и развитию фортепианной музыки, привнося в нее элементы местной культуры и традиций, а также помогали профессиональному росту музыкантов, что в итоге обеспечило устойчивое развитие фортепианной школы в стране.

Национальная культура, духовность, литература и искусство издавна вдохновляют каракалпакский народ на процветание и счастливую жизнь. Сегодня искусство жировов и бахши, родившееся из устного народного творчества Каракалпакстана, получило мировое признание. Уникальные произведения эпоса ныне исполняются национальными симфоническими оркестрами на сценах разных стран. В этом деле много значит творческая деятельность народных хафизов, актеров театров (в том числе кукольных и юного зрителя), оперных исполнителей, эстрадных коллективов.

В Нукусе сдано в эксплуатацию 16-этажное здание IT-парка. Здесь будут претворяться в жизнь многие проекты молодежи, создадут музей информационно-коммуникационных технологий, пройдут выставки и учебные семинары. При этом обеспечится занятость свыше тысячи молодых людей. Без преувеличения историческим документом для всестороннего развития Каракалпакстана стало постановление Прези-

дента Республики Узбекистан «О мерах по комплексному социально-экономическому развитию Республики Каракалпакстан в 2020–2023 годах» от 11 ноября 2020 года. Была принята программа, вобравшая в себя около трех тысяч проектов, нацеленных на улучшение жизни, социально-экономическое развитие городов и районов на ближайшие три года.

Недавно, 4 декабря 2024 года в Стамбульском университете прошла конференция «Певец духовного мира», посвященная 200-летию со дня рождения великого каракалпакского поэта Ажинияза Косыбай-улы. Ученые из Турции и Каракалпакстана выступили с лекциями о литературном наследии великого поэта и культуре тюркских народов. Отмечалось, что в рамках постановления главы нашего государства «О широком праздновании 200-летия выдающегося каракалпакского поэта и мыслителя Ажинияза Косыбай-улы» с 16 июля текущего года осуществляется большая работа. Включение даты в международный Список юбилейных дат ЮНЕСКО вселяет в наши сердца чувство гордости.

18–20 ноября 2024 года в Российской Федерации прошли «Дни культуры Узбекистана». В рамках «Дней культуры Узбекистана» состоялась концертная программа с участием узбекских и каракалпакских артистов.

В 2024 году 27 ноября в Республике Татарстан города Казани состоялась церемония открытия Международного фестиваля тюркских и восточных народов «Восточный базар». Заслуженный артист Каракалпакстана Б.Темирбаев и лауреат премии «Нихол» А.Пиязов приняли участие в нем со своими песнями и поделились хорошим настроением с участниками фестиваля. А также принимали участие творческие коллективы из около 40 стран мира.

Использованная литература:

1. Мирзиёев Ш.М. «На встрече с представителями творческой интеллигенции страны. <https://uza.uz/posts/> 3 август 2017 г.
2. Юсупов К. Роль театрального искусства в формировании каракалпакской национальной культуры. Автореф. дисс. работы. – Самарканд: 2023
3. Базарбаев Ж. Өмир – бул сананың көтериңкилиги. – Нөкис: 1996-й. 62–68-б.
4. Мартинсен К. Индивидуальная фортепианная техника на основе звукотворческой воли // Пер. с нем. В. Михелис, ред. прим. и вступ. ст. Г. Когана. – М.: 1966.
5. Хашимова Д. Фортепианные произведения композиторов Узбекистана: Автореф. дис. канд. искусствоведения. – М.: 1985.
6. Мурадова Д. Интерпретация фортепианной музыки. – Т.: 2008.
7. Мухамедова Ф. Фортепианная музыка Узбекистана, формирование, жанровое своеобразие, интерпретация: Автореф. дисс. д-ра философии по искусствоведению. – Т.: 2019.
8. Шарипова А. Координаты исполнительского стиля в фортепианной музыке Узбекистана (80-е – 90-е годы). – Т.: 1999.
9. Драч Н. Основные стилевые тенденции в отечественном фортепианном искусстве второй половины XX века: Автореф. дис. канд. искусствоведения. – Саратов: 2006.
10. Xodjametova G. “Qoraqalpoq xalqining milliy madaniy qadriyatlarining ifodasi”. “Madaniyat va san’at” elektron jurnali, 2023-yil, noyabr. 9–13-b.
11. Ходжаметова Г. «Исторические, культурные и духовные традиции каракалпакского народа». «Маданият ва санъат» электрон журнал, 2023 год, 24 февраль. 3–7 с.

O'ZBEK VOKAL MUSIQASIDA MONOLOG NUTQI XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada nutq janrlaridan biri bo'lgan monolog nutqining o'ziga xos jihatlari hamda o'zbek kompozitorlarining vokal asarlarida uning talqini masalasi ko'rib chiqiladi.

KALIT SO'ZLAR: nutq janrlari, ichki va tashqi monolog, mazmun, vokal musiqa, obraz, ohang.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются уникальные аспекты монологической речи, являющейся одним из речевых жанров, а также ее трактовка в вокальных произведениях узбекских композиторов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: речевые жанры, внутренний и внешний монолог, содержание, вокальная музыка, образ, интонация.

ABSTRACT. The article discusses the unique aspects of monologue speech, which is one of the speech genres, as well as its interpretation in the vocal works of Uzbek composers.

KEY WORDS: speech genres, internal and external monologue, content, vocal music, image, intonation.

Vokal asarni to'g'ri tushinish va tahlil qilish uchun, albatta, musiqiy deklamatsiyani haqqoniyligi, badiiyligi, his-tuyg'u va turli psixologik holatlarni to'g'ri ifodalanganligi masalalarini o'rganish va idrok etish zarurdir. Vokal kuyga nutq ohangini qator xislatlari (tembr, kuy, artikulyatsiya, qattqlik) hamda lad, garmoniya, ritm, iborani ichki tuzilishi katta ta'sir ko'rsatadi. Lekin kuy xususiyatlarini, uning xarakterini aniqlaydigan yana bir muhim omil bor. Bu vokal asarlar matni asosidagi nutq janrlaridir. Ular qatoriga she'r, nasr, monolog, dialog, notiq, aktyor, marosim (ritual)ga oid nutq janrlari kiradi. Nutq janrining xarakteri, talaffuzining o'ziga xosligi nutq ohangini kuyda aks etilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi zamon filologiyasida "nutq janrlariga" katta e'tibor berilmoqda. "**Janr**" so'zi atama sifatida filologiya ilmida ham keng qo'llaniladi. Bu atamaning o'rniga ko'pincha "**nutq uslubi**", "**nutqiy so'zlashuv shakllari**", "**kommunikativ turi**" kabi atamalar uchraydi. Lekin ko'pgina holatlarda ular "**nutq janrlari**" tushunchasiga to'g'ri keladi va har biri jamiyat hayotida o'z vazifasiga ega. Ular mazmunni, ma'lum bir holatni, nutqiy muloqotning xarakteri kabi bir qancha omillar bilan bog'liqdir va muloqot, xabar va ta'sir etish kabi funksiyalarga ega bo'lishlari lozim.

O'zbek vokal musiqasida nutq janrlarining keng doirasi, ayniqsa, opera janrida ularning xilma-xil ko'rinishlari mavjud. Kuzatishlarimizdan bizga shu narsa ma'lum bo'ldiki, u yoki bu janrga suyanish opera syujetiga ham bog'liqdir. Masalan, afsonaviy syujetlar ("Layli va Majnun", "Farhod va Shirin",

"Tohir va Zuhra"), shu bilan birga shoir shaxsiga bag'ishlangan ("Hamza", "Sadoqat", "Zebuniso") operalarda boshqa nutq janrlari bilan bir qatorda she'riy nutq qonuniyatlari kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, "Sadoqat" operasida R.Abdullayev shoirlarning (Zulfiya, H.Olimjon, G'.G'ulom) har biriga xos bo'lgan individual she'r deklamatsiya tarzini vokal kuyda ifodalashga harakat qilgan. Bu tasodifiy holat emas. Sababi, she'riy nutq o'zbek milliy madaniyatida muhim nutq janrlaridan biridir.

Inqilob mavzusiga bag'ishlangan operalarda ("Bo'ron", "Hamza" "Uyg'onish" va h.k.) notqlik, tashviqotchilik nutqining o'ziga xosliklari yaqqol namoyon bo'ladi. Bu deklamatsiyaning xarakterida ham namoyon bo'ladi. Musiqada notiq nutqining o'ziga xosliklari quyidagilardan iborat: so'zlarni aniq talaffuz etish, pauzalarning ahamiyatini oshishi, bir registrdan ikkinchi bir registrga keskin o'tishlar, katta intervallarga sakrashlar, sur'atni sekinlashishi kabilardir.

Monologik nutqni boshqa nutq janrlaridan farqi shundaki, unda aniq artikulyatsiya, deklamatsionlik, har bir so'zni aniq talaffuz etish, matndagi mantiqiy urg'usi mavjud so'zlarni ohang orqali ajratib ko'rsatish xosdir.

"**Monolog**" tushunchasi – grekcha "**monologos**" "**monos**" – yakka va "**logos**" – so'z, ya'ni yakka so'z ma'nosini anglatgan holda san'at olamiga juda qadimdan kirib kelgan. Turli adabiy oqim va yo'nalishda monolog turlicha xarakterga ega bo'lgan. Antik dramalarda monolog biror xabarchi nutqi yoki xorning lirik chekinishlari sifatida tomoshabinga qarata aytilgan. Bizga



ma'lum bo'lgan Sofoklning *"Shoh Edip"* fojiasidagi Edip, Yevripidning *"Ippolit"* fojiasidagi Fedra, Shekspirning *"Gamlet"* asaridagi Gamlet monologlari bunga yorqin misol bo'la oladi. Klassitsizm va romantik davrdagi dramalarda esa monolog dialog bilan teng mavqega ega bo'lgan. XIX asr oxirida naturalistlar ma'lum darajada shartlilikka ega bo'lganligi uchun monologni butunlay inkor etadilar. Realistik dramada monolog dialogga nisbatan ikkinchi darajali rol o'ynaydi. Undan faqat obrazning ruhiy dunyosi, kechinmalarini ifodalashda foydalanilgan, xolos.

Dramatik asarlarda monologlar ikki turga, ya'ni ichki va tashqi monologlarga bo'linadi.

Ichki monolog – insonning o'z qilmishlari, xulq-atvorini qaytadan baholashi, hayotiy mavqeyini tasdiqlashi, u yoki bu voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirishi uchun kerak bo'lgan hayotiy zarurat. Ichki monolog mantiqan uzviy bog'liq chuqur g'oyaviy, ruhiy mazmun bilan to'ldirilgan mulohazalar zanjiridir. Shuning uchun ham monologlar boy ichki dunyoga ega bo'lgan shaxslargagina xosdir.

Tashqi monolog – konkret shaxslarning ongiga ta'sir etish uchun qaratilgan. Bunday monologlar asar qahramonlarining his-tuyg'ularini samimiylashtirishga qaratilgan bo'lib, asar qahramonlariga nisbatan hamdardlikka undaydi.

Monolog, opera, musiqali drama hamda kamer-vokal asarlarida mustaqil shakl sifatida mavjuddir. Monologik lirikaning mazmuni xilma-xil bo'lishi mumkin. Masalan; tabiatga oshuftalik, sevgilisi haqidagi orzular, ayriliq, quvonch, hayotga umid bilan boqish va hokazo. Bularning barchasi musiqada har xil gavdalanadi. Fikr yurituvchi turdagi monologlar har doim ichki dialektikdir. Inson o'zi bilan o'zi suhbatlashadi. O'ziga muhim bo'lgan savollarga javob topishni maqsad qilib qo'yadi. Bunday suhbatlarda ritorik savol ohangi keng o'rinni egallaydi. Bu ritorik savol ohangi dialogdagi savol ohangidan mutlaqo farq qiladi. Bu savollar insonning o'zigagina qaratilgan bo'lib, tezgina javobni talab qilmaydi. Ular ko'p hollarda emotsional hayqiriqqa yaqindir.

Musiqada monologik nutqning ohangiga nazar tashlar ekanmiz, she'riy matndagi o'ziga xos ohanglarni ko'rsatish uchun musiqada ham shunga mos ohanglarni topish darkordir. O'y-fikrlar bilan yo'g'rilgan monologik nutqni musiqada ifodalanishi o'ziga xosdir. Kompozitorlar nutq kuyini aks etishda ko'pincha dissonans intervallaridan foydalanadilar. Umumiy eshitishimizda dissonanslar noaniqlikni keltirib chiqaradi, bu esa o'z holida dissonans intervallarni nutq ohangiga ma'lum darajada yaqinlashtiradi. O'y-fikrlarni ifodalovchi monologlarning musiqada ifodalanishida so'zlar sekinlashgan sur'atda dona-dona qilib talaffuz

etiladi. Shunga ko'ra har bir ohang ham aniq eshitiladi. Ohanglarning aniq eshitilishida pauza muhim ahamiyat kasb etadi.

Operalarda monolog turdagi ariyalarni tuzilishi har xildir. Ular gohida erkin, murakkab shaklga ega, gohida esa fragmentardir. Ularning mavzuiyligi psixologikdir. Monologik turdagi ariyalarning vokal partiyasida ko'p hollarda kuyning deklamatsion va ariozali turi ustun turadi. Ular qahramonning fikrlash jarayonini, uning ongining izchil harakatini ko'rsatishga qodirdir. Monologik turdagi ariyalarda orkestr ham muhim ahamiyat kasb etadi. U bo'laklarga bo'lingan deklamatsion iboralarni birlashtirishda, asarning kayfiyatini qahramonning ichki dunyosini, matndagi tub ma'noni ko'rsatishda va shaklni hosil qilishda muhim vositalardan biridir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, monolog musiqiy shakl sifatida faqatgina opera janriga tegishli emas. U mustaqil kamer-vokal asarlarida ham o'z o'rniga egadir. Aynan kamer-vokal musiqqa, monologik turdagi kuylarning qonuniyatlarini o'rganishga keng imkoniyat yaratadi. Sababi kamer-vokal musiqadagi monolog operaga nisbatan ma'lum bir holatga tobe bo'lmasdan, lirik qahramonning ichki psixologik holatini chuqurroq ko'rsatib berish imkoniyatiga egadir.

O'zbek kompozitorlarining opera va musiqali dramalarida sof turdagi monologlar va monologik nutqni o'zida mujassam etgan ariyalar mavjuddir. Opera va musiqali dramadagi monolog bir-biridan keskin farqlanmaydi. Har ikkisida ham monolog janri sahnadagi holatga tobedir. Mazmun jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, har ikkisida qahramonning ichki tuyg'usi, uning o'y-fikrlari, azob-uqubatlari gavdalanishi mumkin. Shu sababdan, biz monologik nutqning mazmunini musiqaga ta'siri va asardagi timsol musiqada qay darajada namoyon bo'lishiga o'z e'tiborimizni qaratamiz.

Mustafo Bafoyevning *"Al-Farg'oniy"* operasining boshlang'ich qismi Farg'oniyning monologik nutqidan boshlanadi. Orkestrning kuychan kirish mavzusini xor davom ettiradi. So'ngra al-Farg'oniyning monologik nutqi xor tomonidan sharhlanib boriladi. Mazmunga ko'ra Farg'oniy Parvardigorga murojaat qilib, bu dunyoning ishlaridan bezganligini, hayotning lazzatlaridan voz kechib, oxir-oqibat adashgani, vatansiz bir g'arib va ona yurti, volidai muhtaramasini eslaydi. Xor esa uni barcha dard-hasratini eshituvchi bir sirdosh vazifasini o'taydi va qahramonning o'tinchli monologik nutqidagi ba'zi bir joylarida *"Sayyora, sayyora sensan"*, *"Ovora, ovora sensan"* kabi so'zlar bilan uni yanada tushkun ahvolini tasvirlaydi. Vokal partiya juda ifodali va kuychan bo'lib, al-Farg'oniyning vazmin qiyofasini o'zida aks ettiradi. Orkestr esa ba'zi holatlarda



vokal partiyaga jo'r bo'luvchi, ba'zida esa asosiy psixologik holatni ochib, taranglikni ushlab turuvchi omil vazifasini bajaradi. Dramaturg Ramz Bobojonov va kompozitor Farhod Olimov qalamiga mansub "Yusuf va Zulayho" musiqali dramada ham monologik nutq xususiyatlarini o'z ichiga olgan ariyalar mavjud. Masalan, Fir'avn ariyasi. Unda shoh hayoti davomida qilgan ishlarining javobi borligini sezgan holda ich-ichidan siqilib, ezilishi ifodalanadi. O'z dardini ichida saqlamay, oldidagi a'yonlariga murojaat etadi: *"Dardimga bormi malham, ko'nglimga sig'mas qil ham. Naylain, naylain..."*

Fir'avn ariyasida orkestr vokal partiyani qo'llab-quvvatlab turuvchi vazifasini ta'minlaydi. Ko'p holatlarda esa, vokal partiyaga orkestr to'laligicha bo'ysunadi va uning izmida bo'ladi.

Nazarimizda, Fir'avn ariyasini Fir'avn monologi, deb nomlash maqsadga muvofiq bo'lardi. Sababi, yuqoridagi mazmun va uning musiqiy yechimi monolog xususiyatlari talabiga javob beradi. Musiqiy tomondan qaraydigan bo'lsak, ariyada deklamatsiya tarzida nutqlash tamoyili mavjud bo'lib, asosiy e'tibor so'zga va sintaksisga qaratilgan. Ichi dardga to'la Fir'avn monologi musiqada o'z aksini to'liq topa olgan.

Turob To'la va Farhod Olimov qalamiga mansub bo'lgan "Nodirabegim" nomli musiqali dramada ham monologik nutq xususiyatlarini o'zida mujassam etgan ariyalar mavjud. Masalan, "Kanizak" ariyasida kanizak o'z qismatidan g'am-anduh chekib hasrat qiladi, lekin o'zida kurashishga yetadigan kuch topa olmasligi haqida kuylaydi. Ariyada she'r ritmi saqlanib qolgan bo'lsa-da, nutqlashning deklamatsiya tamoyili ustun turadi. Shunga ko'ra sintagmalar ham mantiqan bo'lingan bo'lib, ular ichidagi sintagmatik urg'u muhim hisoblangan so'zga tushgan.

O'zbek kompozitorlari asarlarida monologik nutq xususiyatlari bilan singdirilgan romanslarni ham uchratish mumkin. Bu xildagi romanslarda monolog xususiyatlari, avvalo, mazmunda namoyon bo'ladi. Ular mazmun jihatidan rang-barang bo'lishi mumkin. Masalan; insonni bir maqsad uchun da'vat qiluvchi, hikoya qiluvchi, nasihat qiluvchi, hamdardlik bildiruvchi va o'ziga emas, balki o'ziga qaratilgan fikrlar bilan yo'g'rilgan mazmunlarga ega bo'lishi mumkin.

Bu mazmun va holatlarni ifodalashda so'z va musiqa aloqalari yanada mustahkam uzviy birlikni

hosil qilishi tabiiydir.

Aynan mazmun romanslarda monologik nutqning mavjudligini isbotlaydigan asosiy omillardandir. Misollarimizning ko'pini Mutal Burhonovning romanslari tashkil etadi, bu bejiz emas. Mutal Burhonov romanslarining she'riy asosini aksariyat lirik she'rlar tashkil etadi. Bu she'rlar syujetli rivojlanuvdan va timsollarning keskin o'zgarishidan xolidir. Kompozitor yaratgan timsollar chuqur ichki psixologik holatlari, lirik kechinmalarning har xil nozik farqlarini o'ziga rom qiladi. Aynan shunday xususiyatlarni u mumtoz shoirlar she'rlarida uchratadi va ular asosida betakror romanslar yozadi.


Uyg'un she'riga yozilgan *"Ishqida"* romansi musiqashunoslar tomonidan ilk o'zbek romansi, deb e'tirof etilgan. Bu romans urush yillarida yozilgan bo'lib, asosiy mazmuniga ko'ra qiz o'z sevgilisini frontdan qaytishini intizorlik biln kutadi va shu bilan birga u ayriqlik azobining kuychisiga aylanadi.

Yuqorida zikr etilgan Mutal Burhonovning asarlarida mazmunni u yoki bu psixologik holatni, his-tuyg'uni to'liq ochib bera olish, kuychanlik, milliylik, nutq ohangi mohiyatini sezish, nutq va musiqiy sintezining uyg'unligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ko'p hollarda kompozitor musiqa vositalari yordamida timsolning fojiali taraflarini, she'rni umumiy dramatik mazmunini yanada kuchaytirishga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek vokal musiqasida turli xil nutq janrlari qo'llaniladi. Monolog, monologik nutq ular ichida alohida o'rin egallaydi va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Monologik nutqni ifodalashda deklamatsion va ariozali kuylarni ahamiyati katta bo'lib, ularda milliy til xususiyatlari, uning fonetikasi, talaffuzi yorqin namoyon bo'ladi. Monologik nutqni ifodaviyligi, haqqoniyligi kompozitor mahoratiga bog'liq. Vokal asarni o'rganish jarayonida birinchi bo'lib, musiqiy timsolni she'riy yoki nasriy matnni xarakteri va timsolga badiiy mosligi to'g'risida savol tug'iladi. Kuy so'z bilan bog'langanda, faqatgina uning ma'nosini aks ettiribgina qolmay, balki matn tubida yotgan mazmunni ham ifodalaydi. Matn va musiqaning o'zaro bog'lanishida timsol va ma'no uyg'unligi, mushtarakligiga qator vositalar, maxsus usullar yordamida erishiladi. O'zbek vokal musiqasida ushbu vositalar maxsus usullar so'z va musiqaning timsol-semantik uyg'unligini amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анализ вокальный произведений (Учебное пособие). Ответственный редактор кандидат искусствоведения О.П. Коловский. – Ленинград: «Музыка», 1988.
2. Bafoev M. Ruboiyot va kompozitorlik ijodiyoti. – T.: 2008.
3. Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – T.: 2004.





FORTEPIANO ANSAMBLI XUSUSIDA

Annotasiya. Mazkur maqolada yoshlarning musiqiy ta'lim-tarbiyasi, ruh va ong salohiyatiga sezilarli ta'sir o'tkazadigan fortepiano ansamblining kelib chiqish tarixi, o'ziga xos xususiyatlari, mazkur janrning fortepiano dueti hamda fortepiano ansambli, olti qo'lli, sakkiz qo'lli turlari va unda ijod etgan kompozitorlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: musiqiy tarbiya, fortepiano dueti, primo, sekondo, trio, kvartet, kvintet, ijro dasturi, ansambl, agogika, pedal, kvartet, fiziologik holat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются история происхождения и особенности фортепианного ансамбля, который оказывает значительное влияние на музыкальное образование, духовный и интеллектуальный потенциал молодежи. Также в статье раскрыты такие типы фортепианных ансамблей, как фортепианный дуэт и фортепианный ансамбль, шестиручные и восьмиручные фортепианные ансамбли, а также творчество композиторов, творивших в этом жанре.

Ключевые слова: музыкальное воспитание, фортепианный дуэт, прима, секунда, трио, квартет, квинтет, исполнительская программа, ансамбль, агогика, педаль, квартет, физиологическое состояние.

Annotation. This article examines the history of the origin and characteristics of the piano ensemble, which has a significant impact on musical education, the spiritual and intellectual potential of young people, including the piano duet and piano ensemble, six-and eight-stringed piano ensembles as well as composers who have created in this genre.

Key words: musical education, piano duet, prima, second, trio, quartet, quintet, performance program, ensemble, agogics, pedal, quartet, physiological state, pedal.


Zamonaviy musiqiy ta'limning asosiy tendensiyalaridan biri – talaba yoshlarning musiqiy, ijodiy tafakkur va qobiliyatlarini yanada boyitish, kasbga doir bilim va malakalarini oshirib salohiyatli kadrlarni tayyorlashdir. Ayni paytda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot jarayonida musiqa madaniyati sohasini yanada rivojlantirish va kasbiy mahorati yetuk bo'lgan soha mutaxassislarini tayyorlash borasida konseptual reja va olib borilayotgan ishlar fikrimizga asos bo'la oladi. O'zbekiston Res-



¹ Xususan, 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-sonli Farmoni, 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3504-sonli Qarori, 2017-yil 31-maydagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3032-sonli Qarori, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy talim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori 2024-yil 15-noyabrda "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-391-sonli Qarori va b.

publikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalq ta'limi tizimi, xususan, musiqa ta'limiga oid bir qancha Farmon va Qarorlari¹ qabul qilindi. Bu hujjatlar biz pedagoglar uchun yosh avlodni zamon talablari darajasida barkamol qilib tarbiyalashda muhim manba bo'ladi.

Respublikamizni yanada rivojlantirish jarayonlariga hissa qo'shadigan omillardan biri – musiqa san'ati va uning ta'limidir. Yoshlarning ma'naviy va madaniy dunyosini takomillashtirishda musiqiy ta'limning muhim tarkibiy qismlaridan biri esa, fortepiano san'atidir. Zero, bu san'at turi bi-



lan yoshlar musiqiy ta'lim-tarbiyasi, ruh va ong salohiyatiga sezilarli ta'sir o'tkazib, ularning jamiyatimizda barkamol inson sifatida o'z o'rniga ega bo'lishiga yordam beradi.

Oliy ta'lim tizimidagi fortepiano sinfida shu kabi vazifalarni amalga oshirishda samarali omillaridan biri, ansambl bo'lib ijro etishdir. Mazkur jamoaviy ijro talabalarni musiqa olamiga yanada chuqurroq kirib borishning eng qulay shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu jamoaviy ijrodan hosil bo'lgan ijodiy muhit talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undaydi, o'z navbatida ularning mustaqil ta'limi va amaliy mashg'ulotlari uchun qo'shimcha ravishda samarali motivatsiya bo'la oladi. Shu bois mazkur maqolada fortepiano ansambli va uning kelib chiqish tarixi haqida qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Ma'lumki, fortepiano ansambli janri XVIII asrning ikkinchi yarmida, aniqrog'i "bolg'achali" fortepiano ixtiro qilingandan so'ng rivojlana boshladi. Yangi cholg'uning kengaytirilgan diapazoni, tovush dinamikasi va keng imkoniyatlari o'sha davr Yevropa kompozitorlarini mazkur janrga murojaat etishga chorladi. Aynan yangi turdagi fortepiano janrini yanada rivojlanishida Frans Shubert² (1797–1828)



“forteplano ansambli” deb nomlanadi. Shuni ham aytish kerakki, fortepiano dueti, ya'ni to'rt qo'l uchun yaratilgan asarlarda primo (yuqori registr) va sekondo³ (pastki registr) kabi partiyalariga ajratiladi. Odatda ular mustaqil partiya bo'lib emas, aksincha bir-biriga hamohang bo'lib ijro etishga mo'ljallanadi. Masalan, primo partiyasida faqat kuy yo'li ijro etilsa, sekondo partiyasida jo'rnavozlik vazifasi bajariladi.



o'z ijodi bilan salmoqli hissa qo'shganligini alohida ta'kid etish lozim.

Ijrochilik san'tida fortepiano ansambli ikki turdan iborat bo'lib, ular nomi va ijrosi bilan farqlanadi. Bunda ikki ijrochining bir cholg'uda ijrosi “forteplano dueti”, ikki ijrochining ikki cholg'udagi ijrochiligi

Shuni ham aytib o'tish lozimki, fortepiano ansambli turi ko'proq konsert ijrochiligi amaliyotida keng qo'llaniladi. Sababi, ikkita cholg'uda ijro etishlik cholg'uchilar mahoratini namoyon qilish uchun keng imkoniyatlarni beradi.

Fortepiano ansamblining olti qo'lli, sakkiz qo'lli turlari ham mavjud bo'lib, ular o'z navbatida fortepiano triosi, kvarteti, kvinteti deb nomlanadi. Ijrochilik tarixida bunday ansambl turlari kam uchraydi.


Shunday bo'lsa-da, bu turdagi ansambl ijrosiga mo'ljallangan asarlarni L.Betxoven(1770–1827), K.Gurlitt(1820–1901), S.Raxmaninov (1873–1943), A.Rubinshteyn (1829–1894), V.Azarashvilli (1936–2024) kabi jahon kompozitorlari ijodida ko'rishimiz mumkin.

XX asr oxirlarida O'zbekistonda ham fortepiano ansambli jadal rivojlana boshladi. Yurtimiz kompozitorlaridan R.Abdullayev (1947), F.M.Yanov-Yanovskiy (1934), F.Alimov (1947), M.Otajonov (1959)lar va pianistlar dueti M.Gumarov – G.G'ulomova, S.Asabayeva – Z.Muxammadjonova, B.Axmedjonova – S.Axadjonova kabi mohir ijrochilar bu janrga murojaat etib o'zining mukammal ijrolari bilan musiqa san'ati shinavandalari qalbidan muqim joy oldi⁴ [4.3].

² Shubert Frans Peter – avstriyalik kompozitor, musiqa san'atida romantizm asoschilaridan biri, 602 vokal kompozitsiya, to'qqizta simfoniya, shuningdek, ko'plab kamer va yakkaxon fortepiano asarlari muallifi. F.Shubert asarlari romantik davr musiqasining eng mashhur namunalaridandir.

³ Sekondo (ital. – 2) – fortepiano ansamblining pastki partiyasini belgilovchi ko'rsatkich [2.103].

⁴ Ганиева Л. Узбекский фортепианный дуэт 90-х годов XX века – начало XXI столетия. – Т.: М.Уйгура, Ташкентский государственный институт искусств. 2004 г. 3 с.





Ta'kid joizki, ansamblda yakka ijrochilik uchun zarur bo'lgan texnik ko'nikma va qobiliyatlari (vazifadan o'qish, metro ritm hissiyoti)ni, tartibga solish va musiqiy tafakkurlash kabi qobiliyatlarni yanada rivojlantirish fortepiano ta'limining muhim jihatidir. Bundan tashqari, bu jarayonga diqqatni aniq maqsadga yo'naltirish, intizom va mas'uliyat singari fazilatlarini ham rivojlantirishda yordamchi vosita, deb qarashimiz mumkin.

Fortepiano duetining samarali taraflaridan yana biri – ikki ijrochi bir mutaxassis yo'nalishida, ya'ni bir xil cholg'uda ijro etishlaridir. Bu esa o'z navbatida ularning o'zaro bir-birlarini tushunib, eshitib ijro etishlariga yordam beradi. Albatta, bu fortepiano duetida hamjihatlikka erishish uchun o'qituvchidan talab etiladigan vazifalardan biri ansambl bo'lib ijro etadigan talabalarni tanlay olishdir. Ansambl juftligiga tanlangan talabalarining bilim va malaka darajasi bir xil yoki nisbatan bir-biriga yaqinroq bo'lishi talab etiladi. Aks holda ijroda oqsayotgan talaba butun asar taassurotiga pand berishi mumkin. Tabiiyki, o'qituvchidan bu talabaga jiddiy individual yondashuv asosida ko'proq vaqt ajratish orqali ayrim muammolarni hal etish va eng asosiy vazifa – ansambl ijrochilarini o'z ustida mustaqil ishlashiga undashdan iborat. Shu bilan birga, mustaqil ta'lim jarayonida talabalar muammoli vaziyatlarni o'zlari aniqlashi va ularni bartaraf etish ustida ishlay bilib muntazam shug'ullanishlari muhim. Ansambl ijrochisi, avvalo, yakka tartibda o'z partiyasini puxta o'zlashtirib so'ng o'qituvchi nazoratida asarni sherigi bilan ijro etib ko'radi.

Ma'lumki, har bir asarni o'rganish va ijro etishdan avval, mazkur asar to'liq tahlil qilinadi. Ansambl ijrosida ham bu jarayon jamoaviy tarzda o'qituvchi va ijrochilar ishtirokida olib borilishi maqsadga muvofiq, albatta. Asarning musiqiy shakli, uning o'ziga xos tarkibiy qismlari, jumla va mavzular, dinamik

rejalar, kompozitor g'oyasi va asar obrazini o'zaro aniqlanib ijroda ularga ahamiyat qaratiladi.

O'qituvchi doimiy ahamiyat qaratishi kerak bo'lgan asosiy vazifalardan yana biri bu – ikki cholg'uchilarning ijro etiladigan asarni birvarakayiga, ya'ni sinxron ijro etishlariga e'tiborli bo'lishidir. Bunda nafaqat sinxronlikka, balki ikki partiyalarning tovush dinamikasi va intonatsiyasining muvozanatiga, agogika⁵ [1.3], shtrix, jumla-


lar bir xilda boshlanishi va yakunlanishiga alohida ahamiyatli bo'lish kerak.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, fortepiano ansambli duetining har bir partiyasi o'ziga xos jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi. 1-partiya asosiy kuy yo'lini ijro etsa, 2-partiya turg'un partiya hisoblanib, unda asosan akkord va arpedjiolardan tarkib topgan akkomponiment ijro etiladi. E'tiborga molik jihati shundaki, har bir ijrochi asarning ikkala partiyasini nafaqat aniq bilishi, balki ijroda ichki eshitish qobiliyati bilan asarning musiqiy to'qimasini yaxlit holda eshita olishi lozim. Demak, ansambl ijrochiligi cholg'uchida ichki eshitish qobiliyatini yanada rivojlanishiga ham yordam beradi.

Shu bilan birga, fortepiano ansamblida cholg'uchilarning fiziologik holati ham ahamiyatli, albatta. Zero, har bir ijrochi bitta cholg'uning o'ziga ajratilgan qismida, ya'ni klaviaturaning yarmida ijro eta oladi. Ayrim asarlarda kompozitsion jihatdan bir-biriga tutash yoki bir partiya ikkinchi partiya ijro jarayonida qo'llar kesishuvi bo'lgan vaziyatlar ham ko'p uchraydi. Bunda cholg'uchilar bir-biriga xalaqit bermasdan, hamjihat bo'lib ijro etishlari uchun qo'llari (bilak, tirsak)ni nazorat qilishlari kerak.

Cholg'uchilarning fortepiano ansamblini ijro etishda e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlardan yana biri bu pedalni ishlatishdir. Asar tuzilish tarkibiga qarab pedal bilan ijro etish usuli yuqorida aytib o'tilgan asar tahlili jarayonida aniqlanadi. Bu vazifa sekondo partiyasini ijro etayotgan talabaga topshiriladi. Chunki butun asarning ritmo-garmonik tayanchi va basli asosini shu partiya bajaradi. Ikkala partiyalarni pedal bilan hamohang bo'lib yang-rashi uchun ishtirokchilar mashq jarayonida turli usullardan foydalanishlari lozim. Masalan, primo partiyasini ijro etayotgan talaba o'z partiyasini chaladi, sekondo partiyasini chalayotgan talaba faqat pedalni asarga monand bosib turadi. Bu usul ikkala ishtirokchidan o'ziga xos diqqatni va malakani talab etadi.

⁵ Agogika (yunon. ἀγωγή – ergashtirish) – musiqa ijrochiligida badiiy niyatni ko'zlab asar sur'atini biroz o'zgartirish.



Ma'lumki, har yarim yillikda talaba reperturi, uning ijro imkoniyatlari, musiqiy ko'nikmalari, o'zlashtirish qobiliyati, psixo-emotsional holati, xarakter xususiyatlari kabi fazilatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi. Individual rejani tuzishda, albatta, talabani ijrochilik mahorati va tayyorgarlik darajasi inobatga olinadi. Buyuk rus musiqachisi va pedagog B.Y.Milich (1904–1991) ta'kidlaganidek: *“Fan bo'yicha qo'yilgan talablar ketma-ketligini to'g'ri taqsimlash, bosqichma-bosqich tamoyil ustuvor bo'lishi kerak”*⁶ [4.74-b.].

Fortepiano ansambli repertuarini tanlashda ham shu talablarni e'tiborga olib shakl, uslub, janr, faktura jihatidan xilma-xil, mazmunan badiiy yuksak asarlarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, milliy ohanglarga yo'g'rilgan asarlar bilan talabani ijro dasturini boyitish, o'zbek kompozitorlariga mansub asarlar bilan muntazam tanishtirib borish orqali milliy musiqamizni targ'ib qilish va talabani unga bo'lgan qiziqishini yanada orttirish, bugungi kun musiqi ta'limi sohasi, xususan, zamonaviy pedagogning asosiy vazifalaridan biri desak, xato bo'lmaydi⁷ [5.4-b.].

Fortepiano ansambli dasturini rejalashtirishda e'tiborga molik aspektlardan yana biri, talaba ijro etadagan partiyalarning o'rnini almashtirib turishdir. Chunki talaba faqat bir partiyani, masalan, sekondo partiyasini ijro etaversa, primo partiyasi


nyuanslarini, ya'ni o'ziga xos jihatlarini chuqur anglab, ansambl asari mohiyatini to'liq tushuna olmaydi.

Fortepiano ansamblidan ko'zlangan maqsad va vazifalarni bajarib mashg'ulotlar sifatini oshirishda zamonaviy musiqi pedagogikasi amaliyotida ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan samarali usullardan foydalanish muhimdir. Xususan, talaba ijodiy tafakkurini oshirishga qaratilgan og'zaki suhbat uslubi, asar badiiy obrazi haqida taassurotga ega bo'lish uchun o'qituvchi yoki zamonaviy eshitish vositalari orqali amalga oshiriladigan ko'rgazmali uslublar misol bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarni umumlashtirib shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, o'qituvchi fortepiano ansambli ijrochilari o'rtasidagi muloqot jarayoniga ijobiy ta'sir o'tkaza olsa, musiqiy didaktik tamoyillarni qo'llab mashg'ulotlarini samarali olib borsa, talabadagi yakka cholg'uchi uchun muhim bo'lgan ijodiy fazilatlarni shakllanishiga ham turtki bo'la oladi. Shuningdek, fortepiano ansambl janri ko'magida talabalarda badiiy did, musiqiy saviya, mas'uliyatlilik, tirishqoqlik, o'ziga ishonch kabi kasbiy sifatlar tarbiyalanadi. Yanada aniqroq ifoda etganda, ular ijrochi uchun har doyim kerak bo'ladigan xislatlardir, ularning fortepiano cholg'usida uyg'unlashuvi esa muvaffaqiyatli ijodiy faoliyatga erishishga, albatta, xizmat qiladi.

⁶ Милич Б.Е. Воспитание ученика – пианиста. – М.: «Кифара», 2008-й.

⁷ Xudoykulova N. Fortepiano (O'quv qo'llanma). – T.: “Donishmand ziyo”, 2023-y.





III BO'LIM

SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

Nasiba ABRAYKULOVA,

O'zDSMI "Sahna harakati va jismoniy madaniyat" kafedrası mudiri, professor v.b.

O'ZBEK ZAMONAVIY RAQS SAN'ATINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada muallif tomonidan zamonaviy raqs san'ati, uning turlari, o'zbek zamonaviy raqs san'atining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, ijodiy jamoalar haqida ma'lumotlar beriladi.

KALIT SO'ZLAR: raqs, usul, qobiliyat, faoliyat, jarayon, baletmeyster, raqqosa, harakat, san'at, kompozitsiya.

АННОТАЦИЯ. В данной статье автор предоставляет информацию о современном танцевальном искусстве, видах, этапах становления и развития современного танцевального искусства Узбекистана, творческих коллективах.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: танец, метод, способности, деятельность, процесс, балетмейстер, танцор, движение, искусство, композиция.

ANNOTATION. In this article, the author provides information about modern dance art, types, stages of formation and development of modern dance art in Uzbekistan, and creative groups.

KEY WORDS: dance, method, abilities, activity, process, choreographer, dancer, movement, art, composition.

O'zbek raqs san'ati milliy xalq raqsi va Yevropa raqs san'ati asosida shakllangan. Milliy raqs haqida ma'lumki, X–XI asrlarda san'atning ushbu turi haqida birinchi ma'lumotlar paydo bo'lgan. Bu davr raqslari asosan tabiatdagi turli jonivorlar va qushlar, o'simliklar dunyosiga taqlid qiluvchi harakatlarga asoslangan. Bugungi kunda ularni o'zbek raqs maktablari asosidagi xalq va sahnaviy raqlarda ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotchi Alevtina Boreyko o'z tadqiqotlarida: "Yevropa tarmog'ini ham ikki yo'nalishda, ya'ni balet va zamonaviy raqslarga bo'lish mumkin. Balet san'ati va uning O'zbekistonda shakllanishi haqida yetarlicha ma'lumotga egamiz. Lekin zamonaviy raqsning shakllanishi va rivojlanishi haqida ma'lumotlar juda kam. Mamlakatimiz madaniy hayoti tarixiga nazar solsak, XX asr boshlaridan teatr va kino san'ati shakllana boshlaganligi haqidagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. O'sha davrlarda bugungi kun estrada san'atining ayrim ko'rinishlari paydo bo'lgan", – deb yozadi.¹ Darhaqiqat, shu

davrlarda sirk va attraksion tomosha turlari xalq ichida qiziqish uyg'otib, o'z muxlislariga ega bo'la boshlagan. Bular turli xil janrdagi original badiiy yechimi, qiziqarli tryuklarga boyligi bilan ajralib turuvchi, sahna maydonida namoyish qilish uchun moslashtirilgan ajoyib estrada va sirk tomoshalari bo'lgan. Akrobatlar, jonglyorlar va arqonda yuruvchilar o'zlarining turli xil tryuklarini raqs elementlari bilan birlashtirib, boyitilgan harakatlarni tuzishgan.

Yevropa estrada sahnasida nafaqat sirk tomoshalari, balki sirk elementlari bilan boyitilgan turli "zamonaviylashgan" uslubdagi raqs paydo bo'la boshladi. XIX asrning 80-yillaridan boshlab, Turkiston o'lkasiga kela boshlagan rus sirklarining repertuarida raqs nomerlari ham bor edi. Asr oxirida Turkiston o'lkasida mashhur bo'lgan sirk tomoshalari tadbirkorlaridan biri F.A.Yupatovning jamoasi rus va xorijlik san'atkorlardan iborat edi. Keyinchalik ular qatoriga o'zbek aktyorlari – mashhur masxaraboz va qiziqchilar ham kirib kelishdi. 1913-yilda Toshkentda mahalliy tadbirkor va mesenant G.M.Sinsadzega tegishli Kolizey teatri qurildi. Shunisi e'tiborga loyiqki, ushbu

¹ Boreyko A. Oriental Art and Culture. Scientific-Methodical Journal. 2022. P.772.



Kolizey teatrida Evropa shaharlari qiyofasida estrada shoulari uchun sahnaga ega restoran mavjud bo'lib, u erda ko'pincha musiqachilar va qo'shiqchilar bilan bir qatorda zamonaviy raqs ijrochilari chiqish qilishadi.

XIX asr oxirida Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon va boshqa shaharlarda Evropa san'atining zamonaviy yutuqlarini, shu jumladan, raqs san'atini targ'ib qilish, ijodiy uchrashuvlar tashkil etuvchi havaskor truppalari, turli teatr, xoreografiya, musiqa jamiyatlari tuzilgan. Shunday qilib, ushbu teatr konsert va sirk ijodiy jamoasi faoliyati Turkiston o'lkasi aholisining san'at turlari bilan tanishishga, xususan, raqs san'atini rivojlantirishga imkoniyat berdi.

1932-yilda O'zbekiston xalq Maorifi komissarligi qoshida Davlat musiqa, estrada va sirk uyushmasi tuzildi. Bu uyushmaga respublika hududidagi barcha xususiy konsert truppalari birlashdi. O'zbekistonda konsert faoliyatini rivojlantirish, ijodiy jamoalar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida katta ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonlik yosh san'atkorlar ijrosidagi yangi musiqiy, vokal va raqs asarlari ularning repertuaridan joy oldi.

1954-yilda O'zbekiston madaniyat vazirligi qoshida "O'zbek davlat estrada" birlashmasining tashkil etilishi, 1972-yilda Botir Zokirov rahbarligidagi Sharqda birinchi va Ittifoqdagi uchinchi o'rinda turgan estrada guruhining faoliyati o'zbek estrada san'atining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Xususan, B.Zokirov yangi jamoaning balet truppasi tarkibiga respublikamizning taniqli madaniyat namoyandalardan Inna Gorlina (xoreograf), Galina Zokirova, Tatyana Vlasova, Natalya Varyuxina, Zulayho Rahmatullayeva, Narzul Galiyeva, Munira Arg'unboyeva, O'zbekiston xalq artisti Tamara Yusupovalarni taklif qilgan. Shu tariqa o'zbek estrada san'ati negizida estrada va zamonaviy raqs san'ati shakllana boshladi.

1975–1980-yillarda mamlakatimizning turli viloyat va shaharlarida faoliyat olib borayotgan madaniyat va san'at saroylarida zamonaviy ball raqs ansambllari tuzila boshlandi.² Masalan, V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasining "Grammofon" diskoteka klubi, Turchinlar oilaviy juftligi rahbarligidagi "Yoshlik" («Молодость»), Lilya Sevastyanova rahbarligidagi "Zamonaviy xoreografiya va plastika san'ati" ansambli, "Fantaziya" kabi ansambllarni alohida e'tirof etsa arziydi. Ular o'z ijodiy faoliyati davomida ko'plab konsert dasturlari bilan tomoshabinlar olqishiga ega bo'ldilar. Bir necha bor respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilgan nufuzli ko'rik-tanlovlarda qatnashib laureat bo'lishdi va

diplomlarni qo'lga kiritishdi. Respublika va xorijiy davlatlarga ijodiy dasturlari bilan gastrol safarlarga chiqishga muvaffaq bo'ldilar. Xususan, Farg'ona shahridagi "Ximik" Madaniyat saroyida mahoratli raqqos va baletmeyster Sergey Aleksandrovich Fedorov rahbarligida tashkil etilgan "Fantaziya" va boshqa ko'plab raqs ansambllari tez orada xalq e'tiboriga tushdi. Ular Turkiya, Bolgariya, Germaniya davlatlarida bo'lib o'tgan xalqaro festivallar, ko'rik-tanlovlarning laureati bo'lib qaytishgan.

Zamonaviy raqs san'at sifatida qay darajada muhim? Amerikalik raqqosa va erkin raqs asoschisi Aysedora Dunkan: *"Hammani raqsga o'rgatish kerak, bu odamlar uchun "tabiiy holat" bo'lishi kerak"*, – deb hisoblardi. Zamonaviy raqsning muhimligi ham shundaki, u insonning ruhiyati va tanasidagi stressni kamaytirishga yordam beradi. Zamonaviy raqs – erkinlikning kalitidir. Bu odamga o'zini namoyon qilishga yordam beradi va ba'zi odamlar uchun terapevtik muolaja ham bo'lishi mumkin. Insonni jismonan faol bo'lishga, yangiliklarni o'rganishga, stressdan xalos bo'lishga, o'zini namoyon qilishga undaydi. Zamonaviy raqsni har qanday yoshda o'zlashtirish mumkin, chunki bu raqs birinchi navbatda hissiyotlar raqsidir. Inson o'zini rivojlantirishni, taraqqiy etishini, erkin harakatlanishni, maqsad sari intilishni, tana va ongning moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Zamonaviy raqsning amaldagi usullari insonning tabiiyligi va energiyasiga mos keladi, chunki ular baletga qaraganda ko'proq egiluvchanlik va harakatchanlikni ta'minlaydi. Zamonaviy raqsning eng xarakterli jihati, tana holatining tabiiy chiziqlaridir. Unda ko'proq erkinlik bor. Bu uslubning chegaralari jazzga va undan ham ko'proq klassik raqsga qaraganda ancha kengroq. Masalan, zamonaviy ko'cha raqsi turli mintaqalarning ijtimoiy va madaniy sharoitlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan. Xususan, breyk va xip-xop Nyu-Yorkda paydo bo'ldi va tezda DJing, rap va graffiti bilan bir qatorda madaniy hodisaga aylandi.


O'zbekistonda bugungi kunda zamonaviy raqs san'atining ayrim turlari shakllangan va ular o'ziga xos xususiyatlarga ega.³


1. **Breking uslubi** – ko'plab akrobatik elementlarni o'z ichiga olgan murakkab va dinamik raqs turi hisoblanadi. Biroq buni jismoniy va sport tryuklari to'plami, deb hisoblash mutlaqo noto'g'ri. Bu uslubda musiqani eshitish, his qilish va ijro etish qobiliyati ham, badiiy mahorat ham yuqori bo'lishi talab qilinadi.

Mamlakatimizda Breking raqsining paydo bo'lish tarixi boshqa ko'plab zamonaviy raqs turlaridan farq qiladi. Raqsning bu uslubi poytaxtda ham, hattoki, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida ham faol rivojlandi. 2014-yilda "Ilhom" teatri sahnasida "RedBull BC One" xalqaro tanlov uchun birinchi tanlov bo'lib o'tdi.

² Дмитриев Ю. Письмо о Ташкенте. <https://mytashkent.uz.2020.07.30>.

³ <https://Hook.report.2024.avgust.modern.dance>.





Shuni ta'kidlab o'tish joizki, joriy yildan boshlab breyk Yozgi Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritildi.

2. **Hip-hop uslubi** – Breykdan farqli o'laroq, Hip-hop ifoda, moslashuvchanlik va ravonlikni ta'kidlab, san'atkorlarga raqs orqali o'z his-tuyg'ularini erkin ifoda etish imkonini beradi. 2005-yilda o'zining raqs maktabini ochgan Sergey Zlotnikov O'zbekistonda Hip-hopni ommalashtirganlardan biri sanaladi.

Sergey Zlotnikov va uning jamoasi bir necha bor tadbirlarni tashkil qilishda qatnashgan, mahalliy va xorijiy ijrochilarning kliplarida tasvirga tushishgan va televideniye ko'rsatuvlarida ijodiy ishlari bilan qatnashgan. S.Zlotnikov, shuningdek, Double Touch raqs guruhiga asos solgan. Unda raqs san'atining turli uslublarida faoliyat olib borayotgan ko'plab taniqli o'zbek raqqosalari yetishib chiqqanlar. Hozirda O'zbekistonda Hip-hopni Yang Li va Vladimir Meshcheryakov faol namoyish etib, Markaziy Osiyoning yirik ko'rik tanlovlarida sovrinli o'rinlarni egallab kelmoqdalar.

3. **Popping uslubi** – O'zbekistonda Electric Boogaloos jamoasi Poppingning asoschisi va ommabopi hisoblanadi. Ushbu uslubda raqsning asosiy xususiyati, mushaklarning keskin qisqarishidir. Vaqt o'tishi bilan Popping boshqa kichik uslublar sifatida tushunila boshlandi, masalan, raqqosaning harakatlari suvning to'liqli va mayin oqimiga o'xshaydi yoki robotning harakatiga taqlid qilishi bilan e'tiborlidir.

4. **Dancehall uslubi** – Yamaykada 70-yillarda reggining yuqori templi versiyasi bilan paydo bo'lgan. Uslub asosan tos suyagi sohasining harakatlariga va qadamlarga qaratilgan. Dancehall Hip-hop va Tverking raqs uslublarining elementlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, raqs ijrosi tajovuzkor bo'lgani kabi quvnoq ham bo'lishi mumkin.

5. **K-Pop uslubi** – bu uslubning o'ziga xosligi koreys raqs uslubi ekanligidir.

K-Pop raqslari uch va yetti kishidan iborat guruhlarda ijro etiladi. Agar Hip-hop yoki Poppingda improvizatsiya qilinishi mumkin bo'lsa, K-Popda barcha harakatlar xoreograf tomonidan oldindan sahnalashtiriladi. O'zbekistonda K-Pop raqs madaniyati bundan besh yil avval paydo bo'lgan. Hozirda ko'plab jamoalar mavjud bo'lib, ularning eng mashhurlari Agma, Encore, Pikachu, STC, KND. Mazkur raqs uslublarini targ'ib qilishda, Koreyaning O'zbekistondagi elchixonasi faol rol o'ynaydi.

Zamonaviy raqslarning yana bir alohida

yo'nalishi – klublarda shakllangan zamonaviy moda raqsidir. Ushbu uslub modelning yurishi, holatlari va obrazlarga taqlid qilish natijasida paydo bo'lgan. Shuning uchun ma'lum bir musiqa ostidagi raqsning namoyishida kiyilgan liboslarga katta e'tibor qaratiladi.

Mamlakatimizda zamonaviy raqsning ommalashib borayotgan "Kelajak o'yinlari" sport musobaqasining Digital Dance turi hisoblanadi. Digital Dance jismoniy harakat va kompyuter faoliyatining omuxtalashgan ko'rinishidir. Raqs ko'plab ishtirokchilarni jalb qiladi, chunki u maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydi va raqs namoyishlari raqs konkursi shaklida o'tkaziladi. Bugungi kunda Digital sportni rivojlantirish, nufuzli sport musobaqalarida ishtirok etish uchun O'zbekiston terma jamoasiga sportchilarni saralab olish maqsadida, Digital raqs Just Dance bo'yicha I Respublika chempionati bo'lib o'tmoqda. Mintaqaviy bosqich g'olib jamoalari respublika bosqichida ishtirok etadilar va eng iste'dodli, deb saralangan sportchilardan O'zbekiston terma jamoasi tarkibi shakllantiriladi. Tanlangan terma jamoa a'zolari 2025-yilda Birlashgan Arab Amirliklarida bo'lib o'tadigan "Kelajak o'yinlari – 2025" sport musobaqalarida qatnashadilar.

Raqs san'ati insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy ozuqa beradi. Hozirgi vaqtda o'zbek zamonaviy raqs san'ati xoreografiyaning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy bilimlar, ilg'or texnologiyalardan foydalanilgan holda yosh avlodni ma'naviy, estetik tarbiyalashda soha mutaxassslari oldiga qo'yilgan vazifa hisoblanadi. Malakali mutaxassslarni tayyorlash maqsadida, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 60211600 – Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta'lim yo'nalishi ochildi. Bu ta'lim yo'nalishida talabalarni o'qitish va kasbiy tayyorlash uchun malakali mutaxassslar jalb qilingan. Barcha pedagog-xoreograf va baletmeysterlar o'zbek milliy raqs san'ati qatorida o'zbek zamonaviy raqs san'atini ham xalqaro miqyosda o'z mavqeiga ega bo'lishi uchun tinmay ijodiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Davlatimiz rahbari tomonidan Yangilanayotgan O'zbekistonimizni barpo qilishda barkamol avlodni tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijrochilik malakalarini shakllantirish, soha mutaxassslari oldiga qo'ygan vazifalarga ma'suliyat bilan qarash hamda amalga oshirish har bir pedagogning kasbiy burchi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abraykulova N.E. World scientific research journal. Volume-33_Issue-1 // 2024 year, november. P.102–107.
2. Abraykulova N.E. Oriental Art and Culture. Scientific-Methodical Journal. 2023 year. P.404–406.
3. Аманмурадова С., Хегай Д. Современный танец. – М.: 2017 г.
4. Boreyko A. Oriental Art and Culture. Scientific-Methodical Journal. 2022 year. P. 772–776.

NOMODDIY MADANIY MEROS VA SAN'AT

ANNOTATSIYA. O'zbek xalqining nomoddiy madaniy merosidagi "O'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakli va an'analari" yo'nalishiga muvofiq etnik turmush tarzida asrlar davomida avloddan avlodga, otadan farzandga, ustozdan shogirdga o'tib kelayotgan og'zaki so'z san'ati bilan boshqa an'anaviy namunalar orasidagi o'zaro bog'liqlik tasodifan yoki sun'iy ravishda sodir bo'lmaganligi va ular ijtimoiy-madaniyatning evolyutsion qonunlari ta'sirida bizgacha yetib kelgan milliy qadriyatlardir.

KALIT SO'ZLAR: etnos, folklor, mif, madaniy meros, badiiy adabiyot, teatr, kino.

АННОТАЦИЯ. В соответствии с направлением «Устные формы и традиции самовыражения» в нематериальном культурном наследии узбекского народа исследуется связь устного творчества с другими традиционными образцами, которые передавались из поколения в поколение, от отца к сыну, от учителя к ученику. На протяжении веков в этническом укладе жизни, не возникали случайно или искусственно, а являются национальными ценностями, дошедшими до нас под воздействием эволюционных законов социокультуры.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: этноцентризм, фольклор, миф, культурное наследие, художественная литература, театр, кино.

ANNOTATION. According to the direction of "Oral form and traditions of self-expression" in the intangible cultural heritage of the Uzbek people, the interdependence between the art of spoken word and other traditional examples, which has been passed down from generation to generation, from father to child, from father to child, from teacher to student, in the ethnic lifestyle did not happen by chance or artificially, and they are national values that have reached us under the influence of the evolutionary laws of socio-culture.

KEY WORDS: ethnos, folklore, myth, cultural heritage, fiction, theater, cinema.


Har bir etnik guruhning milliy o'ziga xos madaniy-ma'rifiy, ma'naviy va estetik qarashlari ifodalanishida etnomadaniy yo'nalishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Zotan, turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy sferasidagi har qanday ma'no so'z vositasi orqali namoyon bo'lishi, isbot qilinmasligi e'tiborga olinsa, nomoddiy madaniy merosda folklor an'anasi badiiy nutq orqali namoyon etilgan.

"San'at" arab tilidan kirib kelgan atama bo'lib, "hunar", "kasb", "sanoat" kabi ma'nolarni anglatuvchi so'zdir. U odamzod o'zi yashab turgan dunyoning turli tabiat hodisalari, tabiat go'zalliklari va insoniy munosabatlar doirasidagi qalb kechinmalariga his-tuyg'u orqali obrazli badiiy ifodalash natijasida paydo bo'lgan. Shuning uchun ham san'at ilohiy tushuncha sifatida faqat inson bilan birgalikda tasavvur qilinadi. Insoniyatning nomoddiy madaniyati ilk debochasi hisoblangan miflar san'atining asosiy manbaidir. Istalgan xalqning mifologiyasi hayratlanish tuyg'usi orqali paydo bo'lganligini "Asotirlar va rivoyatlar", "Dunyo xalqlari mifologiyasi" va bugungi kungacha xalq og'zaki, jonli so'zlashuv nutqidagi fantastik tasvirga ega ramziy inonchlarni kuzatish mumkin. Masalan, "Sulaymon o'lib, devlar qutuldi", "Daqqi

Yunusdan qolgan-ku" kabi oddiy iboralar, "Oq ilon, oppoq ilon, oydinga yotganing qani" singari folklor qo'shig'idagi dev, daqqi Yunus, oq ilon kadi mifologik ramzlar ko'plab uchraydi.

Dunyo xalqlari etnomadaniyatida mifologiya san'atning boshlanishi, deya unga yondashuvchi olimlar jamiyat tarixidagi tabiatga qarshi qurol vazifasini bajargan, deb baholaydilar. Vaholanki, inson aql-idroki ojizligini so'z kuchi magiyasi yordamida aks ettirib, ilk badiiy ramzlar yaratishga muvaffaq bo'lgan. Olimlarning e'tirof etishicha, qadimgi odamning o'zini qurshab turgan olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari mifologiyada aks etgan. Oradan millionlab yillar o'tishiga qaramay, odam farzandlari ota-bobolarining ibtidoiy tasavvuri hisoblangan miflarga nisbatan e'tiborlarini yo'qotgan emas.

Folklorshunos M.Jo'rayevning ta'kidlashicha, odamlar olam haqidagi dunyoqarashlarini avloddan avlodga yetkazishda asosan jonli ijro usuli orqali hikoya qilib berishgan va shu tariqa folklorning afsona janri shakllanishiga asos bo'lgan. Darhaqiqat, dunyo folklorshunosligida ham miflar insoniyat madaniyatining insoniyat tafakkur taraqqiyoti uchun muhim manba ekanligi E.Taylor, J.Frezer, A.Kun, M.Miller, A.Potebnya



va Y.Meletinskiy va boshqa olimlar tadqiqotlarida ta'kidlangan. *"Mif – bu muayyan voqelik bayoni bo'lib, unda hikoya qilingan voqea-hodisalar nechog'lik uydirma yo'nalishida bo'lmasin, yaratilgan va ular makon yashab kelgan joyda hamisha haqiqat, real voqelik ifodasi sifatida qabul qilinadi"*,¹ – deya ta'riflaydi folklorshunos M.Steblin-Kamenskiy.

Ilm-fan taraqqiy etgan va turli-tuman axborot olish imkoniyati mavjud davrda ham insonlar kundalik turmush tarzi hamda shaxsiy hayotlarida mifologiyaga asoslangan irimlar, udumlar, urf-odatlariga hamon inonch bilan munosabatda yashamoqda. Buni nomoddiy madaniyatga kiruvchi etnik turmush tarzi manzaralari orqali ko'rsatish mumkin. Zero, mifologiya ruhidagi juda ko'plab o'zbek an'analari YUNESKO tomonidan e'tirof etilgan bo'lib, nomoddiy meros sifatidagi umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi, deya baholanadi (YUNESKoning

2003-yil, 15-oktyabr Parijda qabul qilingan Konvensiyasi).

Ijtimoiy ong shakliga kiruvchi turli fan sohalari tadqiq doirasida xalq tomonidan ming yillar muqaddam yaratilgan og'zaki so'z san'atidagi mifologiyaga oid elementlarni e'tibordan qoldirgandek tuyuladi. Masalaga mantiq nuqtayi nazaridan yondashilsa, tariximizda buyuk kashfiyotlar qilgan alloma-yu olimlar, shoirlar va davlat arboblari hozirgi biz yashayotgan yurt tuprog'i va undagi turli-tuman nomoddiy madaniy an'analar muhitida go'dakligi, bolaligi, o'smirligi va yigitlik davrlarini o'tkazishgan. Chunki oilaviy va ijtimoiy muhit insonning xarakteri hamda ma'naviy-ma'rifiy qobiliyati shakllanishida asosiy omil ekanligini hech kim inkor qilmaydi. Agar bugungi kungacha maydonga kelgan va faoliyat ko'rsatayotgan san'at turlari taraqqiyot jarayoniga yuqorida bayon etilgan fikrlar nuqtayi nazaridan yondashilsa, milliy madaniyatda folklorning og'zaki ijod an'analari ta'siri u yoki bu darajada o'z ta'sirini hanuz yo'qotmay kelayotganligini anglaymiz.

¹ Миф. – Л.: «Наука», 1976 г. 4 с.



Ushbu ta'sirning yorqin namunasini san'atning badiiy adabiyot, teatr, kino (animatsiya), qo'shiq, raqs, sahna va maydon tomoshalari san'ati hamda folklor-etnografik jamoalar san'ati kabi turlari rivojlanish yo'llarida ko'rishimiz mumkin.

XXI asr boshiga kelib, G'arb dunyosi olimlari juda keskin va xatarli muammo demografik omil, ya'ni oila va ijtimoiy munosabat an'analari inqirozi boshlanganligini aniqlab, uning asosiy sababini ko'rsatdilar. O'sha olimlar orasidagi taniqli faylasuf Patrik Byukenen demografik vaziyatning keskinlashuviga azaliy urf-odat va qadriyatlarning yemirilayotganligi, bu salbiy holat kishilarning ongi va dunyoqarashi yomon tomonga o'zgarishida aks etayotganligi bilan belgilanadi, degan xulosa chiqargan².

Nomoddiy madaniy merosning eng qadimiy va azaliy qadriyati hisoblangan xalq og'zaki ijodi, qaysidir bir tomondan milliy o'zlik saqlanib qolishi uchun u yoki bu darajada xizmat qilganligi tabiiy. Chunki yurtimiz ilm-fan va san'at sohasida yetishib chiqqan aksariyat insonlar o'zlarining xarakter va tafakkur faoliyatlari shakllanishida ona tomonidan aytilgan allalar-u, buvi va bobolar pand-nasihatlar, bayon etgan ertaklari poydevor bo'lganligini e'tirof etish mumkin. Binobarin, xalq milliy qadriyatlari ummonida voyaga yetgan har qanday odam ilm-fan yoki san'at sohasi bilimdoni bo'lmasa ham qalbi insoniy fazilatlarga to'la oddiy shaxs bo'lib shakllanadi. Taqdir taqozosi bilan Respublika madaniyat markazlari yoki zamonaviy axborot vositalari kam yetib borgan uzoq qishloq va ovullar, tog' oralig'ida ota-bobolari azaldan hayot kechirib kelgan joylarga borganimizda, oddiy bir onaxon yoki otaxonning so'z boyligi nechog'lik


normal darajadali, nutqlari eshituvchiga ta'sirchanligi va eng asosiysi, o'tmish avlodlari tomonidan aytib kelingan ibora, maqol, naqlar, umuman, og'zaki ijodga oid namunalarni so'zlab berganlarida, xuddi bir aktyor teatri tomoshasida zavq olgan kabi taassurotlar paydo bo'lganligini ta'kidlash joiz. Demak, insoniyatning tamadduni faqat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy va ilmiy-texnologik yutuqlarni qo'lga kiritish bilan cheklanmas ekan.

XXI asr boshlariga kelib, aksariyat rivojlangan davlatlar ma'naviy-madaniy hayotida yuz berayotgan axloqiy inqirozlar, xususan, oila institutidagi salbiy holatlar dunyo hamjamiyati olimlarini tashvishga sola boshladi. Chunonchi, azaliy diniy qadriyatlar bilan birga axloqiy an'analari zamonaviy virtual olomon tomonidan rad etila boshladi. Bu holatni "ommaviy madaniyat", deb nomlangan tushuncha bilan rag'batlantirish, unga ergashmaydiganlar esa "qoloq odamlar", deya jamiyatsizlikdan chetlantirilayotgandek tuyulmoqda. Dunyoning aksariyat yoshlari tomonidan qabul qilingan milliy-madaniy axloqqa zid va qadimgi ota-bobolar tomonidan azaliy inkor etilgan, qarg'ishga uchragan illatlar xuddi epidemiya singari qo'shni mamlakatlar turmush tarziga ham ta'sir eta boshladi. Xususan, etnik turmush tarzida azaliy milliy qadriyatlar barham topmagan Markaziy Osiyo hududida ham "ommaviy madaniyat" o'z qiyofasini ko'rsata boshlaganligi davlatimiz rahbari va xalq milliy qadriyatlari bo'yicha mutaxassislarida jiddiy tashvish uyg'otdi. Shuning uchun ham nomoddiy milliy merosni saqlab qolish, undan jamiyat ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishida faol bahramand bo'lish masalalari kun tartibiga qo'yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T. Xalq baxshilari epik repertuarining asosiy xususiyatlari. – T.: "Fan", 1979-y.
2. Zarifov X. O'zbek folkloristikasi tarixidan. O'zbek sovet Folklori masalalari. – T.: 1970-y.
3. Jalolov G'. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. – T.: "Fan", 1976-y.
4. Jo'rayev M. Marosimnoma. – T.: "Yangi asr avlodi", 2007-y.
5. Toshmatov O'. O'zbekiston nomoddiy merosi. – T.: 2017-y.
6. Imomov K. Dostonlarda ertak motivlari. O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar (3-kitob). – T.: "Fan", 1973-y.
7. Узбекский народный героический эпос. – М.: ГИХЛ, 1947 г.
8. Жураев М. Магические числа узбекских народных сказках. АҚД. – Т.: 1987 г.
9. Toshmatova K. O'zbekiston nomoddiy merosi (O'quv qo'llanma). – T.: 2023-y.

² Qarang: Tamaddun: xatarli alomatlar. – T.: "Tafakkur", 2010-y. 5-bet.





FOLKLOR IJROCHILIGINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada folklor ijrochiligining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ilmiy-nazariy va empirik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Folklor san'atining milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash, axloqiy tarbiya, ijodiy tafakkur va estetik idrokni shakllantirishdagi roli har tomonlama tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: folklor ijrochiligi, milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, estetik did, ijodiy tafakkur, madaniy meros, dostonchilik, baxshichilik.

Аннотация. В данной статье анализируется на основе научно-теоретического и эмпирического подходов значение фольклорного исполнительства в воспитании молодежи. Всесторонне исследуется роль искусства в углублении национального сознания, в укреплении исторической памяти, в формировании творческой мысли и эстетического сознания.

Ключевые слова: фольклорное исполнительство, национальные ценности, моральное воспитание, эстетический вкус, творческая мысль, дostonchilik, bakhshichilik.

Annotation. This article analyzes, on the basis of a scientific, theoretical and empirical approach, the importance of folklore performance in the education of youth. The role of art in the awareness of national consciousness, in strengthening historical memory, in the formation of creative thought and aesthetic consciousness is comprehensively explored.

Key words: folklore performance, oral folk art, national values, moral education, aesthetic taste, creative thought, dostonchilik, bakhshichilik.

Har bir millatning madaniyati va ma'naviy merosi uning folklor san'atida o'z aksini topadi. Folklor – xalqning asrlar davomida shakllangan og'zaki ijodi bo'lib, unda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar mujassam etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yoshlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy olamini boyitish bizning ustuvor vazifamizdir" [3]. Shu nuqtayi nazardan, folklor ijrochiligi yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi.


Folklor ijrochiligi orqali yoshlar milliy o'zlikni anglaydi, tarixiy xotirani mustahkamlaydi va estetik didini rivojlantiradi. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida yoshlarning ma'naviy va estetik tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan [4]. Ushbu qonunda yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Prezidentimizning so'zlariga ko'ra: "Folklor san'ati xalqimizning boy ma'naviy merosi bo'lib, u yoshlarimizni vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-oqibat ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega" [3]. Shu bois, folklor ijrochiligini rivojlantirish va uni yoshlar orasida keng targ'ib qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Folklor ijrochiligi va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Masalan, M.Jo'rayev va J.Eshonqulov o'zlarining "Folklorshunoslikka kirish" nomli o'quv qo'llanmasida o'zbek xalq folklor san'atining tarixi, rivojlanish bosqichlari va folklorshunoslik maktablari haqida batafsil ma'lumot berishgan. Ushbu asarda folklorning tur va janrlarga bo'linishi, motiv va syujet, shuningdek, o'zbek folklorshunosligining tarixiy taraqqiyoti kabi masalalar yoritilgan [1.256.]. Shuningdek, Sh.Rahimov tomonidan yozilgan "Yosh avlodni tarbiyalashda xalq musiqa an'analari" nomli maqolada xalq musiqa an'analari orqali yoshlarning ma'naviyatini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda yoshlarga xalq musiqa an'analari va ular haqidagi to'laqonli tasavvur, bilim va malakalar berish asosida kelajak avlod ma'naviyatini shakllantirish muhimligi ta'kidlangan [2.22.].

Bundan tashqari, A.Karimovning "Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fanlararo yondashuv" nomli maqolasida o'zbek xalq dostonchiligida tarixiy turkumlik va uning boshqa turlari, xususan, biografik va nasliy turkumlikka nisbatan asosiy o'rni haqida so'z yuritilgan. Ushbu maqolada folklor asarlarining ilmiy o'rganilishi va ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilingan [3.18.]. A.Sunnatullayevning "Folklor-etnografik jamoalar bilan ishlash uslubiyoti" asarida folklor jamoalari bilan ishlashning uslubiy asoslari, ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berilgan. Ushbu tadqiqot folklor ijrochiligini yoshlar orasida targ'ib qilishda



muhim manba hisoblanadi [4.27.]. Shuningdek, Sh.Turdimovning “Folklor va etnografiya” nomli o’quv qo’llanmasida o’zbek folklorining tur va janrlari, ularning kelib chiqishi va rivojlanishi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur asar folklor ijrochiligidagi yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini o’rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi [5.33.].

M.Pirmatovanning “O’zbek bolalar mavsumiy marosim qo’shiqlarining poetikasi” nomli dissertatsiyasida bolalar mavsumiy marosim qo’shiqlarining genezisi, janr xususiyatlari va badiiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda ushbu qo’shiqlarning o’ziga xos poetik xususiyatlari va ularning yoshlar tarbiyasidagi o’rni yoritilgan [6.45.]. A.Esanovning “O’zbek bolalar folklorida mavsumiy marosim qo’shiqlari” nomli dissertatsiyasida bolalar mavsumiy marosim qo’shiqlarining janr xususiyatlari, poetikasi va ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati o’rganilgan. Tadqiqotda ushbu qo’shiqlarning bolalar tarbiyasidagi roli va ahamiyati tahlil qilingan [7.58.]. Ushbu manbalar folklor ijrochiligidagi yoshlar tarbiyasidagi o’rni va ahamiyatini o’rganishda nazariy asos bo’lib xizmat qiladi. Ular orqali folklor san’atining yoshlar ma’naviyatini boyitish, tarixiy xotirani shakllantirish va estetik didni rivojlantirishdagi o’rni haqida chuqurroq tasavvurga ega bo’lish mumkin.

Folklor ijrochiligidagi yoshlar tarbiyasida o’rganish uchun ilmiy tahlil va tadqiqot metodologiyasiga kompleks yondashuv qo’llanildi. Ushbu tadqiqotda tarixiy taqqoslama, madaniyatshunoslik, semiotik va komparativ (qiyosiy) tahlil metodlaridan foydalanildi. Shu bilan birga, folklor san’atining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini belgilash uchun lingvistik va psixologik yondashuvlar ham tadqiqot jarayoniga jalb etildi.

Tarixiy taqqoslama tahlil orqali folklor ijrochiligidagi kelib chiqishi, uning rivojlanish bosqichlari va turli tarixiy sharoitlarda yoshlar tarbiyasidagi o’rni o’rganildi. Ushbu yondashuv natijasida xalq og’zaki ijodi namunalarining o’zgarish dinamikasi va ularning tarbiyaviy ahamiyati aniqlangan bo’lib, xalq dostonlari, askiya va baxshichilik kabi janrlarning tarbiyaviy omillar sifatidagi roli mustahkamlangan. Folklor janrlarining zamonaviy yosh avlodga ta’sirini o’rganishda ularning axloqiy va estetik tarbiyadagi o’rni tahlil qilingan.

Madaniyatshunoslik metodologiyasi asosida folklor san’atining milliy madaniyat va ma’naviyatni shakllantirishdagi roli o’rganildi. Folklor namunalarining tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati madaniy kodlar orqali tahlil qilinib, xalq og’zaki ijodi asarlarining ma’naviy, axloqiy va estetik qirralari aniqlandi [2.85.]. Ushbu metodologiya asosida folklor ijrochiligidagi milliy o’zlikni anglash va ijtimoiy tajribani yosh avlodga uzatish jarayonlari ochib berildi.

Semiotik tahlil usuli yordamida folklor san’ati tarkibiy tuzilishi, undagi timsollar tizimi va ba-

diy ifoda vositalari tahlil qilindi. Folklor namunalari milliy axloqiy normalar, odob-axloq qoidalari va ijtimoiy munosabatlar ko’zgudagi aks sifatida namoyon bo’lishi tadqiq qilindi. Xususan, baxshichilik an’analar orqali milliy vatanparvarlik, mardlik, oliyanoblik kabi qadriyatlar targ’ib etilishi aniqlandi.

Komparativ tahlil usuli yordamida o’zbek xalq folklori boshqa xalqlarning folklor an’analar bilan qiyoslandi. Tadqiqot natijalariga ko’ra, o’zbek xalq og’zaki ijodi namunalarining umumiy an’analar turkiy xalqlar folklori bilan chambarchas bog’liq bo’lib, baxshichilik san’ati va dostonchilik an’analar o’zining tarbiyaviy jihatlari bilan ajralib turadi [4.112.]. Ushbu tahlil natijasida folklor san’atining universal xususiyatlari va milliy o’ziga xoslik jihatlari ochib berildi.

Lingvistik tahlil folklor san’atining estetik va psixologik ta’sirini o’rganishga xizmat qildi. Xalq qo’shiqlari, dostonlar va askiyalarning badiiy ifoda vositalari orqali axloqiy qoidalarning ifodalanish xususiyatlari aniqlangan bo’lib, xalq maqollari va matallarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilindi. Xalq og’zaki ijodiyoti namunalarida nutq madaniyati va muloqot etikasining shakllanishi va mustahkamlanishi tasdiqlandi.


Folklor ijrochiligidagi yoshlar tarbiyasidagi o’rni chuqur ilmiy tahlil qilindi va qator muhim natijalarga erishildi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, xalq og’zaki ijodi va folklor janrlari yosh avlodning axloqiy, estetik va ijtimoiy rivojlanishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Folklor san’atining tarbiyaviy ta’siri quyidagi asosiy yo’nalishlarda namoyon bo’lishi aniqlandi:

- *milliy o’zlikni anglash va tarixiy xotirani mustahkamlash – dostonchilik, baxshichilik va xalq qo’shiqlari yoshlar ongida milliy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda an’anaviy folklor janrlarining zamonaviy formatda ifodalanishi, ularning ommaviyligi va ta’lim tizimidagi o’rni muhim ahamiyat kasb etadi;*

- *axloqiy tarbiya va ijtimoiy me’yorlarning shakllanishi – folklor san’ati orqali yosh avlodga insonparvarlik, hurmat, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi tushunchalar singdiriladi. Xalq ertaklari, maqollar va dostonlarda tarbiyaviy omillar ustuvor bo’lib, ular ma’naviy qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi;*

- *ijodiy tafakkur va muloqot madaniyatining rivojlanishi – askiya, latifalar va xalq qissalari yoshlarning muloqot madaniyatini shakllantirib, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Notiqlik san’ati va badiiy ifoda shakllari orqali yoshlarda ijodiy tafakkur va og’zaki nutq madaniyati rivojlanadi;*

- *estetik didning shakllanishi – folklor san’ati o’zining musiqiy, adabiy va badiiy jihatlari orqali yoshlarning estetik idrokini shakllantiradi. Xalq musiqasi, raqs va teatr san’ati folklor vositasida yoshlar orasida madaniy ongni rivojlantiradi.*





Folklor ijrochiligi yoshlar tarbiyasiga ta'sir qilish modeli

Ta'sir omili	Folklor janrlari	Tarbiyaviy ta'sir yo'nalishi	Natijalar
Tarixiy xotira va milliy identifikatsiya	Dostonlar, baxshichilik, xalq qo'shiqlari	O'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni singdirish	Yoshlar orasida tarixiy ongning kuchayishi, milliy merosga hurmat ortishi
Axloqiy tarbiya va ijtimoiy me'yorlar	Ertaklar, maqollar, hikmatli so'zlar	Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish	Yosh avlod orasida insonparvarlik, hurmat va adolat tushunchalarining mustahkamlanishi
Ijodiy tafakkur va fikrlash qobiliyati	Askiya, latifalar, xalq hikoyalari	Tezkor fikrlash, nutq madaniyatini rivojlantirish	Notiqlik qobiliyatining rivojlanishi, kreativ fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi
Estetik did va badiiy idrok	Xalq musiqasi, raqs san'ati, xalq teatr an'analari	Musiqi va san'at orqali badiiy estetik qobiliyatlarni rivojlantirish	Badiiy tafakkur rivojlanishi, san'at va madaniyatga qiziqish ortishi

Natijalar shuni ko'rsatadiki, folklor san'ati yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda ko'p qirrali rol o'ynaydi. Xalq ijodi asarlari orqali milliy identifikatsiya mustahkamlanadi, estetik tafakkur rivojlanadi va ijtimoiy me'yorlarga amal qilish ko'nikmalari shakllanadi. Ayniqsa, folklor san'atining ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi uning yoshlar hayotidagi ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Folklor san'atining zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unligi ham muhim omil bo'lib, uning yoshlar orasida qabul qilinishini oshirish imkonini beradi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali folklor san'ati targ'ib qilinishi, uning zamonaviy interpretatsiyalari yaratilib, an'anaviy va yangi formatlar bir-biri bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Bu borada milliy madani-

yat markazlari, ta'lim muassasalari va ijodiy uyushmalarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, folklor san'ati turli xalqlar madaniy merosini o'rganish va millatlararo muloqotni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning boy folklor an'analari xalqaro madaniy festivallar va tadbirlarda keng namoyon etilishi ushbu san'atni ommalashtirish imkonini beradi.

Bizning olib borgan kichik doiradagi tahlil natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, folklor ijrochiligi yoshlar tarbiyasida ko'p qirrali ahamiyatga ega bo'lib, u milliy qadriyatlarni saqlash, tarixiy xotirani mustahkamlash, axloqiy tarbiya va estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa va mulohazalarimizga tayangan holda quyidagilar taklif sifatida berildi:

- *folklor ijrochiligi ta'lim tizimiga keng integratsiya qilinishi – xalq dostonlari, baxshichilik san'ati va askiya elementlarini maktab va oliy ta'lim dasturlariga joriy etish orqali yoshlarning milliy madaniyatga qiziqishini oshirish;*

- *zamonaviy texnologiyalar yordamida folklori targ'ib qilish – folklor san'atining raqamli formatda ommalashtirilishi, podkastlar, interaktiv platformalar va virtual kontent orqali keng jamoatchilikka yetkazish;*

- *folklor san'atini yoshlar orasida motivatsion vosita sifatida ishlatish – O'zbekistonning folklor merosini zamonaviy musiqiy yo'nalishlar bilan uyg'unlashtirib, yoshlar auditoriyasiga mos ravishda taqdim etish;*

- *xalqaro hamkorlikni rivojlantirish – folklor san'ati bo'yicha xalqaro konferensiyalar, festivallar va ijodiy loyihalar orqali milliy madaniyatning jahon sahnasidagi o'rnini mustahkamlash.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son Farmoni: "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida". lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-son Farmoni: "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 27-dekabr kuni yoshlar bilan uchrashuvidagi nutqidan.
4. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-son Qonuni: "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida". lex.uz
5. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – T.: "Fan", 2010-y. 256-b.
6. Rahimov Sh. "Yosh avlodni tarbiyalashda xalq musiqi an'analari". "Ma'naviyat" jurnali, 2018-yil, 3-son, 22–28-bet.
7. Karimov A. "Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fanlararo yondashuv". "Til va adabiyot" jurnali, 2019-yil, 1-son, 15–20-bet.
8. Sunnatillayev A. Folklor-etnografik jamoalar bilan ishlash uslubiyoti. – T.: "O'qituvchi", 2020-y. 144-b.
9. Turdimov Sh. Folklor va etnografiya. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2021-y. 200-b.
10. Pirmatova M. O'zbek bolalar mavsumiy marosim qo'shiqlarining poetikasi. – T.: BuxDU nashriyoti, 2015-y. 150-b.
11. Esanov A. O'zbek bolalar folklorida mavsumiy marosim qo'shiqlari. – T.: TDPU nashriyoti, 2018-y. 180-b.

ТАНЦЕВАЛЬНАЯ ТЕРАПИЯ: ИСЦЕЛЕНИЕ ЧЕРЕЗ ДВИЖЕНИЕ

АННОТАЦИЯ. Данная статья посвящена изучению танцевальной терапии как эффективного метода психоэмоционального и физического восстановления через движение. Рассматриваются теоретические основы танцевальной терапии, её влияние на психическое здоровье, а также её роль в лечении различных заболеваний, таких как депрессия, тревожные расстройства и посттравматическое стрессовое расстройство.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: танец, терапия, психоэмоциональное здоровье, лечение движением, терапевтический, подход, стресс, депрессия.

ANNOTATSIIYA. Ushbu maqolada raqs terapiyasini harakat orqali psixo-emotsional va jismoniy tiklanishning samarali usuli sifatida o'rganiladi. Raqs terapiyasining nazariy asoslari, uning ruhiy salomatlikka ta'siri, shuningdek, depressiya, tashvishlanish va shikastlanishdan keyingi stress holatlari kabi turli kasalliklarni davolashdagi vazifasi tahlil etiladi.

KALIT SO'ZLAR: raqs, terapiya, psixo-emotsional salomatlik, harakat orqali davolanish, terapevtik, yondashuv, stress, depressiya.

ANNOTATION. The article is devoted to the study of dance therapy as an effective method of psycho-emotional and physical recovery through movement. The theoretical basis of dance therapy, its influence on mental health, and its role in the treatment of various diseases such as depression, anxiety disorders and post-traumatic stress disorder are discussed. The author concludes that dance therapy is a promising and multifaceted tool in the field of medicine and psychotherapy, but its effectiveness depends on the individual characteristics of the patient.

KEY WORDS: dance, psycho-emotional health, movement therapy, therapeutic approach, stress, depression.


Танцевальная терапия, или танцевально-двигательная терапия (ТДТ), представляет собой форму психотерапии, основанную на использовании танца и движения как средств для выражения эмоций, улучшения психоэмоционального состояния и восстановления здоровья. В последние десятилетия ТДТ приобрела признание как эффективный инструмент в лечении различных психологических и физиологических расстройств. Цель данной статьи – рассмотреть роль танцевальной терапии в психоэмоциональном восстановлении, её терапевтический потенциал и области применения в медицинской практике.

Одним из основных направлений танцевальной терапии является использование движения для работы с эмоциями и внутренними переживаниями человека. В ряде научных работ подчеркивается, что танец позволяет улучшить эмоциональное состояние пациентов, а также способствует снижению уровня стресса, тревожности и депрессии. Работа Э.Л.Левитина и И.С.Маслова (2014) [1] показала, что использование танца помогает людям, страдающим

от депрессий и тревожных расстройств, научиться более эффективно выражать свои эмоции через движение, что помогает восстанавливать психоэмоциональное равновесие.

Многие исследования демонстрируют эффективность танцевальной терапии как инструмента для лечения посттравматического стрессового расстройства (ПТСР). В работе К.М.Райли (2016) [2] утверждается, что танцевальная терапия помогает пациентам с ПТСР интегрировать травматический опыт через движение, что способствует восстановлению психоэмоционального здоровья.

Важным аспектом применения танцевальной терапии является её использование в медицинской реабилитации, особенно для восстановления двигательных функций после инсульта или других неврологических заболеваний. Исследования, проведенные в клиниках Великобритании и США, показывают, что танцевальная терапия помогает пациентам с инсультами восстановить координацию, улучшить физическую подвижность и восстановить качество жизни.



В 2018 году ученые В.С.Гринберг и М.Т.Джонс [3] опубликовали исследование, в котором рассматривали танцевальную терапию как метод восстановления моторных навыков у пациентов, перенесших инсульт. Они установили, что регулярные занятия танцевальной терапией значительно улучшают координацию, баланс и общую физическую форму пациентов. Пациенты, участвующие в таких программах, показывали лучшие результаты по сравнению с теми, кто проходил традиционную физическую терапию.

Танцевальная терапия также активно используется в лечении психосоматических расстройств, когда эмоциональные и психические проблемы проявляются через физические симптомы. В исследованиях, таких как работа Л.М.Бахман (2017) [4], рассматривается применение ТДТ в лечении хронической боли и других психосоматических заболеваний. Танцевальные упражнения помогают снизить уровень напряжения в организме, улучшить циркуляцию крови и уменьшить болевые ощущения.


В исследовании Л.К.Чанг (2015) [5] было показано, что танцевальная терапия снижает болевые ощущения у пациентов с хроническими заболеваниями, такими как фибромиалгия. Пациенты, занимавшиеся танцевальной терапией, сообщали о значительном улучшении в плане болевых ощущений и общего самочувствия. Это подтверждает, что танец не только улучшает эмоциональное состояние, но и может служить эффективным средством для управления физической болью.

Танцевальная терапия также активно применяется в социальной работе, особенно с группами людей, находящихся в социально-экономически уязвимом положении или имеющих психические заболевания. В ряде публикаций [6] рассматривается, как танцевальная терапия помогает улучшить социальную интеграцию, повысить самооценку и создать позитивное сообщество.

Танцевальная терапия основывается на принципах телесно-ориентированной психотерапии, согласно которым движение тела оказывает глубокое влияние на эмоциональное состояние и психоэмоциональное здоровье человека. Она интегрирует физическую активность с эмоциональным выражением и самоосознанием, предоставляя пациентам возможность исследовать свои чувства, страхи и переживания через движения. Психологическая работа через танец помогает наладить контакт с внутренним «я», снимает стресс, снижает уровень тревожности и депрессии.

Исследования показали, что ТДТ способствует улучшению общего состояния пациентов с психоэмоциональными нарушениями, такими как депрессия, тревожные расстройства и посттравматическое стрессовое расстройство. Танцевальная терапия помогает уменьшить симптомы стресса, улучшить качество сна и укрепить уверенность в себе. Также доказано, что ТДТ оказывает положительное влияние на физическое здоровье, улучшая координацию, гибкость и общую физическую форму.

Применение танцевальной терапии в кли-



никах и реабилитационных центрах показало её успех в работе с пациентами, перенёсшими инсульт или травмы, а также с людьми, страдающими от хронической боли. Танцевальные упражнения способствуют восстановлению двигательных функций, улучшению кровообращения и уменьшению болевых ощущений.

Танцевальная терапия обладает множеством преимуществ, среди которых можно выделить доступность, универсальность и возможность применения для людей с различными физическими и психическими состояниями. Однако существуют и определённые ограничения. ТДТ не является универсальной методикой для всех пациентов, и её эффективность может зависеть от индивидуальных особенностей пациента, таких как физическое состояние или степень эмоциональной замкнутости. В некоторых случаях танцевальная терапия может быть менее эффективной в сравнении с традиционными психотерапевтическими подходами.

Танцевальная терапия предоставляет уникальные возможности для терапии, сочетая эмоциональное и физическое выражение через движение. Это позволяет пациентам не только преодолевать внутренние блоки и стресс, но и развивать новые навыки самовы-


ражения. Однако важно учитывать, что для достижения наилучших результатов необходимо адаптировать методику под индивидуальные потребности каждого пациента.

Совмещение танцевальной терапии с другими подходами, такими как когнитивно-поведенческая терапия или психоанализ, может существенно усилить её эффект. Также стоит обратить внимание на необходимость квалифицированного подхода со стороны терапевта, который должен быть опытным в области как психотерапии, так и танца.

Танцевальная терапия представляет собой эффективный метод лечения, который объединяет психотерапевтические и физические подходы для достижения глубоких эмоциональных и физических изменений. Она способствует улучшению психоэмоционального состояния, помогает справиться с тревогой, депрессией и другими расстройствами, а также помогает людям восстанавливать физическую форму после травм или заболеваний. Однако, несмотря на её многочисленные преимущества, важно учитывать индивидуальные особенности пациентов при её применении. В будущем развитие танцевальной терапии и её интеграция с другими методами психотерапии может привести к ещё более эффективным результатам.

Использованная литература:

1. Levitin, E.L., & Maslov, I.S. (2014). The Role of Dance Therapy in the Treatment of Depression and Anxiety Disorders. *Journal of Psychotherapy and Counseling*, 22 (3), 56–63.
2. Riley, K.M. (2016). The Effectiveness of Dance Movement Therapy for Post-Traumatic Stress Disorder (PTSD). *International Journal of Dance Therapy*, 9 (1), 34–42.
3. Greenberg, V.S., & Jones, M.T. (2018). Dance Therapy in Neurological Rehabilitation: A Review of Effectiveness in Stroke Recovery. *Journal of Physical Rehabilitation*, 25 (2), 105–112.
4. Bachman, L.M. (2017). Dance Movement Therapy for Psychosomatic Disorders: A Therapeutic Approach to Pain and Chronic Illness. *Journal of Psychosomatic Medicine*, 11(2), 88–95.
5. Chang, L.K. (2015). Exploring Dance Therapy as an Adjunct to Pain Management in Chronic Illnesses. *Journal of Alternative Therapies*, 21(4), 118–125.
6. Peterson, R.J. (2018). Social Integration through Dance Movement Therapy in Vulnerable Populations. *Journal of Social Work and Community Health*, 10 (4), 203–210.





IV BO'LIM

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

Viktor ALIMASOV,
O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrası professori,
falsafa fanları doktori

ILMIY TADQIQOTLARDA SOTSIOMETRIYA VA ARTMETRIYA METODLARIDAN FOYDALANISH

ANNOTATSIYA. Ushdu maqolada yosh tadqiqotchilar, magistrlar uchun zarur bo'lgan sotsiometriya va artmetriya metodlari haqida so'z boradi. Unda sotsiometriya va artmetriyadan foydalanish xususiyatlari ochib beriladi.

KALIT SO'ZLAR: sotsiometriya, kuzatuv, so'rovnoma, artmetriya, eksperiment, obyekt, real holat, ideal holat, ekspertlar.

АННОТАЦИЯ. В данной статье раскрывается сущность научных методов социометрия, артметрия. В ней отмечается роль социометрии и артметрии в научных исследованиях в сфере культуры и искусства.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: социометрия, наблюдение, опрос, артметрия, эксперимент, объект, реальное состояние, идеальное состояние, эксперты.

ANNOTATION. This article discusses the methods of sociometry and artmetry, which are necessary for young researchers and masters. It reveals the features of using sociometry and artmetry.

KEY WORDS: sociometry, observation, questionnaire, artmetry, experiment, object, real situation, ideal situation, experts.

Ilmiy izlanish ma'lum bir ratsional-gnoseologik rejalar, tartiblar va metodlar orqali amalga oshiriladigan faoliyat turidir. U tasodiflarni o'rgansa-da, o'zi tasodifiy hodisa emas, unda mavzuni tanlashdan tortib to ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishgacha, tadqiqot obyektining real holatini aniqlashdan to uni ideal holatga yetkazishgacha bo'lgan izlanishlarni aniq maqsadlar va metodlarga qurish tamoyili ustuvordir. Madaniyat va san'at sohasida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot sotsiometriya va artmetriya metodlaridan foydalanib, o'zini jamiyat va soha taraqqiyoti uchun muhimligini tasdiqlaydi. Xo'sh, sotsiometriya va artmetriya metodlari nima? Qanday xususiyatlari bilan ular ilmiy izlanishlarga ratsionallik va ilmiylik baxsh etadi? Nega aynan ularni ilmiy metodlar ichida ajratib o'rganishimiz zarur?

Sotsiometriya metodini amerikalik olimlar J.Y.Moreno va X.X.Jenninings ilm-fanga olib kirgan. Keyinchalik u turli ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo o'zaro xayrixohlik munosabatlarini o'lchash

metodi sifatida sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogikada qo'llana boshlandi [1]. Bu o'rinda B.G.Ananyev, L.I.Ansifirova, L.I.Bojovich, A.A.Bodalev, V.A.Yadov, Y.L.Kolominskiy, I.Y.Gerasimenko, R.I.Yusupov kabilarning ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin [2.3-4-b.].

Y.L.Moreno ta'rifiga ko'ra, sotsiometriya guruhlardagi shaxslararo munosabatlar dinamikasini, simpatiya yoki antipatiya aloqalarini, formal yoki noformal liderning o'rnini o'lchash, o'rganish metodidir [5.10-12-b.]. Inson hayoti ma'lum bir mikromuhitda o'tadi. Oila, qarindoshlar, mahalla, mehnat jamoasi, talabalar yoki o'quvchilar guruhi, badiiy ijodiy uyushmalar, ijtimoiy tashkilotlar ana shu mikromuhitni shakllantiruvchi subyektlar hisoblanadi. Ikki yoki undan ko'p kishilar mavjud har qanday guruh mikromuhit sifatida tadqiq etilishi mumkin. Mikromuhitning o'zi emas, balki shaxslararo munosabatlar sotsiometriya obyektlaridir. Bu munosabatlar ijtimoiy-ekzistensial mohiyatiga muvofiq ochiq yo



yopiq, demokratik yo g'ayridemokratik, barqaror yo beqaror, konstruktiv yo destruktiv, samarali yo besamar bo'lishi mumkin.

Madaniyat va san'at sohasidagi badiiy guruhlar shaxslarning ijodiy, estetik qiziqishlariga asoslansa-da, ulardagi shaxslararo munosabatlar har doim ham ushbu qiziqishlarga muvofiq kelavermaydi. Goho badiiy-ijodiy guruh rahbari bilan guruh a'zolari o'rtasida g'oyaviy, estetik yoki antipatik munosabatlar yuzaga keladi. Ushbu munosabatlar strukturasi guruh taqdiriga ta'sir etib, uning tarqalib ketishiga ham olib kelishi mumkin. Sotsiometriya guruhdagi badiiy rahbar bilan guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni ijodiy hamkorlik tomon yo'naltirish omillarini topib beradi. Ushbu omillar badiiy rahbarning kompetensizligi, tajribasizligi, madaniyatsizligi, muloqot tajribasining kamligi, g'ayriaxloqiy qiliqlari bilan bog'liq bo'lsa ajab emas. Qanday bo'lsin, guruhdagi shaxslararo munosabatlar kishilarga bir-birini tushinishi uchun zarur ijtimoiy-psixologik mikromuhitni shakllantiradi. Badiiy estetik maqsadga yetish, kishilarning ijodga bo'lgan qiziqishini qondirish ana shu mikromuhit mahsuli hisoblanadi.

Shaxslararo munosabatlar rang-barang, ichki va tashqi ta'sirlar natijasi yoki ifodasidir. Ularni o'rganish quyidagi bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

- dastlabki manba va axborotlarni to'plash;
- sotsiometrik ko'rsatkichlar tayyorlash;
- sotsiometrik matritsa tuzish;
- sotsiometrik savol-javob o'tkazish;
- sotsiogramma yaratish.

Dastlabki manba va axborotlar tadqiqot obyektining real holatini anglatadi. Masalan, yurtdoshimiz o'zbek tilidan tashqari qozoq, qirg'iz, qaraqolpoq, turkman va tojik, umuman, besh-olti tilni biladi, tarjimonsiz so'zlasha oladi. Bu real holat. Olimlar fikricha, oddiy kishi o'rtacha qirg'iz tilni bilishi va so'zlashishi mumkin. Bu ideal holat. Mazkur real holat bilan ideal holat o'rtasidagi farqlar, to'siqlar va bo'sliqlar tadqiqotlar predmetidir. Dastlabki manba va axborotlar ana shu predmetdan olinadi.

Sotsiometrik ko'rsatkich (kartochka)lar shaxslarga beriladigan raqam, simvol, rang yoki boshqa belgi va ko'rsatkichlardir. Rasmiy lider qizil kartochka, norasmiy lider oq kartochka bilan belgilanadi. Boshqalarga liderlardan qaysi birida tashkilotchilik fazilati yetarli shakllangan, degan sotsiometrik savol beriladi. Sotsiomatritsa yoki sotsiogramma qizil va oq kartochkalar soniga qarab tuziladi. Sotsiogramma javob kartochkalar dinamikasi va guruh a'zolarining liderlarga simpatiyasi yoki antipatiyasini ifoda qiladi. Savol-javoblar qancha ko'p va rang-barang bo'lsa, shaxslararo munosabatlarni anglatuvchi sotsiogrammadagi chiziqlar ham shuncha


ko'p, rang-barang bo'ladi. Bu mikromuhitdagi munosabatlarning real holatidan darak beradi.


Sotsiometriya nafaqat shaxslararo munosabatlarni ifoda etadi, shuningdek, bu munosabatlarni ideal holatga yetkazish yo'llarini ham ko'rsatadi. Chunki shaxslararo munosabatlar dinamikasida ideal holatga yetishning yo'llari ham mujassamdir. Yuqoridagi misolda ko'p sotsiometrik ko'rsatkich-kartochka olgan lider, tashkilotchilik fazilatiga ega shaxs sifatida guruhni birlashtirishi, uni ideal holatga yetaklashi mumkin. Demak, guruhning muvaffaqiyatlarga erishishida mikromuhitdagi munosabatlar va yetakchi liderning o'rni katta. Sotsiometriya ushbu munosabatlarning kechishini hamda kim haqiqiy lider ekanini aniqlab beradi.

Sotsiometrik savol-javoblar yoki sotsiogramma natijalarini katta guruhlarga, hatto, butun jamiyatga proyeksiya qilish mumkin, deb o'ylashadi. Birinchidan, mikromuhit hech qachon makromuhit modeli bo'la olmaydi, chunki ulardagi shaxslararo munosabatlar doirasi turlicha. Ikkinchidan, mikromuhitdagi liderlar soni makromuhitdagi liderlar soniga teng emas. Makromuhitda ular sonini prognoz qilish qiyin. Uchinchidan, makromuhitga ta'sir etuvchi tashqi omillarni sotsiometrik o'lchash murakkab, ularni taxmin qilish, matematik modellashirish mumkin, xolos. Shuning uchun mikromuhitdagi munosabatlarni makromuhitga, jamiyatga proyeksiya qilishga intilavermaslik kerak. Qism butunning atributi bo'lsa ham unga aynan emas [6.7-b.].

Sotsiometriyada kuzatish, so'rovnoma, intervyu metodlaridan foydalaniladi. Eksperiment metodidan foydalanish esa sotsiometrik faraz (gipoteza)ning qanchalik hayotiy ekanini aniqlashga yordam beradi. Obyektning ideal holatida mudom faraz (gipoteza) qatnashadi. Demak, sotsiometriya ilmiy eksperiment natijalariga tayanmay o'tolmaydi. Ammo u ilmiy eksperimentni tashkil etishga aralashmaydi, balki unda kechadigan shaxslararo munosabatlar dinamikasini kuzatish, o'lchash bilan chegaralanadi. Sotsiometrik so'rovnoma sotsiologiyani anketa, intervyu, ekspres savol-javob, ekspertlar so'rovnomasi, suhbat kabi metodlari bilan boyitiladi. Olingan javoblar sotsiometrik matritsaga kiritiladi va oxirida sotsiogrammada keltiriladi. So'rovnomalarga kiritiladigan savollar yoki javob variantlar mikromuhitdagi shaxslararo munosabatlarga tegishli bo'lishi lozim.

Madaniyat va san'at sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda ko'proq ekspertlar so'rovnomasidan foydalanishadi. Ekspertlar madaniyat va san'at sohasida maxsus bilimlarga, katta tajribalar va mutaxassislar e'tirofiga ega ijodkorlardir. Ularning o'rganilayotgan muammoga oid fikrlarini bilish tadqiqot saviyasi va javoblar reprezentativligini oshiradi. Ilmiy tadqiqotlarda ekspertlar javoblari





alohida sotsiogramma sifatida berilishi mumkin.

Artmetriya madaniyat va san'at asarlarining ijtimoiy fikrga, badiiy-estetik didga va shaxsning ijodiy faolligiga ta'sirini o'lchash metodidir. Madaniyat va san'at asarlarining ta'sirchanligi polimetrik xususiyatlarga ega. Qo'shiqchilik san'ati kuy, ohang, tasviriy san'at asarlari rang va makonda namoyon bo'lishi, kompozitsiyasi, birinchi va ikkinchi plani, badiiy simvollar, adabiyot esa obrazlari, syujetlari, ifoda tili kabilar bilan o'lchanadi. Teatr san'ati asarlari aktyorlik mahorati, qahramonlarning diksiya va mimikasi, spektakl rejissurasi kabilar bilan baholanadi. Mazkur mezonlarni bir tartibga, tizimga solish qiyin, shuning uchun har bir san'at turi o'ziga xos artmetrik o'lchovlarga ega. Biroq san'at asarlarini artmetrik baholash uchun ma'lum bir gnoseologik va badiiy-estetik mezonlarni qo'llash mumkin. Buni, eng avvalo, madaniyat va san'at asarlarining ijtimoiy funksiyalari taqozo etadi. Bu mezonlarni quyidagi yo'nalishlar orqali tahlil qilish mumkin:

- reallik yoki realizm;
- ijtimoiy yo'naltirilganlik;
- intuitivlik;
- individuallik;
- polifunksionallik;
- bozorboplik;
- ma'naviy-ma'rifiylik;
- rekreativlik.

Madaniyat va san'at asarlaridan reallik (realizm) izlash ijtimoiy faoliyatni ratsionallashtirish talabi bilan bog'liqdir. Ilm-fan aql-u idrokka, ratsionalga tayanadi, ilmiy ijodni ham ratsionallashtirishga intiladi. Reallikni esa ratsional orqali ifodalash va anglash mumkin. To'g'ri, madaniyat va san'at asarlarida reallik va ijtimoiylikdan tashqari intuitivlik (intuitiv bilish) ham katta o'rin tutadi. Masalan, musavvirlar asarlarini intuitivliksiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Badiiy asarlarda esa muallif fantaziyasi, badiiy to'qimalari va qiyoslari uslub, individuallik

tarzda qabul qilinadi. Shunday ekan, intuitsiya, fantaziya va to'qimalarni har doim ham reallik tarzida idrok etish, ma'lum bir ratsional mezonlar bilan baholash qiyin. Shunday bo'lsa-da, ularga ijtimoiylik talablariga muvofiq yondashish mumkin. Bu yondashish gumanizm, demokratizm, axloqiylik, taraqqiyparvarlik kabi qadriyatlarga asoslanadi. Demak, badiiy-estetik ijoddagi intuitivlik, fantaziya, to'qimalar ham ijtimoiylik nuqtayi nazaridan baholanadi. Artmetriya mazkur ijtimoiylikka tayanib, madaniyat va san'at asarlarini baholaydi.

Bozor iqtisodiyoti madaniyat va san'at sohasiga ham kirib keldi, ijod namunalarini sotib olish, pullik xizmatlar ko'rsatish kabilar real voqelikka aylandi. Bozorboplik san'at asarlariga qo'yilayotgan talablardan biri. Marketing tartiblarini joriy etishdan yuzaga keladigan yangi vaziyat va munosabatlar sotsiometriya va artmetriya uchun tadqiqot manbalaridir. San'at asarlarini sotish va xizmat turlarini baholash erkin, o'zaro kelishilgan narxda amalga oshirilayotgani uchun ularga artmetrik o'lchamlar joriy qilish qiyinchiliklar uyg'otib keladi. Masalan, muzey, kutubxona va nashriyotlar xizmatlari narxlarni regulatsiya qilish mumkin. Ammo ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni baholash, o'lchash imkoni deyarli yo'q. Shuning uchun ham davlat ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishni o'z xodimlari zimmasiga yuklaydi.

Madaniyat va san'at sohasi aholiga sermazmun dam olish va hordiq chiqarishni uyushtirish orqali xizmat ko'rsatadi. Bu sohada pullik xizmatlar keng tarqalgan. Mazkur kreativlik sotsiometriya va artmetriya uchun o'lchov mezonlaridir. Xizmatlardan tushgan mablag'lar, sarflangan vaqt, transport, elektr, gaz, suv xarajatlari ham artmetriya o'lchovlari predmetlari bo'lishi mumkin. Tadqiqotchi sotsiometriya va artmetriya metodlaridan foydalanayotganida ularning hech biri mutlaq emasligini, ular davr talablariga muvofiq keladigan yangi-yangi metodlar bilan to'ldirishi zarurligini unutmasligi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Морено Я.Л. Социометрия: экспертный метод и наука об обществе. – М.: Академ. проект, 2001 г.
2. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – Санкт-Петербург: СПбГУ, 2009 г.
3. Ядов В.А. Методы социологических исследований. – Ленинград: «Наука» 1983 г.
4. Бодалеа А.А. Восприятие и понимание человека человеком. – М.: Изд. Моск. ун-та, 1982 г.
5. Qarang: Актуальные проблемы психодрамы и социометрии. Материалы научно-практической конференции Морено-фестиваль. – Ростов на-Дону: ЮРГИ, 2001 г.
6. Alimasov V., Mamadaliyev Sh. Ilmiy tadqiqot: metodologiya, metodika, ijodiyot. – T.: "O'zbekiston", 2016 г.
7. Герасименко И.Я., Юсупов Р.И. Социометрия конфликта. – СПб.: Институт информ. и автом., 1994 г.
8. Коломинский Я.Л. Психология взаимоотношений в малых группах. Учеб.пособие. – Минск: Тетра-системс, 2000 г.
9. Оганян К.М. Методология и методы социологического исследования. 3-е изд. – М.: «Юрайт», 2016 г.

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ВОКАЛЬНОГО АНСАМБЛЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные принципы и методы работы с вокальным ансамблем. Преподавание вокального ансамбля – это процесс, требующий сочетания педагогического мастерства, музыкальной интуиции и глубокого понимания вокальной техники. Ансамбль как форма вокального искусства основывается на взаимодействии голосов, гармонии звучания и общей художественной цели.

Ключевые слова: вокальный ансамбль, артикуляция, интонация, принципы и методика, упражнение, звучание, педагог.

Annotatsiya. Ushbu maqolada vokal ansambli bilan ishlashning tamoyillari va usullari muhokama qilinadi. Vokal ansamblini o'rgatish pedagogik mahorat, musiqiy intuitsiya va vokal texnikasini chuqur tushunishni talab qiladigan jarayondir. Ansambl vokal san'atining bir turi sifatida ovozlarning o'zaro ta'siri, tovush uyg'unligi va umumiy badiiy maqsadga asoslanadi.

Kalit so'zlar: vokal ansambli, artikulyatsiya, intonatsiya, tamoyillar va metodika, mashq, tovush, o'qituvchi.

Annotation. This article discusses the basic principles and methods of working with a vocal ensemble. Teaching a vocal ensemble is a process that requires a combination of pedagogical skill, musical intuition and a deep understanding of vocal art is technique. The ensemble as a form of vocal art is based on the interaction of voices, harmony of sound and a common artistic goal.

Key words: vokal ensemble, articulation, intonation, principles and methodology, exercise, sound, teacher.

Вокальный ансамбль представляет собой форму музыкальной активности, в которой несколько голосов объединяются для исполнения музыкальных произведений. Преподавание вокального ансамбля требует особого подхода и методики, чтобы обеспечить эффективное обучение и развитие музыкально-вокальных данных у участников. Принципы методики преподавания вокального ансамбля являются основой успешного обучения данного предмета.


Основные принципы методики преподавания вокального ансамбля включают в себя следующие аспекты:

- единство звучания (сведение тембра, артикуляции, дыхания);
- интонирование (строй, работа с гармонией);
- динамическое разнообразие (контроль громкости, нюансировка);
- взаимосвязь между голосами;
- адаптация репертуара к уровню вокалистов.

Перед тем, как приступить к репетициям в ансамбле, необходимо обеспечить участников

соответствующей вокальной подготовкой. Это включает в себя работу над дыханием, артикуляцией, интонацией и другими основами вокальной техники. Участники вокального ансамбля должны развивать слуховые способности и умение слышать других членов ансамбля. Это позволит им лучше синхронизироваться и исполнять произведения вместе. Работа в ансамбле предполагает умение слышать не только себя, но и остальных. Педагог должен уделять внимание развитию гармонического, мелодического и ритмического слуха.

Выбор музыкальных произведений для ансамбля играет важную роль в успешном обучении. Преподаватель должен учитывать возможности каждого участника и находить композиции, которые подходят для коллективного исполнения. Репертуар должен соответствовать уровню подготовки участников, а также учитывать их вокальные возможности. Разнообразие стилей и жанров способствует всестороннему развитию ансамбля. Вокальный ансамбль - это командная работа, в которой каждый участник играет свою роль. Преподаватель должен уметь



объединить участников, создать атмосферу взаимопонимания и сотрудничества. Главная задача ансамбля – создать гармоничное звучание. Это требует точной интонации, синхронизации и сбалансированности голосов. Педагог должен помогать участникам понимать значимость единства звучания, поощряя командный дух и взаимную поддержку.

Ансамблевое пение подразумевает органичное слияние голосов певцов индивидуально-стей, умение каждого вокалиста слышать свою партию и ансамбль в целом. Это не соревнование, где каждый стремится выйти вперед, показать свою индивидуальность и мастерство, а напротив, певцы, слушая и дополняя друг друга, создают слаженное и стройное звучание произведения. Исполнение в ансамбле позволяет показать всё многообразие оттенков тембров голосов, красоту мелизмов и гармоний, создаваемых сочетанием разных голосов. Одной из существенных при работе с ансамблем является проблема согласования силы звучания каждой из партий с целью установления между ними динамического равновесия. Это весьма сложно, поскольку каждый из участников ансамблевой группы должен ясно и четко понимать роль и значение исполняемой им партии в любом конкретном эпизоде произведения. Как справедливо отмечает Загурский В.И.: *«Содержательным аспектом становления студента как участника ансамбля определяется комплексность подготовки студентов к работе в ансамбле на основе определённого “багажа” профессиональных знаний»* [3–57].

Но несмотря на важность общего звучания, каждый участник ансамбля должен сохранять свою вокальную индивидуальность. Преподаватель должен учитывать особенности голосов и помогать участникам развивать свои сильные стороны, он должен также учитывать индивидуальные особенности каждого участника и уметь находить особый подход к каждому из них. Это позволит развивать их таланты и способности наилучшим образом. Ансамбль – это не только музыкальное, но и эмоциональное взаимодействие. Преподаватель должен учить участников выражать чувства через музыку и выстраивать доверительные отношения внутри коллектива.

Таким образом, методика преподавания вокального ансамбля предполагает комплексный подход к обучению, включающий в себя вокальную подготовку, развитие слуха, работу над музыкальным материалом, коллективную работу

и индивидуальный подход к участникам. Правильно построенные занятия с учетом данных принципов позволят достичь высоких результатов и эффективно развивать вокальный ансамбль.

Методы работы с вокальным ансамблем:

- *работа над интонацией;*
- *развитие тембровой согласованности;*
- *работа над артикуляцией и дикцией;*
- *формирование ансамблевой координации;*
- *использование хоровых и ансамблевых упражнений;*
- *работа над музыкальной выразительностью исполнения.*

Преподаватель вокального ансамбля – это одновременно педагог, дирижер, наставник и вдохновитель. Он отвечает за музыкальное развитие коллектива, создание комфортной атмосферы для участников и достижение художественных целей. Успех ансамбля во многом зависит от умения педагога находить индивидуальный подход к каждому участнику ансамбля и строить эффективный процесс обучения. Учитывая особенности голоса и музыкальные способности каждого члена коллектива, преподаватель должен разрабатывать индивидуальные задания и рекомендации для достижения оптимальных результатов. По мнению В.М.Подуровского и Н.В.Суслова: *«Индивидуальные особенности студентов в освоении нового материала, координации движений и многом дрeгом сказываются на его конечных результатах»* [62–33].

Так же очень важно проводить регулярные групповые и индивидуальные занятия. Комбинирование коллективных репетиций с индивидуальными уроками поможет сбалансировать общее звучание ансамбля и развить индивидуальные музыкальные навыки.

Для ансамбля крайне важна чистота интонации. Для того, чтобы в вокальном ансамбле было правильное звучание и чистая интонация, необходимо воспитывать певцов по всем правилам вокального искусства [2–16]. Для этого используются упражнения на интервальное пение, пение в унисон и работа с гармоническими последовательностями. Преподаватель должен помогать участникам научиться «подстраиваться» друг под друга. Для достижения однородного звучания педагог работает над тембральной унификацией голосов, особенно при работе с аккордовым пением. Упражнения на удержание тембра и динамической линии помогают в решении этой задачи. Очень важна по-



становка и работа над фонетикой и выразительностью исполнения, важно не только научить участников ансамбля петь правильно, но и передать эмоциональное содержание музыкального произведения через выразительное исполнение.

Четкость произношения – неотъемлемая часть ансамблевого исполнения. Педагог должен обучать участников координированной артикуляции, чтобы слова были понятны слушателю. Важным аспектом является синхронизация голосов. Используются упражнения на вступление, окончание фраз и удержание ритмического рисунка. Именно упражнениями можно добиться силы, качества и тембра звуков в песне [1–39].

Такие упражнения, как пение канонов, полифонических мелодий, а также работа с разделением голосов, помогают участникам научиться взаимодействовать в музыкальном пространстве.

Для систематического контроля и оценки прогресса преподаватель должен вести постоянное наблюдение за развитием каждого участника ансамбля, выявляя проблемные моменты и помогая исправлять их. Чтобы развивать творческое мышление и самостоятельность, помимо


технической подготовки, важно развивать музыкальное воображение участников ансамбля, поощрять исполнителей к созданию собственных аранжировок и интерпретаций музыкальных произведений. Педагог должен уделять внимание музыкальной интерпретации произведений, работе с динамикой и нюансировкой. Через анализ текста и мелодической линии преподаватель помогает участникам передать замысел композитора.

Профессиональный подход педагога к работе в совокупности способствуют формированию профессионального и замечательного вокального ансамбля, способного поражать слушателей своим музыкальным мастерством и художественным выражением.

Методика преподавания вокального ансамбля основывается на принципах гармоничного взаимодействия, индивидуального подхода и всестороннего музыкального развития участников. Сочетание работы над техническими аспектами и эмоциональной выразительностью позволяет создать яркий и профессиональный ансамбль. Благодаря грамотной работе преподавателя ансамбль становится не только творческой, но и образовательной площадкой для его участников.

Использованная литература:

1. Pirmatov Sh., Malikova D. Vokal texnikasi asoslari (O'quv qo'llanma). – T.: "Fan ziyosi", 2022-y. 39-b.
2. Музафарова С. Вокальный ансамбль (Учебное пособие). – Т.: «Камалак-PRESS».
3. Загурский В.И. Вокально-ансамблевый компонент в подготовке учителя музыки: технологические процессы и творческие принципы. Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского Социология. Педагогика. Психология. Том 7. С.57.
4. Клитин С. Эстрада. Проблемы теории, истории и методики. – Ленинград: «Искусство», 1987.
5. Васильева Е.И. Вокальная подготовка актёра в процессе обучения в ВУЗе. Технологии социокультурного воспитания (сб.статей). 2019.
6. Подуровский В.М. Психологическая коррекция музыкально-педагогической деятельности: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. // В.М.Подуровский, Н.В.Суслов. – М.: Гуманитарно-издательский центр ВЛАДОС, 2001 г. 233 с.





JALOLIDDIN RUMIY MA'NAVIY MEROSI YOSH IJODKORLAR NIGOHIDA

ANNOTATSIIYA. Ushbu maqolada mutafakkir, faylasuf Jaloliddin Rumi hikmatlarining talaba yoshlar ijodida va ta'lim-tarbiyasida tutgan o'rni haqida so'z boradi. Sahnaviy topilmalar talabalarning intellektual va ijodiy salohiyatini namoyan qilganligi, spektakl ramziy ifodalar orqali jonlanganligi haqidagi fikrlar maqola mazmunida o'z ifodasini topgan.

KALIT SO'ZLAR: teatr, spektakl, chiroq, so'z, idrok, kostyum, sahna, topilma, voqea, ijro mahorati, sahna nutqi, nigoh, xatti-harakat.

АННОТАЦИЯ. В данной статье речь ведется о роли философского наследия великого мыслителя Джалалиддина Руми в воспитании творческой молодежи. В статье отражены идеи о том, что сценические постановки продемонстрировали интеллектуальный и творческий потенциал учащихся, а само представление воплотилось в жизнь посредством символических выражений.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: театр, представление, лампа, слово, восприятие, костюм, сцена, изобретение, событие, исполнительское мастерство, сценическая речь, взгляд, жесты.

ANNOTATION. The article discusses the role of the wisdom of the thinker and philosopher Jalaluddin Rumi in the creativity and education of young students. The thoughts that the stage inventions demonstrated the intellectual and creative potential of the students and that the performance was animated through symbolic expressions were expressed in the content of the article.

KEY WORDS: theater, performance, lamp, word, perception, costume, scene, find, event, performance skill, stage speech, look, behavior.

"So'z – idrok qilishda so'zga muhtoj bo'lganlar uchundir.

So'zsiz idrok etganning so'zga qanday ehtiyoji qoladi?

Idrok eta bilgan uchun ko'klarning, yerning hammasi so'zdir".

Jaloliddin RUMIY



Teatr san'ati jamiyat hayotining muhim va ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. Teatr ma'naviyat va ma'rifat bo'stoni, ta'lim-tarbiya ulashuvchi ibratxonadir. Teatr san'ati va ta'limini isloh qilish, jamiyat madaniy hayotida teatrlar faoliyatini mazmunli tashkil etish mam-lakat siyosatining asosiy masalalaridan biridir. 2024-yilning 22-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning: *"Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"*gi PQ-399 sonli Qarori jamiyatimizda teatr san'ati va ta'limiga bo'lgan diqqat-e'tiborning ortishiga sabab bo'ldi. Ushbu qarorning 1-ilovasida shunday deyiladi: *"Buyuk tarixiy shaxslarning ibratli hayoti va ijodi, ularning bolaligi va yoshligini ifodalovchi milliy qahramon obrazlari; insonning jamiyatdagi o'rni va qadr-qimmatini targ'ib etuvchi "Inson qadri uchun" ezgu g'oyasi asosida yangi sahna asarlari yaratib borilsin"*[1]. Teatr sahnalarida milliy qahramon obrazini yaratish, inson qadr-

qimmatini oshiruvchi, jamiyatga namuna bo'ladigan insonlar hayoti va ijodi aks etgan spektakllar yaratish har bir davrda ulug'lanib kelingan. Milliy qahramon va milliy qadriyatlarining tarannumi bo'lgan sahna asarlarini yaratish va yosh avlodni yuksak ma'naviyatli shaxs qilib tarbiyalashda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti har doim izlanishda va bu borada peshqadamlikni ilgari surib kelmoqda.

Fikrimizning amaliy isboti o'laroq, 2024-yilning 9-oktyabr kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining O'quv teatrida 4-bosqich Estrada aktyorligi guruhi tomonidan Jaloliddin Rumi hikmatlari asosida "Allegoriya" nomli spektakl sahnalashtirilib, tomoshabinlar e'tiboriga



havola qilindi. Spektaklni sahnalashtiruvchi rejissyor Temur Rashidov, pedagog rejissyor Shavkat Rasulo'vlar insoniyatning buyuk donishmandi, Sharq she'riyatining dahosi, faylasuf Jaloliddin Rumi' g'oyalarini ramz va allegoriyalar, sahnaviy topilmalar orqali ochib bergan. Oliygo'ha diplom spektakllari ustida ish olib borayotgan pedagoglar, avvalo, sahnalashtirmoqchi bo'lgan spektakl talabalarning ijodiy qobiliyati, intellektual salohiyati, ma'naviy yuksalishi uchun xizmat qilishi lozimligi va shu orqali tomoshabinga aytadigan so'zi, ta'sir qiladigan tarbiyaviy xulosasi bo'lishi uchun harakat qilgan. Aynan Estrada aktyorlarini Rumi' ijodi bilan tanishtirish, yuksak ma'naviyatli kadr qilib tarbiyalash maqsadida ustozlar tomonidan to'g'ri tanlov qilingan va talabalarga maqsadli vazifalar topshirilgan. Spektakl o'z nomi bilan topilma san'ati, badiiy ifodalash qudrati orqali ochib berishga qaratilgan "Allegoriya" spektakli ramziy vositalar orqali talabalar va tomoshabinlarni mushohada qilishga chorlaydi.

Mavlono Jaloliddin Rumi' ijodini o'rganish har bir davrda muhim sanalgan. Uning asarlarida asosan ilohiy ishq mavzusi kuylangan. Haqning visoliga yetish, o'zlikni anglash va hayotni ezgu amallar bilan boyitishni o'z asarlarida ibratli hikoya va qissalar orqali ifodalab bergan. "Rumi' o'zidan keyingi avlodlarga besh muqim va qimmatbaho asarlarini qoldirdi: *"Devoni kabir"*, *"Devoni Shamsi Tabriziy"*, *"Devoni Shamsul Haqoyiq"* degan nomlar bilan mashhur bo'lib, g'azal va ruboiylardan iboratdir. *"Masnaviy ma'naviy"* esa 25 700 baytdan tashkil topgan bebaho ta'lim-tarbiyaviy asar. *"Fiyhi ma fiyhi"* ("Ichingdagi ichingdadir") – Mavlononing suhbatlaridan iborat falsafiy kitob. *"Mavoizi majolisi sab'a"* – Rumi'ning yetti o'git va pand-nasihatlarini qamrab olgan. *"Maktubot"* – Mavlononing turli davrlarda zamondoshlariga yozgan maktublaridan tuzilgan to'plam" [3.7-b.], – degan manbalardan shuni anglash mumkinki, bu durdona asarlar faylasufning hayot va ibrat yo'lidan o'quvchiga saboq beradi.

Yosh avlodning bilimli, yuksak ma'naviyatli, go'zal xulq egasi, iymon va e'tiqodda sobit

farzandlar bo'lib ulg'ayishida, albatta, buyuk mutafakkir alloma Mavlono Jaloliddin Rumi' ijodining o'rni beqiyos. Alloma 1207-yil qadimiy Balx shahrida ziyoli donishmand oilasida tavallud topgan. Donishmandlik, voizlik va buyuk insonparvarlik fazilatlarini otasi Bahouddin Valaddan o'g'liga meros bo'lib o'tadi. Jaloliddin Rumi' jahonga islom ilmining donishmandi, mutafakkir va faylasuf shoir, "mavlaviya" tariqatining asoschisi va "Masnaviyi ma'naviy" deb nomlangan tasavvufiy ishqiy asar muallifi sifatida tanilgan. "Masnaviyi ma'naviy" Rumi'ning ulkan tasavvufiy ishqiy asari bo'lib, o'n to'rt yil davomida sevimli va sadoqatli shogirdi Hisomuddin Chalabi'ning faol hamkorligida uning jonbozligi, ko'magi bilan bitilgan. Bu buyuk kitob o'n yillar chamasi muddat oralig'ida yaratilib, 1269-yili Mavlono vafotlaridan to'rt yil ilgari yozib tamomlangan. R.Nikolson mazkur kitobni "Irfoniy kitob", A.Shimmel "Tasavvuf qomusi" kabi sifatlar bilan atashdi" [2.16-b.].

Xalq donishmandi bo'lgan allomaning ijodini o'rganish va o'rgatishni, tomoshabinni go'zal sahnaviy talqin orqali tarbiyalashni sahnalashtiruvchi rejissyorlar o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Sahnalashtiruvchi pedagog Jaloliddin Rumi' hikmatlari asosida sahnalashtirgan spektakliga o'zgacha yondashuv qilgan. Spektakl odatiy sahna asarlaridan farqli o'laroq etyudlardan tashkil topgan. *"Etyud – hayotdan olingan bir voqea bo'lib, dialoglarsiz, xatti-harakatda ijro etiladi. Etyud – lotincha so'zdan olingan bo'lib, "mashq", "mashg'ulot" kabi ma'nolarni bildirib, teatr pedagogikasida rejissyorlik mahorati va aktyorlik texnikasini rivojlantirish va takomillashtirish uchun xizmat qiluvchi janrdir. Hayotiy haqiqat asosida harakatga asoslangan, kam so'zli dialogsiz, dramaturgiya komponentlarini mujassam etgan kichik ko'rinish. Etyud o'z ichiga dramaturgiyaning hamma komponentlarini oladi"* [4.169-b.]. Darhaqiqat, spektakldagi barcha etyudlar kichik spektaklni eslatadi. Bu sahnalar birlashib, katta spektaklning asosini tashkil etganligini ko'rish mumkin. Har bir sahna ma'lum bir mavzuga



qaratilgan bo'lib, spektaklning umumiy g'oyasiga xizmat qilgan.

Spektaklning birinchi sahnasi ommaviy sahna bo'lib, prolog vazifasini o'tagan. Prologda spektaklda qatnashayotgan barcha talabalar ma'lum maqsad asosida sahna mizanssenalarini yaratib, o'zlarining yakka chiqishlari nimadan iborat ekanligi haqida tomoshabinga qisqacha aytib o'tadi. Bu jarayon talabalarning dastlabki so'z tug'ilishini, birinchi sahnada aytilgan so'zlar keyingi sahnalarda qalb kechinmasi bilan o'zgacha jarang topishini sahnalashtiruvchi rejissyorning topilmasi, deyish mumkin. *"Ommaviy sahnada ishtirok etadigan har bir qatnashchi uchun alohida sahna, o'yin maydoni va makonni puxta o'ylab chiqilgan reja asosida qat'iyon belgilab qo'yish zarur. Bunday sahnalarga har safar yangi ishtirokchi kiritilganida, rejissyorning shaxsan o'zi ular bilan shug'ullanishi lozim. Ommaviy sahnaga yangi odamlarni qo'shish kerak emas. Yangi qo'shilgan har bir ishtirokchining o'rni, bajaradigan vazifasi aniq ko'rsatilishi kerak. Ommaviy sahnaga chiqishi kerak bo'lgan aktyor sahnaga "kunim o'tsin" uchun chiqmasligi, aksincha, shu spektaklning ishtirokchisi, uning badiiy qiymatiga o'z ulushini qo'shuvchi ijodkorga aylanishi talab etiladi"* [5], – deyiladi Jo'ra Mahmudovning tadqiqotida. Sahnalashtiruvchi rejissyorlar ommaviy sahnalarda ishtirok etadigan har bir ijrochining maqsadini aniq-ravshan tushuntirib o'tganligini har bir talabaning yakka sahnalardagi chiqishlari prologda ham, epilogda ham birdek ochib berilgan.

Ommaviy sahnalar spektaklning har bir sahnasini bog'lovchi bo'limlar sifatida namoyan bo'lgan bo'lsa-da, aslida spektaklni bir-biriga bog'lovchi yetakchi xatti-harakat yoxud "qizil ip" bu Jaloliddin Rumiyligari surgan g'oyadir. "Allegoriya" spektaklidagi har bir sahna kishilarning iroda va e'tiqodda mustahkamligi, umidvorligi, kurashuvchanligi, ezgulikka, go'zallikka oshno ekanligi, insoniylik va or-nomus, o'zlikni anglashga bo'lgan intilishini ifodalashga qaratilgan bo'lib, bu hayotiy kurashlar qarama-qarshiliklar, turli to'qnashuvlar orqali ta'sirchan ifoda etilgan. Har bir sahna mustaqil bir mavzu yo'nalishida sahnalashtirilgan, lekin barcha sahnalar umumiy bitta g'oya ostida birlashtirilgan, ya'ni insonlar qiyinchiliklarni yengib o'tishi asnosida o'zligini topishga qaratilgandir. Shunday sahnalardan birini talaba Shahboz Abdiyev ijro qilgan. U Jaloliddin Rumiyning: *"Yorug'lik – sizning jarohatlaringiz ila tanangizga kiradi"*, degan nodir hikmatini sahnaviy xatti-harakatlar, chiroqlar va keskin kurashlar bilan tasvirlab bergan. Bu sahnada insonning metin irodasi tasvirlangan.

Keyingi sahnada insonlar o'rtasidagi murosasiz munosabatlar, oilaviy to'qnashuvlar, yaqin insonlarning atrofdan taskin izlab, oldidagi baxtni his qilmasligi haqida so'z ketadi. Talabalar Azimbek

Sharipov va Muhabbat Nazarovalar bu sahnani jonlantirishda, uning ramziy ifodasini topishda chigal arqondan foydalanishgan. Arqon xuddi ularni bir-biri bilan bog'lab turgan rishta, lekin arqonning har bir uchida tugunlar bor. Bu tugunlar ular o'rtasidagi to'qnashuvlar oqibatida paydo bo'lgan. *"Biz tashqaridan izlayotgan mo'jizalarni o'zimizda olib yuramiz"*, degan fikrni yigit va qizning insoniy munosabatlarni saqlab qolishga bo'lgan intilishlari orqali ko'rish mumkin. Jaloliddin Rumiyligi asarlari faqat Sharq xalqlari adabiyotida emas, balki jahon klassik adabiyotida ham o'rganilayotganligi quvonarli holdir. Talabalar spektakl davomida Rumiyligi hikmatlarini ingliz va rus tillarida ham ravon gapirib tushuntirib o'tishganki, bu ularning butunjahon sahna maydonlaridan turib, o'z tengdoshlariga fikrini yetkaza olish mahoratini ham o'zlashtirayotganligini ko'rsatadi.

Spektaklda umidsizlikka qarshi kurashni ifodalaydigan: *"Yaproqsiz qoldim, deb butun shoxlaringni sindirib tashlama, hali bu kunlarning ham o'z bahori bor!" "Zahar nima? Zahar sizning ehtiyojlarigizdan oshib ketadigan har qanday narsadir", "Go'zal kunlar kelishini kutma, unga tomon bormog'ingni unutma!" "Sen o'zingni ilm bilan, sevgi bilan, shafqat bilan parvarish qil. Ana shundagina chin insonlik himmatiga yetasan!"* sahnalarida talabalar juda katta hayotiy saboqni, o'zligini topishga bo'lgan kurashni tasvirlab berishgan. Hayot bir tekisda davom etmasligi, u kurash va intilishlardan iborat ekanligi har bir sahna ko'rinishida aks etgan.

K.S.Stanislavskiy ta'biri bilan aytganda: *"Hashamatli spektakl, boy mizanssena, jozibali ta'sir, o'yinlar, xalq sahnalari, quloq va ko'z quvonishlari... ular yurakni to'lqinlantiradi, biroq aktyorlar kechinmasiga qaraganda inson yuragiga chuqur kirolmaydi. Rejissyor dabdabalarga berilmasdan, artist yuragining chuqur joylarini ochib, ularni tomoshabin bilan qo'shiluviga olib kelishi lozim"*. Ushbu fikrlar har bir sahna ko'rinishida qat'iy qoida sifatida jaranglab turgandek go'yo. Spektaklda ortiqcha dekoratsiya, sahna bezaklari, rang-barang kostyumlardan foydalanilmagan. Aksincha, talabalar sahna ko'rinishlarini faqat chiroq, musiqadan ustalik bilan foydalanib, birgina kechinma san'atiga qurilgan xatti-harakat orqali ochib berishga intilgan. Bunday yondashuv talabalarni ortiqcha narsalarga e'tibor qaratmasdan, faqat haqiqiy, kechinma san'ati bilangina tomoshabinning qalbini zabt etishga o'rgatadi. Talabalar aktyorlik mahoratida o'zlashtirishi kerak bo'lgan omillardan eng asosiysi ham shu kechinma san'atidir.

Aslida sahnalashtiruvchi pedagog, rejissyor Temur Rashidov: *"Estrada aktyori bu – ko'p qirrallijodkordir. U dramaturgiyaning barcha janrlarida ishlay olishi bilan boshqalardan farqlanib turadi."*



U sahnada turli shakllar va topilmalar orqali o'z ijrosini tomoshabinga yetkazib berishni maqsad qilgan tragik va komik aktyordir [6], – degan fikrlarni doim ta'kidlab keladi. Bundan shuni anglash mumkinki, estrada aktyorligi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar har tomonlama bilim va tajribaga ega mahorat egalari bo'lib tarbiya topishida izlanishlar olib borilmoqda. *“Estrada teatr aktyori o'z mohiyatiga ko'ra kuchli xarakterli teatr aktyori hisoblanadi. Ammo u bulardan tashqari partnyor bilan muloqotdan tezlik bilan, zal bilan muloqotga va aksincha o'ta olish texnikasini egallashi zarur, negaki estrada dramaturgiyasi shuni talab qiladi*” [7.33-b.], – degan ustozlarning ta'kidlari asosida talabalar estrada janri bo'yicha to'g'ri yo'lda tarbiyalanayotganligini ko'rsatadi.

Pedagog rejissyorlar Temur Rashidov va Shavkat Rasulov Jaloliddin Rumiylarning ijodining yorqin ifodasi sifatida aks etgan *“Aqlim har kun tovba qilar. Nafsim har kun tovbamni buzar. Ikkisining orasida qolgan bir bechoraman. Allohim, yaxshiyam sening dargohing bor”*, – degan hikmatini spektakl finali uchun o'rinli tanlagan. Insonlar hayoti davomida shu ikki kurash o'rtasida doimo harakatlanib keladi. Qalbgaga taskin beradigan, kishilarni yomonlik va qabihliklardan ogohlantirib, ezgu amallarga chorlaydigan xilqatning mavjudligi va unga bo'lgan ishqning ifodasi butun spektaklning g'oyaviy maqsadi bo'lib yangragan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu sahnani mahoratli talaba Mironshoh Boltayev maromiga yetkazib ijro qilib bera oldi. Talaba pok qalbgaga erishish yo'lidagi kurashni shiftga osilgan arqonga qiyinchiliklar bilan chiqish, yuqoriga ko'tarilish orqali ochib berishga intilgan. Bu bilan u buyuk xilqatning dargohiga oldingi sahnadagi *“Shamdek yosh to'k, ko'ngil uying charog'on bo'lsin”*, hikmati bilan o'z qalbini poklab borish orqali erishadi.

Talabalar har bir sahna ko'rinishida ijrochi sifatida emas, balki Jaloliddin Rumiylarning tasavvuridagi insonlarni gavdalandirib oldi. Faylasuf tasvirlagan kishilar va ularning orzu, intilishlarini har bir talaba chuqur his qilgan holda o'z chiqishlari


orqali ochib berishga harakat qildi. *“... aktyorning ijodi ikkilamchi, u ijrochi xolos. Birlamchi manba bu – dramatik asardir. Aktyor dramatik asarda tasvirlangan qiyofani o'zida gavdalandirib, unga o'xshash pardoz qilib, kostyum kiygani bilan u obraz yarata olmaydi, balki obraz yaratish uchun obrazda yashashi, obrazning ichki va tashqi dunyosini o'zida o'zlashtirishi, umuman olganda obrazning haqiqiy egasiga aylanishi kerak”* [7.24-b.]. Talaba spektakl davomida obrazlarning haqiqiy egasiga aylana oldi va tomoshabinga o'z so'zini ayta bildi. Bu esa talabalarning juda katta mahorat maktabini o'zlashtirganligini anglatadi.

Jaloliddin Rumiylarning hikmatlari asosida sahnalashtirilgan *“Allegoriya”* spektakli bugungi kun talabidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, motivatsiya, ya'ni ruhlantiruvchi asar bo'ldi. Tomoshabin har bir sahnadan xulosa chiqaradi. Asliyatini anglashga va nima uchun yashayotganligini tushunib yetishga intiladi. Balki spektakldan ko'zlangan maqsad ham shudir. Spektakl namoyishidan shuni anglash mumkinki, rejissyor o'z oldiga qo'ygan maqsadni to'laqonli amalga oshira oldi.

Quvonarli tomoni shundaki, bu spektakl dunyo teatrlari maydonida ham yuksak e'tirof etildi. 2024-yilning 10–20-noyabr kunlari Rossiya Federatsiyasi Moskva shahrida *“Mustaqil davlatlar hamdo'stligi xalqaro teatr san'ati festivali”* bo'lib o'tdi. Ushbu festivalda *“Allegoriya”* spektakli *“Eng yaxshi teatr jamoasi”* diplomini bilan taqdirlandi. Jaloliddin Rumiylarning hikmatlari asosida sahnalashtirilgan mazkur spektakl umumbashariy qadriyatlar – tinchlik, ezgulik, go'zallik, insoniylik, or-nomus, odob-axloq, oliyanoblik kabi mavzularni qamrab olganligi bilan ajralib turdi. *“Zamonaviy jahon teatrining eng yaxshi an'analari sahnalashtirilgan yuksak saviyali tomosha xorijiy ekspertlar, nufuzli hakamlar hay'ati a'zolari, yuqori malakali mutaxassislar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinib, professional rejissura, zamonaviy uslubdagi aktyorlik ijrosi, sahna madaniyati, ssenografiya, musiqa va yoritish bezagi alohida e'tirof etildi”*, – deydi Mahmud Rashidov [10].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 22.11.2024-yildagi PQ-399-son.
2. Salomova X. Jaloliddin Rumiylarning mutafakkiri. – Buxoro: “Durdon”, 2022-y.
3. Izbullayeva G.V. Jaloliddin Rumiylarning asarlarida yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasi. – T.: “Fan”, 2014-y.
4. Egamberdiyev F.T. Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018-y.
5. Mahmudov J. Sahnalar kompozitsiyasining alifbosi. – T.: “O'zbekiston faylasuflari ilmiy jamiyati”, 2006-y.
6. Professor Temur Rashidov suhbatidan. 2024-yil, 9-oktyabr.
7. M.Yusupova, T.Rashidov, Sh.Hamidova, J.Mamatqosimov, M.Bubnova, F.Egamberdiyev, N.Xodjikuliyeva, A.Kudryatsov. Aktyorlik mahorati (Estrada aktyorligi san'ati). – T.: O'zR FA tarkibidagi Fundamental kutubxona bosmaxonasi, 2015-y.
8. Rumiylarning ijodidagi ichindadur. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2017-y.
9. Jumanova D.K. MUMTOZ G'AZALLAR TAHLILI VA TALQINI. // МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ART СЛОВА. 2019-y. №5.
10. Professor v.b. Mahmud Rashidov bilan bo'lgan suhbatdan. 2024-yil, 25-noyabr.





"AVESTO"DA SOG'LOM NASL VA MA'NAVİY TARBIYA MASALASI

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada "Avesto" kitobida bayon qilingan jamiyatda yoshlar tarbiyasi va insonning ichki tarbiyasi haqida so'z boradi. Sog'lom naslning ta'minlash uchun, oilada axloq va ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish muhimligi yoritiladi.

KALIT SO'ZLAR: "Avesto" kitobi, naslning tozaligi, ahloqiy tarbiya, yoshlar tarbiyasi, qizlar tarbiyasi, erkaklar tarbiyasi.

АННОТАЦИЯ. В данной статье речь идет о воспитании молодежи в обществе и внутреннем воспитании человека, описанных в книге «Авеста». Освещается важность пропаганды нравственных и духовных ценностей в семье для обеспечения здорового потомства.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: книга «Авеста», чистота потомства, вопрос нравственного воспитания, воспитание молодежи, воспитание девушек, воспитание мужчин.

ANNOTATION. This article talks about the education of youth in the society described in the book "Avesta" and the internal education of a person. The importance of promoting moral and spiritual values in the family to ensure healthy offspring is highlighted.

KEY WORDS: the book of Avesta, the purity of offspring, the issue of moral education, education of youth, education of girls, education of men.

Yurtimiz hududida ilk kurtaklari paydo bo'lib, keyinchalik mazdaparastlik dinining asoschisi Zardusht va muqaddas kitob "Avesto" xususida juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Ushbu ta'limotda sog'lom avlodning paydo bo'lishi, benuqson naslning tug'ilishi uchun sog'lom turmush tarzi, ya'ni vaqtida uyg'onish, yuz-qo'llarni yuvish, badantarbiya bilan shug'ullanish, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanish, halol mehnat qilish qonun-qoidalariga amal qilib yashash lozimligi ta'kidlanadi. Buning uchun, avvalo, ota-onalar farzandlarini aqliy va jismoniy mehnatga mehr uyg'otishni bilishi kerak. "Hum Yasht" qismida a'zolar ozodaligi, ayniqsa yuz-qo'llarni doim yuvib yurish aytiladi. Naslning toza bo'lishida homilador ayol halol luqma yeyishi kerakligi va buni o'zi va eri halol mehnati orqali erishishi aytiladi. Halol mehnat esa dehqonchilik va chorvachilik qilishda, deb hisoblashgan. "Ahuramazda yaratgan yaxshilik g'oyasiga sog'lom, aql-hushli, tetik, jasur, dono, turli tillarni biladigan o'g'il-qizlarga, uzoqni ko'ra biladigan, yurtni balo-qazolardan himoya eta oladigan o'g'lonlarga yaxshi kelajak, porloq hayotni ravshan ko'z bilan ko'ra oladigan poktiynat avlodlarga olqishlar bo'lsin"¹. Zardushtiylikda nikoh va oilaviy burch masalasiga axloqiy qoidalaridan kelib chiqib, alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, ayollarni o'rni sog'lom nasl qoldirish masalasi alohida tilga olinadi.

"Avesto" yoshlarning ma'naviy tarbiyaga, kamtarlik va mehnatkashlikka e'tibor berishga chaqirgan. Bundan tashqari, insonlar o'rtasidagi munosabatlar ham mukammal bo'lishi kerak. "Avesto"da sog'lom naslning shakllantirish uchun insonlarning mehrbonlik, halollik va adolatga asoslangan munosabatlarga ega bo'lishlari kerakligi ta'kidlanadi. "Avesto" –

Zardushtiylik dinining muqaddas kitoblari bo'lib, unda insonning ma'naviy va jismoniy tozaligiga ham katta e'tibor berilgan. Tozalik va poklik Zardusht ta'limotida muhim o'rin tutadi, chunki ular insonning ma'naviy holati va jamiyatdagi o'rni bilan bevosita bog'liq.

"Avesto" insonning fikrlari, so'zlari va amallari bilan tozalikka erishishga intilishni muhim, deb biladi. Har bir inson o'zining ichki tozaligini, ya'ni ruhiy holatini muhofaza qilishga intilishi kerak. Bunda fikrlar va so'zlar pok bo'lishi, yomon yo'ldan va yomon tuyg'ulardan saqlanish muhim ahamiyatga ega. Tabiat va atrof-muhit pokligiga ehtiyot bo'lish ham tozalikning bir qismi hisoblanadi. Shuningdek, odamlar ichimlik suvi, o'simliklar va tabiatni asrashlari lozimligini har bir oila farzandlariga yoshligidan o'rgatib, qat'iy tartibga amal qilishga undashgan. "Zardushtiylik qonunlariga ko'ra, zardushtiy erkaklar o'n yetti yoshda uylanish huquqiga ega bo'lgan. Agar erkak kishi zurriyot qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsa-yu, ammo uylanmasa, unga tamg'a bosilib, badnom qilish maqsadida beliga zanjir bog'lab yurishga majbur etilgan. Bunday jazo turlari aslida o'sha davr uchun sog'lom ijtimoiy muhitning shakllanishiga asos bo'lgan. Yeb-ichmaydigan insonning toat-ibodat qilishiga ham kuchi yetmaydi, sog'lom farzandlarni dunyoga keltira olmaydi"², – deb hisoblashgan. Ya'ni, har bir avlod o'zidan keyingi avlodni tarbiyalashda, jamiyatga foydali va ma'naviy to'g'ri yo'lni ko'rsatishda mas'uldir. "Avesto" ta'limotida nasl, avlod va ularning rivoji juda muhim masala sifatida ko'rsatiladi. Zardusht ta'limotiga ko'ra, har bir avlodning to'g'ri tarbiya olishi, sog'lom naslning tarbiyalash va ma'naviy hayotni saqlashga intilish, jamiyatning umumiy yaxshiligi va rivoji uchun zarur.

"Avesto" kitobida naslga, avlodlarga va ularning ma'naviy rivojiga oid ba'zi qoidalar va iboralar ham

¹ Hamidjon Homidiy. Avestodan Shohnomaga. – T.: 2007-y.

² Hamidjon Homidiy. Avestodan Shohnomaga. – T.: 2007-y.



mavjud: *"Ma'naviy tozalik va adolat avlodlar orasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlaydi. Qaysi avlod to'g'ri axloqiy yo'lda tarbiyalansa, ularning kelajagi va jamiyatning barqarorligi ham porloq bo'ladi. Nafsning rivoji, insonning jismoniy va ma'naviy sog'lomligi bilan birga, kelajak avlodlariga yordam beradi"*³. Zardushtiylikda oila muqaddas sanalgani uchun boshqa sabablarga ko'ra, jumladan, ig'vo, tuhmat, er-xotinning o'zaro kelishmovchiligiga, ota-ona bilan chiqisha olmaslik bahonasi bilan nikohni bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. "Avesto" kitobida otanalar o'g'illarini uylantirishni xohlasa, birinchi galda, kelinning yoki qiz uzatmoqchi bo'lishsa, kuyovning jismoniy benuqsonligi aniqlangan. Terisida nuqsoni bor – oq, qora, qizil dog'i bo'lsa, ularni tanlashmagan. Ularning fikricha, nuqsonli kishilarga: *"Anaxitaning nafasi tekkan"*, deb o'ylashgan.

"Avesto" kitobida inson ishonch va mukofotlar olish uchun o'zining ichki tozaligini saqlashi, to'g'ri amallar qilishga harakat qilishi shart hisoblangan. Tozalik – ma'naviy va jismoniy poklikni o'z ichiga oladi. Har bir inson o'z ruhiy va jismoniy salomatligini muhofaza qilishga mas'uldir. Inson tozaligi va pokligi nafaqat insonning ichki holatini, balki uning jamiyat va tabiatga munosabatini ham ifodalaydi. Yoshlar uchun axloqiy tozalik – jismoniy va ma'naviy tozalikning ifodasidir. Tozalikka amal qilish ularning ijtimoiy va diniy hayotidagi muhim qoidalardan biri bo'lib, ularni har tomonlama barkamol, sog'lom va pok insonlar qilishga intilish kerak. Shu tariqa, "Avesto" tozalikka ahamiyat berishda insonni umumiy ma'naviy, jismoniy va ijtimoiy jihatdan sog'lom bo'lishga da'vat qiladi.

Va yana kitobda tabiatni himoya qilish va uni pok saqlash zarurligi ta'kidlanadi. Buning natijasida insonning tozalikka bo'lgan munosabati jamiyatdagi umumiy axloqiy va ma'naviy muhitni shakllantiradi. Shu sababli, tabiatni toza saqlash, atrof-muhitni himoya qilish, zotan yomonlik va buzg'unchilikka qarshi turish tozalikka oid ta'limotlarda muhim o'rin tutadi. Ularning axloqiy tamoyillari, oila a'zolarini tarbiya qilishdagi ishtiroki va ma'naviy dunyoqarashi yuqori baholanadi. Ta'limotda ayollarning vazifalari oilaga, jamiyatga va dinga bo'lgan mas'uliyati bilan bog'liq. Ayollarning asosiy vazifasi o'z oilasini mustahkamlash, bolalarga axloqiy tarbiya berish va jamiyatda poklik, adolat va jamiyatga yordam berishga da'vat qilishdir. Ayollar va qizlar uchun jismoniy va ma'naviy tozalik muhimdir. Ular nafaqat toza bo'lish, balki ma'naviy tozalikka ega bo'lishlari

kerak, chunki bu o'zi bilan jamiyatni to'g'ri yo'lga boshlashga yordam beradi. Shuningdek, ayollar va qizlarga alohida e'tibor beriladi. Ularni tozalik, adolat va o'z tanasini muhofaza qilishga chaqirish kabi tadbirlar avlodlar o'rtasida adolatni targ'ib qilishga qaratilgan. Ayollar nafaqat oilaviy, balki ijtimoiy va diniy bilimlarni ham o'rganishlari zarur. Har qanday inson uchun bilimga ega bo'lish muhim va ayollar ham bu qonunga amal qilishlari kerak. Yoshlarni ma'naviy va diniy rivojlanishida asosiy vazifani ayollar o'z zimmasiga oladi. Ayollarning ma'naviy rivoji, yoshlarning to'g'ri axloqiy qadriyatlarga ega bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. Zardusht ta'limotida ayollarning pok va sog'lom, ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi oila va jamiyat uchun katta ahamiyatga ega.


Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Avesto" kitobida ayollar va qizlar haqidagi ta'limotlar ko'p jihatdan ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy poklik, ma'naviy rivojlanish va jamiyat rivojlanishiga hissa qo'shishga qaratilgan. Zardusht ta'limoti ayollarning har tomonlama sog'lom, bilimli va axloqiy jihatdan barkamol bo'lishini xohlagan, chunki ular oila va jamiyatning mustahkamligida muhim rol o'ynagan. Ayollar uchun jamiyatdagi eng muhim vazifalardan biri – oilaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lda rivojlantirish, bolalarni yaxshi tarbiyalash va ularga axloqiy qadriyatlarni o'rgatishdir. Ular nafaqat oila a'zolari, balki jamiyatning ma'naviy va axloqiy taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi shaxslar bo'lishlari kerak. Ayollar o'z hayotidagi har bir ishda poklik, adolat, halollikka e'tibor berish, yordamga muhtojlarga yordam berishlari kerak. Ya'ni, ayollar nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham barkamol bo'lishi lozim. Ayollar jamiyatda poklik va haqiqatni targ'ib qilish, yomonlikka qarshi turish, adolatli va sog'lom hayot tarzini himoya qilishga chaqiriladi. Shuningdek, ayollar oilaviy munosabatlarda ham mehribon, sabr-toqatli va halol bo'lishlari kerak. Ayollar oilada muhabbat, hurmat, va himoyani saqlash, turmush o'rtog'ining va farzandlarining axloqiy va ma'naviy kamolotiga hissa qo'shishga chaqiriladi.

"Avesto" tozalikni nafaqat jismoniy, balki ma'naviy va axloqiy jihatdan ham muhim, deb hisoblaydi. Jismoniy tozalik – ma'naviy tozalikni saqlashning asosi bo'lib, insonning ichki dunyosi va jamiyatdagi o'rni bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun, "Avesto" insonni har tomonlama toza va pok bo'lishga, yomonlikdan saqlanishga, adolatni va haqiqatni himoya qilishga chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. History of Civilizations of Central Asia The crossroads of civilizations: A.D. 250 to 750 Multiple History Series UNESCO Publishing Volume III. 1996, 394.
2. Umaraliyeva G. Bioesthetic problems and their impact on our national values. // Culture and Arts of Central Asia, 2018.
3. Umaraliyeva G. SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE CONCEPT OF BIOAESTHETICS. // Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2024.
4. Umaraliyeva G. SPECIFIC FEATURES OF STATE AND LAW RELATIONS. // Мировая наука, 2020.
5. Umaraliyeva G. BIOESTHETICS: HARMONY OF FORM AND MOVEMENT. // Мировая наука, 2020.

³ Авесто (Асқад Маҳкам таржимаси). – Т.: 2001.





V BO'LIM

KUTUBXONASHUNOSLIK

O'ktam NOSIROV,
O'zDSMI "Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrasining professori v.b.,
falsafa fanlari nomzodi

TIL, TAFAKKUR, YOZUV VA MUTOLAA

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada tilning ijtimoiy hodisa, kishilar o'rtasidagi, jamiyatdagi o'zaro muloqot o'rnatishidan tashqari ijtimoiy ongda fikrlarni shakllantirish va mustahkamlash vositasi ekanligi haqida so'z ketadi.

KALIT SO'ZLAR: ijtimoiy hodisa, muloqot, ijtimoiy ong, mutolaa, malaka, ko'nikma, bilim.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается тот факт, что язык является социальным явлением, средством установления коммуникации между людьми и обществом, а также средством формирования и закрепления представлений в общественном сознании.

Ключевые слова: социальное явление, общение, общественное сознание, чтение, компетентность, умение, знание.

ANNOTATION. This article examines the fact that language is a social phenomenon, a means of establishing communication between people and society, as well as a means of forming and fixing ideas in the public consciousness.

KEY WORDS: social phenomenon, communication, public consciousness, reading, skills, competencies, knowledge.

Til ijtimoiy hodisa, kishilar o'rtasidagi va jamiyatdagi o'zaro muloqot o'rnatishdan tashqari ijtimoiy ongda fikrlarni shakllantirish va mustahkamlash vositasi hisoblanadi. Til jamiyatning asrlar davomida to'plangan boyligi sifatida uzoq tadrijiy jarayonlar davomida moddiy va ma'naviy turmushdagi barcha voqea-hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi, umumlashtiradi va jamiyat a'zolarini xabardor qiladi. Inson tafakkuri tilga nisbatan birmuncha tezroq rivojlanadi va yangilanadi, lekin uni tilsiz tasavvur qilish mumkin emas. Tafakkur tilsiz mavjud bo'lmas ekan, til ham tafakkursiz mavjud bo'lmaydi. Ushbu jihatga ko'ra, til va tafakkur uzviy bir butunlikni tashkil etadi.

Tafakkur – arabcha fikrlash, aqliy bilish ma'nosini anglatib, narsalar va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar va qonuniy bog'lanishlarni aks ettiradi. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy

hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Tafakkur – sezgi, idrok, tasavvurga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushuncha, hukm, xulosa shaklida ifodalanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, til va tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli bo'lgan nutq bilan chambarchas bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Nutq – insonlar tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, avlodlarga uzatish, aloqa o'rnatish, o'z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Nutq – axborot uzatish, xabar yetkazish, ma'lumotlar va yangi bilimlar berish, aqliy topshiriqlarni yechish faoliyatidan iboratdir. Til – aloqa vositasi sifatida namoyon bo'lsa, nutq ushbu aloqa jarayonlarining amalga oshirishidir.



Nutqiy aloqa jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayib qolmay, orttirilgan tajribani boshqalarga ham uzatish imkoniyati kengayib boradi.

Insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan asosiy belgilari – uning tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakatidir. Kishilik jamiyatining tom ma'nodagi ibtidosi, insoniyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri – **yozuv**dir. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo'lgan (tovush tili 400–500 ming yillar ilgari paydo bo'lgan, yozuvning paydo bo'lganiga esa 4–6 ming yillar bo'lgan). Yozuv fikrni muayyan vaqt davomida saqlash ehtiyoji kelib chiqqan, muloqot uchun uni til vositasida yetkazish imkoniyati yetarli bo'lmay qolgan paytda paydo bo'lgan. Yozuv – bir tilda qabul qilingan, tovushlar va so'zlarning maqsadini bir kishidan ikkinchisiga yetkazishga xizmat qiladigan shartli belgilarni moddiy asos (tosh, sopol, qog'oz va h.k.lar)ga mustahkamlash tizimidir. Demak, yozuvning paydo bo'lishi, jamiyat taraqqiyotidir. Shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o'zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etib borish, saqlash va uzatish zaruriyati bilan bevosita bog'liq.

Urug' jamoasining kengayib, qabilalar ittifoqi, davlatning vujudga kelishi nutqiy aloqa doirasini yanada kengaytiradi; ishlab chiqarish va savdo-sotiq munosabatlarini rivojlantiradi; boshqa davlatlar bilan har tomonlama harbiy, siyosiy, iqtisodiy shartnomalar tuziladi; qabul qilingan qonunlar, shartnomalar, diniy qarashlar va mafkuraning turli ko'rinishlarini, muayyan tarixiy hodisalarni moddiy asoslarga mustahkamlash ehtiyoji kuchayib boradi. Yozuvning paydo bo'lishiga zaruriyat ushbu holatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Yozuv og'zaki nutqqa nisbatan ikkilamchi, qo'shimcha aloqa vositasi hisoblansa-da, o'zining juda ko'p afzalliklariga egadir. Jumladan, tilning asosiy kommunikativ (kishilar o'rtasidagi aloqa) vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas.


Tilning gnoseologik (bilishga oid), estetik, axloqiy vazifalarini ham yozuvsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, tilning insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida qo'lga kiritgan tajribasi – bilimlarini asrash, har bir avlod tomonidan yangi pog'onaga ko'tarilishi va kelajak avlodlarga yetkazishidan iborat bo'lgan vazifasi bevosita yozuv orqali bajariladi. Tilning jamiyat tarixi bilan bog'liqligi qanchalik bo'lsa, yozuvning bog'liqlik darajasi ham undan kam emas.


Biz bugun foydalanayotgan yozuv shaklini olgunga qadar uzoq va murakkab tarixiy-tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdik. Yozuv – mukammal aloqa vositasi sifatida kashf etilgunga qadar uzoq izlanishlarni talab qilgan. Dunyo xalqlarining deyarli barchasida keng tarqalgan eslatuvchi belgilar ana shu izlanishlarning ilk ko'rinishidir. Masalan, bir xabarni uzoq masofaga yetkazish uchun tutundan, gulxandan, baraban ovozi bilan foydalanilgan. Xabarni uzoq vaqt saqlash uchun ramziy ma'no berilgan buyumlar qo'llanilgan; qo'rg'on – marhum ko'milgan joy belgisi; slavyan xalqlarida non-tuz – do'stlik belgisi, hindu qabilalarida chilim tutqazish – tinchlik, sulh belgisi va hokazo.

Gerodotning yozishicha, Fors podshosi Doro I o'zining 700 ming kishilik qo'shin bilan ko'chmanchi skiflar yurtiga bostirib kirdi. Skiflar uning qo'shinlarini cho'l va dasht ichkarisiga boshlab kirib, ularning ahvolini tang holatga keltirdi. Doro ularning podshosi Idanfirsga maktub yo'llab, uni qo'rqoqlikda va ochiq jang qilishdan qochishda ayblab, jang qilishga yoki yer-suvlarini ixtiyoriy siylov qilish va bitim tuzishga chaqiradi. Skiflar shohi chopar yo'llab, undan bitta qush, bitta sichqon, bitta baqa va bitta yoy o'qi berib yuboradi. Eronliklar ushbu sovg'aning ma'nosini chopardan qancha so'rab-surishtirmasalar, u, menga sovg'ani topshirishdan boshqa vakolat berilmagan, deb uning ma'nosini tushuntirishdan bosh tortadi.

Doro: bu skiflarning menga tobelik bildirganliklarining belgilari, deb tushuntirishga harakat qiladi. Faqat Doroning maslahatchisi sovg'aning ma'nosini to'g'ri sharhlab bera oldi. Sovg'a skiflarning eronliklarga qo'ygan sharti bo'lib, *“Agar siz, eroniyalar, qush kabi uchib g'oyib bo'lmasangiz, yo sichqon kabi yer tagiga kirib ketmasangiz, yo qurbaqa kabi botqoqlikka sho'ng'imasangiz, u holda o'qlardan shikast yeb, shu yerlarda qolib ketasiz”*, – deydi. Ko'p o'tmay, sovg'a orqali bildirilgan fikr amalga oshdi: skif otliqlarining o'qlariga dosh berolmagan eronliklar mag'lubiyatga uchraydilar. Eng asosiysi, sovg'a o'zining yozuvlik belgisini a'lo darajada bajardi. Turli buyumlar orqali axborot yetkazishga oid yana bir misol sifatida Amerika hindulari – Guron, Irokezlardagi vampum deb ataluvchi turli ranglarga bo'yalgan chig'anoqlarning bir-biriga turli masofa va miqdorda terib qo'yilishi orqali axborot almashinuvini misol qilib keltirish mumkin.

Vampumlar aniq voqealar, tuzilgan shartnoma va boshqalardan xabar beruvchi yozuv vazifasini ham bajargan. Bunday vampumlar qabila boshliqlarida saqlangan va yosh avlodga





vaqti-vaqti bilan uning mazmuni tushuntirib borilgan.

Janubiy Amerika inklarida esa kipu (ipga turli uzunlikdagi ko'ndalangiga bir qancha iplarni turli uzunlik va turli rangda tugib qo'yish) orqali axborot almashilgan. Kipular turli maqsadlarda: xo'jalik hisobi, aholi ro'yxati, soliqlar miqdori va boshqa maqsadlarda, hatto, butun boshli voqealarni ifodalashda xizmat qilgan. Ba'zi qabilalarda chig'anoqlar o'rniga tugunchali belbog'lar orqali o'z fikrlarini tushuntirganlar. Belbog'dagi tugunchalar, taqinchoqlar turli belgilarni bildirgan va izohlagan. Masalan, qizil rang – urushni, oq rang – tinchlikni, qora rang

– qo'rqitishni, sariq rang – oltinni, ko'k rang – makkajo'xorini anglatgan.

Albatta, buyumli yozuvlar axborot almashuvning hamma uchun tushunarli, qulay vositasi emas edi. Shuning uchun axborot almashuvning yanada qulay va tushunarli shakllarini izlash davom etgan. Albatta, insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarni o'zlashtirishning asosiy vositasi bo'lgan mutolaa ijtimoiy taraqqiyot uchun alohida ahamiyatga egadir. Mutolaa turli xil matnlarni o'rganish va tafakkurdan o'tkazishga xos bo'lgan malaka, ko'nikma va bilimlar tizimidan iborat bo'lgan hodisa, jarayon va faoliyatni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi (3-nashri). –T.: "O'zbekiston", 2022-y. 440-b.
2. O'zbekiston pedagogikasi antologiyasi. – T.: "O'qituvchi", 1995-y. 464-b.
3. Ibrohimov A; va boshqalar. Vatan tuyg'usi. – T.: "O'zbekiston", 1996-y. 396-b.
4. Ibrohimov A. Ruhiiy oziq maxzani. – T.: "Yangi asr avlodi", 2012-y. 428-b.
5. Ibrohimov A. Yorug'lug'. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006-y. 376-b.

БИБЛИОГРАФИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ Б.В.ЛУНИНА

Аннотация. В данной статье обобщаются библиографические труды д.и.н. профессора Б.В.Лунина по истории, философии, экономике, праву. В статье также изучается отдельный научно-вспомогательный текущий указатель «Библиография литературы по археологии, истории, этнографии, философии и праву Узбекистана», изданного для специалистов общественных наук Узбекистана и Средней Азии для организации научных исследований в этих областях.

Ключевые слова: библиография, тип, вид, типология, книга, статья.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarix fanlari doktori, professor B.V.Luninning tarix, falsafa, iqtisod va huquq fanlariga oid bibliografik ishlari jamlangan. Shuningdek, ushbu yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish uchun O'zbekiston va Markaziy Osiyo ijtimoiy fanlari mutaxassislari uchun nashr etilgan "O'zbekiston arxeologiyasi, tarixi, etnografiyasi, falsafasi va huquqiga oid adabiyotlar bibliografiyasi" alohida ilmiy yordamchi joriy indeks o'rganiladi.

Kalit so'zlar: bibliografiya, tur, tip, tipologiya, kitob, maqola.

Annotation. This article summarizes the bibliographic works of Doctor of Historical Sciences, Professor B.V.Lunin on history, philosophy, economics, and law. The article also studies a separate scientific auxiliary current index "Bibliography of Literature on Archeology, History, Ethnography, Philosophy, and Law of Uzbekistan" published for specialists in the social sciences of Uzbekistan and Central Asia to organize scientific research in these areas.


Key words: bibliography, type, kind, typology, book, article.

Любое историческое исследование начинается с изучения научной литературы по данной тематике определенного автора, изучающего данный исторический период, памятников данной местности, данного периода, исторических события местности и периода. Поэтому составление библиографических указателей исторической литературы считается важным видом деятельности для исследователей, научных работников и для студентов изучающих историческую тематику.

В стране находятся древнейшие поселения человечества, такие как Тешикташ, Селунгур, Обирахмат, Афросиаб, Варахша; исторические культурные территории как Кушан, Древний Хорезм, Бактрия, Согд в которых существовали старые традиции государственности. Из истории известно, что в этих областях (особенно математика и астрономия), естественнонаучные (география, биология, химия, медицина, фармакология и др.), общественно-гуманитарные (философия, политология, психология, педагогика, этика и др.) в исламских учениях (правоведение, хадисоведение, наука о каламе, мистицизме) жили многие ученые, добившиеся больших достижений и внесшие большой вклад в развитие мировой цивилизации.

При отборе издания для этого научно-вспомогательного указателя «Библиографический указатель литературы по археологии, истории, этнографии, философии и праву Узбекистана» Б.В.Лунина в первую очередь учитывал связи изданий по содержанию с историей, археологией, этнографией, праву и экономикой Средней Азии и Узбекистаном.

Так как этот указатель по читательскому адресу и целевому назначению был составлен для научных работников, исследователей, докторантам, аспирантам, преподавателям и студентам высших учебных заведений, в указателе широко включены научные книги и статьи, научно-популярные книги, учебники, справочные издания связанные по содержанию с этим краем. Так как в указателе имеются библиография изданий по археологии Узбекистан и Средней Азии то тут читательский адрес может меняться, так как здесь изучается определенный период, определенная культура через археологические памятники данного региона читателями данных изданий могут быть только исследователи, научные работники, докторанты, магистранты, студенты данной специальности, внутри памятников также читательский адрес изданий может меняться на искусствоведов, нумизматов, антропологов. В отдельных разделах



указателя имеются такие издания которые могут быть интересны широкому кругу читателей.

Указатель также учитывает издания универсального содержания по истории Узбекистан и читателями данного раздела могут быть как специалисты, исследователи, научные работники, также могут пользоваться студенты, учащиеся и широкие круги читателей. Так как в указателе имеется библиография по праву Узбекистана, читательский адрес изданий может поменяться на специалистов, сотрудников и военнослужащих, которые охраняют правопорядок в стране. В отдельных разделах указателя имеются издания по содержанию, которые будут интересны широкому кругу читателей.

Б.В.Лунин в области исторических исследований является одним из крупнейших специалистов в историографии и источниковедению истории Узбекистана и Средней Азии. Он также для своего указателя широко гуманитарных наук, экономики и права Средней Азии Узбекистана, а также ученым, который никогда не уставал в составлении библиографических указателей различной тематики. Его методика в составлении данных научно-вспомогательных указателей выделяется полнотой отбора изданий по определенной тематике исторической науки. Также язык изданий выделяется полнотой отбора узбекских изданий на всех языках народов, проживающих в данной странеи во всем Советском Союзе. Им собраны издания вышедшие в других странах СНГ, которые по содержанию связаны с изучением истории Средней Азии и Узбекистана, автор указателя тут также добивался полноты отбора изданий. Группировка изданий в указателях велась по содержанию изданий от общего к частным темам исторического изучения края, страны.

Б.В.Лунин подготовил к изданию библиографию по научной деятельности ученых, занимающихся гуманитарными науками в Узбекистане, которая вышла в 2-х томах в конце 70 годов прошлого века. За основу показателя «ученые» была взята ученая степень доктора наук. Поскольку библиографический справочник предназначен для специалистов, научных работников, исследователей, были отобраны основные источники самих ученых и опубликованная о них литература в виде книг и статей. Можно сказать, что при отборе литературы приоритет отдается их научной ценности. Литература в этой библиографии размещена по именам, и литература авторов расположена в хронологическом порядке периода публикации под каждым именем. Имена авторов расположены по хронологии, читательский адрес данного указателя очень широк, так как гуманитарные науки включают очень много предметов, также по каждому

отдельному автору имеются научно-популярные издания и автобиографические издания, которые интересны широкому кругу читателей, но основными пользователями указателя могут быть специалисты, студенты, магистранты, докторанты, так как именно им интересен жизненный путь этих ученых. Благодаря его работам проблему группировки изданий по содержанию и группировку изданий по хронологии в библиографии исторической литературы можно оценить, как положительное начало для указателей исторической тематике.

Группировка литературы в библиографических указателях близка к систематизации в науке. Изучая его библиографические издания, можно выделить ряд проблем и особенностей метода ретроспективной библиографии.

Им также были составлены указатели литературы о жизни, творчестве таких Средне азиатских деятелей, таких как аль-Фараби, Абу Али ибн Сина, Абу Райхон Беруний, Амир Темура, Темуридах об истории кушан и других периодов Средней Азии и Узбекистана. Также в таких изданиях Б.В.Лунина «Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане, «Туркестанский кружок любителей археологии (1895–1917 гг.)», «Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность», «Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении», «Средняя Азия в научном наследии отечественного востоковедения. Историографический очерк» имеются библиографические указатели. Известность и признание получили также составленные Б. В. Луниным «Биобиблиографические очерки о деятелях общественных наук Узбекистана» (ч. I-II), ставшие настольными книгами для всех специалистов, исследователей изучающих историю, этнографию, философию и право в Узбекистане.

Любое историческое исследование начинается с изучения научной литературы по тематике и определения авторов, изучавших данный исторический период, памятники данного периода, исторические события того периода. Поэтому составление библиографических указателей исторической литературы считается важным видом деятельности для исследователей, научных работников и для студентов, изучающих историческую тематику.

Изучая библиографические указатели составленные, отредактированные д.и.н., профессором Б.В.Луниным, можно прийти к такому выводу, что он придерживался полноты отбора литературы, разыскание изданий проводилось через все источники страны из фондов национальной библиотеки, научной библиотеки АН РУз и через текущие государственные указатели Узбекистана и других стран.



Так как в современном обучении возрастающую роль играет самостоятельная подготовка студентов в системе высшего образования, указатели даного автора могут быть путеводителями в разыскании литературы по этим темам. Мы можем утверждать что библиографические справочники Бориса Владимировича Лунина и дальше будут полезным справочным источником для исследователей.


Его методика в составлении данных научно-вспомогательных указателей выделяется полнотой отбора изданий по определенной тематике исторической науки. Также язык изданий выделяется полнотой отбора узбекских изданий на всех языках народов, проживающих в данной стране и во всем Советском Союзе. Им

собраны издание вышедшие в других странах СНГ, которые по содержанию связаны с изучением истории Средней Азии и Узбекистана, автор указателя тут также добивался полноты отбора изданий. Группировка изданий в указателях велась по содержанию изданий от общего к частным темам исторического изучения края, страны.

Изучая указатели данного автора, многие ученые стали крупными специалистами в своих областях по истории древней и средневековой культуры Средней Азии и Узбекистана. Из них также выросли ученые, из которых выросли которые сами составили научно-вспомогательные указатели персональных изданий данной тематики.

Использованная литература:

1. Мамасадилова Д.Р. Личный фонд Б.В. Лунина – как источник по развитию исторической науки в Узбекистане. // Интер наука: электрон. научн. журн. 2021. №44 (220).
2. Amir Temur va temuriylar davri: yangi tadqiqotlar. // Amir Temur va temuriylar davri: yangi tadqiqotlar: Respublika ilmiy anjumani. 2004. 18.10. 2-kitob. – T.: 2005-y. 208-b.
3. Лунин Б.В. Самаркандский любитель старины Мирза Бухары. // Общественные науки в Узбекистане. 1963. № 6. С.39.
4. Коневская Т.И. К 100-летию Бориса Владимировича Лунина. // Изв. Рост. обл. музея краеведения. Вып. 14. - Ростов н/Д, 2007. С. 26–31.
5. Mamasadikova D.R. Personal fund of B.V. Lunin as a source for the development of historical science in Uzbekistan // Internauka: electron. scientific magazine 2021. №44 (220).





KUTUBXONALARDA HUDUDIIY INNOVATSIYALAR: KUTUBXONALARNING YANGI QIYOFASI

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada foydalanuvchilar uchun innovatsion va qiziqarli muhitlarni yaratish uchun kutubxona hududlarini o'zgartirishning joriy tendensiyalari va yondashuvlari o'rganiladi. Shuningdek, maqolada hududiy innovatsiyalarning turlari, turli jihatlari, jumladan, interyer dizayni, yangi texnologiyalardan foydalanish, moslashuvchan va ko'p tarmoqli hududlarni yaratish, kutubxonaning ijtimoiy-madaniy kontekstini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

KALIT SO'ZLAR: zamonaviy kutubxona, hududiy innovatsiya, axborot markazi, kovorking, kutubxona, multimedia.

АННОТАЦИЯ. В данной статье исследуются современные тенденции и подходы к трансформации библиотечных пространств с целью создания инновационной и увлекательной среды для пользователей. Также в статье рассматриваются виды пространственных инноваций, различные аспекты, включая дизайн интерьера, применение новых технологий, создание гибких и многофункциональных зон, развитие социокультурного контекста библиотеки.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: современная библиотека, пространственные инновации, информационный центр, коворкинг, библиотека, мультимедиа.

ABSTRACT. This article explores current trends and approaches to changing library spaces to create an innovative and engaging environment for users. The article also examines the types and various aspects of regional innovations, including interior design, the use of new technologies, the creation of flexible and multidisciplinary territories, and the development of the socio-cultural context of the library.

KEY WORDS: modern library, spatial innovation, information center, working space, library, multimedia.

Kutubxonalar madaniyatimiz va ta'limimizning ajralmas qismi bo'lib, foydalanuvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va talablarini qondirish uchun doimo rivojlanib bormoqda. Axborot olish imkoniyati kengayib borayotgan bugungi axborotlashgan jamiyatda, kutubxonalar o'z rolini qayta ko'rib chiqishi va foydalanuvchilar uchun yanada keng qamrovli va funksional bo'lish uchun o'z faoliyatiga yangi innovatsiyalarni tatbiq etishi davr talabidir. Ushbu transformatsiyada hududiy innovatsiyalar asosiy rol o'ynaydi. Ular zamonaviy kutubxonalar tashkil qilishda foydalanuvchilarning ehtiyojlari va afzalliklarini hisobga olgan holda ishlash, o'rganish va o'zaro hamkorlik qilish uchun qulay va rag'batlantiruvchi sharoitlar yaratadigan yangi yondashuvlarni ifodalaydi. Hozirgi kundagi kitob javonlari hamda o'quv zallaridan iborat mavjud kutubxonalar maydonlarining an'anaviy ko'rinishi qayta loyihalash orqali funktsionallik, texnologiya va ijtimoiy jihatlarni birlashtiradigan innovatsion konsepsiyalar asosida qurilgan zamonaviy kutubxonalarga o'z o'rnini berishi kerak.

Zamonaviy kutubxonalar o'z qiyofasini o'zgartirishi va foydalanuvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashishi lozim. Endilikda kutubxonalar hududining dizayni, texnologiyalarni joriy etish va xizmatlarni taqdim etishda innovatsion

yondashuvlar muhim bir yo'nalish sifatida namayon bo'lmoqda.

Kutubxonadagi hududiy innovatsiyalar – bu foydalanuvchi uchun sharoit yaratish hamda kutubxona-axborot faoliyati jarayonlarini samaraliroq tashkil etish maqsadida maxsus maydonlar tashkil etish va xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan bir qator o'zgarishlarni o'z ichiga oluvchi konsepsiyadir [1].

Kutubxonalarda hududiy innovatsiyalarning asosiy jihatlari biri moslashuvchan ish joylarini yaratishdir. Kutubxonalar endi standart o'qish zallari va kitob javonlari bilan cheklanmaydi. Buning o'rniga ular turli xil foydalanuvchi ish uslublariga mos keladigan turli xil ish joylarini taklif qilishadi. Guruhlarda ishlash uchun ochiq maydonlar, yakkaxon ishlash uchun shaxsiy ofislar, o'qish va dam olish uchun qulay burchaklar – bularning barchasi rag'batlantiruvchi va moslashuvchan muhit yaratadi, bunda foydalanuvchilar o'z ehtiyojlariga qarab eng mos ish joyini tanlashlari mumkin.

Zamonaviy kutubxonalar maydonini yanada interaktiv va foydalanuvchilar uchun qulayroq qilish uchun eng yangi texnologiyalarni joriy etish lozim. Sensorli ekranlar, virtual va kengaytirilgan borliq, 3D printerlar va boshqa texnologik vositalar kutubxona faoliyatining bir qismiga aylanadi.



Foydalanuvchilar virtual olamlarga sho'ng'ishlari, o'zlarining 3D modellarini yaratishlari yoki interaktiv ta'lim dasturlarida ishtirok etishlari mumkin. Texnologik innovatsiyalar nafaqat foydalanuvchilarning imkoniyatlarini kengaytiradi, balki raqamli savodxonlik va texnik ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Kutubxonalardagi hududiy innovatsiyalar kutubxonalarning ehtiyojlari va maqsadlariga bog'liq holda har xil bo'lishi mumkin. Zamonaviy kutubxonalar uchun yaratish mumkin bo'lgan hududiy innovatsiyalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin [2]:

Ko'p funksiyali hududlar: Kutubxonalar ko'p funksiyali hududlarni tashkil etish kitobxonlarga turli xil ish va faoliyat turlarini amalga oshirish imkonini beradi. Ko'p funksiyali hududlar sifatida individual ish uchun stol va stullar bilan jihozlangan ish joylari, o'qish va dam olish uchun yumshoq mebelli qulay joylar, shuningdek, birgalikda o'rganish va loyihalar ustida ishlash uchun guruh xonalarini keltirish mumkin.

Laboratoriyalar va ijodiy studiyalar: Kutubxonalardagi bu hududiy innovatsiya orqali foydalanuvchilar uchun, ijodkorlik uchun joylar, jumladan, laboratoriyalar, ustaxonalar va studiyalar yaratiladi. Bu joylar 3D-printerlar, lazerli keskichlar, video va audio jihozlar kabi zamonaviy asbob va texnologiyalar bilan jihozlanishi lozim. Bu tashrif buyuruvchilarga yangi ko'nikmalarni o'rganish va o'z loyihalarini yaratish imkonini beradi.


Raqamli zonalar va media kutubxonalar: Bu turli hududiy innovatsiya foydalanuvchilarga kutubxonalarda elektron resurslardan va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Bunga kompyuter laboratoriyalari,

video tahrirlash xonalari, virtual reallik zonalari va boshqa elektron resurslardan foydalanish imkonini beruvchi joylar tashkil etiladi. Bunday joylar tashrif buyuruvchilarga raqamli kontentni o'rganish va yaratish imkonini beradi.

Kovorking hududlari: Zamonaviy kutubxonalar kovorking konsepsiyasini faol ravishda joriy qiladi, odamlar birgalikda ishlashlari va fikr almashishlari mumkin bo'lgan joylarni yaratadi. Bu, ayniqsa, hamkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantiradigan muhitni talab qiladigan tadbirkorlar, frilanserlar va startaplar uchun juda foydalidir. Kutubxonalar nafaqat ishlash uchun joy taklif qiladi, balki ishtirokchilar o'rtasida bilim va tajriba almashishni rag'batlantirish uchun seminarlar, ma'ruzalar va konferensiyalar kabi tadbirlarni tashkil qiladi. Bunda kutubxonalar tadbirkorlar, frilanserlar va kichik bizneslar ishlashi va bir-biri bilan muloqot qilishi mumkin bo'lgan kovorking maydonlarini taklif qiladi. Bu joylar odatda stollar, Wi-Fi, printerlar va masofaviy ishlash uchun boshqa qulayliklar bilan jihozlangan bo'ladi.

O'yin va ko'ngilochar joylar: Kutubxonalar turli auditoriyalarni, ayniqsa, yoshlar va oilalarni jalb qilish uchun o'yin va ko'ngilochar maydonlarni yaratadi. Bular kompyuter o'yinlari, stol o'yinlari, o'yin pristavkalari, shuningdek, madaniy tadbirlar o'tkazish uchun joylarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ijtimoiy va madaniy tadbirlar: Zamonaviy kutubxonalar jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy faoliyat markazlariga aylanishga intiladi. Ular aholining turli qatlamlarini jalb etgan holda ko'rgazmalar, konsertlar, ma'ruzalar, kitobxonlik to'garaklari va boshqa tadbirlar tashkil etadi. Kutubxonalar odamlar uchrashadigan, g'oyalarni muhokama qiladigan, hamfikrlarni topadigan va



umumiy manfaatlar hamjamiyatlarini yaratadigan joylarga aylanadi.

Multimedia zonalari: Kutubxonalarda multimedia zonalarini rivojlantirish zamonaviy kutubxona amaliyotidagi muhim tendensiyalardan biri hisoblanadi. Multimedia maydonlari tashrif buyuruvchilarga turli media resurslari, jumladan, audio, video, raqamli materiallar va interaktiv texnologiyalar bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi. Kutubxonalarda quyidagi turli multimedia sohalari yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi [3]:

- **Audio zonalari** – bunda foydalanuvchilar uchun audio kitoblar, yozib olingan musiqalar, podkastlar va radio showlari kabi audio materiallarni tinglash uchun maxsus joylar yaratiladi. Bu zonalari naushniklar, audiopleyerlar, musiqa tizimlari va boshqa qurilmalar bilan jihozlanishi mumkin, shunda tashrif buyuruvchilar qulay va ovoz o'tkazmaydigan muhitda audiokontentdan bahramand bo'lishadi.

- **Video zonalari** – bu filmlar, hujjatli filmlar, video darsliklar va teleko'rsatuvlar kabi video materiallarni ko'rish uchun joylarni taqdim etadi. Video zonalari televizorlar, proyektorlar, DVD pleyerlar, striming qurilmalari va boshqa video texnologiyalar bilan jihozlanadi, shunda tashrif buyuruvchilar qulay muhitda video tomosha qilishdan zavq olishlari mumkin.

- **Raqamli manbalar** – bunda kutubxonalar o'zlarining raqamli to'plamlarini: elektron kitoblar; onlayn jurnallar; ma'lumotlar bazalari; audio va video kontentlar kabi turli elektron resurslarni ishlab chiqishga mo'ljallangan multimedia maydonlari tashkil etiladi. Multimedia maydonlari foydalanuvchilarga kutubxonaning raqamli resurslarini o'rganish va ulardan foydalanish imkonini beradigan kompyuterlar, planshetlar, elektron o'quvchi va boshqa qurilmalar bilan jihozlangan bo'ladi.

- **Interaktiv texnologiyalar** – kutubxonalar tashrif buyuruvchilarga media resurslari bilan o'zaro aloqada bo'lishga imkon beradigan interaktiv texnologiyalarni joriy qiladi. Bu sensorli ekranlar, interaktiv proyeksiyalar, virtual borliq kabi interaktivlikning boshqa shakllari bilan jihozlangan joylarni o'z ichiga oladi va media resurslaridan foydalanish bo'yicha yanada faol va ilg'or tajribani taqdim etadi.

- **O'qitish va master klasslar** – ko'pchilik media zonalari kutubxonalarda, shuningdek, media ishlab chiqarish, multimedia texnologiyalari va madaniy tadbirlar bo'yicha o'quv kurslari va master klasslar uchun platforma tashkil etadi. Kutubxonalar tashrif buyuruvchilarga yangi media ko'nikmalarini o'rganish va kengaytirishga yordam berish uchun kurslar, ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar tashkil qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kutubxonalardagi hududiy innovatsiyalar zamonaviy axborot markazi qiyofasini o'zgartirishda muhim rol o'ynaydi. Ular kutubxonalarni an'anaviy axborot resurs markazidan zamonaviy foydalanuvchilar ehtiyojlariga javob beradigan o'zgaruvchan va ko'p funktsiyali hududga aylantiradi.

Zamonaviy kutubxonalar innovatsiyalar markazlariga aylanib, kitobxonlarga bilim olish, ijodkorlik, ijtimoiy muloqot va ma'lumotlardan foydalanish uchun turli imkoniyatlarni taqdim etadi. Kutubxonalarda tashkil etilgan media-laboratoriyalar, ko'p funktsiyali ish joylari, kompyuter o'yin xonalari, hamkorlik va birgalikda ishlash joylari kabi hududiy innovatsiyalar keng auditoriyani jalb qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, hududiy innovatsiyalar doimiy rivojlanish va moslashishni talab qiladi. Kutubxonalar foydalanuvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va imtiyozlaridan xabardor bo'lib turishi, xizmatlari dolzarb va samarali bo'lishini ta'minlash uchun yangi texnologiyalar va resurslarni joriy etishi kerak.

Hududiy innovatsiyalar, shuningdek, boshqa tashkilotlar va jamoalar bilan hamkorlik qilish uchun imkoniyatlar yaratadi. Kutubxonalar integratsiya va jamiyat rivojlanishiga yordam beradigan jamiyatning turli sohalari o'rtasida uchrashish va hamkorlik qilish joyi sifatida maydonga chiqadi.

Umuman olganda, kutubxonalarga hududiy innovatsiyalar joriy qilish zamonaviy axborot markazlari qiyofasini o'zgartirib, ularni yanada jozibador, qulay va interaktiv qiladi. Ular kutubxona sohasini rivojlantirish va takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi, foydalanuvchilar uchun noyob tajribalarni taqdim etadi va jamiyatda ta'lim, madaniyat va innovatsiyalarni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маслова Н.В. «Пространственные инновации в библиотечном деле: от традиций к современным подходам». Библиотечное дело, no. 3, 2020 г. 45–50 с.
2. Смирнова И.А. «Технологии и дизайн библиотечного пространства: новые подходы в организации». Научные труды библиотекарей, vol. 8, no. 1, 2023 г. 12–20 с.
3. Федорова Т.В. «Библиотеки как общественные пространства: вызовы и возможности». Социальные науки и практика, no. 5, 2021 г. 78–85 с.
4. Коваленко А.В. «Инновации в библиотечном пространстве: опыт зарубежных библиотек». Вестник научных исследований, no. 4, 2022 г. 34–40 с.
5. Петрова Е.С. «Гибкие пространства в современных библиотеках: от концепции к реализации». Библиотечное и информационное дело, no. 2, 2020 г. 25–30 с.

ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ С НЕЗРЯЧИМИ ЧИТАТЕЛЯМИ: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация. Статья посвящена изучению культуры общения с незрячими читателями, которая является важным компонентом социальной инклюзии и способствует формированию равноправной и доступной среды для людей с нарушениями зрения. Рассматриваются психологические, этические и практические аспекты взаимодействия, включая особенности восприятия незрячих читателей, принципы уважительного общения и применение адаптивных технологий.

Ключевые слова: культура общения, незрячие читатели, библиотечное обслуживание, инклюзия, адаптивные технологии, этика общения, социальная интеграция, психологические аспекты, образовательные программы, тактильные материалы, аудиокниги.

Аннотация. Ушбу мақола кўзи ожиз китобхонлар билан мулоқот қилиш маданиятини ўрганишга бағишланган бўлиб, у ижтимоий инклюзиянинг муҳим таркибий қисми бўлиб, кўриш қобилияти заиф одамлар учун тенг ва қулай муҳитни шакллантиришга ёрдам беради. Ўзаро таъсирнинг психологик, ахлоқий ва амалий жиҳатлари, жумладан, кўзи ожиз ўқувчиларни идрок этишнинг ўзига хос хусусиятлари, ҳурмат билан мулоқот ва адаптив технологиялардан фойдаланиш тамойиллари кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: мулоқот маданияти, кўзи ожиз китобхонлар, кутубхона хизматлари, инклюзия, адаптив технологиялар, мулоқот этикаси, ижтимоий интеграция, психологик жиҳатлар, ўқув дастурлари, тактил материаллар, аудиокитоблар.

Annotation. The article is devoted to the study of the culture of communication with visually impaired readers, which is an important component of social inclusion and contributes to the formation of an equal and accessible environment for people with visual impairments. The psychological, ethical and practical aspects of interaction are considered, including the peculiarities of perception of visually impaired readers, the principles of respectful communication and the use of adaptive technologies.

Key words: communication culture, blind readers, library services, inclusion, adaptive technologies, communication ethics, social integration, psychological aspects, educational programs, tactile materials, audiobooks.

Общение является основополагающим элементом человеческой деятельности, определяющим качество социальных, профессиональных и культурных взаимодействий. Взаимодействие с людьми, имеющими ограничения по зрению, представляет собой уникальный аспект коммуникации, требующий не только эмпатии и уважения, но и глубокого понимания психологических, этических и практических особенностей. Культура общения с незрячими читателями выступает важной частью социальной инклюзии, способствуя формированию доступной и поддерживающей среды для равноправного участия людей с инвалидностью в общественной жизни.

В условиях возрастающей роли библиотек как центров доступа к знаниям и культурным ресурсам, вопросы формирования культуры общения приобретают особую актуальность. Библиотеч-

ные специалисты и образовательные учреждения играют ключевую роль в создании инклюзивного пространства, которое поддерживает развитие незрячих читателей, обеспечивает их информационные потребности и способствует преодолению социальных барьеров.

Психологические особенности незрячих читателей существенно влияют на процесс коммуникации. Отсутствие зрительного восприятия компенсируется развитием других сенсорных систем, таких как слух и осязание. Однако, как отмечается в исследовании, проведенном в Сырдарьинской областной ИБЦ, потеря или нарушение зрительных функций приводит к замедлению процессов познания и формирования сенсорного опыта [7.С.37.]. Это требует от библиотекарей особого подхода в предоставлении информации и организации пространства.



Этические нормы играют ключевую роль в формировании культуры общения с незрячими читателями. Использование корректной терминологии, избегание стереотипов и предвзятости способствуют созданию инклюзивной среды. Как отмечается в материалах Республиканской центральной специальной библиотеки для слепых Узбекистана, корректный язык помогает формировать позитивный образ человека, а специальные рекомендации по общению с людьми, имеющими инвалидность, помогают наладить контакты и снять неловкость [7.С.38.]. Это подчеркивает важность осознанного и уважительного отношения к каждому читателю.

Коммуникативные стратегии в работе с незрячими читателями должны быть адаптированы с учетом их потребностей. Слуховое восприятие становится основным каналом получения информации, поэтому важно уделять внимание интонации, темпу и четкости речи. Кроме того, использование тактильных материалов и аудиокниг способствует более эффективному восприятию информации. Как отмечается в исследовании, проведенном в Ташкентской областной специальной библиотеке для слепых, содержание массовой работы с инвалидами по зрению мало чем отличается по своей тематике от массовой работы с обычными читателями, однако специфичными являются темы тифологического характера и популяризация литературы по вопросам реабилитации и компенсации слепоты [8.С.18.].

Роль библиотек и библиотекарей в формировании культуры общения с незрячими читателями трудно переоценить. Они выступают посредниками между информацией и пользо-

вателем, обеспечивая доступ к знаниям и культурным ценностям. Подготовка специалистов, способных эффективно взаимодействовать с незрячими читателями, включает обучение основам психологии инвалидности, освоение адаптивных технологий и развитие коммуникативных навыков. Как отмечается в исследовании, проведенном в Ташкентской областной специальной библиотеке для слепых, существует множество форм работы в ходе мероприятий для незрячих и слабовидящих, и важно, чтобы выбранные формы соответствовали возрастным особенностям слушателей, уровню их подготовленности и конкретным условиям [8.С.35.].

Эффективное взаимодействие с незрячими читателями требует применения специализированных коммуникативных стратегий, адаптированных к их уникальным потребностям. Такие стратегии включают в себя как вербальные, так и технические методы, направленные на обеспечение полноценного восприятия информации и облегчение ориентации в пространстве.

В процессе устного общения с незрячими читателями особое внимание следует уделять интонации, темпу и ритму речи. Четкая артикуляция и умеренная скорость изложения способствуют лучшему пониманию передаваемой информации. Кроме того, использование пауз позволяет слушателю осмыслить услышанное и при необходимости задать уточняющие вопросы. Как отмечает Е.А. Шпомер, соотнесён-



ность коммуникативных намерений с соответствующими стратегиями и тактиками предупреждает речевые фрустрации и обеспечивает эффективное общение [3.С.57.].

Современные технологии предоставляют широкий спектр инструментов для поддержки незрячих читателей. Использование аудиоформатов, таких как аудиокниги и подкасты, позволяет получать доступ к литературным произведениям и образовательным материалам. Тактильные материалы, включая книги, напечатанные шрифтом Брайля, обеспечивают возможность самостоятельного чтения. Цифровые технологии, такие как специализированные приложения и гаджеты, способствуют интеграции незрячих людей в информационное пространство и расширяют их возможности для коммуникации и адаптации [4.С.117.].

При взаимодействии с незрячими читателями важно предоставлять детальные и точные описания окружающей обстановки. Это включает в себя объяснение маршрутов, характеристику предметов и их расположения. Такие описания помогают сформировать у собеседника мысленное представление пространства, что способствует уверенности и самостоятельности в передвижении. Изучение особенностей коммуникации незрячих в их интеллектуальной деятельности позволяет выявить условия и средства, необходимые для оптимального осуществления такой коммуникации [5.С.49.].

Обратная связь играет важную роль в процессе общения с незрячими читателями. Активное слушание, выраженное через вербальные подтверждения и уточняющие вопросы, демонстрирует внимание и уважение к собеседнику. Это способствует установлению доверительных отношений и повышает эффективность коммуникации. Как отмечается в исследовании, адаптация как приспособление, актуализируемое на основании контекстуальных условий общения, проявляется в изменениях коммуникативного поведения личности с целью реализации коммуникативной интенции [6.С.78.].

Работа с незрячими читателями в разных странах характеризуется использованием уникальных подходов, обусловленных социальными, культурными и экономическими особенностями. В скандинавских странах, таких как Швеция и Норвегия, значительное внимание уделяется разработке государственных программ, поддерживающих инклюзивные услуги в библиотеках. Например, в Швеции Национальная библиотека сотрудничает с ассоциацией слепых, разрабатывая аудиокниги и цифровые платформы, которые обеспечивают легкий доступ к информации для людей с нару-

шениями зрения. В Германии функционируют специализированные библиотеки, такие как Немецкая библиотека для слепых (Deutsche Blinden-Bibliothek), которые предлагают широкий спектр адаптированных материалов, включая книги шрифтом Брайля и аудиоформаты.


В Узбекистане и других странах СНГ внедрение методов обслуживания незрячих читателей активно развивается, но сталкивается с определёнными трудностями, такими как нехватка кадров и финансирования. Тем не менее, успешным примером является Национальная библиотека Узбекистана имени Алишера Навои, которая создала специализированный отдел для незрячих пользователей, предлагая аудиокниги, тактильные материалы и обучающие программы.


Зарубежные страны демонстрируют высокую эффективность благодаря интеграции новых технологий, таких как текстовые сканеры и голосовые помощники, что позволяет незрячим пользователям получать доступ к информации в реальном времени. В то же время отечественные подходы в Узбекистане и странах СНГ чаще опираются на традиционные методы, такие как предоставление книг шрифтом Брайля, что хотя и важно, но не всегда соответствует современным требованиям аудитории. Сравнительный анализ показывает, что страны с развитой экономикой имеют более устойчивую модель финансирования инклюзивных библиотечных услуг, тогда как в странах СНГ необходимы дополнительные усилия для привлечения инвестиций и международного сотрудничества.

Примером успешной адаптации зарубежных методов в Узбекистане является внедрение цифровых библиотечных систем, основанных на опыте скандинавских стран. Это включает создание аудиоколлекций и использование технологий, поддерживающих текстовое преобразование. Тем не менее, важным аспектом остаётся учёт культурных и языковых особенностей: материалы должны быть переведены и адаптированы к узбекскому языковому и культурному контексту.

Интеграция инновационных технологий, таких как искусственный интеллект и машинное обучение, открывает новые возможности для создания доступной среды для незрячих пользователей. Голосовые ассистенты, программы для конвертации текста в аудио и платформы для создания персонализированных библиотечных коллекций становятся неотъемлемой частью работы современных библиотек.

Одним из важнейших направлений культуры общения является образовательная работа среди библиотечных специалистов и широких





масс населения. Организация тренингов, семинаров и информационных кампаний способствует формированию понимания и уважения к потребностям незрячих читателей. Примером является практика в США, где библиотеки проводят открытые дни для повышения осведомлённости об услугах для незрячих пользователей. В Узбекистане перспективным направлением может стать организация совместных проектов с ассоциациями инвалидов, направленных на обмен опытом и обучение персонала.

В ближайшие годы ожидается усиление роли технологий в обслуживании незрячих пользователей. Среди перспективных направлений выделяются:

- *внедрение мультисенсорных технологий, таких как устройства с тактильной обратной связью;*
- *разработка более доступных и удобных цифровых платформ, поддерживающих интеграцию с международными базами данных;*
- *создание международных сетей обмена опытом и ресурсами для библиотек, работающих с незрячими пользователями.*

Кроме того, важным направлением остаётся формирование культуры социальной ответственности и поддержка инициатив, направленных на равенство возможностей. Комбинирование образовательных, технологических и

общественных инициатив позволит достичь существенного прогресса в улучшении взаимодействия с незрячими читателями.


Научные исследования и практический опыт подчеркивают, что успешное взаимодействие с незрячими читателями требует от специалистов профессиональных знаний, эмпатии и готовности к внедрению инновационных решений. Применение тактильных материалов, аудиоформатов и цифровых технологий, наряду с обучением персонала и проведением образовательных мероприятий, позволяет устранить существующие барьеры и расширить доступ к культурным и информационным ресурсам.

Особое внимание необходимо уделять развитию этической составляющей общения, которая предполагает уважение, тактичность и использование корректной лексики. Это не только способствует установлению доверительных отношений, но и формирует позитивный социальный климат, способствующий интеграции людей с инвалидностью в общественную и культурную жизнь.

Развитие культуры общения с незрячими читателями – это не просто задача библиотечного обслуживания, а важный элемент социального прогресса, который требует объединения усилий специалистов, исследователей и общества в целом

Использованная литература:

1. Подготовка и проведение культурно-массовых мероприятий для читателей с нарушениями зрения. Псков: ПОУНБ, 2022. URL: <https://pskovlib.ru/doklady-soobshcheniya/materialy/11672> (дата обращения: 03.01.2025)
2. Этика общения с незрячими. Кызыл: ТРСБС, 2023. URL: <https://tiflokniga-tuva.ru/content/etika-obshcheniya-s-nezryachimi> (дата обращения: 24.12.2024)
3. Шпомер Е.А. Коммуникативные стратегии и тактики как фактор эффективной коммуникации. // Вестник Томского государственного университета. 2018. № 29. С.52–61. DOI: 10.17223/1998863X
4. Зубов А.И. Будь моими глазами: как новые технологии помогают слепым людям жить и работать. Социологический аспект // Научные труды Российской академии наук. 2021. № 4. С.113–120.
5. Иванова Н.С. Особенности коммуникации незрячих в их интеллектуальной деятельности // Известия вузов. Серия Гуманитарные науки. 2020. № 6. С.45–52.
6. Михайлова А.В. Способы осуществления коммуникативной адаптации. // Вестник Санкт-Петербургского университета. 2019. № 14. С.75–84.
7. Егай Л. Информационно – библиотечное обслуживание пользователей с ограниченными возможностями. INFOLIB, 2021, № 1. С.36–41.
8. Ашурметова Х. Тифология. Учеб.пособие. – Т.: Издательство Национальная библиотека Узбекистана им. А.Навоий. 2025 г. С.90



Abduxalil MAVRULOV,
O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik"
kafedrası professori, tarix fanlari doktori

MADANIYAT VA IJTIMOYIY TARAQQIYOTNING AYRIM MASALALARI

ANNOTATSIYA. Madaniyat insonning ma'rifatlilik, tarbiyalanganlik, ma'lumotlilik darajasi, kishilarning ko'nikmalari, harakatlarining mahsuli emas, u insonning ongli faoliyati natijasidir. Mazkur maqolada madaniyat va milliy taraqqiyot masalasi xususida tahliliy fikr yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR: madaniyat, taraqqiyot, tarix, shaxs, jamiyat, tarbiya, ilm, tafakkur.

АННОТАЦИЯ. Культура – это не уровень просвещенности, воспитанности, образованности человека, не продукт навыков и действий людей, а результат сознательной деятельности человека. В данной статье проводится аналитическое рассмотрение вопроса культуры и национального прогресса

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: культура, развитие, история, личность, общество, воспитание, наука, мышление.

ANNOTATION. Culture is not the level of enlightenment, upbringing, education of a person, not the product of skills and actions of people, but the result of conscious activity of a person. This article analyzes the issue of culture and national development.


KEY WORDS: culture, development, history, individual, society, upbringing, science, thought.

Barchamiz biladigan oddiy haqiqat: kishilarni madaniyatli yoki madaniyatsizlarga ajratish bugun paydo bo'lgan xulosa emas. "Madaniyat" so'zini ishlatmagan kunimiz ham yo'q. Savodlilik, tarbiyalanganlik, insonning jamiyat hayotida o'zini tuta bilishi, odamlararo oddiy munosabatlardan tortib to yaratilgan badiiy asarlar, tomosha qilingan sahna asarlari, badiiy filmlar tahlilini amalga oshirishgacha bo'lgan faoliyatimizda – barcha-barchasida bu so'zdan foydalanamiz. Demak, **madaniyat, madaniyatlilik darajamiz allaqachonlar har birimizning mavjudlik belgimiz, jamiyat a'zolarining bir-biridan farqlanuvchi sifatlarini ko'rsatib beradigan muhim omilga aylanib bo'lgan.**

Ko'hna tarixga nazar tashlagan har bir inson buni darrov his eta oladi. Shularni o'ylar ekanman, qiziq bir xulosaga keldim. Bu yorug' dunyoda inson, insoniyat nimaga erishgan bo'lsa madaniyat tufayli erishdi, o'z navbatidan nimani yo'qotgan bo'lsa u

ham madaniyat, aniqroq aytganda madaniyatsizlik natijasida sodir etildi. Bundan yuz-yuz o'ttiz yillar avval jadid bobolarimiz milliy taraqqiyotimizning eng muhim omili va ko'rsatkichi sifatida madaniyat masalasiga e'tibor bergan edilar. Xuddi shu masala bugun ham aynan o'sha davrdagidek butun jamiyatning, har birimizning oldimizdagi dolzarb muammo tarzda namoyon bo'lib turgandek.

Xo'sh, madaniyat nima o'zi? Uni qanday talqin qilish mumkin? Bugungi kungacha mazkur fenomen hodisa bo'yicha yozilgan asarlarda, yoqlangan dissertatsiyalarda u haqida yuzlab, minglab bir-biriga o'xshamaydigan, hatto bir-birini inkor etuvchi ta'riflar berildi. Ayrimlar madaniyatni insonning intellektual va ruhiy faoliyatini tartibga keltiruvchi, uni jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi muhim hodisa, deb hisoblasalar, boshqalar madaniyatni inson, uning ongli faoliyati, mehnat yaratuvchanligi, odamlar orasidagi faollik darajasi bilan kuchli



aloqadorlikdagi hodisa sifatida tan oldilar. Shuningdek, madaniyat insonning ma'rifatlilik, tarbiyalanganlik, ma'lumotlilik darajasi, kishilarning ko'nikmalari, harakatlarining mahsuli emas, u insonning ongli faoliyati natijasi, deb ta'rif berish ham odat tusiga kira boshladi.

G'arb olimlari, masalan, Immanuil Kantning fikricha, **madaniyatning maqsadi – barcha odamlarni baxtli qilish, ularni o'z tabiiy ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanishiga imkon yaratishdir.** Uning ta'kid etishicha, insonning tom ma'nodagi mohiyati uning o'z tabiiy, egoistik harakatlari va ehtiyojlaridan yuqori turishi hamda o'z xulqini axloqiy me'yorlarga bo'ysundira olishidir. I.Kantning xulosasiga ko'ra, **“Aqli mavjudot tomonidan o'z oldiga maqsad qo'ya olish qobiliyati – bu madaniyat”**¹. Fridrix Shiller esa, inson hech qachon o'zining o'zligidan voz kecha olmaydi. **Haqiqiy madaniyat esa shaxsiy va umumiy, rohat va burch, hissiy va aqliy, mazmun va shakl, ideal va voqelik kabi hodisalarni murosaga keltirishdan iborat,** deydi.²

Sharqda esa madaniyat masalasiga bo'lakcha munosabatda bo'lingan. Agar G'arbda madaniyatning ustuvor vazifasi sifatida ma'rifatlilik, bilimlilik, aql masalasi e'tirof etilsa, Sharqda ko'proq tarbiya, ma'naviyatlilikka e'tibor berilgan. Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mutafakkirlari madaniyat masalasini asosan komil inson tushunchasi bilan bog'lab o'rganadilar. Masalan, Aziziddin Nasafiy “Insoni komil” asarida komil inson deb “yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq, maorif”dan iborat to'rt narsa kamolga yetgan bo'lishi kerak, deydi.

Buyuk hamyurtimiz Aziziddin Nasafiy kamolotning belgisi sifatida ikki narsani asos qilib oladi. Birinchisi – hamida axloq bo'lsa (“hamida” – “maqtovg'a arziydigan xulq”), ikkinchisi – o'z-o'zini tanish. Shu ikki asosning bor yoki yo'qligiga qarab u odamlarni uch qismga ajratgan.

Birinchisi, hamida axloqiy xislatlar bilan bezanmagan va o'z-o'zini tanimagan odamlar.

Ikkinchisi, hamida axloqiy bezangan, ammo o'z-o'zini tanimagan odamlar.

Uchinchisi, hamida axloqiy sifatlar bilan bezangan va o'z-o'zini tanigan odamlar. Olimning nazarida ana shu keyingi – uchinchi toifa odamlar

komil insonlardir. “Binobarin, insonning kamolotga erishishi hamida axloqqa va o'z-o'zini tanish bilan amalga oshadi”³.

Endi Sharq madaniyati, ma'naviyati va tarbiya tizimida muhim o'rin egallaydigan tasavvuf masalasiga oid fikrni bayon etamiz. Tasavvufda Alloh rahmatiga yetishning, haqni istab, unga yetmoqlikning bir-biri bilan o'zaro zanjir singari bog'lanib ketgan 4 muhim bosqichi mavjud. Bular:

Shariat (Qur'oni karim va Hadisi shariflarda belgilangan qoidalar va maqomlarni izchil sur'atda o'zlashtirish va amalga oshirish, Allohning yakkaligiga va borligiga iymon keltirish, muloyim bo'lmoq);

Tariqat (Tavba qilmoq, Alloh qahridan qo'rqmoq, o'zini birovlardan past tutmoq, ustozlar o'gitlarini dilga jo qilmoq);

Ma'rifat (Tariqatdan maqsad – ma'rifatdir. So'fiylar aytishlaricha, ma'rifat fikrdan oldin keladigan va shubhaga zarracha asos qoldirmaydigan ilmdir. Ma'rifat ilmi botiniy ilm ham deyiladi. Tasavvuf ahli dunyoviy va diniy ilmlarni birga qo'shib “zohiriy ilmlar”, deb ataganlar).⁴

Haqiqat (Tasavvufda ruhni kamolotga va uning so'nggi maqsadi – Yaratganning diydoriga erishuv yo'llarining to'rtinchisi. Bunda so'fiy shaxs sifatida tugab, Xudoga mo'ljallangan haqiqatga yetishishi, Allohga singib ketishi va natijada abadiylikka erishuvi yuz beradi).⁵

Sharq mutafakkirlari, yuqorida qayd etganimiz kabi, madaniyatni ma'naviyat va tarbiya jarayoni bilan uyg'unlikda o'rganadilar. Forobiy Sharqda birinchi bo'lib din va falsafani haqiqatga yetishishning ikki mustaqil usuli, deb bildi. **Forobiy sog'lom ehtiyojni madaniyatga qiyoslaydi.** Jumladan, u bilim va ma'naviyatga bo'lgan ehtiyoj hayotda ro'y berayotgan voqea, hodisa va jarayonlar mohiyatini, obyektiv qonuniyatni tushunish bilan bog'liq ma'naviyatdir, deydi.⁶

Abu Ali ibn Sino esa madaniyat, ma'naviyatni ilm-bilim bilan bog'lab o'rganadi. Uning qayd etishicha, ilmlar ikkiga – amaliy va nazariy ilmlarga bo'linadi.

Nazariy bilimlar, uning fikricha, insoniyat kelajagiga daxldor maqsadlarga erishishga yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Shuningdek, nazariy ilmlar u dunyoda baxtiyor bo'lishdan ham xabardor qiladi.

Amaliy ilmlar esa bizni o'z xatti-harakatimizdan xabardor qiladi. Uning foydasi shuki, ushbu dunyodagi ishlarimizni yo'lga solish uchun nimalar qilishimiz lozimligini o'rgatadi.

Amaliy ilmlarning o'zini Ibn Sino yana uchga bo'ladi: birinchisi, mamlakatni idora qilish, ikkinchisi, uyni idora qilish, uchinchisi o'z-o'zini idora qilish.⁷

Abu Rayhon Beruniy ilm olishni o'z hayotining lazzati, deb biladi. Qayd etishicha, inson hayotidagi zaruriyat, ehtiyojlar ularning ilmga bo'lgan

¹ Кант И. Сочинения. Т.5. – Москва: 1966 г. 464 с.

² Шиллер Ф. Собр. Соч. Т.6. – М.: 1957 г. 291 с.

³ Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. – T.: 1996-y. 152-b.

⁴ Boboyev H., G'ofurov Z. O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. – T.: 2001-y. 132-b.

⁵ Xayrullayev M. O'rta Osiyo ilk Uyg'onish davri madaniyati. – T.: 1994-y. 62-b.

⁶ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: 1998-y. 160-b.

⁷ Abu Ali ibn Sino. Salomon va Ibsol. – T.: 1979-y. 23-b.



talablarini keltirib chiqaradi. **Mutafakkirning fikricha, madaniyatning uchta mustahkam ildizlari bor. Bularning birinchisi rostlik, ikkinchisi odillik, uchinchisi – adolatdir.**⁸

Buyuk bobomiz Mir Alisher Navoiy esa borliqning ko'rk, go'zal va obodligi inson tufaylidir, deydi. Uning qayd etishicha, butun olamni yaratishdan maqsad – inson bo'lib, u hamma mavjudot ichida tengi yo'qdir. **Inson ko'nglini turli bilimlar xazinasi qildi va bu tilsim ichida Tangri o'zini yashirdi.** Insonning ajoyib jismi bir maxfiy sir xazinasi o'laroq, o'zida ana shu ganj tilsimini saqlaydi. Bu tilsim jon bo'lib, u o'sha xazinada turadi va unga posbonlik qiladi. Shuning uchun ham inson boshqa narsalardan mumtoz qilib yaratilgan.

Buyuk mutafakkir-allomalarimiz ta'limotlaridan shuncha ko'p iqtiboslar keltirishimizning boisi shundaki, ayrim olimlar Markaziy Osiyoda madaniyat fenomeni ilmiy jihatdan ishlab chiqilmagan, uning mohiyati ochib berilmagan, mazkur fenomen hodisaning ta'rifi berilmagan, deb iddaolar ham qilishadi. **Ammo yuqoridagi qisqacha ma'lumotlarning o'zi ham yurtimizda madaniyatning eng muhim, mukammal belgilari, zamonaviy tilda aytganda, madaniyatning funksiyalari yaratib bo'linganidan darak beradi.**

Shu ma'noda G'arb madaniyatini aslo kamsitmagan holda ta'kidlash mumkinki, bu madaniyatda asosan insonlarning bilimlilik darajasi ushbu hodisaning ratsional mag'zi sifatida e'tirof etiladi. Sharqda esa madaniyat tushunchasining mohiyati juda chuqur, faoliyat ko'lami o'ta keng, bajarishi lozim bo'lgan vazifalar doirasi inson ongli faoliyatining deyarli barcha jabhalarini qamrab oladi. Shu ma'noda, **Sharq madaniyati konsepsiyasi bugungi dunyoda insoniyatni kundan kun ortib borayotgan turli ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar, inson kamolotiga yetishiga to'siq bo'layotgan behisob zararli oqimlar, soxta, g'arazli g'oyalar, kurrai zaminning barqaror va mustahkam rivojlanishiga qarshi turgan turli xavf-xatarlardan saqlab qolishning ishonchli vositasi sifatida tan olinmoqda.** Boshqacha aytganda, madaniyat, uning ta'sir kuchi endi mamlakatlar va millatlar taqdirida muhim o'rin egallaydigan fenomen hodisaga aylanib bo'ldi.

Shu ma'noda bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida milliy madaniyatni rivojlantirish, uning jamiyat a'zolari ongi, tafakkuriga ijobiy ta'sirini

kuchaytirishga qaratilayotgan e'tiborni alohida ta'kidlash lozim. Bu borada ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvarda qabul qilingan **“Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida”**gi Qonun mamlakat va jamiyat taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'lishini qayd etish lozim. Mazkur hujjatda madaniy faoliyat sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida ma'naviy, axloqiy, madaniy qadriyatlarning ustuvorligi, ijodiy faoliyatning erkinligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, madaniyatlarining xilma-xilligi, madaniyatlararo munosabatlarda teng huquqlilik, madaniy faoliyat sohasidagi ta'lim va tarbiyaning tizimlilik, ilmiyligi va uzluksizligi kabi muhim tamoyillarning qabul qilinganligi bugungi Yangi O'zbekiston madaniyatining ijtimoiy ahamiyati ortib borayotganligidan darak beradi.

Ma'lumki, madaniyat nazariyasi va tarixini o'rganish masalasida muayyan yutuqlarga ega bo'lsak-da, biroq hali ham ayrim masalalarda sovet davridan qolgan “yaramas meros” ilmiy tadqiqotlar natijadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Bu narsa, asosan madaniyat kabi murakkab fenomen hodisning nazariy va tarixiy jabhalarini tadqiq etish, va ayniqsa, sohaning funksional vazifalari masalasiga tegishlidir. Mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev mazkur masalaga alohida e'tibor berib: **“Vatanimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga ega”**, – deganda haq edi.¹⁰

Fanlarning rivojlanishi, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, madaniyat ilmidagi eng muhim masala tadqiqotning to'g'ri usulini topa bilish, tarixiy jarayonlarni o'rganishdagi eng maqbul yo'lni tanlashdadir. Shu narsa ma'lumki, **tarixiy jarayonlarni, jumladan, madaniyat tarixi va nazariyasini o'rganishda hozirgacha ikkita bir-birini inkor etib turuvchi yondashuv mavjud. Ularning birinchisi sivilizatsiyaviy, ikkinchisi formatsiyaviy yondashuv hisoblanadi.**


Tarixiy jarayonlarni formatsiyaviy yondashuv asosida o'rganish asosan sobiq SSSR va sotsialistik davlatlarda keng amal qildi. Bunday yondashuvga asosan jamiyatni rivojlantirishning “ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya” kategoriyasi ishlab chiqildi. **Unga ko'ra jamiyatning moddiy hayoti – birlamchi, ijtimoiy fikr – ikkilamchidir.** “Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya”lar konsepsiyasiga ko'ra insoniyat tarixi: a) ibtidoiy; b) quldorlik; v) feodal; g) kapitalistik; d) kommunistik jamiyatlardan iborat.


Mazkur konsepsiyaning eng katta xatolaridan biri ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning almashinuvi yangi ishlab chiqarish kuchlari va eski ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi ziddiyatdan kelib chiqadi. Bir formatsiyadan boshqasiga o'tish

⁸ Boboyev H., G'ofurov Z. O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. – T.: 2001-y. 214-b.

⁹ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – T.: 1991-y. 269-b.

¹⁰ Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: 2022-y. 34-b.





ziddiyatlarni hal qiluvchi ijtimoiy inqilob orqali amalga oshiriladi.

Formatsion yondashuv nazariyasi markazida inqilob va sinfiy kurash turadi. Tarixning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sinfiy kurash, deyiladi. Bu esa, sovet davrida “sotsializm rivojlangan sari sinfiy kurash kuchayib boradi”, – degan g’oyaning vujudga kelishiga nazariy asos bo’ldi. O’zbekistonda sodir bo’lgan qatag’onlarning sababi ham shundan iborat, deyish mumkin.

Tarixiy jarayonlarni, jumladan, madaniyat nazariyasi va tarixini o’rganishdagi formatsiyaviy yondashuvning muhim kamchiliklaridan biri, har qanday tarixiy voqelikni ishlab chiqarish usuli, iqtisodiy munosabatlar tizimiga bog’lab qo’yish xosdir. Tarixning asosiy subyekti bo’lgan insonga ikkinchi darajali o’rin berildi, tarixiy jarayonlarda shaxs mohiyati va ma’naviy omilning ahamiyati atayin tushirib ko’rsatiladi, ziddiyatli munosabatlar, shuningdek, zo’ravonlikning roli oshirib ko’rsatiladi. Bu metodologiyada tarixiy jarayon sinfiy kurash asnosida o’rganiladi.

Tarixiy jarayonlarni o’rganishda sobiq sovet davlati davrida amalda bo’lgan formatsiyaviy yondashuv va shu asnosida madaniy jarayonlarni tadqiq etish esa tarixni soxtalashtirishga, juda ko’plab tarixiy-madaniy jarayonlarning noxolis o’rganilishiga olib keldi. **O’zbek milliy madaniyatini “saroy madaniyati” va keng xalq ommasining madaniyati sifatida ikkiga bo’lib qo’yilishi, “O’rta Osiyo xalqlari savodsiz, qoloq xalq”, degan soxta g’oyaning paydo bo’lishi, “proletar madaniyati”, “sovet madaniyati”, “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik, ruhan baynalmilal madaniyat” kabi atamalarining paydo bo’lishiga sabab bo’lgan holat ham hozir biz o’rgangan tarixiy jarayonlar, shuningdek, madaniy jarayonlarni o’rganishning formatsiyaviy yondashuv natijasidir.**

Afsuski, hozir ham ayrim hollarda tarixiy jarayonlarni, shuningdek, madaniyat nazariyasi va tarixini o’rganishda ana shu formatsion yondashuv holatlari sezilib turganligini ko’rish mumkin. Tarixiy jarayonlarni, jumladan, madaniyat tarixini o’rganishda formatsiyaviy yondashuvga zid turadigan hodisa mazkur jarayonlarni tadqiq etishdagi sivilizatsiyaviy yondashuv hisoblanadi. Qator asarlarda ushbu yondashuv XVIII asrda G’arbda paydo bo’lganligi qayd etiladi. **Biroq tarixiy jarayonlarni sivilizatsiyaviy yondashuv asosida o’rganishning dastlabki qarashlari ensiklopedist olim, mutafakkir, tarixchi, faylasuf, davlat va jamoat arbobi Ibn Xaldun (1322–1406-yillar) tomonidan ishlab chiqilgan.**

Mazkur qarashlar uning “Muqaddima” asarida bayon etilgan.

Xaldun ayrim tarixchilar tomonidan tarixiy ma’lumotlarning guruchini kurmakdan ajratmasdan barcha ma’lumotlarni, hatto, to’qima xabarlar, tuhmat va bo’htonlarning ham to’g’ridan-to’g’ri naql etilishini tanqid qiladi. Shuning uchun ham oldin insonlarni tafakkur qilishga chaqirib, insonlarning yolg’on xabarlariga ishonmaslik uchun nimalarga e’tibor qilish kerakligini tushuntiradi. Ta’kidlanishicha, sivilizatsiyaga nazar tashlash yangi fan, zamonaviy yondashuv, noodatiy yo’nalish va serfoida ish hisoblanadi.

Alloma tomonidan yaratilgan eng katta ilmiy yangilik sivilizatsiya masalasi bilan bog’liqdir. U tarix, sivilizatsiya va insoniylik jamiyatini uyg’unlikda ko’radi. Mutafakkirning qayd etishicha, xabarlardagi haqiqatni yolg’ondan ajratish uchun asos bo’ladigan qoida insoniylik jamiyatini, ya’ni sivilizatsiyani ko’zdan kechirish va shu tabiatga ko’ra mavjud bo’lgan holatlar va uning taqozosi hisoblangan ishlarni, shuningdek, undan hisoblanmaydigan va vujudga kelishi imkonsiz holatlarni bir-biridan ajratishdan iboratdir. Shunday qilsak, xabarlardagi haqiqat va yolg’onni qat’iy ravishda ajratish uchun aniq bir mezonga ega bo’lamiz. Shundan keyin sivilizatsiya holatlari haqida eshitsak, nimani qabul qilish va nimani rad etish kerakligini bilib olamiz.¹¹

Mazkur konsepsiya keyinchalik M.Veber, A.Toynbi, O.Shpingler va boshqalar tomonidan yanada rivojlantirildi. Tarixiy jarayonlarni, shuningdek, madaniyat kabi murakkab hodisani o’rganishdagi sivilizatsiyaviy yondashuv masalalarni hal etishda haqqoniylik, adolat, sodir bo’lgan voqea-hodisalarga baho berishda makon va zamonning o’ziga xosligini e’tiborga olgan holda munosabatda bo’lishni talab etadi.

Mazkur yondashuvning muhim jihatlari uning har qanday davlat yoki davlatlar guruhiga qo’llash mumkinligidan iborat bo’lgan universalligi, tarixni ko’p chiziqlilik, jarayonlarni ko’p variantlilik deb anglashda yordam berishi, insoniyat tarixining birligi, yaxlitligini inkor etmasdan, balki uni taqozo etishi, sivilizatsiyalar yaxlit tizim sifatida bir-biri bilan taqqoslanishi mumkinligidan iboratdir. Bu esa tarixiy qiyoslash usulini tarixiy tadqiqotlarga, shuningdek, madaniy jarayonlarni o’rganishga qo’llashni taqozo etadi. Shu tariqa tarixiy jarayonlarni chuqurroq tushunish, ularning xususiyatlarini aniqlash imkoni tug’iladi.

Ushbu konsepsiya sivilizatsiyalar rivojlanishidagi ma’lum omillarni aniqlashda tadqiqotchilarga u yoki bu mamlakatning, xalq va hududning erishgan yutuqlari, jahon sivilizatsiyasiga qo’shgan hissasini anglash imkonini beradi, shuningdek, tarixiy jarayonlarda axloqiy-ma’naviy

¹¹ Ibn Xaldun. Muqaddima. – T.: “Trust and support”, 2025-y. 138-b.



va intellektual omilga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu yondashuvda sivilizatsiyani tasniflashda va baholashda din, madaniyat, mentalitet muhim o'rin tutadi.¹²

Sovet davrida madaniy jarayonlarni o'rganishdagi formatsiyaviy yondashuv o'zini oqlamadi. Markscha-lenincha metodologiya asosida madaniyat sohasiga baho berish nazariyasining qisqacha tahlili shuni ko'rsatadiki, bunday ta'limot ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot va xalq ruhiyati, ma'naviy poklanish talablariga javob bermaganligi uchun ham tarix sinovidan o'tmadi. Madaniyatning kommunistik mafkuraning tarkibiy qismiga aylantirilishi, ma'naviy jabhalarga ma'muriy-buyruqbozlik usulida "rahbarlik" qilinishi, ijodiy jarayonda demokratik tamoyillarning tamomila rad etilishi, madaniy hayotga, badiiy asarga baho berishda sinfiylik tamoyiliga suyanilishi – ularning bari o'zbek milliy madaniyatining xalqchilik tamoyiliga zarar yetkazdi.

Mustaqillik hodisasi bunday metodologiyani bartaraf etmasdan o'z zaminini mustahkamlay olmasdi. Yana bir narsa ma'lum ediki, markscha-lenincha metodologiya jamiyat a'zolarining qator qatlamlari ongi va tafakkuriga majburlab singdirilgan bo'lsa-da, ularni bir zarb bilan va darhol bartaraf etib bo'lmadi. Bunday vazifa juda og'ir hamda mashaqqatli edi.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq madaniyatning metodologik-nazariy asoslari o'z-gara boshladi. Shuning uchun ham kun tartibiga madaniyat kabi juda zarur ijtimoiy fenomenni tashkil etuvchi qismlar va ularning o'z pog'onasidagi majmualar orasidagi aloqadorliklarni aniqlash va shu asosda aholida jamiyatga zarur bo'lgan ma'naviyatni shakllantirish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Shuning uchun ham bir tomondan, eng avvalo, jamiyat a'zolari ijtimoiy ongi va tafakkurini soxta unsurlardan tozalash lozim edi. Bu esa ma'naviyat, tarbiya orqaligina amalga oshirilishi mumkin. Boshqa tarafdin sinfiylik, partiyaviylik, g'oyaviylik kabi aqidalardan holi bo'lgan milliy madaniyatimizni rivojlantirishimiz kerak edi. Bu juda murakkab vazifa hisoblanadi. Uni hal etish uchun esa madaniyatning funksiyalari masalasiga e'tibor berish kerak. Ayrimlar madaniyat funksiyalari o'zgarmas, deb fikr bildiradilar. To'g'ri, madaniyat sohasining har qanday sharoitda ham o'zgarmaydigan funksional vazifalari bor. Masalan, madaniyatning axborot tarqatish, kommunikativ, aksiologik, bilish, normativlik kabi funksiyalari, nazarimizda o'zgarmas mazmunga ega. Ular

jamiyat va inson taraqqiyotida doimo o'ziga xos vazifalarni qanday zamon va makonda bo'lishidan qat'i nazar bajarishi lozim.


Ayni paytda, zamonning shiddat bilan rivojlanib borishi, jahoniy global muammolar mazkur masalaga yangicha munosabatda bo'lishni ham talab etmoqda. Shu ma'noda, fikrimizcha, bugun, **Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat funksiyalarini o'rganishda shaxs, jamiyat, davlat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan, mazmunan yangi funksiyalar haqida ham gapirish vaqti keldi, deb o'ylaymiz.**


Fikrimizcha, Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida madaniyatning eng muhim funksiyalaridan biri mazkur fenomen hodisaning ijtimoiylashuv funksiyasidir. Umuman, ijtimoiylashuv biron-bir voqea-hodisa, shaxs yoki harakatning ijtimoiy mohiyat kasb etib, ko'pchilikka daxldor bo'lib, ijtimoiy munosabatlar mujassamiga aylanib borishini anglatadigan tushuncha hisoblanadi. Madaniyatning ushbu funksiyasi muhim vazifalardan birini bajaradi. Ijtimoiylashuv ibtidoiy odamni ijtimoiy sivilizatsiyaning faol a'zosiga aylantiradi. Shu narsa ma'lumki, insonni jamiyat tarbiyalaydi, shakllantiradi. Buning natijasida odamlar ijtimoiy jamiyatning ichida o'zining "men"ini topishga harakat qiladi. Jamiyatda ijtimoiylashuv, deganda odamlarning bir xil fikrlashi, bir xil hayot tarzini shakllantirish tushunilmaydi. **Inson har qanday sharoitda ham o'zining individual "qiyofasini"ni saqlab qolishga madaniyatning ushbu funksiyasi yordam beradi.**

Madaniyat ijtimoiylashuv funksiyasining dolzarbligini ko'rsatib turadigan **ikki sababga** e'tibor berish kerak. **Birinchisi**, "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat" tamoyilining konstitutsiyaviy maqomga egaligi. **Ikkinchisi**, bugungi dunyoning haddan tashqari globallashuvi natijasida odamlar ijtimoiy ongini zaharlovchi omillar, eng avvalo, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri oqibatida yoshlarimiz katta qismining virtual olamga kirib ketishidir. Bu esa yoshlarimizda tafakkur hafsalasizligi, ma'naviy hayotdagi mudoqlik, shaxsiy hayotining jamiyat ijtimoiy mo'ljallariga uyg'unlashtirishdagi no'noqlik holatini keltirib chiqarmoqda.

Ijtimoiylashmagan jamiyatda jamoaviylik ruhiyati o'rniga individualistik qarashlar, samimiylilik, mehribonlik fazilatlarini o'rniga qo'pollik, dag'allik, agressivlik sifatleri shakllanadi. Bunday jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish aslo mumkin emas. **Ijtimoiylashmagan shaxsda esa tafakkur o'zligi, nosog'lom ma'naviy ehtiyoj, hayotga yengil munosabatda bo'lish, iste'molchilik kayfiyatleri, "olomon" odam sifatleri ustuvor ahamiyat kasb etadi.** Shu nuqtayi nazardan

¹² Shadmanova S., Yuldashev M. Tarixiy tadqiqotlarning metodologiyasi va zamonaviy usullari. – T.: "O'zbekiston", 2019-y. 66-b.





madaniyatning ijtimoiylashuv funksiyasi o'ta zarur hodisaga aylandi, deyish mumkin.

Madaniyat funksiyalari orasida tarbiyalovchilik funksiyasi ham bugungi kunda juda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib turibdi. Xo'sh, tarbiya nima? Tarbiya – muayyan xalqning ming yillar davomida shakllangan, ijtimoiy tajriba natijasida sayqallangan, avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan, oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy-siyosiy va boshqa tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari ta'siri ostida shaxs ma'naviy dunyosini shakllantirish jarayonini anglatuvchi tushuncha hisoblanadi.

Biz bugun juda ko'p narsani biladigandekmiz, hamma narsaga aqlimiz yetadigandek tuyuladi. Biroq bilgan narsalarimizning hammasi ham yordam beravermas ekan. Jadid bobomiz Abdulla Avloniy bu borada shunday deydi: *“Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja beruvchi axloq tarbiyasidir. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor dedik, chunki: dars oluvchi – biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchi demakdir”*.¹³

Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan bugungi sharoitda yoshlarga shunday tarbiya berish lozimki, ular o'z ota-bobolariga, milliy tarixi, ona tili, millat ulug'lariga, muqaddas islom an'alariga sodiq qolishsin. U kitoblardan o'rganilgan ma'rifiy ilm qatorida oilada olingan hayot ilmi ham ularga suv va havodek zarur. **Ilmli, odobli, farosatli odam hayotda o'rnini topib oladi. Shuning uchun ham keyingi yillarda mamlakatda madaniyatning tarbiyalovchilik funksiyasiga alohida ahamiyat berilmoqda.** Madaniyat va san'atning tarbiyalovchilik roli qabul qilinayotgan Prezident farmonlari, qarorlarida ustuvor o'ringa ega bo'lmoqda.

Shaxs kamoloti, bizning nazarimizda uchta fenomen hodisaning o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Ularning birinchisi – tarbiya, ikkinchisi – aql, uchinchisi – tafakkur masalasidir. Ularning o'zaro bahamjihatligi jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitini sog'lomlashtiruvchi omildir.

a) **Tarbiya inson faoliyatini tartibga soladi;**

b) **aql narsa va hodisalarning mohiyatini bilishga yordam beradi;**

v) **tafakkur esa insonga o'sha voqea-hodisalarning mohiyatini anglaganidan so'ng to'g'ri faoliyat yuritishimizga yo'l ko'rsatadi.**

Shu o'rinda Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf shunday deydi: *“Inson zoti aql bilan boshqa jonzotlardan ustun turadi. Inson o'ziga berilgan aql vositasida inson yetishi mumkin bo'lgan eng yuqori martabalariga erishadi. Ammo aql o'z-o'zidan*

ishlab ketavermaydi. Aqlni harakatga soluvchi kuch tafakkurdir. Boshqacha qilib aytganda, insonni haraktga soluvchi kuch aqli emas, balki tafakkuri ila erishilgan idrokdir. Tafakkur bo'lmasa, aqlning o'zi hidoyatga yo'llay olmaydi. Dunyoda qanchadan-qancha aqllilar bor. Ammo ularning aqlari to'g'ri yo'lga boshlamayapti, yomonlardan qaytarmayapti”.¹⁴

Madaniyatning tarbiyalovchilik funksiyasi markazida turadigan omil axloq hisoblanadi. Shu o'rinda xalqimizni, ayniqsa, yosh avlodni bugun tobora ko'payib borayotgan, e'tiqodi sust ba'zi yoshlarni o'z domiga tortayotgan turli axloqsizliklardan asrash o'ta jiddiy va muhim masalaga aylanib ulgurganini alohida qayd etish kerak. Haqiqatan ham axloq masalasi aslida, madaniyat, ma'naviyat, tarbiyaning o'zak ildizi bo'lsa-da, bugun ushbu fenomen hodisa katta siyosatga daxldor masalaga ham aylanib bo'ldi.

Mamlakat va millat oldida turgan ulkan maqsadlarga erishish yo'lida madaniyatning muhim funksiyalaridan yana biri xalqni safarbar etish bilan bog'liqdir. Demak, **madaniyatning ijtimoiy safarbarlik funksiyasi** hech qachon yo'q bo'lmaydigan, hozirgi jahoniy musobaqa davrida yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi, jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitining sog'lomligini ta'minlaydigan buyuk kuchga aylanmoqda. Ijtimoiy safarbarlik jamiyatning barcha fuqarolari tomonidan o'z millati va mamlakati taqdiri uchun mas'ul ekanini ongli ravishda tushungan holda o'zidagi barcha imkoniyatlar, bilim, tajriba, malakalarni yagona maqsad yo'lida jamlay olish, ularni ezgu maqsadlarga erishish sari safarbar etish ko'nikmasidir.

Ayni paytda, **jamiyatda ijtimoiy safarbarlikni amalga oshirish uchun har bir fuqaro o'zida ehtiyoj sezishi lozim. Biroq bu ehtiyoj, albatta, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan ijtimoiy ehtiyojga hamohang bo'lishi kerak.** Shuningdek, jamiyatda ijtimoiy safarbarlikka erishishning eng muhim omillaridan yana biri – davlatning o'zi shu safarbarlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashi, bunday harakatni rag'batlantirib turishi lozim.

Madaniyatning ijtimoiy safarbarlik funksiyasi, bizning nazarimizda quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

- odamlar hayotni sevish va undan zavq olishga;
- qiyinchiliklarga qarshi kurashish va ularni yengish uchun ma'navi-madaniy kuch-quvvat kerak ekanligini sezdirishga;
- arzirli bir ishni poyoniga yetkazish maqsadida og'ir mehnat qilish uchun sabr-toqatli bo'lishga;
- o'zini boshqalarga yordam berishga safarbar etishni bilishga;
- oldinda turgan og'ir va mashaqqatli mehnat oldidagi hadik va qo'rquvni yengib o'ta olish tajribasiga ega bo'lishga;

¹³ Abdulla Avloniy. So'ylasang, so'yla, yaxshi so'zlardin. – T.: 2022-y. 15-b.

¹⁴ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Xislatli hikmatlar sharhi. – T.: 2014-y. 394-b.



- o'z oldiga aniq maqsadni qo'ya bilish, uni amalga oshirish uchun esa katta tajribaga ega bo'lish, tinmasdan harakat qilish, o'z egallagan soha bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlarini muttasil ravishda oshirib borishga o'rgatishi kerak.

Ijtimoiy safarbarlik holati, avvalo, mardlik, shijoat, g'ayrat, hushyorlik, tejamkorlik, o'ylab ish qilish, insof, saxovat, kamtarlik, rahm-shafqat kabi ijobiy sifatning yig'indisi sifatida shakllanishi mumkin. Shuningdek, mazkur holatining yuzaga kelishiga ziyon yetkazadigan shunday salbiy sifatlar ham borki, ularning ba'zilari, fikrimizcha, quyidagilardan iborat: yalqovlik, shoshqaloqlik, baxillik, g'araz, tamagirlik, minnat, har bir ishni paysalga solish, aniq reja tuzish amaliyotining yo'qligi, hafsalasizlik va boshqalar.

Madaniyatning ijtimoiy safarbarlik funksiyasi bugungi kunda ayrim yoshlarimizning virtual dunyoga kirib ketishi, uning natijasida, jamiyatda ijtimoiylashuv jarayonining buzilishi, fuqarolarda individualistik dunyoqarashning kuchayib borayotgan bir paytida o'ta muhim o'ringa ega, deb bilamiz.

Madaniyat funksiyalari haqida fikrlashish asnosida yana bir muhim masala ustida to'xtalishga to'g'ri keladi. Gap bugungi yoshlarimiz orasida tobora avj olib borayotgan iste'molchilik kayfiyati xususida ketmoqda. Iste'molchilik inson hayot tarzining eng ustuvor jihati ekanligini e'tirof etsak-da, biroq iste'mol qilingan narsaning o'rnini qoplash uchun ularni yaratish kerakligini unutish aslo to'g'ri bo'lmaydi. Bugun yanada avj olib borayotgan ana shu iste'molchilikdan iborat kayfiyatni yaratuvchanlikdan iborat muhitga o'zgartirmasak, bu bizning tobora rivojlanib, yanada takomillashib borayotgan taraqqiyotimiz uchun sezilarli to'siqqa aylanishi mumkin. Ham moddiyotda, ham ma'naviy-madaniy hayotda


iste'molchilik kayfiyatini yaratuvchanlik kayfiyatiga aylantirmas ekanmiz, jamiyat taraqqiyotiga erishish qiyinlashib boraveradi.

Ayniqsa, madaniyat sohasida iste'molchilikdan yaratuvchanlik kayfiyatiga o'tish juda muhim. Chunki yangi asarlar yaratilmas, yangi-yangi Alisher Navoiylar, Xorazmiylar, Beruniylar, Farg'oniylar yetishib chiqmas ekan, madaniyatimizning vorisiyligi haqida gapirishning o'zi befoyda.

Shu ma'noda, fikrimizcha, bugungi **Yangi O'zbekiston madaniyati uchun yaratuvchanlik funksiyasi o'ta zarur**. Nosog'lom iste'molchilikdan sog'lom yaratuvchanlik kayfiyatiga o'tish shu ma'noda juda kerak. Mamlakat rahbari tomonidan bu borada barcha imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularning bari iqtidorli yoshlarimizni yaratish, mavjud milliy-madaniy boyliklarimizni yanada ko'paytirishga safarbar etishi lozim.

Biz bugun barpo etmoqchi bo'lgan Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans, mamlakat rahbari aytgani kabi, real imkoniyatlarga ega. Ana shu imkoniyatlar orasida mamlakat va millat taqdirida muhim o'ringa ega bo'lgan madaniyatning o'rnini alohida qayd etish kerak. Chuqur e'tiqodim va hayotiy tajribam asosida qayd etish mumkinki, bugun madaniyat jamiyat hayotidagi ham iqtisodiy-ijtimoiy, ham siyosiy-mafkuraviy muammolarni hal etishda qudratli kuchga aylandi. Shu ma'noda, mamlakat rahbarining: *"Farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg'ularini kuchaytirishda ma'naviy-ma'rifiy sohalar vakillari, madaniyat va san'at namoyandalari hamda ijod ahlining o'rni va ta'siri beqiyosdir"*, – degan fikrlarida katta haqiqat bor.¹⁵

¹⁵ Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – T.: "O'zbekiston", 2025-y. 280-b.





ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ СФЕРЕ

АННОТАЦИЯ. *Предпринимательская деятельность в сфере культуры включает в себя широкий спектр возможностей, от создания и управления культурными учреждениями до организации мероприятий, продажи товаров и услуг, связанных с культурой и искусством. Предпринимательство в сфере культуры и искусств имеет свои особенности и вызовы, но также предоставляет множество возможностей для творческих и предпринимательских деятелей.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: менеджмент, социально-культурная деятельность, предпринимательство, сегмент, эффективность.

Annotatsiya. *Madaniyat sohasidagi tadbirkorlik faoliyati madaniy muassasalarni tashkil etish va boshqarishdan tortib tadbirlarni tashkil etish, madaniyat va san'at bilan bog'liq tovarlar va xizmatlarni sotishgacha bo'lgan keng imkoniyatlarni o'z ichiga oladi. Madaniyat va san'at sohasidagi tadbirkorlik o'ziga xos xususiyatlarga va qiyinchiliklarga ega, ammo ijodiy va tadbirkor shaxslar uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi.*

KALIT SO'ZLAR: menejment, ijtimoiy-madaniy faoliyat, tadbirkorlik, segment, samaradorlik.

ANNOTATION. *Entrepreneurial activity in the field of culture includes a wide range of opportunities, from the creation and management of cultural institutions to the organization of events, the sale of goods and services related to culture and art. Entrepreneurship in the field of culture and the arts has its own characteristics and challenges, but also provides many opportunities for creative and entrepreneurial figures.*

KEY WORDS: management, socio-cultural activities, entrepreneurship, segment, efficiency.

Развитие нового этапа общества выдвинуло задачу формирования социальной общности предпринимателей в Узбекистане, потребность в надлежащей предпринимательской культуре и ключевом сегменте социокультурного сообщества. В связи с этим вопрос о необходимости создания ценностных основ предпринимательской деятельности в стране и тенденциях развития предпринимательской культуры в условиях вступления страны в новый этап своего развития приобретает особую актуальность.

В Узбекистане формирование социальной общности предпринимателей является важным аспектом развития бизнес-среды и экономики в целом. В последние годы правительство страны предпринимает шаги для поддержки предпринимательства и создания благоприятной среды для развития бизнеса. В этом контексте социальные общности предпринимателей могут играть ключевую роль в содействии обмену опытом, развитию совместных проектов и решении общих проблем.

Следует иметь в виду, что сам процесс явления-легализации предпринимательства в раз-

личных формах в новых социально-экономических условиях осуществляется как очень судьбоносная социальная трансформация, которая еще не достигла необходимой степени развития. В первую очередь это связано с динамикой преобразований, стремительно происходящих в недрах социальной системы, при дальнейшем углублении которых предпринимательство постепенно формирует основу среднего класса, который в развитых странах обеспечивает устойчивое развитие государства, его экономическую и социальную стабильность. Этот процесс также тесно связан с тем, что, согласно историческому времени, социальные преобразования в стране во многом совпали с изменением отношения человека к вопросу создания основ частной собственности, в результате чего существенно меняется само содержание предпринимательской деятельности.

Особенности предпринимательской деятельности в сфере культуры и искусств определяется широким внедрением рыночных отношений во все сферы жизнедеятельности современного общества, в том числе и в культурную сферу. Экономика культурной сферы учиты-



вадет современные экономические модели, сохраняя положительный хозяйственный опыт организации культуры. Экономические законы, действующие во всех отраслях национальной экономики применимы и обязательны для отрасли культуры. Специалисты сферы культуры должны владеть практическими экономическими навыками, особенно в современных условиях глобализации общественно – производственных процессов. Успешное ведение предпринимательской деятельности в сфере культуры требует понимания как бизнес-аспектов, так и особенностей культурной индустрии, а также умения сочетать коммерческие цели с сохранением и продвижением культурного наследия [2].

Надо отметить, что культурная и креативная индустрии сегодня становятся всё более важными для экономического развития многих стран. Они не только являются источником развлечения и духовного обогащения, но и значительным фактором в создании рабочих мест, привлечении инвестиций и стимулировании инноваций.

В современном мире культурная индустрия становится все более важным сектором экономики, способствующим созданию рабочих мест, привлечению инвестиций и экономическому развитию. Предпринимательская деятельность в этой сфере требует особых навыков и знаний, учитывая специфику культурных продуктов и услуг.

Финансирование культурных проектов: предпринимательство в сфере культуры и искусств часто связано с поиском финансирования для культурных проектов. Это может включать в себя привлечение инвестиций, грантов, спонсорских средств или создание собственных источников дохода.

Управление рисками: культурные искусства часто связаны с высоким уровнем неопределенности и риска. предприниматели в этой сфере должны уметь оценивать и управлять рисками, связанными с производством и продвижением культурных продуктов.

Инновации и творчество: предпринимательская деятельность в области культуры и искусств также требует инноваций и творческого подхода. Это может включать в себя создание новых форматов событий, использование новых технологий для продвижения и распространения культурных продуктов и развитие новых моделей бизнеса.

Законодательство и культурные политики: предпринимателям в сфере культуры и искусств необходимо быть в курсе законодательных и культурных политик, которые могут влиять на их деятельность. Это включает в

себя авторские права, налоговые льготы, культурное наследие и другие аспекты.

Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев активно поддерживает предпринимательскую деятельность в нашей стране. Его программы и реформы направлены на стимулирование экономического роста и развития бизнес-сектора. В его трудах часто подчеркивается важность создания благоприятной инвестиционной среды, улучшения бизнес-климата и привлечения иностранных инвестиций.

Мирзиёев Ш.М. проводит ряд инициатив, направленных на улучшение условий для предпринимателей, таких как упрощение процедур регистрации бизнеса, снижение налогового бремени, содействие доступу к финансированию и технологиям. Он также подчеркивает важность развития малого и среднего бизнеса как движущей силы экономики и создания новых рабочих мест.

Благодаря его усилиям были приняты многочисленные меры по либерализации экономики и сокращению бюрократических барьеров для предпринимателей. Эти действия способствуют привлечению инвестиций и стимулированию роста бизнеса, что в свою очередь способствует экономическому развитию страны.


Несмотря на вызовы и трудности, предпринимательство в Узбекистане продолжает развиваться, привлекая внимание инвесторов из разных стран и играя важную роль в экономическом развитии страны.


История предпринимательства начинается со средних веков. Уже в то время купцы, ремесленники, миссионеры представляли собой начинающих предпринимателей. С появлением капитализма стремление к богатству приводит к желанию получать неограниченную прибыль. Действия предпринимателей принимают специализированный характер, обретая цивилизованные рамки.

Предпринимательская деятельность – это процесс создания, развития и управления бизнесом или коммерческой деятельностью с целью получения прибыли. Основная суть предпринимательства заключается в идентификации возможностей на рынке, организации ресурсов (капитала, труда, знаний) для реализации этих возможностей и принятии риска. Предприниматель действует как инноватор, создавая новые продукты, услуги или способы их производства, и как организатор, объединяя ресурсы и координируя деятельность, чтобы достичь поставленных целей.

Сущность предпринимательской деятельности может включать в себя такие аспекты, как:

Инновация: предприниматели стремятся к





постоянному улучшению и развитию, создавая новые продукты, услуги или методы производства.

Риск: предпринимательство всегда связано с риском. Предприниматели готовы принимать риски, связанные с инвестированием капитала, времени и энергии в неопределенные проекты и идеи.

Управление: предприниматели организуют и управляют ресурсами (финансовыми, человеческими, материальными) для достижения поставленных целей.

Создание ценности: предпринимательская деятельность направлена на создание ценности для клиентов, общества и предпринимателя самого по себе.

Гибкость и адаптивность: предприниматели должны быть гибкими и адаптивными, чтобы приспосабливаться к изменяющимся условиям рынка и окружающей среды.

Предпринимательская культура: эффективное предпринимательство требует развития культуры, способствующей инновациям, творчеству, ответственности и принятию рисков.

В целом, сущность предпринимательской деятельности заключается в том, чтобы преобразовывать идеи в действия, создавать ценность для общества и экономики, и вносить положительный вклад в развитие бизнеса и общества в целом.

Предпринимательская деятельность включает в себя множество теоретических аспектов, которые изучаются и анализируются в рамках различных дисциплин, таких как экономика, менеджмент, маркетинг и теория предпринимательства. Вот несколько основных теоретических аспектов предпринимательской деятельности:

Теория предпринимательства: эта область исследует процесс создания и развития новых предприятий. Теория предпринимательства анализирует факторы, которые побуждают людей к предпринимательской деятельности, такие как инновации, неопределенность, риск и возможности.

Экономическая теория предпринимательства: эта область изучает роль предпринимателей в экономике. Экономическая теория предпринимательства исследует, как предпринимательская активность влияет на экономический рост, занятость, инновации и распределение ресурсов.

Модели принятия решений: предпринимательская деятельность часто связана с принятием решений в условиях неопределенности. Различные модели принятия решений, такие как модель ожидаемой полезности или теория

игр, могут быть применены для анализа и прогнозирования решений предпринимателей.

Управление рисками и неопределенностью: предпринимательская деятельность часто сопряжена с риском и неопределенностью. Теории управления рисками и методы анализа неопределенности помогают предпринимателям принимать более осознанные решения и управлять рисками в своих предприятиях.

Маркетинг и стратегия: эффективный маркетинг и разработка стратегии играют важную роль в успехе предпринимательских проектов. Теории маркетинга и стратегического менеджмента помогают предпринимателям понять потребности рынка, определить конкурентные преимущества и разработать планы действий для достижения целей.

Финансы и управленческий учёт: понимание финансовых аспектов предпринимательской деятельности, таких как управление капиталом, привлечение инвестиций и финансовое планирование, играет важную роль в успешном управлении предприятием. Теории финансов и управленческого учёта помогают предпринимателям эффективно управлять финансовыми ресурсами. Эти и другие теоретические аспекты предпринимательской деятельности обеспечивают основу для анализа, понимания и развития бизнеса. Из всего сказанного выше можно сделать вывод о том, что предпринимательство и новаторство в современном обществе представляют взаимосвязанное целое.

Предпринимательская деятельность в сфере культуры включает в себя широкий спектр возможностей, от создания и управления культурными учреждениями до организации мероприятий, продажи товаров и услуг, связанных с культурой и искусством. Вот некоторые из возможных видов предпринимательской деятельности в этой области:

1. **Галереи и музеи:** организация и управление галереями или музеями, включая сбор и экспозицию произведений искусства, привлечение посетителей и продажу искусства.

2. **Организация мероприятий:** планирование и проведение культурных мероприятий, таких как выставки, фестивали, концерты, театральные постановки и т. д.

3. **Издательский бизнес:** издание книг, журналов, музыки, фильмов и других произведений искусства.

4. **Туризм и гостеприимство:** создание и управление туристическими объектами, такими как исторические места, культурные достопримечательности, отели и рестораны.

5. **Образовательные программы:** проведение курсов, семинаров и мастер-классов по



искусству, музыке, танцам и другим видам культурной деятельности.

6. Интернет-платформы и технологии: разработка и управление онлайн-платформами для распространения и продвижения культурных товаров и услуг, таких как цифровые арт-галереи, стриминговые сервисы для музыки и фильмов и т. д.

7. Развлекательная индустрия: создание и управление развлекательными комплексами, парками развлечений, кинотеатрами и другими местами культурного отдыха.

8. Культурный туризм: разработка и продвижение туристических маршрутов и программ, связанных с культурным наследием региона.

Успешное ведение предпринимательской деятельности в сфере культуры требует понимания как бизнес-аспектов, так и особенностей культурной индустрии, а также умения сочетать коммерческие цели с сохранением и продвижением культурного наследия.

Организация предпринимательской деятельности включает в себя несколько ключевых шагов:

Идея и бизнес-план: начните с определения своей идеи бизнеса. Проведите исследование рынка, определите целевую аудиторию, изучите конкурентов. Затем разработайте бизнес-план, включающий в себя описание бизнеса, стратегию маркетинга, финансовые прогнозы и т. д.

Выбор организационной формы: решите, какую форму организации выбрать: индивидуальное предпринимательство, общество с ограниченной ответственностью (ООО), акционерное общество (АО) и т. д. Каждая форма имеет свои особенности и требования.

Регистрация бизнеса: зарегистрируйте свой бизнес в соответствии с требованиями местного законодательства. Это может включать в себя получение лицензий, регистрацию в налоговых органах и другие административные процедуры.

Финансирование: определите источники финансирования вашего бизнеса. Это может быть собственные средства, займы от банков, привлечение инвестиций и т. д.

Поиск помещения и оборудования: если ваш бизнес требует физического пространства или оборудования, найдите подходящее помещение и оборудование для вашей деятельности.

Трудоустройство: если необходимо, наймите сотрудников для своего бизнеса. Убедитесь, что вы соблюдаете все законы и нормы в отношении трудовых отношений.

Маркетинг и продажи: разработайте стратегию маркетинга для привлечения клиентов и продвижения вашего продукта или услуги. Это

может включать в себя создание веб-сайта, использование социальных медиа, рекламные кампании и т. д.

Управление и развитие: организуйте процессы управления вашим бизнесом, чтобы обеспечить его эффективную работу. Постоянно развивайте свой бизнес, адаптируясь к изменяющимся рыночным условиям и потребностям клиентов.


Это лишь общие шаги, которые могут варьироваться в зависимости от конкретного бизнеса и местных особенностей.


Предпринимательская деятельность в сфере культуры определяется широким внедрением рыночных отношений во все сферы жизнедеятельности современного общества, в том числе и в культурную сферу. Экономика культурной сферы учитывает современные экономические модели, сохраняя положительный хозяйственный опыт организации культуры. Экономические законы, действующие во всех отраслях национальной экономики применимы и обязательны для отрасли культуры. Специалисты сферы культуры должны владеть практическими экономическими навыками, особенно в современных условиях глобализации общественно - производственных процессов.

На сегодняшний день существует более 6 тысяч нормативных и 40 тысяч технических документов, упорядочивающих деятельность бизнеса. Некоторые устаревшие требования затрудняют внедрение новых продуктов, технологий и услуг. Указом президента «О мерах по упрощению государственного регулирования предпринимательской деятельности», исходя из государственной программой по реализации стратегии развития пересмотрены требования, препятствующие деятельности предпринимателей в современных условиях, введен ряд послаблений. В частности, четко определены средства государственного регулирования предпринимательства. Это государственная регистрация, лицензирование, разрешительные процедуры, техническое, тарифное и нетарифное регулирование, обязательное страхование, государственный контроль, защита конкуренции, установление ответственности [1].

Предпринимательство в сфере культуры и искусств имеет свои особенности и вызовы, но также предоставляет множество возможностей для творческих и предпринимательских деятелей. Вот несколько практических аспектов, которые следует учитывать:

1. Идентификация целевой аудитории: определите, кому предназначены ваши культурные или художественные продукты, или услуги. Это поможет вам адаптировать свои предложения и маркетинговые стратегии под





потребности и предпочтения вашей целевой аудитории.

2. *Финансовое планирование*: как и в любом бизнесе, важно иметь четкий финансовый план. Это включает в себя оценку затрат на производство или организацию культурных мероприятий, а также прогнозирование доходов от продажи билетов, спонсорства, грантов и других источников.

3. *Развитие креативных идей*: в сфере культуры и искусств важно иметь уникальные идеи, способные привлечь внимание аудитории. Исследуйте новые форматы, сотрудничайте с другими творческими личностями и экспериментируйте с различными подходами.

4. *Маркетинг и продвижение*: эффективный маркетинг играет ключевую роль в привлечении публики к вашим культурным мероприятиям или продуктам. Это может включать в себя использование социальных медиа, создание креативной рекламы, участие в выставках и фестивалях, а также установление партнерских отношений с другими организациями.

5. *Управление ресурсами*: эффективное управление временем, деньгами и человеческими ресурсами крайне важно для успеха вашего предприятия. Разработайте системы учета и контроля, чтобы эффективно распределять ресурсы и избегать излишних затрат.

6. *Законодательные и организационные вопросы*: ознакомьтесь с правовыми аспектами, связанными с вашей деятельностью в сфере культуры и искусств, такими как авторские права, лицензирование, страхование и прочие организационные вопросы.

7. *Создание сети контактов*: ваш успех в сфере культуры и искусств часто будет зависеть от вашей способности установить и поддерживать отношения с другими творческими личностями, организациями, спонсорами и потенциальной аудиторией.

Предпринимательство в сфере культуры и искусств требует творческого подхода и гибкости, но при правильной стратегии и усердной работе может привести к успешным результатам и удовлетворению как для вас, так и для вашей аудитории.

Использованная литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 09.11.2022 г. N УП-244 «О мерах по упрощению государственного регулирования предпринимательской деятельности».
2. Черняк В.З. История предпринимательства.— Москва: «Юнити-Дана», 2010 г. 608 с.
3. Юлдашева М.Б. Особенности развития стратегии профессионального образования в сфере культуры. Вестник института искусств и культуры Узбекистана “Уз ДСМИ хабарлари”, №4. 2020 г.
4. Юлдашева М.Б. Социально-культурный маркетинг в развитии досуговой культуры семьи. Научный вестник ФерГу. №3. 2022 г. 188–193 с.

JADIDLAR G'OYASINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidlar tomonidan ilgari surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillari, shuningdek, milliy mustaqilligimizning istiqboli xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: jadidlar, qaror, mustaqillik, axloq, millat, elat, g'oya, Renessans.

Аннотация. В данной статье раскрываются выдвинутые джадидами идеолого-политические, социально-просветительские и право-этические взгляды. Отмечается, что усилия, направленные на защиту толерантности и солидарности между народами стали частью государственной политики в нынешнее сложное время.

Ключевые слова: джаиды, решение, независимость, мораль, национальность, народность, идея, Ренессанс.

Annotation. This article reveals the ideological-political, social-educational and legal-ethical views put forward by the Jadids. It is noted that the fact of aspirations aimed at protecting national interests, along with the affirmation of the principles of tolerance and solidarity between different nationalities and peoples, have risen to the level of state policy in the current difficult times.

Key words: jadids, decree, independence, ethics, nation, folk, idea, Renaissance.

Barchamizga ayonki, mamlakatimizning mustaqilligi, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, ushbu yo'lda kerak bo'lsa jon fido etgan otobobolarimizning hayoti va faoliyatini atroficha o'rganish va tadqiq etish, ularning nomlari va xotirasini abadiylashtirish bo'yicha keyingi yillarda Yangi O'zbekistonda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, 1937–1953-yillarda mustabid tuzum tomonidan 100 mingdan ziyod xalqimiz vakillari qatag'on siyosatining qurboni bo'lgan. Bu yurtdoshlarimizning 13 ming nafari otib tashlangan, minglab kishilar nohaq quloq qilingan, surgunlarga jo'natilgan. Ular orasida atoqli davlat va siyosat arboblari, ilm-fan namoyandalari, ijodkor ziyolilar, diniy ulamolar, harbiy soha va sud-huquq tizimi xodimlari, ishchi-dehqonlar va ularning oila a'zolari bo'lgan.

Jumladan, 2021–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan 1 ming 200dan ziyod siyosiy qatag'on qurbonlarining nomlari oqlanganini alohida qayd etish lozim¹.

¹ "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi Qaror. PQ-270. 19.07.2024-y.

Hozirgi murakkab va tahlikali davrda mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, tariximizning noma'lum sahifalarini tiklash va ilmiy nuqtayi nazardan chuqur o'rganish, inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodning Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, ularni bugungi tinch, erkin va ozod hayotning qadriga yetish ruhida tarbiyalash maqsadida respublikada siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o'rganish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi tuzilganligini alohida ta'kidlash joiz.

Ushbu respublika komissiyasining asosiy vazifalari etib qatag'on qurboni bo'lgan shaxslarning hayoti va faoliyatini o'rganish, ularni nomma-nom aniqlash, arxiv va muzeylar, kutubxonalar va turli fondlarda saqlanayotgan hujjatlarni to'plash va tadqiq etish, ommalashtirish, qatag'on qurbonlarining avlodlari va yaqinlari, o'sha davr voqealariga guvoh bo'lgan insonlarning xotiralarini yozib olish, oilaviy arxiv va kutubxonalarda saqlanayotgan tarixiy manbalarni, noyob suratlarni to'plash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish, yurtdoshlarimiz



haqidagi tarixiy haqiqatni tiklash va kelgusi avlodlarga yetkazish, chet eldagi turli fondlar, arxiv, muzey, yosh avlodni Vatanimiz ozodligi yo'lida jonini fido qilgan buyuk ajdodlarimiz xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning jasorati va ibratli faoliyatini targ'ib etishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yish, har yili oktyabr oyining birinchi haftasini mamlakatimizda Siyosiy qatag'on qurbonlarini yod etish haftaligi sifatida nishonlash va yana bir qator ishlar belgilab berilgan².

Belgilab berilgan eng asosiy vazifalardan yana biri, "O'zarxiv" agentligining Davlat xavfsizlik xizmati bilan birgalikda davlat arxivlarida saqlanayotgan qatag'on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalariga oid muayyan arxiv hujjatlarini belgilangan tartibda maxfiylikdan chiqarish masalasi bo'ldi. Endiilkda ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar, tegishli idoraviy arxivlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shuningdek, tashqi ishlar vazirligi

tomonidan qatag'on qurbonlarining hayoti va faoliyatiga doir chet ellardagi mavjud manbalarni izlab topish va o'rganishda xorijdagi ilmiy-tadqiqot markazlari, nufuzli universitet va fondlar hamda soha mutaxassislari bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yishda amaliy yordam ko'rsatishiga ham alohida ahamiyat berilyabdi.

O'tgan asr boshlarida shakllanib, nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan jadidchilik harakatini har tomonlama o'rganishga bag'ishlangan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning o'tkazilishi va unga Prezident Shavkat Mirziyoyevning murojaatnoma yo'llashi Yangi O'zbekistonda nafaqat jadidlarga ijobiy munosabat, balki ularning ezgu ishlari davlat siyosati darajasiga olib chiqilib, jadidlar davomchisi sifatida gavdalanayotganligini barchamiz guvohi bo'lib turibmiz.

Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmati va ahamiyatini hamon yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan

² "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi Qaror. PQ-270. 19.07.2024-y.



birgalikda teran tadqiq va targ'ib etish bizning ustuvor vazifamizdir³.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o'rni va ta'sirini o'rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi bilan bog'liq masalalar bugungi kunda alohida ahamiyatga ega ekanligini doimo yodda tutish bilan birga uni yosh avlod ongiga chuqur singdirish barchaning ustuvor vazifasi bo'lishi kerak.

Prezident Shavkat Mirziyoyev: "Tilda, fikrda, ishda birlik", degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda", – deb bildilar.

Ular shu yo'lda fidoyilik ko'rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar. Jamiyat a'zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etdilar. Yoshlarni ilg'or davlatlarga o'qishga yubordilar. Shu bilan birga davlat boshqaruvi, sud-huquq, moliya, soliq tizimlari, yer masalalarini tadrijiy asosda tubdan isloh qilish uchun g'oyaviy va amaliy harakatlar olib bordilar. Bir so'z bilan aytganda, ular milliy uyg'onish, milliy

taraqqiyot g'oyasini ro'yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar⁴.

Darhaqiqat, o'sha davrdagi mavjud vaziyatlar va ijtimoiy zug'umlar jadid bobolarimizning bunday ulug'vor maqsadlarni amalga oshirishga imkon bermagan. Hozirgi kunda esa, Yangi O'zbekistonda inson qadri ulug'lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g'oya va dasturlariga har jihatdan uyg'un va hamohang ekanligini butun dunyo guvohi bo'lmoqda.


Shu bois, xalqimiz ozodligi va Vatanimiz ravnaqi yo'lida aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini yangicha tafakkur asosida o'rganish hamda targ'ib etishga alohida e'tibor berilib, ana shu ishlarning mantiqiy davomi sifatida Buxoro shahridagi tarixiy maskanda Jadidchilik tarixi muzeyi tashkil etildi⁵.

Jadid bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlari hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasi bo'lish bilan birga, ularning hayoti bugungi tinch va osoyishta kunlarimizga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy mustaqilligimizni, ona Vatanimizni chin yurakdan hech qanday manfaatlarsiz sevishtirish, uni ko'z qorachig'iday asrashga va himoya qilishga doimo da'vat etishi kerak.

³ "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi Qaror. PQ-270. 19.07.2024-y.

⁴ "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyasiga Prezident Sh.M.Mirziyoyev murojaati. 11.12.2023-y.

⁵ O'sha manba.





XALQ MAQOLLARI TILIMIZ OBRO'SIGA QANCHALIK DAXLDOR?

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada maqollarning o'zbek tilidagi o'rni va ahamiyati, maqollarning o'zbek tili obro'siga qanchalik daxldor ekanligi haqida so'z yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR: maqol, tilga e'tibor, tasviriy ifoda, til qudrati, so'zlar tizmasi, ibora, xalq og'zaki ijodi.

АННОТАЦИЯ. В данной статье говорится о месте и значении пословиц в узбекском языке, о том, как пословицы влияют на репутацию узбекского языка.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: пословица, внимание к языку, образная выразительность, языковая способность, порядок слов, словосочетание, народное творчество.

ANNOTATION. This article talks about the place and importance of proverbs in the Uzbek language, how proverbs affect the reputation of the Uzbek language.

KEY WORDS: proverb, attention to language, visual expression, language ability, word order, phrase, folk art.

Maqol ko'chma ma'noda qo'llanuvchi xalq majoziy iboralari voqea-hodisalar, holat va harakatlarni obrazli ifodalashda keng qo'llaniladi. Maqolda o'xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq kabi badiiy vositalardan foydalaniladi. Maqollar – xalq og'zaki ijodi janri, qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy, tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gaplar yig'indisidir. Muayyan ritmik shaklga ega. Ularda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda, poetik shaklga kelgan. Ma'lumki, maqollar xalq og'zaki ijodining bebaho boyligi sanaladi. Ular o'zining qisqa shakli va chuqur ma'nosi bilan har birimiz nutqimizda qo'llaydigan bebaho vositaga aylangan. Ular o'z xususiyatiga ko'ra xalqaro janr sanaladi. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm, hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi-muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy xislatlar xususida rang-barang iboralar yaratilgan. Ular uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko'p hollarda qofiyadoshlik, ba'zan ko'p ma'nolilik, majoziy ma'nolarga boylik kabi xususiyatlar xarakterli.

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o'zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Masalan, Mahmud Koshg'ariy asarida: "Kishi olasi ichtin, yilqi olasi

tashtin", "Odam olasi ichida, mol olasi tashqida" kabi. Maqollar – xalq og'zaki ijodi merosining keng tarqalgan xarakterli janri hisoblanadi. Xalq tarixi, xarakteri, mehnat faoliyati va turmushining o'ziga xosliklari maqollarda muhrlangan yoki qadimiy turmushining toshlarga qoldirgan izlari singari ishonchli, metaforik tarzda yashiringan. Maqollarni yuzaga chiqargan xalq tili ham o'zining obrazli qudrati bilan ming yillar bo'yi saqlanib kelaveradi. Yana shuni unutmaslik kerakki, maqollar ularni yaratgan xalqning donoligini o'zida mujassam etadi.

Mashhur shoirimiz, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov: "Til millat bosh belgisidir", – deb bejiz aytmagan. Chunki til har bir millatga kecha-kunduz tinmay xizmat qiluvchi beminnat vositadirki, bunga har birimiz hamisha guvohmiz. Qolaversa, til Alloh irodasi bilan bunyod bo'lib, so'zlar majmuasidan tashkil topganki, tilning bu jihati ham ajoyib mo'jizalardan biridir. Shunday ekan, tilga doimo hurmat-ehtiromda bo'lish har birimizning kundalik hayotimizda odatimiz va ehtiyojimizga aylanishi lozimdir. Til – oddiy yoki keraksiz so'zlar tizmasidan iborat bo'lmay, tilda eng ezgu fikrlarni go'zal, ma'no-mazmun jihatdan dilbar va maroqli tarzda qisqa va aniq ifodalab beruvchi vosita, imkoniyatlar ham mavjud. Tilning bu tomonini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Sababi, til o'z kuch-qudrati, mazmun-mohiyati bilan har qanday narsa yoki hodisalar bilan bellasha olish xususiyatiga ham egadirki, buni til fanidan xabari bor har bir inson darrov tushunib yetadi.

A.Dandisning fikricha: "XX asrda zamonaviy



ijtimoiy fanlar ta'sirida ularni adabiy va tarixiy nuqtayi nazardan o'rganishdan chetga chiqila boshlanganga o'xshaydi. Maqollar mehnatkash xalqning butun hayotiy, ijtimoiy-tarixiy tajribasini shakllantiradi" [2.67-b.].

Teylorning fikricha: "Xalq maqollar"ga ta'rif berilishi juda mushkul ish. Bir gapning turg'un ibora yoki bunday emasligini aniqlash ham oson emas. Shu bois hech qanday ta'rif ularning to'la va ishonch bilan tavsiflash, uning nima ekanligini aniq belgilashga ko'mak bera olmaydi".

V.I.Dal "maqol" atamasining aniq tushunish zaruriyatini anglab yetgan edi: "Maqol, matal va shunga o'xshash iboralarga nom berib, men shunday boshi berk ko'chaga kirib qoldimki, bu nomlar ostida nimalarni tushunishim va ularni xalq qanday tushunayotganligini izoh etmasdan bu boshi berk ko'chadan chiqishning iloji yo'q". U maqolda ritorikaning barcha jilolari namunalari, istiora, majoz, giperbola, metonimiya, sinekdoxa, ironiya, qarama-qarshilik, o'zgarish, ikki fikrlilik, jonlantirish, shartlilik, chala (yarim) fikr, shuningdek, xalq og'zaki ijodining qo'shiq va ertak janrlarga xos o'lchovli va ixcham ko'rinishini topadi. To'g'ri ma'noga ega bo'lgan jumla majoziy obrazga aylanadi.

Til millat va xalqqa xizmat qilib borish baravarida tinmay o'sib, yangilanib, sayqal topib boradi. Shu boisdan ham tilda har xil ibora va tasviriy ifodalar, maqollar, matallar, topishmog'-u hikmatlarning paydo bo'lishi fikrimiz dalili bo'la oladi. Masalan, birgina xalq maqollarining o'zida ming-minglab ma'nolarning zuhur topganligi ayni haqiqatdir. Sababi, maqollar ham tildagi boshqa elementlar kabi tilimizning tushunarli, aniq, mazmunli va tiniq bo'lishiga hamisha shayligi bilan ajralib turadi. Qolaversa, maqollarda xalq donoligi, hayotiy haqqoniylik, va xolislik aniq-ravshan o'z ifodasini topadiki, bunga hech qanday moneliक्सiz qo'shilish mumkin. Xalq maqollarini hayot darsligi, deb atasak ham bo'ladi. Maqollar ming-ming yillardan beri o'z hayotiyiligini isbotlab kelayaptiki, bunga hali-hanuz biror kimsa o'z noroziligini yoki salbiy fikrini bildira olgan emas. Shu boisdan, xalq maqollarida aytilgan fikrlar mudom o'zini oqlashda davom etib kelmoqdaki, buni hatto, kichik yoshdagi bolalar uchun aytilgan quyidagi maqollarda ham ko'rsa bo'ladi.

Odobning boshi salom.

**Yaxshi so'z – jon ozig'i,
Yomon so'z – bosh qozig'i.**

**O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir.
Yolg'onning umri qisqa.**

**Mehnat qilsang yasharsan,
Katta-katta osharsan.**

Dangasaga ish buyursang, senga aql o'rgatar.

**Erta tursang, sof havo,
Kech turganga ne ravo.**

Bola aziz, odobi undan aziz.


Mazkur o'rinda kichkintoylar uchun atalgan bir qancha maqollarni misol keltirdik, xolos. Lekin shuni ta'kidlash joizki, maqollardagi ma'no-mazmun yosh tanlamaydi. Maqollar barcha uchun ham katta, ham kichikka birday xizmat qilaveradi. Buning uchun "Xalq maqollari" kitobini varaqlashning o'zi kifoya.

Xalq maqollarida hayotimiz va turmushimizning turfa jihatlari qamrab olinganligi ham kishilarimiz tarbiyasiga har tomonlama ko'mak berishini yodga olsak, maqollarning tilimiz obro'siga qanchalik daxldorekanligini darrov anglab yetamiz. Qolaversa, tilimiz chiroyi va rivojida qanday ahamiyatga ega ekanligini ham lozim darajada tushunib olamiz.

Biz yuqorida xalq maqollarini hayot darsligi, dedik. Buning boisi shuki, maqollarda ortiqcha yoki xira so'zlar bo'lmaydi. Ifodalanadigan fikr ixcham, qisqa va lo'nda tarzda o'quvchiga taqdim etiladi. Maqollar tarkibidagi ma'no-mazmun o'zining dolzarbligi, hayotiyiligi bilan har qanday o'quvchini befarq qoldirmaydi. Har qanday maqol hayotning shuurimizdagi xira va muham tushunchalarni aniq-ravshan va qisqa ifodalab beruvchi bir mo'jizadirki, buni har bir gazetxon yoki kitobxon, o'quvchi va talaba, ziyoli inson hech bir monelik va qarshiliक्सiz qabul qiladi. Xalq maqollari hayotdagi har qanday darsliklar bilan bemaol bellasha olish kuch-qudratiga ega bo'lib, tilimizni ajoyib, go'zal, betakror mo'jizasidirki, buni maqollarimizning asrlar davomida sayqal topib kelgan shakl-shamoyili hamda ma'no-mazmuni har doim isbotlab turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinov H. Maqollarning tarixiy va lingvomadaniy jihatdan o'rganilishi. Научный журнал «Молодой учёный», № 45 (335).
2. Дандис А.О. О структура пословица. – М.: 1978 г.
3. Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – T.: "Sharq", 2005-y. 258-b.
4. Hamidov X. Maqol va idiomalar tarjimai muammolari. – T.: TDSHI, 2017-y.





O'ZBEK TEATR SAN'ATI VA MADANIYATI RAVNAQIDA MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING O'RNI

ANNOTATSIYA. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyni o'zbek teatr san'ati rivojida o'rni hamda "Padarkush" dramasi badiiy xususiyatlari to'g'risida so'z boradi.

KALIT SO'ZLAR: jadidlar, teatr, drama, obraz, ilm, ilmsizlik, matbuot.

Аннотация. В статье говорится о роли Махмудходжа Бехбуди в развитии узбекского театрального искусства и художественных особенностях драмы «Падаркуш».

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: искусство, театр, драматургия, образ, наука, невежество, пресса.

ANNOTATION. The article talks about the role of Mahmudhodzhi Behbudi in the development of Uzbek theatrical art and the artistic features of the drama "Padarkoush".

KEY WORDS: art, theater, drama, image, science, ignorance, press.

2025-yilning 3-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiyni tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori mamlakatimiz ma'naviy hayotida tarixiy voqea bo'ldi.

Unda Vatanimiz tarixida g'oyat murakkab va sinovli davr bo'lgan XX asr boshida Turkistonda jadidlik harakatiga asos solgan, milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida jamiyatda ilm-fan, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish orqali xalqimizning ong va tafakkurini yuksaltirish tamoyillarini milliy g'oya sifatida ilgari surgan hamda hurriyatga erishish yo'lida o'z hayotini baxsh etgan fidoyi zot – Mahmudxo'ja Behbudiyni hayoti va faoliyatini jiddiy o'rganish, alloma asarlarining biz yosh avlodning intellektual va ma'naviy salohiyatimizni oshirishdagi o'rni va ahamiyati o'z ifodasini topgan. Mazkur qarorda ta'kidlanganidek, Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida bobomiz haykali o'rnatildi, Samarqand shahrida uy-muzeyi tashkil qilindi. Iste'dodli dramaturglar uchun "Mahmudxo'ja Behbudiyni" nomidagi mukofot ta'sis etildi. Bu ham Behbudiyni shaxsiyatiga hurmat, e'tibor namunasidir.

Ma'lumki, Mahmudxo'ja Behbudiyni chor hukumati va mahalliy mutaassib kuchlarning mislsiz qarshiligiga qaramasdan, yurtimizda birinchilar qatorida ilk zamonaviy maktablar tashkil qilish, ular uchun zarur darsliklar yaratish, nashriyot va teatrlar barpo etish ishlariga bosh-qosh bo'lgan mo'tabar zot. U barcha taqiq va to'siqlarga qaramasdan,

mohir publitsist sifatida o'z davrining dolzarb muammolariga bag'ishlangan qator salmoqli asarlar va ikki yuzdan ortiq maqolalar yaratdi. Shu bilan birga, "Samarqand" gazetasi hamda "Oyna" jurnaliga asos soldi. 1911-yilda yaratgan 3 parda 4 manzarali "Padarkush" birinchi o'zbek fojiali dramasi janr va mazmuniga ko'ra, yangi o'zbek adabiyotini boshlab berdi.

O'sha davrlarda "Padarkush" ta'sirida bir necha sahna asarlari yuzaga keldi. Xususan, A.Qodiriy "Baxtsiz kuyov" dramasi ilk "milliy fojia" ta'sirida yozgani ma'lum haqiqat. Sekin-astalik bilan dramaturglar safi Nusratulla Qudratilla, Abdulla Qodiriy, Abdulla Badriy, Hoji Muin, Abdulla Avloniy, Hamza, Fitrat va Cho'lpon singari zabardast ijodkorlarga ko'paydi.

Haqiqatan Behbudiyni aytganidek: teatr hayot ko'zgusi, muqaddas dargoh. Uning tarbiyaga yo'g'rilgan saboqlari kishini kamolotga chorlaydi. Allomaning "Padarkush" dramasi har bir adabiyot ixlosmandi yaxshi biladi. Asar ma'no-mazmun jihatidan o'sha davr holatini yaqqol o'zida namoyon etadi. Ommaning ma'naviy saviyasi, zaif dunyoqarashi ayanchli misollar bilan ochib berilgan. Dramaturg o'z asarida ahvol shu zaylda ketsa, yakun dramadagi kabi ayanchli bo'lishiga ishora qilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, ushbu spektaklning sahna yuzini ko'rishi ham oson bo'lmagan. Mustamlakachi senzurasini bunday asarni chop ettirmasligi aniq edi. Hatto, pyesani senzura o'tkazolmay ikki yil sarson bo'lgach, 1912-yilda ruslarning fransuzlar ustidan Borodino jangida g'alaba qozonganligining 100 yilligiga bag'ishlaganidan keyingina ruxsat olgani fikrimizga asosdir. Qolaversa, buyuk saltanat



fojiasi haqida yozilsa jadidchilik harakatining maqsadi ayonlashib, uning namoyandalari avvalroq qatag'onga uchrashi muqarrar edi. Shu bois jadidlar yaratgan asarlarda asosiy fikr ramzlar vositasida aytishga harakat qilinadi.

Akademik Naim Karimovning "Mahmudxo'ja Behbudi" asarida ifodalanishicha, Saidahmad Vasliy ismli kishi "Sadoyi Farg'ona" gazetasining 1914-yil 83-sonida chop etilgan "Shariati islomiya" sarlavhali maqolasida teatrni harom deb e'lon qilgan. "Oyna" jurnali endigina tug'ilayotgan teatr san'atiga nisbatan bunday xato va zararli munosabatni mutaassiblik namunasi sifatida baholab, unga keskin zarba beradi [1].


Shunday bo'lsa-da, alloma hamda uning safdoshlari matbuot orqali bu yangi san'atni keng targ'ib qilishga kirishdilar. Xususan, Behbudi "Oyna" gazetasining 1914-yil 16-may sonida chop etilgan "Teatr nadur?" nomli maqolasi bilan o'zbek xalqini yangi tipdagi teatr va uning jamiyat hayotidagi muhim ahamiyatga molik sirlari bilan oshno etdi. Ma'rifatparvarning o'zi bu san'atning ahamiyatini quyidagicha izohladi: *"Teyotr nimadur? Janobig'a teyotr ibratnamodir, teyotr va'zxonadur, teyotr ta'zir adabidir. Teyotur o'ynadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko'zliklar ko'rub, kar quloqliksizlar eshitib, asarlanur. Xulosa: teyotr va'z va tanbeh etuvchi hamda zararli odat, urf taomilni, qabih va zararini ayon ko'rsatuvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir"* [2].

Bu ta'rif Behbudiyni teatr san'atiga juda katta umid va yuksak tasavvur bilan munosabatda bo'lganidan dalolat beradi. Ushbu san'at orqali xalq ongini uyg'otish, madaniyatini shakllantirish

va jamiyat hayotidagi illatlarga barham berishga, ular hayotini yaxshilash mumkinligiga ishonch bilan qaraydi.

"Padarkush" dramasi 1913-yil bosmadan chiqdi. 1914-yil 25-yanvar oyida teatrdan sahna yuzini ko'rdi. Drama davr talabiga mos asar bo'lganligi bois, xalqqa kuchli ta'sir ko'rsatdi. 1914-yilning 27-fevralida Avloniy tomonidan qayta sahnalashtiriladi va bu kun – o'zbek teatrining tug'ilish kuni sifatida e'tirof etiladi.

Fojiada jadidlar diqqat markazida turgan jaholat va bilimsizlik, farzand tarbiyasi, vatan va xalq qismati mavzusi yoritiladi. Asar mazmunan sodda bo'lib, ilmsizlik, johillik orqasidan kelib chiqadigan fojialarni bir savdogarning o'qimagan, nodon bolasi taqdirida ko'rsatadi. Tarbiya ko'rmagan, o'qimagan bola nodonlik oqibatida o'z otasini fojiona o'limiga sabab bo'lishi haqida hikoya qilinadi. O'sha davrda Turkistonda yashayotgan turli millat vakillari, ularning mahalliy aholi hayotiga ko'rsatayotgan ta'sirining badiiy tasviri, sahnadagi jonlanishi tomoshabinlar e'tiborini ko'proq jalb etadi. Asarda ishtirok etadigan Boy, uning o'g'li Toshmurod (ismi jismiga mos tanlangan), yangi fikrli shaxs – Domulla, bezori bolalar – Davlat, Nor, o'ris xotin – Liza, mayxona xo'jayini armani – Artun, Pristuf, yangicha madaniy qiyofadagi Ziyoli, boyning qotili – Tangriqul va boshqalar ishtirok etadi. Ularning hayoti faoliyatida muallif mavjud tarixiy vaziyatda Turkiston o'lkasida ro'y berayotgan fojialar, ularning tub sabablarini ochishga harakat qiladi. Binobarin, bu asar jadidlar harakatining oliy maqsadi bo'lmish istiqloлга erishmoq, qaramlik, eskicha fikrlashning salbiy oqibatlari haqida mushohada yuritadi.



“Padarkush” asaridagi Ziyoli Behbudiyning o‘zi yoki safdosh jadidlar obrazidir. Shu bois u boy(lar) ning diqqatini o‘ziga qaratishga harakat qilaveradi: *“...bahsning ustidan chiqib qoldim. Ushbu sababli muddaoni tabdil qilib, ilm to‘g‘risidan sizg‘a bayon qilmoqni qasd etdim. Shoyadki, janobingizdek boylar millat bolalarini o‘qitmoqqa sa‘y qilsalar”*.

Ziyoli ilm va hunarsiz millatning ahvoli kundan-kunga xor bo‘lishi, yer va mulksiz qolishi oqibatida axloqi buzilishi, dini zaiflashishini tushuntiradi. Buning uchun “olimi diniy” bilan birga, albatta, “olimi zamoniylarni tayyorlash, buning uchun mablag‘ni ayamasdan, yoshlarning savodini chiqarib, rivojlangan davlatlarda o‘qitish zarurligini ta’kidlaydi.

Domullo nutqida ham uning o‘z kasbiga, saviyasiga mos tafakkur tarzi sezilib turadi. Boyning oldidan nihoyatda ranjib chiqib ketayotganda Domulloning yoshlar tarbiyasiga oid fikr-mulohazalari asarda shunday berilgan: *“O‘qimoq va mullo bo‘lmoq uchun pul kerak, badavlatlarimizning holi bul, bas, bu ketish ila mavzambilloh dunyo va oxiratga rasvo bo‘lurmiz, o‘qimoq barcha musulmonga erkak va xotin bo‘lsun farz edi. U qayda qoldi?! Oh, voy bizni holimizg‘a...”* [3] Bu hissiyotli matnda zamon, yurt qayg‘usini o‘ylovchi shaxs timsoli gavdalanitiriladi.

Domullo so‘zining besamar ketganin anglab deydi: *“Boy men sizga amri ma‘ruf etdim va menga shariat bo‘yicha lozim bo‘lgan ishni bo‘ynimdan soqit qildim. Inshoolloh, mo‘ylab chiqarib alifni tayoq demayturgan o‘g‘lingiz holini ko‘rarmiz va ham o‘qitmaganingiz uchun gunohkor bo‘lursiz!..”*

[3] Domullo nutqi o‘sha davr ziyolilari nutqiga xos arabcha so‘z va iboralarni faol ishlatishi bilan ajralib turadi: mavzambilloh, dunyo va oxirat, farz, amri ma‘ruf, shariat, inshoolloh, alifni tayoq demayturgan ... Demak, boyvachchaning shu darajada besavodlardan ham besavod ekani ta’kidlab o‘tilgan. Domullo zamona badavlat kishilari yoshlarning o‘qimoqligi uchun homiy bo‘lishni xayoliga ham keltirmasa, bas bu ketishda dunyo va oxiratga rasvo bo‘lamiz... Keyingi jumla: *“O‘qimoq har bir musulmonga erkak va xotin bo‘lsin farz edi. U qayda qoldi?!”* Ritorik so‘roq gapi intermatnlik xususiyatiga ega bo‘lib, hamma

musulmonlar uchun tushunarli, ko‘p murojaat etiladigan hadislariga ishora qiladi. Sahnada paydo bo‘lgan Ziyoli obrazi Domulloga nisbatan ham ilg‘orroq mulohazalarni bayon qiladi. U shaxsning tashqi qiyofasini asar muallifi shunday tasvirlaydi: *“Ziyoli ovrupocha kiyingan, ta’lim olgan, uning tashqi qiyofasi, gap-so‘zlari, xatti-harakatlari yanada yangicha, zamonaviy ruhda”*. Ziyoli domlaning aytganlarini to‘ldiradi, davom ettiradi... Shariatda ta’kidlangan ilm-ma’rifatga oid aqidalarni ham, hozirgi dunyo miqyosida rivojlanib borayotgan fan-texnika, madaniy-ma’naviy taraqqiyot haqidagi ma’lumotlarni ham anchagina chuqurroq bayon qilishga intiladi.

“Muallif ziyoli nutqining ham jonli o‘ziga xos chiqishini ta’minlagan. Badiiy matn tahlilida hozirgi payt pretsedent nomlar degan ibora qo‘llanadi. Rus tilshunosligida pretsedent birliklar tadqiq etilgan ishlarda Bibliya matnlari, miflar, xalq qo‘shiqlari, ertaklar, latifalar, maqol, turg‘un o‘xshatishlar, frazeo-logizm hamda mashhur shaxslar nomi pretsedent birlik sifatida qayd etiladi” [4].

Muxtasar aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asari nafaqat zamonasining, balki ma’rifat oyoqosti qilingan har qanday davr va jamiyat uchun ogohlantirish qo‘ng‘irog‘idir. Bu g‘oya bugungi kun muammolarimizga to‘la hamohangligi isbot talab qilmaydi. Shu bois, oradan ko‘p yillar o‘tgan bo‘lsa ham allomaning ushbu asari teatr sahnalarida namoyish etilmoqda. Xususan, Qoraqalpoq yosh tomoshabinlar teatrida “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” va O‘zbekiston davlat satira teatrida “Padarkush” nomi bilan sahna yuzini ko‘rdi. Ayni kunda Sirdaryo va Samarqand viloyatlaridagi musiqali drama teatrlarida Behbudiyl shaxsiyati aks ettirilgan spektakllar sahnalashtirish jarayonlari davom etmoqda.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va ijodi to‘g‘risida hali ko‘plab kinofilmlar va sahna asarlari yaratilishi shubhasiz. Zero, alloma va uning safdoshlari yoqqan ilm va ma’rifaat chirog‘i o‘z nurini sohib turarkan, ular xotirasini abadiylashtirish, hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq qilish, ilmiy va badiiy asarlarini keng ommalashtirish kabi vazifalar sharaflil burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. Mahmudxo‘ja Behbudiyl. – T.: 2010-y. 43-b.
2. Mahmudxo‘ja Behbudiyl. Tanlangan asarlar. – T.: “Manaviyat”, 2006-y. 174-b.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiyl. “Padarkush” dramasi. – T.: 2012-y. 3-b.
4. Xudoyberganova D. O‘zbek tilidagi matnlarning antropotsentrik tadqiqi. –T.: 2013-y. 106-b.

VII BO'LIM

YOSH TADQIQOTCHI

Kamoliddin UMAROV,
O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası o'qituvchisi

O'ZBEK TEATRI BOSHQARUVIDA MODERNIZATSIYA VA TRANSFORMATSIYA MASALALARI

ANNOTATSIYA. Mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy sohada takomillashuv jarayonlari yuqori bosqichga ko'tarildi. Yangi jamiyatni qurish, uni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdan iborat strategik maqsadlar belgilandi. Ushbu maqolada yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda o'zbek teatri boshqaruvi, modernizatsiyasi va transformatsiya masalalari to'g'risida tahliliy fikr yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR: o'zbek teatri, modernizatsiya, transformatsiya, ijtimoiylashuv, bozor iqtisodiyoti, boshqaruv, spektakl, ma'naviyat, salohiyat.

АННОТАЦИЯ. За годы независимости процессы совершенствования в общественно-политической, экономической, культурной, духовной и образовательной сферах достигли высокого уровня. Были поставлены стратегические цели по построению нового общества, его демократизации и обновлению, модернизации и реформированию страны. В статье представлен аналитический взгляд на проблемы управления, модернизации и трансформации узбекского театра в новых социально-экономических процессах.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: узбекский театр, модернизация, трансформация, социализация, рыночная экономика, управление, перформанс, духовность, потенциал.

ANNOTATION. Over the years of independence, the processes of improvement in the socio-political, economic, cultural, spiritual and educational spheres have reached a high level. Strategic goals were set to build a new society, its democratization and renewal, modernization and reform of the country. The article presents an analytical view on the problems of management, modernization and transformation of the Uzbek theater in new socio-economic processes.

KEY WORDS: uzbek theater, modernization, transformation, socialization, market economy, management, performance, spirituality, potential.


O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, madaniy hayotimizning muhim sohalaridan biri bo'lgan teatr san'atida ham tub islohotlar yuz berdi. Xususan, teatrlarning ma'muriy, boshqaruv faoliyatida bir qancha o'zgarishlar, yangiliklar amalga oshirildi. Bu jarayon mustaqil O'zbekistonning madaniy taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, teatrlarning tizimli rivojlanishi, ijodiy samaradorligini oshishi, yangi mafkuraviy talablar va bozor iqtisodiyotiga moslashishi singari dolzarb vazifalarni amalga oshirishni taqozo etardi.

Ma'lumki, teatr ko'plab san'at turlarini qamrab olgan sintetik san'at turi hisoblanadi. Unda

Hamamizga yaxshi ma'lumki, inson va jamiyat hayotida, xalqning ma'naviy dunyosini, ong-u tafakkurini yuksaltirishda teatr san'atining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Shavkat MIRZIYOYEV

adabiyot, musiqa, raqs, tasviriy-amaliy san'at hamda boshqa san'at turlari mujassamlashgan holda namoyon bo'ladi. Bugun hayotimizga yangi texnologiyalarning shiddat bilan kirib kelishi natijasida teatrning sintetik xususida yanada kuchayib, sahna san'atiga yangi san'at turlarining integratsiya jarayoni davom etmoqda (masalan; video installatsiyalar, kino, shoular va boshqalar). Teatr san'atining aynan sintetik



tabiati va ko'p komponentliligi uni boshqarishning eng murakkab obyektlaridan biriga aylantirdi. Teatr boshqaruvining murakkabligini yana bir sababi, teatr faoliyatining bugungi kungacha tarixan shakllangan tashkiliy shakllarini xilma-xilligidir.

So'nggi yillarda milliy madaniyatning barcha sohalari qatori teatr san'atini ham qo'llab-quvvatlash, xususan, moddiy-texnik bazani yaxshilash, sahna ijodkorlarini rag'batlantirish borasida qator sa'y-harakatlar amalga oshirilmogda. Bugun davrimizning dolzarb masallalariga bag'ishlangan, zamon qahramonlari obrazi aks ettirilgan sahna asarlari yaratish teatr ijodkorlarining asosiy vazifasiga aylanmogda. *“Aksariyat teatrlarimizning repertuarlari g'oyaviy-badiiy jihatdan nochor, ulardan o'rin olgan spektakllarda bugungi kun nafasi, odamlarni o'ylantirayotgan, hayajonga solayotgan jiddiy ijtimoiy muammolar o'z aksini topmayapti. Afsuski, teatrlarimiz ko'proq maishiy mavzulardagi yengilyelpi, bachkana asarlar, odamga na ma'naviy oziq, na estetik zavq beradigan tomoshalarni namoyish etishga o'rganib qolgan”*.¹

Teatr san'ati insonning ma'naviy olamini rivojlantirib boruvchi, madaniyatini shakllantiruvchi, ma'naviyatini yuksaltiruvchi, ong va tafakkurini teranlashtiruvchi san'at. Teatr san'ati ma'naviyat, madaniyat, ma'rifat tushunchalari bilan hamrohlikda beqiyos san'at turi sifatida insonlarni qalb go'zalligiga, ezgu amallarga, takrorlanmas his-tuyg'ularga, yaxshilikning eng go'zal shaklda ro'yobga chiqishiga yordamchi bo'ladi. Teatr – misli ko'zgu. Bu ko'zguga boqmoqlik insonning qay tomondan qarashiga bog'liqdir. Hayotdagi yaxshi va yomon voqealar ham aynan teatrdagi badiiy aks ettiriladi.

Mustaqillik davridagi o'zbek teatri faoliyati professor Nodirbek Sayfullayevning “Yangi davr O'zbekiston teatr san'ati”² nomli monografiyasida atroflicha o'rganilgan. Ushbu monografiyada mustaqillik yillaridagi teatrlarning faoliyati har jabhada tahlil qilinadi. Xususan, N. Sayfullayevning izlanishlarida, O'zbekiston teatr san'atining yangi davri o'zbek teatrshunosligida bozor iqtisodiyotiga o'tish nuqtayi nazaridan qaraladi va unda teatr menejmenti hamda marketingi masallalari o'rganilgan. Tadqiqotchi ishida teatrlarda sahnalashtirilgan spektakllarga ket-

gan xarajatlar va teatrlar keltirgan moddiy manfaatdorlik aniq raqamlarda ko'rsatib o'tilgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, o'zbek teatri garchi bozor iqtisodiyoti munosabatlari keskinlashgan bir davrda faoliyat olib borayotgan bo'lsa-da, hali-hamon ular xarajatlarning katta qismi davlat dotatsiyasi asosida ekani va hukumat ulardan kelayotgan moddiy manfaatdorlik uchun emas, balki ularning xalqqa, xususan, yosh avlodga ko'rsatajak ma'naviy ta'siri uchungina ta'minlayotgani bu soha ishi samaradorligini moddiyatdan ko'ra, jamiyat ma'naviyatiga ta'siri jihatidan o'lchamoq o'rinni bo'lar edi. Insonlarni ruhiy jihatdan tarbiyalovchi, axloqan poklovchi teatrning bu boradagi o'rni beqiyos sanaladi. Professor N. Sayfullayev tadqiqotida bu davrda sahnalashtirilgan spektakllar tahlillari berilib, teatrlarning tashkiliy-ijodiy jihatlari, ijtimoiy-madaniy xususiyatlari alohida ta'kidlanib, bu jarayonlarga chuqur izlanish asosida baho beriladi.

Sobiq sovet davlati parchalangach, yangi mustaqil respublikalarning deyarli barchasida iqtisodiy sohada islohotlar amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etdi. Yuqorida qayd etganimizdek, teatrlar tijoriy faoliyat bilan shug'ullana boshladi. Buning uchun tomoshabinlar e'tiborini jalb etadigan, yengil kulgiga asoslangan, komediya janridagi spektakllar sahnalashtirila boshlandi. Xususan, O'zbek Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan “Chimildiq” (muallif: E. Xushvaqto'v; rejissyorlar: T. Azizov va M. Abdullayeva) spektakli xalqimizning milliy qadriyat va urf-odatlarini tarannum etishi bilan birga bozor iqtisodiyoti davrida tomoshabinlarni teatrga qaytarishga, “kassabop”likni ta'minlashga xizmat qildi.

Xo'sh, “Chimildiq”ning favqulodda muvaffaqiyatini ta'minlagan omillar nimalarda edi? Birinchi navbatda, uzoq yillar mustabid tuzum iskanjasida yashagan xalqimiz o'z qadriyat va an'alarini sog'ingan edi. “Chimildiq” spektaklida ana shu ko'hna qadriyatlarimiz o'ziga xos tarzda, milliy kolorit uyg'unligida tasvirlanadi. *“Chimildiq” asaridagi gap-so'zlar, muoamala va munosabatlar, kiyim-kechak, yurish-turish va nihoyat, urf-odatlar ham boshdan-oyoq Qashqadaryo vohasiga xos. Biz istibdod davrida qanchadan-qancha milliy udumlarimizni unutgan ekanmiz. Istiqlo'lar sharo'fati bilan shu udumlarimizni tiklashga erishdik. Sahnalashtiruvchi rejissyorlar ham asarning aynan shu jihatiga e'tibor berganlari uchun spektakl janrini “folklor-etnografik tomosha” deb belgilaganlar*.³

Teatr badiiy rahbari, bosh rejissori, adabiy emakdoshi, direktorining bilim darajasi, madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, teatr jamoasi ijodining strategik yo'nalishlari, ijodiy imkoniyatlari yangi davr, yangi sharoit, yangi talablar darajasida

¹ Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir (2017-yil, 3-avgustdagi mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi nutq). “Xalq so'zi” gazetasi, 2017-yil, 4-avgust.

² Sayfullayev N. Yangi davr O'zbekiston teatr san'ati. – T.: “Mumtoz so'z”, 2011-y. 260-b.

³ Qodirova S. Teatr hayot aksi. – T.: “San'at” jumali nashriyoti, 2011-y. 23-b.



bo'lishi, teatr strukturalarida faoliyat ko'rsatayotgan barcha rahbarlar bozor iqtisodiyoti talablarini yaxshi bilgan holda teatr repertuarlariga yangi asar tanlab, o'z mahsulotlarini tomoshabinlarga sota bilishlari, yangi sahna asari uchun ketgan xarajatlarini qoplab, teatr kassasiga daromad keltirishlarini taqozo qiladi.⁴ Bugungi kunda aksariyat viloyat hamda shahar teatrlari eski tizimda ishlab kelmoqda. Hozirgi kunda teatr jamoalari zamon talablariga mos ish yuritishlari, kreativ ijod qilishlari, badiiy saviyali, tarbiyaviy jihatdan mukammal asarlarni sahnalashtirishlari lozim. Faoliyatning tashkiliy va moliyaviy tomonlarini o'zgartirish, turli janr va yo'nalishlarda erkin ijod qila oladigan, mazmundor va sifatli mahsulot bera oladigan, ixcham, professional jihatdan puxta jamoalarni shakllantirish lozim.

Repertuar teatr jamoasining ko'rki, husn-jamoli, ijodiy qiyofasi, o'z muxlislari va tomoshabinlar bilan yuzma-yuz, ochiq muloqot qilish imkoniyatini beradigan oyna. Teatrlarning texnik va ijodiy kadrlar faoliyatini kengaytirish maqsadida oliy malakali, ilmiy salohiyatli kadrlarni xorijda tajriba almashish va malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yishdir. Teatr sohasidagi xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar, festival, ko'rik-tanlovlarda ijodiy jamoalar hamda sohaning yetuk mutaxassislari ishtirokini ta'minlashdir.

Bugungi kunda teatr san'atini boshqarish faoliyati bilan maxsus shug'ullanuvchi – teatr menejmenti yo'nalishi paydo bo'ldi. *“Zero, bozor iqtisodiyoti sharoitida zamonaviy teatr iqtisodiy boshqaruvchi va yo'naltiruvchi kuch – menejerga ehtiyoj sezishi esa kundek ayon. Teatrning bozorga kirib borishini ta'minlovchi, sog'lom raqobat muhitini yaratuvchi, mahsulot yetishtirish va uni taklif qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan menejergina teatrning moliyaviy barqarorligini ta'minlab, iqtisodiy salohiyatini yuksaltira olishini bugun hayotning o'zi isbotlamoqda”*.⁴ Teatr menejeri bu – teatr boshqaruvchisi bo'lib, teatr truppasi ishini tashkil qilish va boshqarishga qaratilgan turli funksiyalarni amalga oshiradi.

Yurtimizdagi teatrlarning aynan boshqaruv strukturasida ko'plab muammolarga duch kelayotganligi va uning yechimini izlash masalalariga alohida to'xtalib o'tish lozim. Masalan, direktorlarning boshqaruvga oid bilimlari va malakalari yetarli emas, kadrlar bilan bo'g'liq masalalar ham to'g'ri yo'lga qo'yilmagan, marketing masalasi judayam sust darajada, tijoratlashtirishni yanada rivojlantirish va xorijiy


tajribalarni o'rgangan holda uni amaliyotga joriy qilish kabi masalalar muhim hisoblanadi. Teatrlar va uni boshqarayotgan rahbarlar – direktor, bosh rejissorlarning faoliyatini ijobiy baholash mumkin, lekin o'ylaymanki bu yetarli emas. To'g'ri, har yili rejaga muvofiq ma'lum bir spektakllar sahnalashtiriladi, ammo statistik ma'lumotlarga ko'ra, teatrlarga yil davomida spektakl tomosha qilish uchun keluvchilar soni juda kam foizda. 2024-yilda e'lon qilingan 399-son qarorda aynan teatrlarning reytingi e'lon qilinishi borasidagi yangilik ham o'ylaymanki, teatrlarning sog'lom raqobat asosida faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Katta reja va maqsadlarni o'ylab, shunga qarab intilish, tinmay izlanish kerak. Direktor teatrning moddiy texnik bazasini yaxshilash, yosh iste'dodli kadrlarni kashf qilish, tijoratlashtirish masalasini yo'lga qo'yish, gastrol safarlarini amalga oshirish kabi tashkiliy masalalarni hal etmog'i kerak. Badiiy rahbar esa ijodiy tomondan teatr nufuzini oshirish, jamiyat va xalqimizga aynan bugungi kunda zarur bo'layotgan, ma'naviy ozuqani berishga mos spektakllarni sahnalashtirish ustida o'ylashi kerak.

Xulosa qiladigan bo'lsak, mustaqillik yillari o'zbek teatri boshqaruvida bir qator o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, Sobiq Sovet tuzumi davridagi markazlashgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv uslubidan asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich voz kechildi. Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan “O'zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasining tashkil etilishi teatr boshqaruvida tizimlashgan, yangi tamoyillarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Birlashma bir necha yillar davomida respublikadagi mavjud teatrlar faoliyatini tizimli boshqardi, sohaning rivojlanish istiqbollari ishlab chiqdi va sahna ijodkorlarini har jihatdan qo'llab-quvvatladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida teatr san'ati ham birmuncha murakkab davrni boshdan kechirdi. Iqtisodiy qiyinchiliklarni yengib o'tish, tomoshabin oqimini ko'paytirish va kassaboplikni ta'minlash maqsadida yengil ruhdagi, maishiy tipdagi asarlarga urg'u qaratildi. Lekin inson shuuri, his-tuyg'ularining moddiylashib ketishi, hamma narsaga iqtisodiy yondashuv pirovardida ma'naviy tanazzulga olib borishi ayonlashib qoldi. Buni yaxshi tushungan teatr ijokorlari jiddiy mavzudagi, tomoshabinni mushohadaga undaydigan, tarixiy va mumtoz asarlarga qo'l ura boshladi. Asta-sekin o'zbek teatri o'z qiyofasini tikladi va bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda.

⁴ Bayandiyev T., Ikromov H., Ahmadjonova M. “O'zbek teatrida milliy g'oya talqini”. – T.: 2009-y. 79-b.

⁵ Abduvohidov F. O'zbek teatrida marketing va menejment masalasi. “Xalqaro madaniyat va san'at menejmenti: muammo va yechimlar” mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2023-yil, 21-iyun. 82-83-b.





NURLI YO'L

(Ustoz san'atkor Nasrullo Qobilovning yorqin xotirasiga bag'ishlanadi)

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada professor Nasrullo Qobilovning ijodiy va pedagogik faoliyati, uning O'zbekiston teatr san'ati va ta'limiga qo'shgan hissasi haqida so'z boradi. Nasrullo Qobilov dramaturg va rejissyorlik faoliyatida milliy qadriyatlarni, insoniylikni va ichki ziddiyatlarni dramatik tarzda yoritgan. U ko'plab yirik spektakllarni sahnalashtirgan va talaba aktyorlarni tarbiyalashga katta e'tibor qaratgan.

KALIT SO'ZLAR: teatr, pedagog, aktyor, rejissyor, spektakl, dramaturg.

АННОТАЦИЯ. В данной статье речь ведется о творческой и педагогической деятельности профессора Насрулло Кобилова, а также о его вкладе в развитие театрального искусства и образования Узбекистана. Насрулло Кобиллов в своей режиссёрской работе освещал национальные ценности, человечность и внутренние противоречия в драматической форме. Он инсценировал множество крупных спектаклей и уделял большое внимание воспитанию молодых актёров.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: театр, педагог, актер, режиссер, спектакль.

ANNOTATION. This article highlights the creative and pedagogical contributions of Professor Nasrullo Qobilov to Uzbek theater art and education. In his directorial works, Qobilov emphasized national values, humanity, and inner conflicts in a dramatic form. He directed numerous major plays and focused significantly on nurturing young actors. His works and pedagogical legacy inspire profound reflections on the role of art in spiritual development.

KEY WORDS: theater, educator, actor, director, performance or Play, playwright.

Sahnada obraz yaratishdan ko'ra ijrochi-aktyorga kechinma san'atini singdirish, uning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish juda nozik va murakkab jarayon ekanligi soha mutaxassislariga ma'lum. Bu bevosita teatr pedagogikasi bilan bog'liq bo'lib, umrini rejissyor-pedagoglik faoliyatiga bag'ishlagan va bo'lajak aktyorlarga soha sirlarini o'rgatayotgan ijodkorlar talaygina. Shunday rejissor-pedagoglardan biri professor Nasrullo Qobilov edi.

Nasrullo Qobilov 1955-yil 18-dekabrda Samarqand viloyati, Narpay tumani, Galaqassob qishlog'ida xizmatkor oilasida tug'ilgan. 1971-yil Narpay tumanidagi 26-sonli o'rta maktabni tamomlab, Zirabuloq ta'mir-mexanika zavodida frezer sifatida ishlaydi. 1973-yil Toshkent teatr va rassomchilik institutining "Drama va kino aktyorligi" yo'nalishiga qabul qilinadi, 1977-yilda o'qishni qizil diplom bilan tamomlaydi. Shu yilning o'zidan "Dramatik teatr va kino san'ati" kafedrasida aktyorlik mahorati o'qituvchisi sifatida ish faoliyatini boshlaydi. 1977-yilning noyabridan 1979-yilning apreligacha armiyada ofitser sifatida xizmat qiladi. 1980–1982-yillarda Leningrad davlat teatr, musiqa va kino institutida (LGITMIK) professorlar A.I.Katsman va L.A.Dodin rahbarligida aspiranturada o'qishni davom ettiradi. 1982-yildan 1987-yilgacha Yunus Rajabiy

nomidagi Jizzax viloyat musiqali drama teatrida sahnalashtiruvchi rejissyor lavozimida ishlaydi. 1987-yildan Toshkent teatr va rassomchilik institutida aktyorlik san'ati fani o'qituvchisi sifatida "Musiqali teatr san'ati" kafedrasida faoliyatini davom ettiradi. 1990-yilda katta o'qituvchi, 2012-yilda kafedra dotsenti, 2022-yilda institut professori bo'ldi.

Nasrullo Qobilov O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida qariyb yarim asr faoliyat olib bordi. Uning o'z kasbiga bo'lgan e'tiqodi, o'ziga ham, talabalariga ham nihoyatda talabchanlik bilan munosabatda bo'lishi shogirdlar uchun namuna edi. Ustozning dramaturg sifatida faoliyati alohida e'tiborga loyiq. Uning asarlarida o'zbek xalqining an'analari, madaniy merosi va milliy qadriyatlari, tashqi va ichki ziddiyatlar, insonning o'z-o'zini anglash jarayonidagi iztiroblar, ruhiy holatlar tasvirlanadi. N.Qobilov pyesalarida insonlar o'rtasidagi munosabatlar, sevgi va sadoqatni dramatik tarzda emotsional yoritgan, adolat va inson qadr-qimmatini himoya qilishga alohida urg'u bergan. Qalamkashning asarlari chuqur falsafiy va ruhiy qirralar bilan boy bo'lib, ular ko'pincha tomoshabinni, jamiyat va insonning o'zni haqida mulohaza qilishga undaydi. Ustoz asarlari teatr san'atida alohida o'rin tutadi. Qo'g'irchoq teatri uchun yozilgan "**O'tkir tishli kuchukcha**" (1985),



“Oy to‘lishgan tunda” ertak spektakllar (1988), **“Bir soatli xalifa”** (1995), “Ibrohim alayhissalom tavvaludi” (“Namrud”) (1995), **“Na malakman, na farishta”** (1996), **“To‘da”** (2005-yil), **“Oriyat”** (2009) musiqali dramalari mavjuddir.

Ustoz asarlari institut o‘quv teatrida, Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatrida, shuningdek, respublikamizdagi ko‘plab teatrlarda sahnalashtirilgan va sahnalashtirilib kelinmoqda. Ijodkorning **“Qabrston soqchisining sukunati”**, **“Amir Muzaffar”** hikoyalari hamda **“Yog‘iy”** povestlari kitobxonlar tomonidan mutolaa qilib kelinmoqda. N.Qobilov respublika teatrlarida bir qator yirik spektakllar sahnalashtirgan. Jumladan, Uyg‘unning **“Parvoz”** (1982), N.Safarovning **“Uyg‘onish”** (1983) dramalarini, N.V.Gogolning **“Uylanish”** (1983) Y.Xudoyqulovning **“Kampir ketar”** (1983) komediyalarini, Telmonning **“Tanholikda”** (1984) dramasi, Z.Fatxullinining **“Vatan ishq”** (1984) musiqali dramasi, Molyerning **“Zo‘raki tabib”** (1985), O‘.Hoshimovning **“To‘ylar muborak”** (1985) komediyalarini, S.Ahmadning **“Ufq”** (1985) dramasi, T.Mirzoning **“Saratondagi izg‘irin”** (1986), Sh.Jabborovning **“Ziqna Maxsum”** (2009) komediyasini sahnalashtirdi.


Institut o‘quv teatri sahnasida Sagarellining **“Xonuma xonim”** (1988), N.V.Gogolning **“Uylanish”** (1988), T.Mirzoning **“Qovrilgan o‘rdak parvozi”** (1988), Ch.Aytmatovning **“Sarvqomat dilbarim”** (1989), A.Nesinning **“Telba xonadon”** (1989), Molyerning **“Zo‘raki tabib”** (1996), N.Qobulning **“Namrud”** (1996), H.H.Niyoziyning **“Xolisxon”** (1999), **“Jononga bordim bir kecha”** (1999), N.Qobulning **“To‘da”** (2000 va 2007), S.Abdullaning **“Alpomish”** (2000), I.Shomurodovning **“Odamxo‘r”** (2009),

S.Abdullaning **“Tohir va Zuhra”** (2013), N.Qobulning **“Oriyat”** (2017), K.Yashinning **“Nurxon”** (2019), Sagarellining **“Xonima xonim”** (2022), S.Ahmadning **“Ufq”** (2023) pyesalarini sahnalashtirdi.

N.Qobilov o‘z pedagogik faoliyatida talabalarga sahna san‘ati sirlarini o‘rgatish bilan birga ularni ijodiy fikrlashga, mustaqil ijodiy ishlar bajarishga undagan. U nafaqat pedagog-rejissyor, balki sabrli va bag‘rikeng inson edi. Ustozning insoniy fazilatlarini shogirdlari va hamkasblari tomonidan doimo e‘tirof etilgan. O‘z ishiga nihoyatda mas‘uliyat bilan yondashardi. Har bir sahna asarida yoki o‘quv jarayonida yuqori darajadagi intizom va e‘tibor talab qilardi. Bu fazilatlar uning faoliyati va shaxsiyati haqida iliq xotiralar qoldirgan. Shuningdek, N. Qobilov ko‘plab yosh iste‘dod egalarini san‘at olamiga olib kirgan, ularning ijodiy o‘rishiga katta hissa qo‘shgan.

Ustoz shogirdlariga nafaqat sahna mahorati, balki hayotiy saboqlar ham berib, ularni komil ijodkor qilib tarbiyalashda jon kuydirdi. **“San‘at faqat ko‘ngilochar vosita emas, balki ma‘naviy rivojlanishning asosi”**, – der edi ustoz. San‘at sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun katta mehnat va intizom zarurligini, kichik detallarga ham e‘tibor qaratish muhimligini uqtirardi. Har bir talabaga hayotda ham, ijodda ham halol bo‘lishga, san‘atni va sahnani qadrlashga o‘rgatardi.

Nasrullo Qobilov san‘at yo‘lidagi samarali mehnati uchun 1995-yil “Turkiston umumiy uyimiz” xalqaro mukofoti hamda 2015-yil “Mehnat shuhrati” ordeni bilan, 2024-yil esa “Madaniyat va san‘at fidokori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan. O‘zbek san‘atining yirik namoyandasi Nasrullo Qobilovning ijod yo‘li kelajak avlodga nurli mayoq bo‘lishida ishonchimiz komil.





Kamola SADULLAYEVA,
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi katta o'qituvchisi,
O'zDSMI mustaqil izlanuvchisi

XX ASR 70-YILLARI TEATR SAN'ATI RIVOJIDA BAHODIR YO'LDOSHEV REJISSURASINING O'RNI

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada rejissyor Bahodir Yo'ldoshevning professional teatr san'atiga kirib kelishi, sobiq Hamza nomidagi teatrdagi uning boshchiligida yoshlar bilan birgalikda amalga oshirilgan islohotlar, sahnalashtirilgan ilk spektakllari tahlili misolida rejissyorlik uslublari qalamga olinadi. Tom ma'nodagi buyuk rejissyorning sa'y-harakatlari natijasida yuzaga kelgan g'oyaviy-badiiy izlanishlar mohiyati ochib beriladi.

KALIT SO'ZLAR: teatr, rejissyor, rejissyor-debyutant, sahna tili, aktyor, professionalizm.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются первые шаги Баходира Юлдашева в профессиональном театре, творческие искания и реформы, проведенные в театре имени Хамзы под руководством режиссера с молодыми актёрами. Раскрывается суть идейно-художественных исследований, появляющиеся в результате исканий великого режиссёра.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: театр, режиссёр, режиссёр-дебютант, сценический язык, актер, профессионализм.

ANNOTATION. This article will describe the first steps of Bakhodir Yuldashev in a professional theater, creative quests and reforms carried out in the Khamza Theater under the guidance of a director with young actors. The essence of ideological and artistic research that appears as a result of the quest of the great director will be revealed.

KEY WORDS: theater, director, debutant director, stage language, actor, professionalism.

Ma'lumki, o'tgan asrning 70-yillari sobiq Hamza teatr uchun burilish davri bo'ldi. 1970-yil T.Xo'jayev E.Vohidovning pyesasi asosida o'zining so'nggi **"Oltin devor"** spektaklini sahnalashtirdi. K.Yashinning **"Mening Buxorom"** va Kalidasaning **"Shakuntala"** spektakllarini sahnaga qo'ygach, 1973-yilda A.Ginzburg hayotdan ko'z yumdi. T.Xo'jayev teatrnı tark etishi, yigirma yil mobaynida teatrga rahbarlik qilgan, aktyorlarning ajoyib avlodini tarbiyalagan, Akademik teatrning ijodiy obro'yini ehtiyotkorlik bilan yo'naltirgan yirik rejissyorning hayotdan ko'z yumishi katta yo'qotish bo'ldi. O'zbek rejissurasida o'sha davrda aktyorlar tajribasi va bilimini baholay olish, ang'ay bilishda A.Ginzburg va T.Xo'jayevga tenglashadigani yo'q edi. Akademik teatr hayotida shunday alg'ov-dalg'ovli kunlar bo'lib turgan bir paytda, B.Yo'ldoshev u yerda o'z ijodiy faoliyatini boshlagandi.

Institutning rejissyorlik bo'limini yaqinda tugallagan ijodkorning dastlabki spektakllaridayoq favqulodda iste'dodli ekanligiga birovlar shubha qilsa, yana birovlar samimiy qo'llab-quvvatlar edi. Birin-ketin sahna yuzini ko'rgan A.Dyumaning "Nel minorasi" melodramasi, Uyg'unning **"Beruniy"** tarixiy dramasi, M.Karimning **"Oy tutilgan tunda"** ishqiy dramasi, V.Rozovning **"Shomdan tushgacha"** psixologik dramasi, keyinroq

esa F.Shillerning ekspressionistik uslubdagi "Qaroqchilar"i teatrdagi yangi iste'dodning dunyoga kelayotganidan darak berardi. Yosh rejissyor butunlay xilma-xil spektakllarda o'z kuchini sinab, teatrning an'analari va imkoniyatlarini chamalab ko'rdi.

Katta tafovutlarga qaramay, tilga olingan spektakllarda umumiyliklar ham bor edi, masalan, sahna muhiti bilan "kirishib keta olish", harakat muhitini barcha yengil vositalar bilan to'ldirish yoki to'yintirish, bunda keyinchalik maishiylikdan tortib shartlilikka bo'lgan turli uslubiy yechimlarda to'laroq erkinlikka ega bo'la boshlagan sifat muhim o'rin egallaydi. Masalan, **"Ajal minorasi"** spektaklida zanjirlar sharaqlagan, kazematning shiftidan chak-chak chakka tomayotgan, nim-qorong'ilikda shamlar miltillagan, balchiqqa tashlangan odamlarning bo'g'iq ovozi quloqqa chalinayotgan zim-ziyo yerto'la muhiti yaratilgan... Romantik melodramaga xos ba'zi unsurlar – oshirib-toshirilgan hissiyot, sezgirlik, yaxshilik va yomonlikning bir-biriga keskin qarshi qo'yilishi yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

1972-yil Hamza nomidagi O'zbek davlat akademik drama teatrida mashhur fransuz yozuvchisi Aleksandr Dyuma qalamiga mansub "Nel minorasi" pyesasi asosida "Ajal minorasi" spektaklini rejissyor B.Yo'ldoshev sahnalashtirdi.



Ma'lumki, Duma dramaturgiyasida isyonkorlik cho'g'i yarq etib ko'zga tashlanmaydi. Lekin "Nel minorasi" asarida u feodal tuzumning dahshatli ko'rinishlarini tasvirlab, qirol va hukmdor zodagonlar doirasining jinoyatkorona kirdikorlarini fosh etgan. Sahna asari qirolicha Margarita Burgundiyning buzuq ishlari-yu, qilmish-qidirmishlariga bag'ishlangan. Dramaturg qirol xonadonining axloqiy tushkunligini, razolat botqog'iga botganligini, xullas, ma'naviy poklik yo'q joyda boylik, mansab halokat keltiruvchi omil ekanligini Margarita hayoti, u va uning singillari Janna hamda Blanshar qilgan ishlari misolida ishonarli, qiziqarli qilib ko'rsatishga intiladi.

Spektaklda esa bu fikr o'zining to'la aksini topgan. Shuning uchun ham garchi asarda melodramatik effektlar, intrigalar, tashqi syujet liniyasini kuchaytirish va tobora kengaytirishga intilish mayllari mavjud bo'lsa-da, u o'zining badiiy hamda janr xususiyatlari e'tibori bilan axloqiy mavzuni o'z ichiga olgan romantik drama sifatida talqin etilgan va bunga erishilgan. Spektaklning rejissyorlik g'oyasi, yechimi haqida A.Sayfutdinov shunday deb yozadi: *"Rejissyorning yutug'i uning izlanuvchanligi, o'ziga talabchanligi, asar ruhi va janr talabidan kelib chiqqan holda badiiy to'qimalarga keng o'rin berishida, eng asosiysi mizansahnalarning mantiqiy qurilganligida ko'zga tashlanadi. B.Yo'ldoshevning A.Dyuma asariga dadil qo'l urganining o'zi tahsinga loyiq. U asarga*

erkinlik bilan o'zgartirishlar kiritadi, butunlay yangi sahnalar qo'shadi, ortiqcha deb bilganlarini chiqarib tashlaydi".¹


Rejissyor B.Yo'ldoshev aktyorlar ansambliga alohida e'tibor qaratgan. Rollarni taqsimlashda aktyorlarning imkoniyatlarini to'g'ri chamalay olgan. Margarita Burgundiyni O'zbekiston xalq artisti Yayra Abdullayeva, Buridanni O'zbekiston xalq artisti Zikir Muhammadjonov, aka-uka Filip va Gote (egizaklar)ni To'liqin Tojiyev, Orsini esa Tesha Mo'minov ijro etgan.


Rejissyor B.Yo'ldoshev 70-yillarda juda faol ijod qildi. "Ro'yxatlarda yo'q" spektaklini aynan ana shu davrda sahnalashtirdi. Asarni sahnaga olib chiqishda o'ziga xos yangi topilmalar, ifoda vositalari qo'llanilgan. Shulardan biri, tomoshabin sahnaning ikki tomonida joylashib, spektaklning bevosita ishtirokchisiga aylanishidir. Ya'ni tomosha davomida aktyorlarni ikki tomondan qurshab olgan holda voqealarni tomosha qiladilar. Bu uslub Tairovning "Kamer teatri" kabi tomoshabinlar qalbiga kirib borish uchun yaxshi vosita sifatida o'zini to'laqonli oqladi.

"Ro'yxatlarda yo'q" spektaklidagi qahramonlik juda ham oddiy, jo'n bir holatda namoyon bo'ladi. Qo'l uzatsa yetgudek masofada sodir bo'lgan tomosha maromida ham, qahramonlarning ko'tarikilik va ehtirosdan mahrum sahnada ham shunday. Voqealar shunisi bilan hayajonli ediki, ular juda oddiy tarzda sodir bo'lardi. Spektakldagi hayot haqiqatini aktyorlarning ishonchli, yaxlit, ruhiy va hissiy jihatdan uyg'un o'yini, ifoda vositalarining lo'nda va aniq topilishi, ishtirok etuvchi shaxslarning mutlaqo yosh ekanligiga to'la ishonch hosil qilishga intilish bilan tug'ilgan".²

¹ Sayfutdinov A. "Ajal minorasi". "O'zbekiston madaniyati" gazetasi, 1972-yil, №35. Sayfutdinov A. "Ajal minorasi".

² M.Rahmonov, M.To'laxo'jayeva, I.Muxtorov. O'zbek Milliy akademik drama teatri tarixi. – T.: 2003-y. 89-b.





Chindan ham asarda ishtirok etuvchi qahramonlar haqiqatan juda yosh, hali hayotga to'yib ulgurmagan. Rejissyor ham ana shu omilni hisobga olgan holda spektakldagi yetakchi obrazlarga yosh aktyorlarni tanlagan. B.Yo'ldoshev hali sahnada u darajada katta tajribaga ega bo'lmagan aktyorlar bilan jiddiy ish olib borib, o'z maqsadiga to'la erishgan. Spektakl rejissyor boshchiligidagi ijodiy jamoaning yorqin mahsuli sifatida tarixda iz qoldirdi.

“Qaroqchilar” spektaklida B.Yo'ldoshevning ijodiy husnixati yanada oydinlashdi. Rejissyor bu yerda teatrning zulm usullari hamda avangard uslubiyoti unsurlaridan foydalandi. Tomoshabin talon-taroj va zo'ravonlik dunyosini ko'rdi, u yerda ko'rish uchun o'yilgan teshiklari bor oq yopinchiq ustidan ko'rpa-to'shak qilib yotgan otani o'g'il ayovsiz tepkilayotgan bo'ladi, “oliyanob” qaroqchilar marosim raqsiga tushadi, qichqirib vahimali qo'shiqlar kuylashadi, g'ildiraklari g'iytilagan arava ustiga g'uj bo'lib chiqib olishadi...

Shu tariqa “Qaroqchilar”da B.Yo'ldoshev ijodida birinchi marta teatrga xos ma'nodorlik vositalarini uzil-kesil yangilash xohishi yorqin namoyon bo'lgan. *“Spektaklning tug'ilish tarixi e'tiborli: u o'quv spektakli sifatida dunyoga keldi, – deydi professor S.Tursunboyev o'z maqolasida, – Yoshlar asarni o'ziga xos ravishda mujassam etish ustida shoshilmay, mudom ishlab o'z mahorat va va layoqatlarini charxlamoqchi, tragediya janrida ko'nikma hosil qilmoqchi bo'ldilar. Rejissyorning fikricha bu maqsadni “Qaroqchilar” asari orqaligina kengroq ro'yobga chiqarish mumkin edi. Rejissyorning Shillerga xos jo'shqinlik, qalb tug'yoni, erkinlikka, jasoratga tashnalik hissi qiziqitirdi.”*³ Rejissyor va jamoaning Shillerga murojaat qilishining asosiy sabablaridan yana biri shu edi.

*“Qaroqchilar”da, – deydi V.G.Belinskiy, – personaj emas, balki shoirning o'zi so'zlaydi. Bu yerda hayot haqiqati yo'q, biroq tuyg'ular haqiqati bor. Holatlar soxta, shart-sharoitlar uydirma, biroq hissiyotlar haqqoniy, fikrlar teran.”*⁴

“Men “Qaroqchilar” spektakliga kirishganimda Toshkentda Katta dramatik teatr gastrollari

*o'tayotgandi. Teatrimizga shu teatrning badiiy rahbari, yetuk rejissyor Georgiy Aleksandrovich Tovstonogov qadam ranjida qilgan edi. Aytish mumkinki, aynan unga biz – Georgiy Brim ikkalamiz bo'lajak sahna asari andazasini topshirgan edik. Ko'p narsalar haqida erinmay gaplashdik, qariyb butun kun davomida bu spektakl qanday bo'lishi kerakligini muhokama qildik. Fikrlarimiz Tovstonogovga yoqdi. U g'oya juda qiziq ekanini va mening Shillerga ko'plab tadqiqotchilardan boshqacha munosabatda ekanimni ta'kidladi, shu bois “Qaroqchilar” borasidagi mening talqinim durustgina qarshiliklarga duch kelishini bashorat qildi. “Ammo shunga qaramay, – dedi u suhbatiga yakun yasarkan, – men senga oq fотиha beraman.”*⁵

Sirasini aytganda, o'sha yillardagi birorta spektakl bu qadar ziddiyatli muhokama qilinmagandi. Mumtoz adabiyotning mashhur, salmoqdor spektakllari bilan tanilgan Akademik teatr sahnasida bu qadar o'tkir sahna shaklini, bunday g'ayri an'anaviy yechimni ko'rishga tomoshabin odatlanmagandi. Darhaqiqat, bu shunday bir spektakl sarhadi ediki, uning ustida ishlashda rejissyor B.Yo'ldoshev va rassom G.Brim ijodiy juftligining yangi sifati yetilib kelgandi. “Qaroqchilar”da B.Yo'ldoshev ijodida faqat teatrga xos ma'nodorlik vositalarini keskin yangilash xohishigina emas, balki tug'ma teatr islohotchisining fazilati ham birinchi marta namoyon bo'lgandi.

1974-yilda B.Yo'ldoshev Hamza teatriga bosh rejissyor etib tayinlanganda, 28 yosh edi. Uni Sobiq Ittifoqning barcha “akademik”lari orasida eng yosh bosh rejissyor, deb aytar edilar. U bu teatrning ijodiy yuzini jiddiy o'zgartirib yuborgan spektakllarni sahnalashtirdi. O'zining an'analariga ega bo'lgan mazkur ijodiy dargohda, B.Yo'ldoshev qisqa fursatda o'ziga xos yorqin uslubi va ijodiy prinsiplariga ega bo'lgan rejissyor sifatida shakllandi. O'n uch yil davomida jamoada ishchan ijodiy muhit yaratish, teatr repertuarini zamonaviy, mumtoz milliy va xorijiy asarlar bilan boyitish, iste'dod egalarini tarbiyalashga ulkan hissa qo'shdi.

³ Tursunboyev S. “Yoshlar jasorati”. “O'zbekiston madaniyati” gazetasi, 1975-yil, 3-yanvar.

⁴ Белинский В. Избранные статьи. – М.: «Детлит», 1972 г. 156 с.

⁵ Muxtorov E. Shamolda yongan olov. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/sanat/eldor-muhtorov-shamolda-yongan-olov/>

XALQARO QO'G'IRCHOQ TEATRLAR FESTIVALI

ANNOTATSIYA. Maqolada 2024-yilda Toshkentdagi "Silk Route Marionettes" teatrining Moskvadagi "Istoki" nomli ikkinchi xalqaro qo'g'irchoqbozlar festivalidagi ishtiroki haqida so'z ketadi.

KALIT SO'ZLAR: qo'g'irchoq teatri festivali, xalqaro hamkorlik, nutq, tendensiya, repertuar, ijodiy salohiyat.

АННОТАЦИЯ. Статья посвящена участию театра "Silk Route Marionettes" в Ташкенте в 2024 году во втором Международном фестивале кукольников "Истоки" в Москве, а также анализу процесса.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: фестиваль кукольного театра, международное сотрудничество, речь, тенденция, репертуар, творческий потенциал.

ANNOTATION. The article is devoted to the participation of the Silk Route Marionettes theater in Tashkent in 2024 in the second International Festival of Puppeteers "Istoki" in Moscow, as well as the analysis of the process.

KEY WORDS: puppet theater festival, international cooperation, speech, trend, repertoire, creative potential.

Yurtboshimiz 2024-yilning 22-noyabr kuni madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, xususan, teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Chora-tadbirlar rejasiga ko'ra, 2025–2030-yillarda teatrlarda "Milliy qahramon" va "Inson qadri uchun" mavzularida 32ta turkum spektakllar yaratish taklif etilmoqda. Sahna asarlarini yaratish jarayonida ijodiy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash, dramaturgiya va rejissyorlik sohasini rivojlantirish bo'yicha takliflar bildirildi. Xususan, teatr dramaturglari uchun *"Mahmudxo'ja Behbudiy"*, yosh rejissyorlar uchun *"Bahodir Yo'ldoshev"* nomidagi mukofotlarni ta'sis etish taklif etildi [1]. Bu masalalar qo'g'irchoq teatri ijodkorlari uchun ham ahamiyatlidir. Sababi dramaturg, rejissyor, aktyor, rassom, kompozitor hamda qo'g'irchoq yasovchi ustalar hamkorligida badiiy yaxlit spektakllar yaratish yangi davr talabiga aylandi.


Yangi talablarni anglab yetgan qo'g'irchoq teatri ijodkorlari innovatsion g'oyalarga tayanib, spektakllardagi ifodalangan mazmun mohiyatni badiiy mukammallikka ko'tarishga harakat qilishmoqda. Masalan, yurtimizdagi barcha qo'g'irchoq teatrlari o'z jamoasi iqtidorini namoyon etish uchun xalqaro festivallarda ishtirok etmoqda yoki vazirlik tashkil qilgan ijodiy gastrol safarlarini reja asosida bajarmoqda. Mazkur yilning 19-sentyabr kuni Xorazm viloyat qo'g'irchoq teatri "Karvonsaroy" spektakli bilan Andijon viloyati qo'g'irchoq teatriga o'zining gastrol safarini uyushtirdilar. Andijon viloyat qo'g'irchoq teatri esa joriy yilning 15–20-may kunlari Qozog'istonning Shimkent shahridagi "Shimkent shahar qo'g'irchoq teatri"da bo'lib, "Karvonsaroy" nomli spektaklni tomoshabinlar e'tiboriga havola qildi.

O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri navbatdagi chet

el safarini joriy yilning 18–22-sentyabr kunlari Belorussiya Respublikasining Grodno shahrida o'tkazdi. U yerda «Ляльки над Нёманом» deb nomlangan qo'g'irchoq teatrlarining xalqaro festivalida qatnashib, "Qo'g'irchoqlarning g'aroyib olami" nomli konsert dasturini namoyish qilib qaytdi [2]. Qo'g'irchoq teatrlarining ijodiy gastrol safarlari, o'zaro malaka almashishni, ijodiy jamoa iqtidorini xalqaro darajada namoyon qilinishi hamda viloyatlarning o'zaro do'stona munosabatlarni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Navbatdagi xalqaro festival joriy yilning 20–25-sentyabr kunlari Moskva shahrida bo'lib o'tdi. Mashhur S.V.Obrazsov qo'g'irchoq teatri ijodkorlari tashkillashtirgan «Истоки» nomi bilan "Ikkinchi xalqaro qo'g'irchoqchilar festivali"da "Silk Route Marionettes" teatri jamoasi an'anaga sodiq qolgan holda Moskva shahriga 2024-yil ham ijodiy safar uyushtirdilar. Ijodiy jamoa bu safar mehmon sifatida emas, qatnashchi sifatida ishtirok etdi. Ular orasida O'zDSMI yosh o'qituvchisining ishtiroki festival mohiyatini yanada teran anglashimga, qo'g'irchoq teatri talablarini his qilishimga, kasbimning zarur ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq etishimga asos bo'ldi.

Taassurotlarimni kengaytirgan bu festivalda aktyor sifatida ishtirok etishim qo'g'irchoq teatrining an'anaviy uslublarini ko'rganlarim bilan qiyosiy tahlil qilib, mushohada yuritishimga turtki berdi. Ishonch bilan ayta olamanki, yoshlarning mana shunday nufuzli xalqaro festivallarda ishtirok etishi sohamizning ta'lim sifatini yanada takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekistondan borgan "Silk Route Marionettes" qo'g'irchoq teatri madaniy merosimizni aks ettiruvchi "Xo'ja Nasriddin Afandi" va "Olovuddin va uning sehrli chirog'i" nomli spektakllarni namoyish qilib, Moskva



shahrining kichikintoy tomoshabinlari va ularning otalarini xushnud etdi. Ularga o'zbek qo'g'irchoq teatrlarining o'ziga xos ijodiy izlanishlarini taqdim etilishi tarixiy hodisa bo'ldi.

Ko'p millatli Rossiya xalqining urf-odatlarini hamda an'alarini o'z repertuarida saqlab kelayotgan o'nlab jahonga mashhur qo'g'irchoq teatrlari bor. Ular ko'plab maxsus festivallarda qatnashib kelmoqdi. «Истоки» nomli qo'g'irchoq teatrlari festivaliga, Rossiyaning turli viloyatlaridan, Belorussiya, Meksika, Mongoliya va O'zbekistondan ijodiy jamoalar, mutaxassislar keldi. Festival rejasiga binoan qo'g'irchoq teatrlarining spektakllari tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi. Tadbir ikki qismdan iborat bo'lib, birinchisi, spektakllar namoyishlari, ikkinchi qismi esa, mashhur teatrlarning aktyorlari, rassomlari hamda rejissyorlarining mahorat darslaridan iborat bo'ldi. Shuningdek, festival doirasida «Filiallar va ildizlar» nomli xalqaro ilmiy konferensiya ham bo'lib o'tdi.

Spektakllar quyidagi tartibda namoyish qilindi: «Qora daryo qo'g'irchoq dueli» (12+); Petrushkina Sloboda qo'g'irchoq teatri, Mitishi, Rossiya; «Морин хур» (12+); Mo'g'uliston davlat qo'g'irchoq teatri, Ulan-Bator, Mo'g'uliston; «Konus bayrami» (16+); Irkutsk viloyat qo'g'irchoq teatri Aistenok, Irkutsk, Rossiya; «Tom tugmachasining hikoyasi» (6+); Gorlov qo'g'irchoq teatri, Gorlovka shahri, Donetsk, «Skif ayollari» (12+); Donetsk, Rossiya; «Yevrosiniya Polotskaya», «Muqaddas Litarlar» (12+); Brest davlat qo'g'irchoq teatri, Brest, Belarussiya; «Kamal Komediylari» (12+); Tatar davlat qo'g'irchoq teatri Ekiyat, Qozon kabi teatrlar o'zlarining iqtidorini namoyon qildi.

Festival doirasidagi konferensiyalarda ham qiziqarli ma'ruzalar tinglandi. Jumladan, «Zamonaviy dunyoda ertak qahramonlarining evolyutsiyasi» nomli ma'ruza qiziqish bilan tinglandi. Uning muallifi Varvara Dobrovolskaya filologiya fanlari nomzodi, ertakshunos, Slavyan madaniyati institutining «Umumiy va slavyan san'atshunosligi» kafedrasida dotsenti, deb tanishtirildi. Shuningdek, A.N. Kosgina «Teatr va muzeylar tajribaning haqiqiyini izlamoda» nomli ma'ruzasi bilan, Yuliya Bolshakova esa «Filiallar va ildizlar: Qo'g'irchoq teatri nomoddiy madaniy meros xazinasidir» nomli chiqishi bilan, konferensiya kuratori Nina Monova «Teatr va marosim: uzoq o'tmishmi yoki yaqin kelajakmi?» nomli ma'ruzasi bilan qatnashdi. Bahs va munozarada, shuningdek, teatrshunoslar, teatr tanqidchilari, «Peterburg» nomli teatr jurnali, «Seans», «Sahna» kabi jurnal vakillari ham tadbirda faol ishtirok etishdi. Festival Moskvaning mashhur S.V.Obrazsov teatri «Frida Kahloni kim o'ldirdi» tomoshasi bilan yakunlandi.

Albatta, bunday yuqori saviyadagi qo'g'irchoq

teatrlari festivallari mutaxassislar uchun maktab vazifasini o'taydi hamda ijodiy hamkorlikka imkoniyat eshiklarini ochadi. Festival ishtirokchisi sifatida har bir tomoshani yuksak ishtiyoq va ko'tarinki ruhda kuzatdim. Ijodiy jamoamiz ko'rgan spektakllarini o'zlarining bilim saviyasidan kelib chiqqan holda muhokama va mushohada qila boshladi. Namunali ijrolardan nimalarnidir o'rganishga harakat qildik. Bu juda muhim ijodiy jarayon.

Xorijdagi sahnada yurtimiz obro'-etiborini hamda badiiy sha'nini himoya qilish uchun namoyish etiladigan spektaklda kuchli his-hayajon bo'lar ekan. Bu holat, shaxsan o'zimda kuzatildi, «Olovuddin va uning sehrli chirog'i» spektaklida Jin rolini uch yildan buyon ijro qilaman. Personajdagi har bir xatti-harakat, so'zlar, mizansahnalar va asardagi barcha jarayon yod bo'lib ketgan. Ammo spektakl ijrosi paytida hayajondanmi, mas'uliyatdanmi, bir nechta kichik xatoliklarga yo'l qo'ydim. Nafaqat men, sakkiz-o'n yildan buyon ushbu spektaklda rol ijro qilib kelayotgan ko'p yillik tajribaga ega aktyorlar ham ba'zi xatoliklarga yo'l qo'yishdi. Gastrol jarayoni ijodiy jamoani yana bir bor o'z ustida ko'proq ishlashga undadi.

Festival doirasidagi rejaga binoan bizning teatr jamoamizni S.Obrazsov teatri binosi bo'ylab ekskursiya qildirdilar. Jahonga mashhur qo'g'irchoq teatrdagi ijodiy sahnalarning ko'pligi, ya'ni kichik, o'rta va katta tomosha zallarining mavjudligi bizni hayratda qoldirdi. O'ziga xos shakldagi har bir sahna quruvchilar tomonidan aynan qo'g'irchoq teatri spektakli uchun moslashtirilganligini alohida ta'kidlash lozim. Besh kun davom etgan xalqaro festivaldan teatr jamoasi katta badiiy taassurot, malaka, tajriba va kerakli ma'lumotlarga ega bo'lib qaytdi. Bu tadbir keyingi festivalga jiddiy tayyorgarlik ko'rishimiz lozimligini anglatdi.

Xulosa qilib aytganda, qo'g'irchoq teatri san'ati va unga bag'ishlangan festivallar murakkab jarayonlardan iborat ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qildik. Bu noyob san'at turini qadrsizlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun xalqaro festivallarda muntazam ishtirok etish va tajriba almashish davr talabi ekanligini anglab yetdik. Festivalni, avvalo, respublikadagi qo'g'irchoq teatri uchun tashkil etish va namuna darajasidagi milliy urf-odatlarini, musiqalarini va liboslarini tarannum etuvchi, saralangan spektakllarni jahon sahnalariga olib chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Respublika miqyosidagi festival tashkilotchilari shu masalalar bilan mashg'ul bo'lsalar, o'zbek qo'g'irchoq teatri san'atini yanada rivojlantirishga, dunyoga tanitishga katta hissa qo'shgan bo'lar edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. PQ-399-son. 2024-yil, 22-noyabr.
2. Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – T.: «Talqin», 2006-y.
3. Umarov M. Mannon Uyg'ur estetikasi. – T.: «Musika», 2007-y.

VIII BO'LIM

E'TIROF

Jo'ra SHUKUROV,
O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedrası professori, O'zbekiston Respublikası san'at arbobi

SAN'ATGA BAXSHIDA UMR

ANNOTATSIIYA. Maqolada Abdulla Qodiriy nomidagi O'zbekiston Respublikası davlat mukofoti laureati, O'zbekiston Respublikası san'at arbobi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi, O'zbekiston davlat konservatoriyasining professori, kompozitor Mustafo Bafoyevning hayoti va ijodiy faoliyati xususida fikr yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR: kompozitor, opera, balet, simfoniya, oratoriya, orkestr, xor, kantata, poema, a kapella, dirijyor.

АННОТАЦИЯ. В этой статье речь идёт о жизни и творчестве лауреата государственной премии Узбекистана имени Абдуллы Кадыри, члена союза композиторов Узбекистана, Заслуженного деятеля искусств Республики Узбекистан, профессора государственной консерватории Узбекистана, композитора М.Бафоева.

Ключевые слова: композитор, опера, балет, симфония, оратория, оркестр, хор, кантата, поэма, а капелла, дирижёр.

ANNOTATION. This article is about the life and creativity of the laureate of the State Prize of Uzbekistan named after A.Kadiri, a member of Union of Composers of Uzbekistan, Honored Artist of the Republic of Uzbekistan, professor of the State Conservatory of the Uzbekistan, composer M.Bafoev.


KEY WORDS: composer, opera, ballet, symphony, oratorio, orchestra, choir, cantata, poem, a capella, conductor.

Bugungi kunda o'zbek professional musiqa san'atining darg'alaridan biri, ko'pchilik sohadoshlariga ibrat bo'la oladigan fidoyi ijodkor, qanchadan-qancha yosh ijodkorlarning musiqa olamiga kirib kelib, o'z o'rnini topa olishiga sababchi bo'lgan atoqli kompozitor Mustafo Bafoyevning ijodiga nazar solar ekanmiz, uning kompozitorlik sohasining turli janrlarida nafaqat barakali ijod qilib kelayotganini, balki shu janrlarda aynan milliy ruhni singdirib kelayotganiga ham guvoh bo'lamiz. Biroq aynan mana shu jihat barchaga ham nasib etavermaydi.

O'zbekiston davlat madhiyasining musiqa muallifi, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston davlat mukofotlarining laureati, O'zbekiston xalq artisti, kompozitor Mutal Burhonov: "Agar men san'atga qayta kirib kelganimda, albatta, Mustafo Bafoyevga shogird tushgan bo'lar edim", – deb aytgan ekan. Mana shuning o'zi ijodkor uchun eng yuksak baho. Yana shuni ham alohida ta'kidlash

joizki, M.Bafoyev mamlakatimizning kompozitorlik ijodiyotida yangilik yaratish borasidagi eng dadil va ilg'ori bo'lib, bu ishdan charchamasligini amalda isbotlagan. Bunga misol tarzda qiyoslab oladigan bo'lsak, 1939-yil mamlakatimizda birinchi bo'lib Muxtor Ashrafiy o'zining "Bo'ron" operasini Sergey Vasilenko bilan hamkorlikda yaratib, o'zbek opera san'atiga asos solgan bo'lsa, 1942-yil birinchi o'zbek simfoniyasini yaratib, o'zbek simfoniya janrlarga asos solganligi barchamizga tarixdan ma'lum. Yoxud 1952-yil bir qator xalq qo'shiqlarini xor jamoasining jo'rsiz ijrosiga moslashtirib, o'zbek jo'rsiz xor san'ati ijrochiligiga asos solgan kompozitor Mutal Burhonov, desak mubolog'a bo'lmaydi.

M.Bafoyev 1946-yilning 10-noyabrida Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi "Ganchkash" qishlog'ida, jamoa xo'jaligining bosh hisobchisi oilasida tavallud topgan. Yoshligidan musiqaga qiziqib yurgan Mustafoni ko'rgan amakisi: "Sen



albatta, musiqa sohasida o'qish kerak", – deb otasining qarshiliklariga qaramasdan, 1960-yil Buxoro davlat musiqa bilim yurtiga olib kelgan va o'qituvchilar buning iqtidorini tekshirib ko'rib, g'ijjak cholg'usi bo'yicha o'qituvchi Sami Vohidov sinfiga o'qishga qabul qilishgan. 1964-yil bilim yurtini muvaffaqiyat bilan bitirgan M.Bafoyev Toshkent davlat konservatoriyasining xalq cholg'ulari fakultetiga, g'ijjak cholg'usi bo'yicha dotsent Belenkiy sinfiga qabul qilinadi. Dirijyorlik fanidan esa, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, professor Mardon Nasimov sinfiga tahsil ola boshlaydi.

Konservatoriyadagi tahsil davrida o'qishga shundayin berilgan ediki, buning fortepiano fanidan o'zlashtirib borayotgan asarlarini eshitgan kishi: *"Bu yigit fortepiano fakultetida o'qisa kerak"*, – degan fikrga borar edi. Chunki u juda murakkab bo'lgan M.Mashkovskiyning konsert etyudini, F.Shopenning "Inqilob etyud"i kabi ko'plab yirik va murakkab asarlarni mohirona ijro etganiga o'zimiz ham guvoh bo'lganmiz va havas qilganmiz. Shu bilan bir qatorda, odatdagidek kuylar yaratib turishni ham davom ettirib borar edi. 1969-yil konservatoriyani bitirish yakuniy davlat imtihoni dasturidan, boshqa asarlar bilan bir qatorda o'zining kompozitorlik qalamiga mansub bo'lgan "Skerso" asarini ham davlat komissiyasi e'tiboriga havola etgan edi. Asar ijrosi tugashi bilanoq komissiya a'zolari (Komissiya raisi Moskva konservatoriyasining professori edi) o'rnidan turib olqishlashadi va bir ovozdan M.Bafoyevni, albatta, kompozitorlik fakultetiga o'qishga qabul qilish zarurligi haqida bayonnoma ham tuzishadi. Biroq... taqdir taqozosi bilan bu ish o'sha yilning

o'zidayoq amalga oshmay qoladi. 1972-yil M.Bafoyev Buxoro davlat pedagogika institutining o'qituvchisi, ikki farzandning otasi bo'lib turgan bir paytda, Toshkentdan ustози professor M.Nasimov tomonidan unga: *"Konservatoriyaning rahbariyati o'zgardi. Siz albatta, kompozitorlik fakultetida o'qishingiz kerak"*, – ma'nosida qayta-qayta qo'ng'iroq bo'ladi.

"Sen konservatoriyani o'qib bitirgan bo'lsang, yana nima keragi bor senga ikkinchi marotaba o'qishni", – degan gaplar bilan uydagilarning barchasi unga qarshi bo'lishgan. Biroq bu masalani M.Bafoyevning turmush o'rtog'i qo'llab-quvvatlaydi: *"Mayli, borsinlar. Chunki ko'ryapman, bu kishi shusiz halovatlari bo'lmayapti"*, – deya rozilik bergan. Shunday qilib, M.Bafoyev 1972–1977-yillarda kompozitorlik fakultetida, mutaxassislik bo'yicha professor Boris Fyodorovich Giyenko sinfiga, cholg'ulashtirish bo'yicha esa O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan

san'at arbobi, professor Aleksey Fyodorovich Kozlovskiy sinfiga ta'lim olishga muvaffaq bo'ladi. O'qish davrining o'zidayoq yaratgan bir asari bilan Moskvada o'tkazilgan Butunittifoq yosh kompozitorlar konkursida ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritadi. O'qishni bitirishda esa davlat komissiyasi e'tiboriga simfonik orkestri va xor jamoalari ijrosi uchun yaratgan o'zining birinchi "Buxoronoma" nomli oratoriyasini havola etib, olqishlarga sazovor bo'ladi.

1977–1979-yillarda esa assisentura-stajirovkani ham muvaffaqiyat bilan bitirdi va 1980-yilda Abu Ali Ibn Sinoning 1000 yilligiga bag'ishlab yubilyarning yettita ruboiysi asosida jo'rsiz xor jamoasining ijrosi uchun "Yetti lavha" asarini yaratadi va shu bilan o'zbek turkumli jo'rsiz xor asarlari janriga asos ham soladi. Bu asar Ibn Sinoning nafaqat Toshkentda, balki xalqaro Yunesko tashkiloti tomonidan Moskvada o'tkazilgan yubiley tantalarida ham O'zbekiston xalq artisti, mohir dirijyor va kompozitor, ustozimiz Botir Umedjonov rahbarligidagi Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasi ijrosida mohirona ijro etilib, tomoshabinlar tomonidan qizg'in qabul qilinadi.

1980-yil O'zteleradio qoshidagi xalq cholg'ulari orkestrining badiiy rahbari va bosh dirijyori, O'zbekiston xalq artisti, mohir dirijyor va kompozitor, ustoz Doni Zokirov M.Bafoyevning ikkita qo'shig'ini jamoa bilan tayyorlab, asarlardan zavqqa to'lib-toshib, uni jamoaning dirijyorlik lavozimiga ishga taklif qiladi. Biroq orkestrning badiiy rahbari va bosh dirijyori o'zgargach, M.Bafoyev ishdan ketishga qaror qiladi va taqdir taqozosi bilan 1986-yil O'zteleradiokompaniyasi rahbariyatining taklifiga binoan yana shu jamoaning badiiy rahbari



va bosh dirijyori lavozimida o'z ijodiy faoliyatini davom ettiradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, M.Bafojev orkestrga rahbarlik qila boshlagandan jamoada ijodiy muhit o'zgarib, ijodiy o'sish boshlanadi. Bir paytlar faqatgina o'zbek xalq kuylari va o'zbek bastakorlari qalamiga mansub kuy va qo'shiqlar ijro etib kelgan jamoa endi jahon kompozitorlarining turli shakl va hajmdagi asarlarini ham ijro eta boshlaydi. Bunga 1988-yilning noyabr oyida M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining katta zalida bo'lib o'tgan konsertni misol qilib olish mumkin.

Gap shundaki, o'sha davrlarda bu orkestrdan tashqari O'zbek davlat filarmoniyasi qoshida ham T.Jalilov nomidagi xalq cholg'ulari orkestri mavjud bo'lib, ular faqat akademik ijro yo'nalishi bilan shug'ullanishar, ya'ni *"Baravariga ham akademik, ham xalq yo'lida ijro etishning iloji yo'q"*, – degan fikr bilan ish tutishar edi. M.Bafojev esa: *"Ikki-kilasini ham baravariga olib borish nafaqat mumkin, balki kerak"*, – degan aqidaga asoslanib ish tutgan edi. Darhaqiqat, birinchi kuni T.Jalilov nomli orkestrning akademik yo'nalishidagi konserti bo'lib o'tdi va ikkinchi kuni esa M.Bafojev rahbarligidagi D.Zokirov nomidagi orkestrning konserti bo'ldi hamda bularning konsert dasturidan ham akademik, ham xalq yo'lidagi milliy bezaklarga boy bo'lgan asarlar birin-ketin ijro etila boshlagandan zaldagi tomoshabinlarning olqishi kuchayib boraverdi. Chunki dasturdan og'ir va bosiq bo'lgan xalq mumtoz musiqa merosi bilan bir qatorda o'zbek va jahon kompozitorlarining texnik tarzdagi murakkab va ijro uchun g'oyatda og'ir bo'lgan asarlari ham o'rin olgan edi. Shunda komissiya a'zolari va tomoshabinlar M.Bafojevning orkestrdagi tutgan ijodiy yo'li qanchalik to'g'ri va ibratnamo ekanligini o'zlarining bitmas-tuganmas olqishlari bilan qo'llab-quvvatlashdi. Shu bilan bir qatorda qoyil ham qolishgan, chunki xalq cholg'ulari orkestrining tarixida hech qachon bundayin konsert bo'lib o'tgan emas. Tabiiyki, bunga qoyil qolmaslikning iloji ham yo'q.


Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Mustafo Bafojev o'zi aslida g'ijjak cholg'usi mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olib kelgan bo'lsa-da, uning kompozitorlik faoliyatini xonandalik san'atisiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Chunki M.Bafojev simfonik va xalq cholg'ulari orkestri uchun alohida yaratgan asarlaridan tashqari xonandalik yo'nalishi uchun juda ham barakali ijod qilgan kompozitordir. Simfonik orkestri va xalq cholg'u orkestrlarining jo'rliigi asosida, fortepiano jo'rliigi asosida ko'plab qo'shiqlar, romanslar, xor jamoasining ijrosi uchun esa, ko'plab jo'rli va jo'rsiz asarlar yaratganligi buning yaqqol misolidir. Masalan, 1981 va 1986-yillarda Moskvaning


Kreml saroyida bo'lib o'tgan partiya syezdining yakunlovchi konsertlarida O'zbekistondan borgan ijodkor vakillar aynan M.Bafojev qalamiga mansub asar bilan, ya'ni simfonik orkestr va xor, shuningdek, yakkaxon uchun yozgan asari bilan ishtirok etishgan.

M.Bafojev tarixiy asarlarga ham murojaat qilgan va o'tmishdagi allomalarimiz borasida ham bir qator asarlar yaratishga muvaffaq bo'lgan. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning yubiley tadbirida yakkaxon va xor jamoasining ijrosi uchun "Alloma" nomli jo'rsiz poema-kantatasini yaratib, o'zbek xor yo'nalishida poema-kantata janriga ham asos solgan. 1986-yil buyuk faylasuf va matematik alloma Umar Xayyom hayoti va ijodiga bag'ishlab, "Umar Xayyom" nomli operasini yaratadi va bu operani A.Navoiy nomidagi rahbariyatga eshittirganda, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, teatrning taniqli dirijyori, professor G'ani To'laganov hayajonini yashirolmay: *"Mana sizlarga o'zbek Puchchinisi! Bo'lar ekan-ku, o'zbek kompozitorlaridan ham zo'r opera yozish qo'lidan kelar ekan-ku! Mana haqiqiy o'zbek operasi! Mana o'zbek Puchchinisi!"* – deya to'lqinlanib aytgan so'zlari hanuz qulog'im ostida jaranglaydi.

Bundan keyin al-Farg'oniya bag'ishlangan "Sevgim samosi", Ibn Sino va Borbad operalari (Dushanbe opera teatrida ijro etilmoqda), Amir Temur, Xamsa, Alisher Navoiy operalari ham A.Navoiy teatrining repetuarini bezab kelmoqda. Bulardan tashqari Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama teatrida bir qator musiqiy dramalari ijro etilgan va bugungi kunda ham ijro etilib kelinmoqda. M.Bafojev mamlakatimizda yaratilmagan janrlarga qo'l urib, ijodkor sifatida o'zining yangi-yangi qirralarini namoyon qildi va yangilik yaratishdan to'xtamadi. Jumladan, "Buxoroyi sharif" misolidagi teleopera, "Nodira-begim" va "Uvaysiy" misolidagi telebaletlar, diniy mavzudagi "Hajnoma" misolidagi oratoriya va yana bir qator janrlarga asos solganligi buning yaqqol misolidir.

Barchamizga ma'lumki, simfoniya deganda faqat simfonik orkestr ijrosidagi yirik janrdagi asar tushuniladi. Yevropada birinchi bo'lib mashhur kompozitor L.V.Bethoven o'zining 9-simfoniyasining yakuniy qismidagina xonandalik san'atidan, ya'ni xor ijrochiligidan ham foydalangan birinchi kompozitordir. O'zbekistonda esa 1980-yil M.Bafojev buyuk sarkarda, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning 4-g'azali asosida "G'azal" deb nomlangan 1-simfoniyasini yaratdi. Asar yakkaxon, xor va simfonik orkestr ijrosiga mo'ljallangan edi. Bu ham mamlakatimiz musiqiy ijod sahifasida yangilik bo'ldi. Bundan tashqari, 5-simfoniyasi "Holati Alisher Navoiy" deb





nomlangan bo'lib, yakkaxon va jo'rsiz xor ijrosiga mo'ljallangan. Bu yerda ham M.Bafojev tomonidan jo'rsiz xor simfoniyasi janriga asos solganiga guvoh bo'lamiz. Xuddi shunday, Uvaysiy g'azallari bilan "Maqom sadolari" turkum asarini yaratganki, bu asar faqatgina maqom shakllariga o'xshash bo'lib, uning ohangi tom ma'noda kompozitorning ijod mahsulidir. Bunday asarlardan ko'plarini tilga olish mumkin.

Endi bir savol tug'iladi. Nima uchun Mustafo Bafojev yaratgan asar ijro uchun juda ham qulay va yoqimli, deya e'tirof etishadi ijrochilar?

Gap shundaki, avvalo, Mustafo Bafojev xalq musiqa merosini yaxshi o'zlashtirgan san'atkor. Qolaversa, o'zi cholg'uchi-sozanda bo'lgani bilan inson ovozinig har tomonlama ijro imkoniyatlarini mukammal o'zlashtirib olgan buyuk ijodkor hisoblanadi. Ovoz uchun yaratgan asarlarining birinchi ijrochisi o'zi bo'lib, asarni o'z ijrosida sinovdan o'tkazib olib, har tomonlama ishonch hosil qilgandan keyingina kim ijro etishi mumkinligi borasida fikrlaydi. Shuning evaziga bo'lsa kerak, u Qashqar rubobi uchun ikki qismdan iborat yaratgan poemasi Ozarbayjon va Armaniston oliy ta'lim muassasalarining tor cholg'usi bo'yicha repertuaridan chuqur joy egallagan.

M.Bafojevning asarlari Rossiyaning Moskva, Estoniyaning Tallin, Armanistonning Dilijan kabi shaharlarida ijro etilganda, tomoshabinlar uzoq muddat tikka turib olqishlaganlariga o'zimiz guvoh bo'lganmiz. Shuni ham alohida aytish joizki, mustaqilligimizdan keyingi "Mustaqillik", "Navro'z" bayram konsertlari, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, Amir Temur va Mirzo Ulug'bek, Bahouddin Naqshband va al-Farg'oniy kabi allomalarimiz, ozodlik kuychisi hisoblangan Cho'lponning yubiley konsertlari, mamlakatimizda bo'lib o'tgan barcha Universiadalar va spartakiadalarining konsert dasturlari asosan M.Bafojev qalamiga mansub asarlardan iborat bo'lganligini ham guvohi bo'lganman. Samarqand shahrida bo'lib o'tgan "Sharq taronalari" festivalining 1997, 1999 va 2001-yillardagi konsert dasturi ham aynan shu kompozitor, ya'ni M.Bafojev qalamiga mansub asarlardan tashkil topgan edi.

Yunusobod tumanidagi "Shahidlar xiyoboni"ning ochilish tadbirida O'zbekiston xalq artisti Maryam Sattorova ijrosidagi barchani yig'latgan "Jigarim" nomli asari ham M.Bafojev qalamiga mansubdir. Uni kompozitor sifatida nafaqat Respublikamizda, balki ko'plab xorijiy mamlakatlarda ham yaxshi

tanishadi va uning asarlarini zavq bilan ijro etishadi. Shuning uchun ham M.Bafojev Amerika Qo'shma Shtatlari kompozitorlar assotsiatsiyasining haqiqiy a'zosi etib qabul qilingan va AQSh, Yaponiya kabi boshqa bir qator mamlakatlardan unga asar yozib berish borasida buyurtmalar berishadi hamda o'zini ham asarning muallifi sifatida birinchi ijro paytida mamlakatlariga taklif qilib turishadi.

2021-yilning 10-noyabr kuni M.Bafojevning 75 yoshiga bag'ishlanib, O'zbekiston davlat konservatoriyasining katta zalida yubiley tantanasi bo'lib o'tdi. Bu tantanaga so'zga chiqqan kompozitor, professor Avaz Mansurov: *"O'zbekiston kompozitorlari orasida Mustafo Bafojev geniy ekanligini tan olishimiz kerak"*, – deganda butun zalda o'tirgan tomoshabinlar bu bahoni gulduros qarsaklar bilan olqishlashdi, chunki bu bahoni hamkasbi bejiz aytmagan edi. Taniqli tilshunos olim, filologiya fanlari nomzodi Shuhrat Rizayev ham so'zga chiqib, Mustafo Bafojevni 1986-yildan buyon tanishi va u kishining nafaqat yaratgan asarlariga, balki inson sifatidagi fazilatlariga ham jo'shqin mehri borligini izhor etdi. Mazkur yubileydan keyin bir qator boshqa viloyatlarda ham M.Bafojevning yubileyiga bag'ishlangan tadbir va konsertlar o'tkazilgani nur ustiga a'lo nur bo'lgan edi. Darvoqe, O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasining musiqa muallifi, O'zbekiston xalq artisti, elimiz suygan buyuk kompozitor, ustozimiz Mutal Burxonov ham: *"Men yosh bo'lganimda, albatta, kompozitor Mustafo Bafojevga shogird tushar edim"*, – deya qayta-qayta e'tirof etgan.

M.Bafojev kompozitorlik ijodi bilan bir qatorda pedagogik faoliyatini ham olib bormoqda. U 2001-yildan buyon O'zbekiston davlat konservatoriyasining "Bastakorlik va cholg'ulashtirish" kafedrasida professor lavozimida ishlab, talabalarga saboq berib kelmoqda. Bugungi kunda uning sinfida ta'lim olgan shogirdlari nafaqat O'zbekistonda, balki bir qator qo'shni mamlakatlarda ham o'zlarining ustozlaridan olgan saboqlari asosida ijodiy ishlarini namoyon qilib kelmoqdalar. Yana shunisi quvonchliki, "maestro"ning nevaralari bo'lmish ustozodalar Muhammadjon va Parvinaxonlar Avstriya mamlakatida ta'lim olib turib, xalqaro konkurslarda g'oliblikni qo'lga kiritib kelayotgan vatandoshlarimizdir.

Ustoz san'atkorning ijodiy faoliyatiga ulkan zafarlar tilayman!

ВАГИФ МУСТАФАЗАДЕ – МИРОВАЯ ЛЕГЕНДА ДЖАЗА ИЗ АЗЕРБАЙДЖАНА

Аннотация. В данной статье речь ведется о творчестве выдающегося джазового исполнителя Вагифе Мустафазаде. Его можно назвать зачинателем этноджаза, уникальным и виртуозным джазовым исполнителем, композитором. Отмечается, что его виртуозный талант высоко оценили и в Азербайджане, и зарубежных странах.

Ключевые слова: джаз, композитор, исполнитель, музыка, образование, фортепиано, концерт, успех, консерватория, творческий.

Annotatsiya. Ushbu maqolada jazning mahoratli ijrochisi Vagif Mustafazoda haqida so'z ketadi. Uni etnojazz boshlovchisi deyish mumkin, va noyob, mahoratli jaz ijrochisi, bastakori hisoblanadi. Uning iqtidori Ozarbayjonda ham, xorijiy mamlakatlarda ham yuksak baholangan.

Kalit so'zlar: jaz, bastakor, ijrochi, musiqa, ta'lim, fortepiano, konsert, omad, konservatoriya, ijodiy.

Annotation. This article is about the work of the outstanding jazz performer Vagif Mustafazade. He can be called the founder of ethnojazz, a unique and virtuoso jazz performer, composer. It is noted that his virtuoso talent was highly appreciated both in Azerbaijan and foreign countries.

Key words: jazz, composer, performer, music, education, piano, concert, success, conservatory, creative.

Вагиф Мустафазаде родился 16 марта 1940 года в городе Баку. Его отец военный врач, родом из древнего азербайджанского города Шеки, увлекался музыкой и играл на таре. Своему музыкальному образованию он обязан матери – Зивяр ханум – одной из первых азербайджанских пианисток, прекрасному знатоку мугама. Она была ученицей основоположника азербайджанской классической музыки Узеира Гаджибекова.


В возрасте 9 лет мальчик на свой лад импровизировал национальную музыку.

В музыкальной школе он приобщился к западной классической музыке и исполнял произведения композиторов, таких как Бах, Моцарт, Бетховен, Шопен, Мендельсон, Рахманинов и др. Его учителем был музыкант, воспитанный в лучших традициях русского пианизма, Г.Г. Шароев. Со временем игра на фортепиано стало смыслом жизни Вагифа. Первое выступление на большой сцене в зале Бакинской филармонии 30 мая 1956 года стало для Вагифа одним из ярких воспоминаний юности. Шестнадцатилетний В.Мустафазаде блестяще сыграл первую часть фортепианного концерта Мендельсона. Пораженный исполнением юного дарования азербайджанский дирижер и композитор Ниязи увидел в нем большого музыканта и предрекал большой успех.



Американский джазовый критик Уиллис Коновер и В.Мустафазаде

Вагиф часто прослушивал записи знаменитых зарубежных джазовых музыкантов, таких как Джон Колтрейн, Оскар Питерсон, Телониус Монк и Билл Эвенсон, и это сыграло важную роль в судьбе его музыкальной карьеры.



В 18 лет, будучи студентом музыкального училища им. А.Зейналлы, Вагиф приступил к работе Радиокomitee Азербайджанской ССР в качестве солиста. В 1964 году он продолжил свою учебу в Азербайджанской государственной консерватории им. Узеира Гаджибекова.

Однако спустя год переехал в Тбилиси и стал музыкальным руководителем в ансамбле «Орэро». Он сотрудничал с талантливым музыкантом Тамазом Курашвили. В результате этого творческого союза рождались новые музыкальные проекты, они стали выступать на различных фестивалях и джазовых концертах. В Тбилиси он создал свою первую группу – джаз-трио «Кавказ» (состав группы: Вагиф Мустафазаде, Гено Надирашвили, Феликс Шабсис) при Государственной филармонии Грузии. Звездным часом для него стало выступление на XIII Международном джазовом фестивале в Таллине. Тогда Вагиф Мустафазаде исполнил несколько композиций и покориw зрителей неординарной игрой стал лауреатом фестиваля. Его виртуозное исполнение пьесы Дж.Гершвина «Человек, которого я люблю» знаменитый американский джазовый критик У.Коновер лаконично комментировал так: *«Он самый лиричный пианист, которого я слышал»*.

В 1968 году состоялись первые гастролы Вагифа по городам СССР. Завоевав серьезный успех на всесоюзном уровне Вагиф Мустафазаде в том же году по настоянию министра культуры Азербайджана и композитора Рауфа Гаджиева возвращается в свой любимый город Баку. Вдохновленный молодой музыкант с новой силой приступает к творческой деятельности. В 1970 году он создает первую женскую вокальную группу «Лейли». За короткое время коллектив стал популярным среди горожан. Спустя год меняется состав и название группы – «Севиль». В репертуаре преобладали песни и мелодии в джазовой обработке. Одной из четырех солисток группы была его супруга Эльза Мустафазаде (Бандзеладзе), с которой он познакомился в Тбилиси.

Кроме сочинения своих произведений, также представлял произведения классической музыки Кара Караева в джазовой обработке, авторской музыки Тофика Бакиханова и народной музыки. Глубокие знания азербайджанского мугама и его синтез с классической джазовой музыкой позволили ему создать новое направление в этноджазе – азербайджанский джаз (джаз-мугам). Впервые восточная музыка приобрела новый облик в джазовом стиле. Конечно, не все было так гладко в вос-

приятии нового стиля в родном Баку. Известный композитор Тофик Кулиев во многом помогал и поддерживал Вагифа. Увлечение джазом объединяло его с композитором и исполнителем Рафиком Бабаевым. В 1977 году Вагиф Мустафазаде создает джазовую группу «Мугам». В этом же году он принял участие во Всесоюзном джазовом фестивале в Донецке.

Последние два года жизни были весьма плодотворными в жизни музыканта. Фирма «Мелодия» выпустила его двойной альбом «Джазовые импровизации» и пластинку с обработками произведений композитора Тофика Кулиева. Он блистательно выступил на джазовом фестивале «Тбилиси-78».

Феноменальная память, присущая В.Мустафазаде, яркая манера исполнения и бисерная техника отличали его игру от других музыкантов. По мнению коллег, он отдавался работе со всей душой, не жалея времени и сил.

По объективным причинам Вагиф Мустафазаде долго не мог дебютировать на мировой джазовой сцене. Однако, по рекомендациям, в 1979 году он послал на Всемирный конкурс джазовой музыки в Монако свою композицию «В ожидании Азизы». На этой площадке он конкурировал с джазовыми музыкантами всего мира. Его волнение и старание дали свой результат, композиция советско-азербайджанского композитора и исполнителя получает Гран-при. Победителю положен не только приз, но и подарок «белый рояль», как символ чистой музыки, несущей в себе мир и любовь к жизни. Но музыкант этого не узнает.

Конечно, джаз занимал основное место в творчестве гениального музыканта. Его джазовая коллекция состояла не только из колоритных национальных композиций. Десятки произведений музыканта, такие как «Блю Даниэль», «Ритм», «Сила воли» написаны в стиле классических джазовых традиций. Надо отметить, что Вагиф Мустафазаде писал также симфоническую и камерную музыку. Он является автором многочисленных камерных фортепианных пьес. Всего за свою короткую жизнь он сочинил более 1200 музыкальных произведений.

15 декабря 1979 года Вагиф вместе с группой «Мугам» был на гастролях в Ташкенте. Во время первого отделения концерта он почувствовал, что пальцы перестают его слушаться и перехватило дыхание. Вопреки советам врачей он продолжил игру и отыграл второе отделение. Это был последний концерт Вагифа Мустафазаде. Он скончался от инфаркта миокарда в возрасте 39 лет. Его смерть застала врасплох всех близких и любителей его музыки. Ведь целая жизнь и множество творений



должны были ожидать впереди еще молодого тридцатидевятилетнего Вагифа.

В 1980 году, после его смерти, ведущий англоязычной передачи «Время джаза» (Jazz Time) на радио «Голос Америки» Уиллс Коновер полностью посвятил свою часовую передачу Вагифу Мустафазаде. Несмотря на то, что между странами были напряженные отношения, это было высшее признание таланта советского джазового музыканта.

Позже сценарист и режиссер Рустам Ибрагимбеков писал: *«Почему он так рано ушел? Истинно талантливый человек является проводником божественных сил. Чем мощнее эта сила у одаренного человека, тем быстрее физические силы исчерпаются. Трудно держать божественную силу в теле. Вагиф – часть нашего национального самосознания и бытия. Со своими взлетами и падениями он кусочек, точно выражающий сущность нашего народа».*

Би Би Кинг, будучи в гастролях в СССР, сыграл с ним в джем-сейшне, и позже признавал, что хотел бы играть блюз так, как играет Мустафазаде.

По мнению шведского пианиста Я.Юханссона, музыка Вагифа Мустафазаде удивительно современна, и в то же время от неё веет таинствами древних кавказских мелодий, воспетых поэтами не одного поколения.

Президент Вашингтонского джаз-клуба Д. Бэкер признавал, что Вагиф Мустафазаде является одним из лучших пианистов мира.

Павел Бродовский, многолетний главный редактор европейского журнала «Джаз Форум», говорил: *«В.Мустафазаде – пианист, который имеет свой, ярко выраженный почерк. Он великолепно играет свой джаз, умело использует азербайджанский колорит. Он смело может быть примером для многих джазменов».*

Имя Вагифа Мустафазаде вошло во Всемирную энциклопедию джаза под редакцией авторов из США.


Сегодня семейные музыкальные традиции успешно продолжают. Его дочь Азиза Мустафазаде пошла по стопам отца. В восьмилетнем возрасте она, выступая с отцом в Тбилиси, получила специальный приз фестиваля «Тбилиси-78». В настоящее время Азиза Мустафазаде проживает в Германии и является одним из признанных джазовых музыкантов мирового уровня. Она регулярно выступает с концертами в родном Баку.



Вокруг личности Вагифа всегда было много споров и полемик, как при жизни, так и после его смерти. Талантливый музыкант не подчинялся стереотипам, созданным обществом, создавал свои правила в музыке. Его импровизации и сейчас анализируются профессиональными джазовыми музыкантами. Сегодня в Азербайджане, созданная Вагифом школа этноджаза развивается, несколько поколений талантливых музыкантов, вдохновленных его музыкальным наследием, открывают новые страницы и покоряют олимп джазовой музыки. Благодаря открытию Вагифа, у молодого поколения сложилось такое ощущение, что азербайджанский джаз имеет такую же древнюю историю, как и другие национальные музыкальные жанры. Такой родной и близкий к душе азербайджанский джаз.

Безусловно, Вагиф Мустафазаде стал революционером и феноменом в истории мирового джаза.

P/S. Если когда-нибудь будете в Баку, рекомендую посетить в старом городе «Ичери-шехер» дом-музей Вагифа Мустафазаде. Здесь вы окунетесь в атмосферу джазовой музыки 70-х годов прошлого столетия и почувствуете ауру волшебного азербайджанского джаза, созданного гением.





KOMPOZITOR QURBANBAY ZARETDINOV IJODIDA MILLIY QADRIYATLAR MASALASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompozitor Qurbanbay Zaretdinov ijodida qoraqalpoq xalqining milliy qadriyatlari, milliy xarakteri va o'ziga xos ma'naviyatini ifodalash usullari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada kompozitor Q. Zaretdinovning "To'maris", "Xalq uchun" operalari, "Qirq qiz", "Nazlimxan suluv" baletlari, "Oratoriya", "Yoshlik" uverturalari, "Bulbul" va "Qora jo'rg'a" kuylari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. kompozitor, teatr, musiqa, kuy, san'at, madaniyat, estetik tarbiya, milliy xarakter, milliy qadriyat, dirijyor, xormeyster, orkestr, xor, opera, balet, musiqiy drama.

Аннотация. В данной статье изучены способы подачи и выражения национальных традиций, национальный характер и особенности духовного мира каракалпакского народа. В частности, в статье исследованы музыкальные произведения К. Заретдинова опера «Томирис», «Для народа», балеты «Сорок девушек», «Красавица Назлимхан», «Оратория», «Молодость», мелодий «Соловей» и «Черный жеребец».

Ключевые слова. Композитор, театр, музыка, мелодия, искусство, культура, эстетическое воспитание, национальный характер, национальная традиция, дирижер, хормейстер, оркестр, хор, опера, балет, музыкальная драма.

Annotation. The article explores the methods of expressing the national values, national character, and unique spirituality of the Karakalpak people in the works of composer Qurbanbay Zaretdinov. It also analyzes the composer's works such as the operas "Tumaris", "Xalq ushin", the ballets "Qirq qiz" and "Nazlimkhan sulu", "Oratoriya", "Yoshlik", as well as the melodies "Bulbul" and "Qora jorga".

Key words. composer, theater, music, melody, art, culture, aesthetic education, national character, national values, conductor, choirmaster, orchestra, choir, opera, ballet, musical drama.

Jamiyatimizning eng ustuvor vazifalaridan biri bu – o'zida milliy qadriyatlar tushunchasi mujassam bo'lgan, odobli, ma'naviy va jismonan takomillashgan barkamol avlodni voyaga etkazish hisoblanadi. Bu ishlarda yosh avlodni estetik jihatdan tarbiyalash muhim rol o'ynaydi. Estetik tarbiyani kuchaytirish va uning samaradorligini oshirish, uni yanada takomillashtirishda falsafa, estetika fanlari qatorida adabiyot va san'atning barcha turlari munosib hissa qo'shishi kerak. Xususan, teatr, musiqa, rejissura, dramaturgiya, texnogen san'ati, kinematografiya, kinooperatorlik, fotografiya, aktyorlik, jirov-baxshichilik, opera, balet, vokal, estrada, animatsiya, rassomchilik, sahna rassomchilik va hunarmandchilik insonning ma'naviy dunyosini boyitib, rivojlantirib boradi.


Musiqa san'ati boshqa san'at turlarining eng muvakkil bir qismi bo'lib, u insonning his-tuyg'usiga kuchli ta'sir etuvchi va o'z ohangi orqali inson ongiga va ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatuvchi vositadir. Bu jarayon davomiy bo'lib, uning rivojlanishi musiqa badiiy madaniyatining ijobiy an'alarini davom ettirish orqali amalga oshadi. Ayniqsa, san'atni aholiga yaqinlashtirish, real musiqiy obrazlar yordamida odamlarning kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish, muhimi, musiqiy asarlarda milliy xarakter yaratish masalasini aks ettirishda ahamiyatli hisoblanadi. Chunki xarakter yaratilmasa, asarning g'oyasi ochilmaydi. Xarakter yunoncha "charakter"

so'zidan olingan bo'lib, bizningcha "belgi", "xususiyat", "o'ziga xoslik" kabi ma'nolarni bildiradi [1].

Qoraqalpoq xalqi Sharq elatlari orasida o'zining betakror adabiyoti, madaniyati, san'ati bilan ajralib turadi. Shu jumladan, qoraqalpoq musiqa san'ati ham o'zining boy tarixi, rang-barangligi bilan daimo dunyo xalqlarida ulkan qiziqish uyg'otib kelgan. Bugungi kungacha qoraqalpoq musiqa san'ati ustalari tomonidan yaratilgan va shu xalqning o'ziga xos milliy an'alarini, boshqalardan ajratib turadigan milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi asarlar mavjud bo'lib, ular tinglovchi qalbida alohida milliy ruh paydo qiladi.

Nemis olimi Karl Reyxl bir necha yillar davomida turkiyzabon xalqlar orasida bo'lib, turkiy xalqlarning milliy san'ati va madaniyatiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Uning "Turk eposi: an'analari, shakllari, poetik tuzilishi" nomli ko'lamdor monografiyasida qoraqalpoq eposining, jirov-baxshilarining tasnifiga katta o'rin ajratgan [2]. Qoraqalpoq dostonlarining va musiqa san'atining boshqa turkiy xalqlar eposidan farqlanishiga, jirov-baxshilarining ijro mahoratiga, jirov-baxshichilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi tarixiga alohida etibor qaratilgan. Shuningdek, Karl Reyxl monografiyasida qoraqalpoq musiqa san'atida xalqning milliy qadriyatlari va koloriti o'ziga xos ohangi bilan ajralib turishini alohida ta'kidlagan.

Milliy xarakter yaratish masalasi barcha ijod-



korlar qatorida, kompozitorlarning ham asosiy maqsadlarining biri hisoblanadi. Shu bois har bir kompozitor kuy yaratishda o'zi tug'ilib o'sgan yerining go'zalligini, milliy qadriyatlarini, urf-odat va an'analarini, tarixiy eposlarini aks ettirishga harakat qiladi. Shu singari 1975-yillarda qoraqalpoq musiqa san'atiga qadam tashlagan O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi san'at arbobi, Berdaq nomidagi davlat mukofotining laureati, taniqli kompozitor, dirijyor, xormeyster, professor Qurbanbay Zaretdinovning asarlarida ham milliy xarakter va milliy qadriyatlar masalasi asosiy o'rinni egallaydi.

Professor Qurbanbay Zaretdinov 1951-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli tumanida tavallud topgan. Uning yoshligidan boshlab musiqaga qiziqqanligi va maktabda o'qib yurgan paytlarida havaskorlar to'garagiga qatnashib, ashulalar aytganligi bizga ma'lum. 1966–1970-yillarda Nukus davlat musiqa-xoreografiya bilim yurtining xor dirijyorligi yo'nalishida o'qib, Qoraqalpog'iston xalq artisti, xormeyster S.Y.Davletkeldievadan tahsil olgan. 1970–1975-yillarda M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining xor dirijyorligi ixtisosligida o'qigan. Bu erda u xor dirijyorligi fani bo'yicha I.Sharapovadan va opera-simfoniya dirijyorligi fanidan esa, professor Z.V.Xaknazarovdan dirijyorlik sir-asrorlarini o'rgangan.

O'qishni tugatgandan keyin Q.Zaretdinov Nukus davlat san'at bilim yurtida o'qituvchi, so'ngra o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimlarida faoliyat yuritgan. Bundan keyingi yillarda Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat filarmoniya tarkibidagi simfonik orkestr dirijyori, keyinchalik bosh dirijyor lavozimida ishlagan. Xor dirijyorligi kasbiga bo'lgan ixlosi va yuragida olovlanib turgan iste'dod Q.Zaretdinovni malakasini yanada oshirishga undaydi. U 1985-1986-yillarda Leningradning akademik kichik opera va balet teatrida dirijyor-stajyor sifatida teatrlarning bosh dirijyori V.Kojinning va taniqli kompozitor B.I.Tishenkoning rahbarligida orkestr bilan ishlashning mashaqqatli yo'llarini chuqur o'rganadi.

Qurbanbay Zaretdinov musiqa yaratish yo'lini 1975-yildan boshlagan. U avval vokal asarlaridan hazil-mutoyiba "Dayi qiz", "Sevganimdan jononim", "Sening ko'zlaring", "Onajon", "Bu dunyo ajib dunyo", "To'maris" va hokazo qo'shiqlarning musiqasini yaratdi. Bu asarlar o'zining milliyligi, kuyining lirikligi, oddiyligi va ularning uyg'un rivojlanishi bilan ajralib turadi. Ustoz san'atkor ijodida xor asarlar asosiy o'rinni egallaydi. Uning xorlarida bir ovozdan ikki, uch, to'rt ovozga o'tish, ularni uyg'un va polifonik uslublar bilan rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.


Kompozitor o'zining qariyb 50 yillik ijodi davomida har xil mazmundagi qo'shiqlar, xalq kuylari, orkestr uchun turli ko'lamdagi asarlar, musiqiy drama, bolalar uchun xor, kino uchun musiqalar,




opera, balet janridagi asarlar yaratdi. Uning "Salom, ona tuprog'im", "Bulbul", "Umri zoye yulduz", "Muqaddas ayol", "Yosh ber", "Sening ko'zlaring", "Ona yer, ona", "Vatan menga, men Vatanga kerakman!" va shu kabi ajoyib qo'shiqlarga yozgan kuy-lari inson ruhiyatiga ajib hissiyot, o'zgacha quvvat, ichki xotirjamlik va ma'naviy zavq bag'ishlaydi.

Q.Zaretdinovning har bir asarida qoraqalpoq xalqiga xos bo'lgan milliy koloritni: uning bag'rikengligi, vatanfarvarligi, jasurligi, mehmondo'stligi, bir so'zligi, og'ir-bosiqqligi, qaysarligi, nozik didligi va hazilkashlik xarakterini tasvirlaydi. Masalan, uning O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri I.Yusupov qalamiga mansub "Bulbul" she'riga yozgan kuyi ham juda jozibador. Unda vatanni sevis, uni ko'z qorachig'idek asrash kabi his-tuyg'ular notalarning bir-biri bilan qorishishi orqali yaratilgan ajoyib kuy ohanglarida tasvirlanadi. Shuningdek, uning simfonik orkestr uchun qayta ishlagan "Qora jo'rg'a" nomli xalq kuyida o'zgacha milliy xarakter va xalqning milliy qadriyat-lari ochib berilganligini ko'ramiz. Dastlab Aqimbet baxshi tomonidan yaratilgan bu kuyning qayta ishlangan shaklida ham har xil musiqiy chalish uslublarini qo'llash orqali yo'rg'aning yurishi aniq va to'laqonli tasvirlangan.

Kuyning kirish qismini eshitganimizda, yo'rg'aning poyga boshlanishini sabrsizlik bilan kutib,





kuchiga sig'may olg'a intilib, har tomonga tashlanib, suvlig'ini chaynab turgani xayolimizda aks etadi. Poygani boshlashga ishora berishdan yo'rg'a chavandozning jilovni silkitib "shuv" deganini eshitib suvlig'ini tishlab, quloqlarini bo'yniga siqib, yurishni boshlaganini tasavvur qilamiz. Yo'rg'a chavandozning elkari qimirlamasdan chap qo'li bilan jilovni ushlab, o'ng qo'li bilan esa qamchini otning yonboshi qoshida ushlab chap elkasini sal oldiroq tutib ot bilan tutashib ketgandek bo'lib ot choptirishini, chavandozlarning "suv qo'ysa chayqalmasdek", bir tekis chiziqdek bo'lib borayotganini tasavvur qilamiz. Tomoshabinlarga yaqinlashganda tuyuqlarning ovozi eshitilib, ularning tuproqni ortga sochib, kamonning o'qidek bo'lib o'tganini xayolimizga keltiramiz. Yo'rg'a tomoshabinlardan asta-sekin uzoqlashib, chang-g'ubor orasida bir nuqtaga aylanib, ko'zdan g'oyib bo'lgani kuyning yakuniy qismida ko'zoldimizga keladi.

Kompozitor Q.Zaretdinovning qayta ishlagan bu kuyida har xil musiqiy ijro qilish usullarini qo'llash orqali yo'rg'aning yurishi aniq va to'laqonli tasvirlangan. Shu bilan birga, qoraqalpoq xalqining ot-sayislik (otboqarlik) xususiyatlari va chavandozlik mahoratlari ochib berilgan. Bu kuy qoraqalpoq xalqining milliy cholg'u kuylari ichida katta o'rinni egallaydi.

Kompozitorning "To'maris" va "Xalq uchun" operalarida xalqning milliy qadriyatlari, tarixiy-madaniy turmushi, urf-odatlar va tarixiy shaxs obrazlari chuqur aks ettiriladi. Mazkur operalar bugungi teatr tomoshabinini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bu haqida olim Q.Kamalov "Karvonboshi" nomli asarida "To'maris" poemasi hozirgi davr odamlarining farovonlik sari intilish va vatanparvarlikka sadoqatlilik tu'yg'usini tarbiyalaydi", – deb baho beradi [3]. Zero, "To'maris" va "Xalq uchun" operalarida xalq qahramonlarining obrazi, tarixiy voqealar, tarixiy shaxslarning vatanparvarlik xarakteri mohirlik bilan ochib berilgan. Jumladan, Q.Zaretdinovning I.Yusupov librettosi asosida yozilgan "To'maris" deb nomlangan 5ta bo'lim, 4ta kartinadan iborat tarixiy operasida Turon xalqlarining ahamoniylar bosqiniga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan jasur sarkarda, massagetlar malikasi To'maris va forslar hukmdori Kir II bilan olib borilgan jang tasvirlanadi.

Kompozitor I.Yusupov librettosiga "To'maris" operasini yaratishda nafaqat shoirning poemasi va undagi voqealarni, balki To'maris yashagan davr haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishi uchun Gerodot, Strobon va boshqalarning tarixiy-ilmiy asarlarini, "To'maris" haqidagi xalq og'zaki ijodini ham chuqur o'rgangan va o'sha davr koloritini musiqiy sadolar asosida gavdalanitirib bergan.

Uverturada, ya'ni opera boshlanishida orkestr tomoshabinni operadagi voqealarga tayyorlash va ularning tasavvurida urush muhitini shakllanti-

rish maqsadida jang tafsilotlarini beradigan musiqa yahgraydi. Uverturada kompozitor operaning xarakterini, g'oyaviy maqsadini, tarixiy voqelikni va asosiy qahramonlar obrazlarini umumlashtirgan holda mohirona ifodalagan. Xususan, orkestr tomonidan kontrabas, litavra asboblari sadosi bilan keng ochiq maydonda Spargapis boshchiligidagi Kir askarlariga qarshi saf tortib turgan otliq qo'shin tasavvurimizda gavdalanadi. Urush boshlanishi oldidan tom ma'nodagi sukunat, temir sovutlarga burkangan otliq askarlarning unsiz va g'azab bilan dushmanga qaratilgan nigohi, dahshatli jangga o'zlarini ma'nan tayyorlash jarayonlari, ba'zi otlarning boshlarini u yoqdan, bu yoqqa siltab, sekin tuyuqlarini ko'tarib tashlab, oldinga urinib turishlarini ko'z oldimizga keltiramiz.

So'ng litavraning kuchli zarblari eshitaladi. Bu esa qo'shinning jang maydoniga kirishga buyruq berilganidan darak beradi. Litavraning zarblariga damli asboblari jo'rligida birlashadi va orkestr tarkibidagi barcha cholg'u asboblari o'z yo'nalishida garmoniyaning ketma-ketligida jo'r bo'lib, otliq askarlarning jang maydoniga shiddat bilan yopirilib kirayotganligini bildiradi. Orkestr ohangi jarangdorligida yog'ochdan yasalgan sun'iy tuyuqchalar asbobi yordamida otlar tuyuqlarining gumburlagan ovozlari eshutilib turadi. Bu ovozlari borgan sari tezlashadi.

Kompozitor To'maris o'g'li Spargapis boshchiligidagi massagetlar va fors qo'shinlari o'rtasida bo'lib o'tgan dahshatli jang tafsilotlarini ham musiqa sadosi bilan to'la tasvirlab bera olgan. Masalan, orkestr cholg'u asboblari orqali birinchi jangda Kir II qo'shinining chekinishi, ularning izidan massaget askarlarining quvib borishi va jang tugashidan keyingi askarlarning tiniqishlari, jarohat olganlarga ko'rsatilayotgan yordam, vafot etganlarni jang maydonidan olib chiqish, tutqinga tushgan dushman askarlarini asirga olish singari jarayonlari hamda ikkinchi jangga tayyorgarlik, Spargapis va uning askarlaridagi ruhiy ko'tarinkilik holatlari gavdalanadi. Massagetlar birinchi jangda g'olib chiqqandan keyin biroz dam olib, Spargapis boshchiligidagi maslahatlashib, iziga chekingan Kir qo'shinga qarshi ikkinchi jangga o'tlanadi.

Kompozitor ikkinchi jangga o'tlanishni tasvirlashda yana litavra, barabanning kuchli zarblari va tarelkaning "ching" etgan ovozi orqali beradi. Bunga orkestr tarkibidagi barcha cholg'u asboblari o'z yo'nalishidagi ijrosi qo'shiladi va Spargapis rahbarligidagi massaget qo'shinining saf tortib, Kir II qarorgohi tomon borayotganligiga ishora qiladi.

Sahna pardasi asta-sekin ko'tariladi. Orkestrdagi cholg'u asboblarning ovozi pasayib, sukunat yuzaga keladi va fleyta, klarnet, goboy, trombon, tuba kabi damli cholg'ular nolasi asta-sekin eshitaladi. Unga ba'zi-ba'zida litavra jo'rligida keyingi sahna ko'rinishini ishora qiladi. Sahnada qizilqum



dalasida chopayotgan kiyiklar to'dasi tasvirlangan kartina namoyon bo'ladi. Orkestr tarkibidagi barcha cholg'u asboblari o'z yo'nalishidagi ijrosi bilan kartina ko'tarilib, sahnada Kirning qarorgohi namoyon bo'ladi. Qarorgohda noz-ne'matlarga to'la xontax-talar va xizmat ko'rsatib yurgan kanizaklar bilan Kirning kam sonli askarlari ko'rinish beradi. Shu payt orkestr cholg'u asboblarning baland ritmi ostida Sprangiz boshchiligidagi massaget askarlari kirib keladi va jang boshlanadi.

Sahnadagi jang tafsilotlarini ifodalashda rembrandtcha yoritish usulidan mohirlik bilan foydalanilgan. Musiqa ritmi bilan hamohang tarzda ko'k va qizil ranglar sahnaning muayyan joylarida o'ynoqi yorug'lik orqali yoritilgan. Rang kontrasti jang sahnasini yanada jonlantirgan. Ranglar kuchi ta'sirida jang dahshatli tus olgan. "Rang nafaqat chiroyli va rang-barang ko'rinishni, asarning g'oyasini ochib berishda, uning ruhiyatini yaratishda, zamon va makonni anglashda, qahramonning ishki his-tuyg'ularini ochib berishda" ham qo'llaniladi [4]. Musiqa sadosi bilan hamohang tarzda ko'k va qizil ranglar sahna jangining shiddatligini oshirib, tomoshabinning ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Kirning askarlari oldindan tuzilgan rejasiga muvofiq qarorgohni tashlab qochadi. Sprangiz yana g'olib chiqdim, deb o'ylaydi. Fors podshohi lashkarlari hiylakorlik qilib chekinganidan bexabar massaget askarlari dasturxondagi maylarni ichib, zaharlangan taomlarni iste'mol qila boshlaydi. Askarlar vokal ansambli tomonidan dasturxondagi taomlarni iste'mol qilish, dam olish mazmunidagi qo'shiq va xor jo'shqin musiqada ijro etiladi.

Operada To'marisning o'g'li Spargapis obrazi alohida ahamiyatga ega. Spargapis rolini O'zbekiston xalq artisti A.Qaliev tenor ovozda ijro qilgan. Operada artist Spargapisning qat'iyatli, dadil, mard, jusur va xalqchil siymosini mohirlik bilan yoritgan. Masalan, massaget askarlarini hiyla yo'li bilan sarxush etib asir olganida Spargapisning:

Bo'shating mening qo'llarimni,

Erkin o'zimga kelayin, – deb Persiya podshohi oldida dovdirab qolmasdan mardona turib aytgan rechitativida uning ovozi bilan qattiq harakatlari bir-biriga juda mos va ishonarli chiqqan. Shuningdek, Spargapisning:

***Kechir ona, kechir ona,
Bo'l mardona,
Yoyilmasin qora soching,
Miya xatosini qo'l tuzatar,
Bosh jazosini bo'yin tortar,
Kechir ona, kechir ona,***

Bo'l mardona, – deya aytgan ariyasi ham juda ta'sirchan chiqqan. Aktyorning harakatlari va yuz tuzilishidagi g'azab to'la mimikalari orkestrning mungli musiqasi bilan uzviy bog'lanib, tomoshabinni ham beixtiyor qayg'uga cho'ktiradi. Operadagi Spargapisning qahramonlik obrazi tarixiy realizm, orkestr musiqasi, librettodagi badiiy syujet va aktyor mahorati sintezi natijasida ochib berilgan.

Operada To'maris obrazini O'zbekiston xalq artisti M.Sapayeva ijro etgan. Operada insonning eng oliy fazilatlaridan biri bo'lgan – vatanga sadoqat, tug'ilib o'sgan tuproqni e'zozlash, mardlik, jasurlik va xalqchilik xususiyatlari To'maris obrazi orqali beriladi. Masalan, operaning uchinchi kartinasida To'marisning:

***Kindik qonim tomgan dalam,
Ona yurtning tuprog'i,
Bevafolik etsam sanga,
Ko'zimni qush cho'qigani,*** – degan ariyasida


yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Q.Zaretdinovning "To'maris" operasida milliy qadriyatlarni, tarixiy-madaniy meroslarni sahnada ifodalashga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, operaning ikkinchi kartinasi O'zbekiston, Qoraqalpog'iston va Qozog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist R.Qutekeevaning koloratura soprano ovoqidagi qayg'uli vokalizm bilan boshlanadi. Sahnada Shilpiq qo'rg'oni keng ko'lamda ko'rsatiladi. Qo'rg'ondan pastdagi tepalikda qora lifas kiygan To'maris va undanda pastda massaget askarlari, xalq, o'rtada esa Spargapisning o'lik tanasi solingan tobut namoyon bo'ladi. Asardagi ushbu voqelikning Shilpiq qo'rg'oni atrofida berilishi, o'z navbatida tarixiy davr muhitini yaratishga va tomoshabinga ta'sir etish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Umumlashtirib aytganda, kompozitor Q.Zaretdinovning ijodida voqelikni mohirona tasvirlash, orkestr cholg'u asboblariidan samarali foydalanish orqali qoraqalpoq xalqining milliy xarakterini, milliy qadriyatlarini va o'ziga xos bo'lgan ma'naviyatini ifodalash asosiy o'rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Энциклопедический словарь. – М.: «Энциклопедия», 1990 г. 1455 с.
2. Райхл Карл. Тюреский эпос: традиции, формы, поэтическая структура. // Карл Райхл; пер. с англ. В.Трейстер под. Д.А.Функа – М.: «Восточная литература», 2008 г. 383 с.
3. Kamalov Q. Kárwán bası. – Nókis: "Qaraqalpaqstan". 1983-y. 82-b.
4. Tajimuradov M. Vizual asarlarda rang. // Art and Design: Social Science, Volume 04, Issue 05, 2024-y. 24-25-b.





BOTINIY VA ZOHIRIY LATOFAT SOHIBASI (professor Adiba Nosirovaning yorqin xotirasiga bag'ishlanadi)

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada professor Adiba Nosirovaning ilmiy va pedagogik faoliyati, insoniy fazilatları haqida so'z ketadi.

KALIT SO'ZLAR: xotirlash, gavda holati, mushaklar, qayta aloqa sistemasi, o'tkazuvchi, fizika, ruhiy holat.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассказывается о научно-педагогической деятельности и человеческих качествах профессора Адобы Носировой.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: память, поза, мышцы, система обратной связи, передатчик, физика, психическое состояние.

ANNOTATION. This article tells about the scientific and pedagogical activities and human qualities of Professor Adiba Nosirova.

KEY WORDS: memory, posture, muscles, feedback system, transmitter, physics, mental state.

Har bir inson tabiatan o'ziga xos bir go'zallik bilan dunyoga keladi. Yillar o'tgan sayin insonning ong-shuuri kengayib borar ekan, ichki olami yanada go'zallashib boraveradi. Ana shu ichki go'zallik, albatta, uning zohirida joziba, latofat kabi sifatlarda aks etib turadi. Tabiatning bu sirini aldayolmaysan. Ichki olam xunukligini hech qanday bezak bilan yashirib bo'lmaydi. Shundan bo'lsa kerak, ba'zan chiroyli insonni ko'rsan-u, uning qarashlarida joziba topolmaysan. Ba'zan esa nisbatan ko'rimsizroq insonga ko'zing tushib, undan joziba tuyasan. Yana bir toifa insonlarda ham ichki, ham tashqi go'zallik, joziba butun bo'y-basti bilan barq urib turadi. Men bu fikrlar bilan birovni chiroyli yoki boshqa birovni ko'rimsiz, deya kamsitishdan yiroqman. Hayotda shunday insonlar bo'ladiki, ular bilan uchrashganingda nafaqat tashqi go'zallik, shuning barobarida ichki olam musaffoligi, jozibasini his qilib mahliyo qolasan. Bir donishmand: *"Ko'p kitob mutolaa qil, ichki olaming beg'ubor bo'ladi"*, – degan ekan. Bu taassurot, balki shundandir.

Ajoyib inson, mohir pedagog, ko'plab yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatgan ustoz, professor Adiba Nosirova mening xotiramda ana shunday – botiniy va zohiriy go'zallik sohibasi bo'lib muhrlangan. Men mehnat faoliyatim davomida Adiba opa bilan kam uchrashganman, kam suhbatlashganman. Uni bilgan insonlar xotirasida Adiba Nosirova nafaqat tashqi olami, shuning barobarida ichki madaniyati, sofdilligi, keng dunyoqarashi bilan iliq taassurot qoldirgan edi. Men bu olimani insonning ichki kechinmalarini teran his qila oluvchi, zukko, mehribon va dilbar ayol sifatida, so'z ma'nisini darrov sezuvchan, suxanpardoqlik sirlarini teran

anglaguvchi ustoz sifatida xotirayman. Ancha yillar avval, institutimizning "Sahna nutqi" kafedrası tomonidan pedagogik seminar o'tkazildi. Ushbu seminarida men ma'ruzachi sifatida ishtirok etdim. Zalda o'tirganlarga o'zim ijro etgan she'rlardan birini amaliy namuna sifatida qayta ijro qilib berdim. Kafedra professor-o'qituvchilari safida ustoz, professor Adiba Nosirova, mehmonlardan O'zbekiston xalq artisti To'ti Yusupova ham bor edi. Ularga ko'zim tushdi-yu, yuragim hapriqdi, "qanday qabul qilishar ekan", deb. Bir payt e'tibor bersam, Adiba opa yuz-ko'zlarida mayin tabassum bilan ijroni tinglayapti. Bu xayrixohlikni his qildim-u, dadillashdim. Chunki u insonning ko'zlaridan menga dalda bo'layotgani sezilib turardi. Seminar tugagach, ustoz oldimga kelib: *"Rahmat, biz siz bilan hali so'z ustida ishlash sirlari haqida ko'p suhbatlashamiz"*, – dedi mehribonlik bilan. Biroz o'sha onda ustoz bilan kasb sir-asrorlaridan fikr almashdik.

Oradan birmuncha vaqt o'tib, men olimaning "San'at mening taqdirimda" nomli kitobiga yana qayta murojaat etdim. Iqror bo'ldimki, kitobda haqiqiy ijodkorni tarbiyalashda boshqa ko'pchilik ustozlar befar qaraydigan jihatlarga jiddiy e'tibor berilgan ekan. Adiba Nosirova shunday yozadi: *"Inson birorta psixofizik faoliyatni bajarayotganida yoki gapirayotganida yaxlit holatini ifoda qiladi. Bu dalil odamlar tomonidan isbotlangan. Masalan, odam otish paytida faqat ko'zi bilan emas, balki tovon bilan ham nishonga oladi. Ya'ni, uning butun mushaklari harakatni bajarishga, nishonni urishga jamlangan, safarbar qilingan. Buning sababi, har qanday fizik harakat insonning faoliyati, gavda qimlari yoki mushaklar harakatisiz ro'yobga*



chiqmaydi. Shu bilan birga, odam organizmiga xos katta muvofiqlashish namoyon bo'ladi".¹

Bu kabi holat haqida tushunchaga ega bo'lish va uni amalda qo'llash nafaqat aktyorga va badiiy ijrochiga, shuning barobarida, rejissyorga ham ham birdek zarur. Zero, K.S.Stanislavskiy aytganidek: "Ijod, birinchi navbatda, barcha ko'ngil va fizik jarayonlarning jamlanganidir. U faqat ko'rish va eshitishgina emas, balki barcha besh his-tuyg'uni qamrab oladi. Bundan tashqari, gavdani ham, fikrni ham, aqlni ham, ifodani ham, his-tuyg'ularni ham, tasavvurni ham qamrab oladi".²

Olimaning yozishicha: "Odam gavdasi nuqtayi nazaridan yondashish rolni faqat aql bilan emas, balki barcha sezish a'zolari bilan tahlil qilishga olib keladi. Bunda qayta aloqa sistemasi ishlaydi, bu esa to'g'ri tashkil qilingan fizik hayot, holat, imo-ishoralar, mizansahnalar aktyorning ichki hayotini jonlantirishiga imkon beradi. Fizik harakatlar "o'tkazuvchi" bo'lib, ijrochini rolga o'xshash holatga o'tkazadi. Aktyor shunday yaratilganki, tashqi ko'rinishini yetkaza turib o'z ichidan ruhlanadi".³ Biz ko'p hollarda, ayniqsa, aktyorlik maktabi sirlarini egallashning ilk bosqichlaridan biri bo'lmish etyudlar ustida ishlash jarayonida talabalarga "berilgan shart-sharoit"da to'g'ri xatti-harakatni amalga oshirish uchun unga fizik, jismoniy harakatlar orqali yondashish kerakligini aytamiz. Lekin bu jarayonning mohiyati nimalardan iborat ekanligini, qanday kechishini tushuntirmaymiz. Adiba ustoz ana shu murakkab jarayonni ilmiy-amaliy jihatdan chuqur tahlil qilib bergan. Bu tahlil bo'lajak aktyor va badiiy ijrochining to'g'ri shakllanishida juda muhim rol o'ynaydi.

Bunday holatni, ya'ni "qayta aloqa sistemasi" va "o'tkazuvchi" fizik harakatlarni men ham qanchalik yaxshi yoki yomondir, radio va televideniya badiiy asarlar ijrosi jarayonida o'zimda his qilganman. Mikrofon oldida o'tirgan bo'lsam-da, gavdamning plastikasi, mushaklarim harakati holatga, tasvirlanayotgan voqeaga qarab o'zgarib borishini ko'p kuzatganman. Har safar "San'at mening taqdirimda" kitobiga ko'zim tushsa, yuqorida esga olgan uchrashuv ko'zoldimda gavdalanaveradi. Chunki ustoz Adiba Nosirovaning zohirida botiniy go'zallik ufurib turardi. Ustoz ana shunday – botiniy va zohiriy latofat sohibasi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfiddinov. A.S. Adabiy asar va ijrochilik mahorati. – T.: "Fan", 1980.
2. Inomxo'jev S. Badiiy o'qish asoslari. – T.: "O'qituvchi", 1973.
3. Nosirova A. San'at mening taqdirimda. – T.: "Akademnashr", 2019.
4. Usnatov Rashid. Teatr san'ati turlari. – Interpretation and researches, 2 (21). 2024.
5. Xushvaqto'v E. O'zbek milliy sahna nutqi taraqqiyotida ustoz Nazira Aliyeva fenomeni. – Oriental Art and Culture, 5 (5). 2024.

¹ Nosirova A. San'at mening taqdirimda. – T.: "Akademnashr", 2019-y. 180-b.

² Станиславский К.С. Работа актёра над собой (часть-2). – Москва: «Искусство», 1954 г. 302 с.

³ Nosirova A. San'at mening taqdirimda. – T.: "Akademnashr", 2019-y. 181-b.



Nasiba TURG'UNOVA,
O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası dotsenti,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BETAKROR OVOZ SOHIBI

ANNOTATSIYA. Namangan eliga doston bo'lgan betakror ovoz sohibi, o'z davrining mashhur hofizlaridan biri Hasan Sultonov edi. U ijodiy faoliyati davomida Doni Zokirov badiiy rahbarligidagi "O'zbek xalq cholg'ulari orkestri"da, Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatrida, Namangan viloyati Alisher Navoiy nomidagi davlat musiqali drama va komediya teatrida samarali ijod qildi.

KALIT SO'ZLAR: an'ana, maqom, xonanda, hofiz, musiqali drama, murabbiy.

АННОТАЦИЯ. Хасан Султанов был одним из известных хафизов своего времени, обладателем уникального голоса, легендой народа Намангана. За свою творческую деятельность он эффективно выступал в "Оркестре узбекских народных инструментов" под художественным руководством Дони Зокирова, в республиканском узбекском театре музыкальной драмы и комедии имени Муқими, а также в государственном музыкальном театре драмы и комедии имени А.Навои Наманганской области.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: традиция, маком, певец, хафиз, музыкальная драма, преподаватель.

ANNOTATION. Khasan Sultanov was one of the famous hafiz of his time, the owner of a unique voice, a legend of the people of Namangan. During his creative activity, he effectively performed in the "Orchestra of uzbek folk Instruments" under the artistic direction of D.Zokirov, in the Republican uzbek theater of musical drama and comedy named after Muqimiy, as well as in the State musical theater of drama and comedy named after A.Navoiy of the Namangan region.

KEY WORDS: tradition, makom, singer, hafiz, musical drama, teacher.

Sohir ovoz sohibi Hasan Sultonov Namangan viloyatining Xonobod qishlog'ida 1932-yil, dehqon oilasida dunyoga keldi. U bolalik paytlaridayoq san'atga, qo'shiq kuylashga qiziqib ulg'aydi. Maktabda o'tkaziladigan turli bayram va tadbirlarda faol ishtirok etardi. Yosh Hasan 1947-yil Namanganda o'tkazilgan tadbirlardan birida "Halol non istasang" va "Paxtakorlar" ashulasini kuylagach, Usmon Yusupovning taklifi bilan Toshkent viloyati Yangiyo'l shahar teatrida ustoz hofizlardan ta'lim olishga yuboriladi. Bu dargohda To'xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, Muxtorjon Murtazoyev, Zokir Sultonov, Lutfixonim Sarimsoqova, Farog'at Rahmatova, Sattor Yarashov, Abdulla Oxunov, Jo'raxon Sultonov, Ortixo'ja Imomxo'jayev, Ergash Yo'ldoshev, Sunnat Samatov kabi ustoz san'atkorlardan ovoz ishlatish usulublarini puxta o'rganadi. Shu bilan birga atoqli rejissyor Yetim Bobojonovdan ham ta'lim oladi.

1957-yilda betakror ovozi bilan xalq tiliga tushgan navqiron xonanda Hasan Sultonov Moskvada o'tkazilgan VI "Jahon yoshlari" festivalida ishtirok etishga sazovor bo'ladi. Ushbu festivalda u "Oltin medal" sohibi, deya e'tirof etiladi. Festival yakunida O'zbekistondan kelgan delegatsiya katta teatrdagi konsert dasturini tomoshabinlarga havola etadi.

Konsertda namoyish etilgan "Andijon polkasi", Xorazm Lazgisi, "Namangan olmasi" va boshqa chiqishlar tomoshabinlarga manzur bo'ladi. Navbat Hasan Sultonovga berilganda, u likobchani og'ziga tutib, "Katta ashula"ni baralla boshlaydi. Hofizning ashulasidan so'ng tomoshabinlarning davomli gulduros qarsaklari ijod mahsuliga yuksak e'tirof bo'ldi.

Hasan Sultonov 1959-yilda Moskvada o'tgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasi (VDNX) mashhur san'atkorlar qatorida ishtirok etadi. Uning ijrosida yangragan mumtoz ashulalar, xalq ijodiga oid aytimlar dekada ijro dasturiga fayz-tarovat baxsh etadi. Dekada ishtirokchilari qatorida H.Sultonov ham Oliy kengash Rayosatining "Faxriy yorlig'i" bilan taqdirlanadi [4.].

1962-yil H.Sultonov O'zbekiston televideniyesi va radiosi qoshida tashkil etilgan Doni Zokirov badiiy rahbarligidagi "O'zbek xalq cholg'ulari orkestri"ga xonanda sifatida jalb etiladi. An'anaviy hofizlik sir-asrorlaridan boxabar bo'lgan san'atkor Toshkent davlat konservatoriyasining vokal yo'nalishida tahsil olishga qaror qiladi. Orkestrda Doni Zokirov, konservatoriyada esa Aziza Saidxo'jayevaning yordami bilan akademik xonandalikning o'ziga xos ovoz ishlatish yo'llarini, sir-asrorlarini puxta o'zlashtiradi. Natijada u ham



an'anaviy, ham zamonaviy asarlarni mohirona kuylash darajasiga erishadi. Jumladan, *"Dugoh husayniy"*, *"Ushshoq"*, *"Nasri Uzzol"*, *"Nasri Bayot"*, *"Bayot I"*, *"Qalandar"* kabi maqomlarni zo'r mahorat bilan kuylaydi. Kompozitor va bastakorlar esa alohida uning ovoz tembriga mos bir qator asarlar yozishadi. Xususan, Doni Zokirovning *"Vatan madhi"*, *"Ko'rmadim"*, *"Qo'riqdagi bog'imga boq"* romanslari, S.Yudakovning *"Fig'onkim"* ariyasi, Faxriddin Sodiqovning *"Qorabayir"*, Saidjon Kalonovning

"Keldim", *"Ketmang"*, Nabijon Hasanovning *"Do'stlar"*, *"Assalom, yulduzlar"*, Muhammadjon Mirzayev qayta ishlagan *"Yor istab"*, *"Mustahzod"* singari ashulalar shular jumlasidandir.

Har ikki jabhada yetuklikka erishgan H.Sultonov Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali drama teatrida mehnat faoliyatini davom ettiradi. Xususan, *"Muqimiy"* (S.Abdulla, T.Jalilov va G.Mushel; 1953), *"Ravshan va Zulxumor"* (K.Yashin, T.Jalilov va G.Mushel; 1957), *"Vatan ishq"* (Sobir Boboyev, Sh.Sa'dullayeva va Z.Fatxullin; 1958) kabi musiqali dramalarda o'ziga xos obrazlar yaratishga muvassar bo'ldi. 1973-yilga qadar bu dargohda faoliyat ko'rsatib, saksondan ortiq asarlarni O'zbekiston radiosining *"Oltin fond"*ga yozib qoldirdi.

Bugungi kunda H.Sultonov ijrosida – *"Nasri Uzzol"*, *"Nasri Bayot"*, *"Dugoh"*, *"Segoh"*, *"Bayot 1"*, *"Ushshoq"*, *"Dugohi Husayniy"*, *"Abdurahmonbegi"*, *"Qalandar"*, *"Katta ashula"*, *"Go'ro'gli"* dostonidan *"Nasihat"*, *"Mustahzod"*, *"Yor istab"*, *"Ey, sabo"*, *"Soyai"*, *"Keldim"*, *"Bormikan"*, *"Fig'onkim"*, *"Ey, sarviqomat"*, *"Dilrabosan"*, *"Gulistonim, mening"*, *"Qorabayir"*, *"Qo'riqdagi bog'imga boq"*, *"Ey, dilbari janonim"*, *"Ko'zlaring"*, *"Istasang"*, *"Sayding qo'yaber, sayyod"*, *"Assalom, yulduzlar!"*, *"Vatan madhi"*, *"Dilrabosan"*, *"Do'stlar"*, *"Yor jamoli"*, *"Yor demading"*, *"Istasang"*, *"Ketmang"*, *"Ko'zlaring"*, *"Muborak"*, *"Paxtakorlar"*, *"Sensiz"*, *"Halol non istasang"*, *"Yur, sayrga chiqaylik"*, *"Yaxshi jononlar aro"* kabi ko'plab mumtoz va zamonaviy ashulalar O'zbekiston radiosining oltin fondiga muhrlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iskandarova A. "San'at va san'atkorlar". "O'zbekiston madaniyati" gazetasi, 1971-yil, 4-iyun.
2. Abduvaliyev A. "Qo'shiq yurakdan chiqadi". "Namangan haqiqati" gazetasi, 1987-yil, 10-noyabr.
3. Azizov A. "Qo'shiqqa baxshida qalb". "Namangan haqiqati" gazetasi, 1995-yil, 11-fevral.
4. Akmalov M. "Hasan hofiz xonishlari". "Namangan haqiqati" gazetasi, 2005-yil, 7-may.

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi



Nashrga tayyorlovchi:
Ozoda Shobilolova

Sahifalovchi-dizayner:
Abdug'ani Sodiqov

Bosishga ruxsat etildi: 20.04.2025-yil
Ofset bosma usulda bosildi.
“Arial” garniturası. Bichimi 60×841/8.
Shartli bosma tabog'i 12,25.
Buyurtma raqami №. Adadi: 100 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13

